

International scientific journal

MODERN SCIENCE AND RESEARCH

2023

ISSN: 2181-3906

Modernscience.uz

- **Exact Sciences**
- **Natural Sciences**
- **Medical Sciences**
- **Technical Science**
- **Pedagogical Sciences**
- **Social and Humanitarian Sciences**

www.modernscience.uz

«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

VOLUME 2/ ISSUE 7

JULY

The journal publishes the results of research conducted by professors and teachers and independent researchers of the Republic of Uzbekistan and international higher education institutions in the form of scientific articles.



TOSHKENT-2023

«MODERN SCIENCE
AND RESEARCH»

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

**XALQARO ILMIY
JURNAL**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ
НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ**

**INTERNATIONAL
SCIENTIFIC JOURNAL**

**BOSH MUHARRIR:
G'.T.Boymurodov**

**MAS'UL MUHARRIR:
S.Ergashova**

**JURNAL BIR OYDA BIR
MARTA NASHR QILINADI.**

**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI
HUZURIDAGI AXBOROT
VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYA
AGENTLIGI**

**TOMONIDAN BERILGAN
№ 042359 RAQAMLI
RUXSATNOMAGA EGA.**

Pardayev Qo'ldosh Uzoqovich

Filologiya fanlari doktori, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Tashkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasida professori v.b.

Hamrayeva Muhayyo Ahmadovna

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Termiz davlat universiteti O'zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti. Turon fanlar akademiyasi faxriy akademigi.

Khamdamov Ulugbek Abduvakhobovich

O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti "XX asr o'zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon" bo'limi mudiri, prof., f.f.d.

Khaydarov Mamat Eshkulovich

Pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Tashkent Davlat pedagogika universiteti "Uzluksiz talim pedagogika va menejment" kafedrasida professori.

Eshmuminov Askar Allamurodovich

Filologiya fanlari doktori, dotsent. Termiz davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida mudiri.

Khodjaev Begzod Khudoyberdievich

Pedagogika fanlari doktori, professor. Tashkent davlat pedagogika universiteti "Umumiy pedagogika" kafedrasida mudiri.

Yo'ldashov Murodjon Ravshanovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti futbol nazariyasi va uslubiyati kafedrasida o'qituvchisi.

Artikov Askar Akbarovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "Futbol nazariyasi va metodikasi" kafedrasida dotsenti.

ISSN: 2181-3906

*Jurnaldan maqola ko'chirib
bosilganda manba
ko'rsatilishi shart.*

Jurnal rasmiy sayti:

www.modernscience.uz

Botirov Mirzokhid Ismonkhojayevich


Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Abidov Shavkat Usmanovich

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Hamrokulov Mahmud Gofurjonovich

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti sifat menejmenti va
mahsulotlar xavfsizligi kafedrasi dotsenti*



**@MODERNSCIEN
CE RESEARCH**

«Modern Science and Research» international scientific journal, 2023. 519 pages.

© Modern Science and Research, 2023

© Authors, 2023

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RIYATIDA RANG QO'LLANILISHINING G'OYAVIY-BADIY XUSUSIYATLARI

Nasiba Kurbanbayeva

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8105543>

Annotatsiya. Maqolada Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida rang qo'llanilishining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bugungi kundagi ahamiyati va badiiy qiymati ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar: folklor, simbolizm, rassom, o'zbek mumtoz adabiyotshunosli, falsafiy qarashlar, badiiy sintez masalasi.

IDEOLOGICAL-ARTISTIC FEATURES OF THE USE OF COLOR IN THE POETRY OF HALIMA KHUDOYBERDIYEVA

Abstract. The article reveals the importance and artistic value of the ideological and artistic features of the use of color in the poetry of Halima Khudoyberdiyeva.

Key words: folklore, symbolism, artist, Uzbek classical literary critic, philosophical views, issue of artistic synthesis.

ИДЕЙНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦВЕТА В ПОЭЗИИ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ

Аннотация. В статье раскрывается важность и художественная ценность идейно-художественных особенностей использования цвета в поэзии Халимы Худойбердиевой.

Ключевые слова: фольклор, символизм, художник, узбекский классик литературоведения, философские взгляды, проблема художественного синтеза.

Ma'lumki, ruh o'z fazilatlarini va yaralishiga ko'ra ilohiydir. Shu sababdan ruh inson qalbiga ilohiy nurlarni tuhfa etarkan, shuningdek uni eng oliy tuyg'ular olamiga sayr qildiradi. Shoir ma'naviy olamida ro'y beradigan o'zgarish va yangilanishlar she'rning badiiy qiymatini belgilab beradi. She'rning hissiy quvvatini aniq va tugal belgilab bo'lmaganidek, uning tasvir va ma'no ko'lamini ham bexato ko'rsatish mushkuldir.

Jahonda rangning estetik, psixologik, fizik, biologik xususiyatlarini o'rganish ancha avval boshlangan. Folklorda simbolizm, rang ramzlarining poetik va tasvir vositasi sifatidagi xususiyatlari tadqiq etilgan. Ranglar borasidagi xalq qarashlarining va bu asosda shakllangan ramzlarning she'riyatga ko'chishi har ikkala san'at turining bir-biri bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Shoir o'z kechinmalarini so'z yordamida ifodalasa, rassom ranglar yordamida, musiqachi esa kuy va ohanglar yordamida o'z qalb tug'yonlarini, kechinmalarini akslantiradi. Bir so'z bilan aytganda, bir vazifani bajaruvchi uch san'at turi ilmiy tilda "san'atlararo sintez hodisasi" deya nomlanadi.

Rang mavzusi insoniyat tarixida qadim zamonlardan turli yo'nalish va nuqtai nazarlardan kelib chiqqan holda o'rganib kelingan. Rangning estetik jihatdan nazariy o'rganilishi Yevropada antik davrlarda miflar hamda ilk falsafiy qarashlarda o'z aksini topgan. Jumladan, Aflotunning

“Timey”¹, Aristotelning asarlarida² rangnik estetik masalalariga oid ilk qarashlarni kuzatishimiz mumkin. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib rang tasviriga bag‘ishlangan asarlar yuzaga keldi. S.S.Alekseev, L.N.Mironova, A.Zaysev, A.V.Luizov³ kabi olimlarning rang tabiatiga oid monografiyalari chop etildi.

Badiiy sintez masalasi esa ilmiy jihatdan XVIII asrda o‘rganila boshlandi. Jumladan, Rixard Vagner, Fridrix Shlegel, Fridrix Shiller, Novalis kabi mutafakkirlar asarlarida sintez haqida to‘xtalib, o‘z fikr va mulohazalarni bildirib o‘tganlar.

O‘zbek mumtoz adabiyotshunosligida Y.Is’hoqov Navoiy ijodini o‘rganib, unda rangning qo‘llanilish qonuniyatlari haqidagi qarashlarini o‘zining “Navoiy poetikasi” asarida aks ettirgan. Shuningdek, S.Hasanov “Go‘zallikdagi ranglar olami” asarida Navoiyning “Sabbayi sayyor” dostonidagi rang simvolikasini, I.Haqqulov “Yana qora rang talqini haqida” maqolasida esa mumtoz she‘riyatdagi rang tasvirlar haqidagi fikr-mulohazalarini bildirganlar.

Rang jahonda mavjud barcha predmetlarning belgisini, tusini, go‘zalligini namoyon etish bilan birga, ular bilan bog‘liq o‘y-kechinma, kayfiyat, his-tuyg‘ularni ham ifodalaydi. Shu boisdan ranglarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga e‘tibor qaratilgan. Xalq og‘zaki ijodining boy an‘analari asosida rang yozma adabiyotda obraz, ramzlar va timsollar tizimga yuzaga keltirdi. XII asrlarda turkiy xalqlar adabiyotida rang simvolikasining keng ko‘lamda iste‘molda bo‘lganligini ko‘ramiz. XIV-XV asrlarda Atoiy, Gadoiy, Lutfiy, Sakkokiy ijodida ranglar bilan bog‘liq obrazli tasvirlardan keng foydalanilgan. Bu jarayon Navoiy ijodida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga erishdi. Lirik qahramonning o‘y-xayollari, orzu-istaklari, dunyoqarashi, atrof-muhitga munosabatini ifodalashda, shu bilan birga, psixologik holatini tasvirlashda ranglar simvolikasidan unumli foydalangan. Holatni ranglar orqali tasvirlash uslubi Navoiy ijodining o‘ziga xosligi, ijodkorning o‘ziga xosligini belgilab bergan. “Navoiy ijodi uchun xos bo‘lgan ana shu usulning haqiqiy namunasini biz unga qadar bo‘lgan o‘zbek va fors-tojik lirikasida (to‘g‘rirog‘i, g‘azalchilikda) uchratmaymiz.”⁴

Hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligida Sadulla Quronovning “Zamonaviy o‘zbek adabiyotida sintez muammosi (she‘riyat va rangtasvir san‘atlari misolida)” mavzusidagi dissertatsiyasi va shu asosda 2018-yilda chop etilgan “Egiz san‘atlar (she‘riyat va rangtasvir sinteziga doir)” monografiyasi badiiy sintez muammosini o‘rganishga qaratilgan.

San‘atlarning sintetik munosabatga kirishishi san‘at turini o‘zga bir san‘atning ifodaviy imkoniyatlari bilan boyitadi, shu san‘atning ta’sir ko‘lamini yanada oshiradi.⁵ Shu jumladan, rang inson ruhiy olamiga kuchli ta’sir qiluvchi vosita bo‘lib, u orqali turfa xil kayfiyatni paydo qilish mumkin. Jumladan quvonch, qayg‘u, bezovtalik, xafalik, xotirjamlik, ma’yuslik kabi. Masalan, qizil rang olov, quyosh yoki qon belgisi, jo‘shqinlik ramzi, yashil rang tabiat, o‘simliklar belgisi,

¹ Платон Тимерий/пер. С древнегреч. С.С. Аверинцева//Собр. Соч. В 4-х т.Т.3. – М.:1994.

² Аристотель. О душе / Соч. В 4-х. Т.1. – М.:1975.

³ Алексеев С.С. Цветоведение. – М.: Искусство, 1952. – 148 с.; Миронова Л.Н.

Цветоведение. – Минск: Вишэйшая школа, 1984. – 287с.; Зайцев. А. Наука о цвете и живописьность. – М.: Исс-во, 1986.; Луизов А.В. Цвет и свет. – Л.: энергоатомиздат, 1989. – 256 с.

⁴ Ishoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 124.

⁵ Quronov S. Egiz san‘atlar. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 24.

hayot, tiriklik ramzi, qora rang esa tushkunlik, motam ramzida qo‘llanilib, ma‘lum bir xalqlarning ma‘naviy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotidagi haqiqatlarni aks ettirgan.

Hozirgi o‘zbek she‘riyatida badiiy sintez xususiyatlari A.Oripov, R.Parfi, X.Davron, U.Azim, Faxriyor, H.Xudoyberdiyeva, F.Afro‘z kabi shoirlarning asarlarida yaqqol aks etgan. H.Xudoyberdiyeva ijodida lirik qahramon o‘z hayotini, taqdirini shudgorsiz, yersiz tasavvur qilolmaydigan dehqon, Vatanining bir siqim tuprog‘i uchun jonini fido qiluvchi jangchi hamda millat bolalari haqida qayg‘uradigan, millat haqida qayg‘uradigan jonkuyar ona sifatida gavdalanadi. H.Xudoyberdiyeva she‘rlarida lirik qahramon kayfiyatini, kechinmalarini musavvirova tasvirlaydiki, natijada ko‘z oldimizda psixologik kartina jonlanganday bo‘ladi.

Yuzining bir yoni qora, bir yoni oppoq –
Dunyo quvonch-hasratiga yuragim to‘lib,
Qachon uning yuzlarida qolmaydi deb dog‘
Yashayapman unga girdikapalak bo‘lib.

Yorug‘lik va poklik, nurli kelajakka ishonch tuyg‘usi odatda barcha san‘at turlarida oq rangda berilishi odat tusiga kirgan. Imom Ahmad hadislarida shunday deyiladi: “Rasululloh (s.a.v) musulmonlarga qarata: “O‘zlaringga oq kiyimni ma‘qul ko‘ringlar, ya‘ni oq kiyinglar, chunki u kiyimlarning pokrog‘i va yaxshirog‘idir. O‘liklarni ham oq gazmol bilan kafanlanglar”, - deganlar. Aksincha, umidlarning so‘nishi, tushkunlik kabi ruhiy holatlar esa qora ranglarda ifodalanadi. H.Xudoyberdiyeva kelajakni baxtli va ravon, yorug‘ nurlar og‘ushida ko‘rish umidida yashayotgan, yuzidagi dog‘ning qolmasligini intiqlik bilan kutayotgan lirik qahramon ruhiy kechinmalarini oq va qora ranglarda aks ettirgan. Shu bilan birga, I.S.Turgenevning “Otalar va o‘g‘illar” romanida hamda L.N.Tolstoyning “Ikki gusar” qissasida o‘tmish va kelajak, eski va yangi bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgani kabi ushbu she‘rda ham oq va qora zidlantirilgan.

“Sotib olingan tahluka” she‘rida esa shoira inson hamda ijtimoiy muhit holatini, kayfiyatini, tabiatini tasvirlash maqsadida ranglardan unumli foydalangan. H.Xudoyberdiyevaning aksar asarlarida lirik qahramon o‘zbek dehqoni, paxtakori psixologiyasini poetik ochib berishga xizmat qiladi. Shu ma‘noda dehqon kechinmalari, o‘ylari butun insoniyat taqdiri bilan uyg‘unlashib ketadi. Quyidagi she‘rda ham lirik qahramon yeri uchun itday ishlagan, butun kuch-qudratini bag‘ishlagan o‘zbek ayolining so‘ngsiz mehnatu azobini, gulday umrini yeriga rang kiritish uchun suv bilan o‘tda, erining xizmatida o‘tkazgan va buning natijasida o‘z sog‘lig‘idan ayrilgan dehqon ayol obrazida tasvirlangan.

Endi u har tongni, to‘kib ko‘z yoshlar,
Yerga qarab ko‘m-ko‘k yerdan hijolat.

Rang bilan aloqador ramzlarning insonning e‘tiqodiy qarashlari bilan bog‘liqlikda shakllanishi barchamizga ma‘lum. Chunki inson hali murakkab jarayonlarni anglamay burun oddiy tasavvurlarni ramzlashtirishga uringan. Shu sabab ilk bora inson yorug‘lik va qorong‘ulikni farqlagan. Yorug‘likni oq rangda, qorong‘ulikni qora rangda tasavvur qilgan. Ko‘k rangni esa ilohiy rang sifatida qabul qilib, barcha marhumlar ruhi va jonini o‘zida jamlagan kuch sifatida e‘tiqodiy tasavvurlarda mustahkamlashgan. “Yer” so‘zi esa barchaga rizq, nasiba beruvchi borliqni, zaminni ifodalaydi. Yuqori keltirilgan misralarda “yer” so‘zidan oldin “ko‘m-ko‘k” rang aniqlovchisini keltirish orqali ramziy obraz yaratilgan. Ushbu rangning barcha uchun bir xilda tushunarli ekanligi misrada rangning badiiy obraz yaratishiga imkon bergan. Keyingi misralarda psixologik kartina yanada quyuqlashib boradi.

Sariq, to‘zg‘in gulin yashirib so‘zlar,
Yerining qip-qizil guli tahlika.

Mazkur misralarda ifodalangan mazmunga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak lirik qahramon surati sariq rangda, yerning surati esa qip-qizil gul tarzida chizilgan. Sariq rang xalqimiz ma‘naviy-madaniy merosida ayriliq, bemorlik, hasrat ma‘nolarini ifodalovchi ramz sifatida talqin qilinadi. Qizil rang borasida esa ikki xil qarash mavjud. Birinchisi, qadimiy kosmogonik qarashlar bilan aloqador. Unga ko‘ra qizil rang Mirrix sayyorasining ramzi bo‘lib, u jang homiysi sanalgan. Ikkinchisi esa, folklorshunos Sh.Turdimov ta‘kidlaganidek, issiqlik, qiz (ayol), sevgi, oltin, boylik kabi ma‘nolarni anglatadi.⁶ Demak matndan anglashiladiki, ayol yerga ishlov berish, shudgor qilish jarayonida bor kuch-g‘ayratini sarflab mehnat qiladi va oxir-oqibat xastalikka chalinadi, sarg‘ayadi, bardam eridan hijolat bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, mazkur she‘rda lirik qahramon holati, tuyg‘ulari, ruhiyati ijtimoiy hayotning murakkab muammolari bilan uyg‘unlashib ketgan.

REFERENCES

1. Платон Тимерий/пер. С древнегреч. С.С. Аверинцева//Собр. Соч. В 4-х т.Т.3. – М.:1994.
2. Аристотель. О душе / Соч. В 4-х. Т.1. – М.:1975.
3. Алексеев С.С. Цветоведение. – М.: Искусство, 1952. – 148 с.; Миронова Л.Н. Цветоведение. – Минск: Вишэйшая школа, 1984. – 287с.; Зайцев. А. Наука о цвете и живописность. – М.: Исс-во, 1986.; Луизов А.В. Цвет и свет. – Л.: энергоатомиздат, 1989. – 256 с.
4. Ishoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent: Fan, 1983. – B. 124.
5. Quronov S. Egiz san‘atlar. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 24.
6. Turdimov Sh.Rango-rang dunyo. “Yoshlik”, 1987, 8-son, 60-62-betlar.

⁶ Turdimov Sh.Rango-rang dunyo. “Yoshlik”, 1987, 8-son, 60-62-betlar.

ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ МЕҲНАТ ОРГАНЛАРИ БИЛАН ҲАМКОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР.

Мамиржонов Мирзохиджон Мамиржонович

Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси магистратура “Ташкилий-тактик
бошқарув” мутахассислиги 3-гуруҳ тингловчиси подполковник

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8105551>

Аннотация. Мазкур мақолада Аҳоли бандлигини таъминлаш масаласининг давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бири эканлиги ва бу борада ички ишлар органлари билан меҳнат органларининг ҳамкорлигининг асосий жиҳатлари ҳамда ҳуқуқий асослари ёритиб берилган.

Калим сўзлар: меҳнат органи, бандлик, рағбатлантириш, иш ўринлари, меъёрлар, маъмурий кенгаш, меҳнат бюроси.

REFORMS CARRIED OUT IN ENSURING THE COOPERATION OF INTERNAL AFFAIRS BODIES WITH LABOR BODIES.

Abstract. This article highlights the fact that the issue of employment is one of the priorities of the policy of our state and the main aspects of the cooperation of labor bodies with the internal affairs bodies and the legal basis in this regard.

Key words: Labor body, Employment, Promotion, jobs, mayors, administrative council, Labor Bureau.

РЕФОРМЫ, ПРОВЕДЕННЫЕ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ С ОРГАНАМИ ПО ТРУДУ.

Аннотация. В данной статье освещается тот факт, что вопрос трудоустройства является одним из приоритетов политики нашего государства, а также основные аспекты сотрудничества органов по труду с органами внутренних дел и правовая база в этом отношении.

Ключевые слова: Трудовой орган, занятость, продвижение по службе, рабочие места, мэры, административный совет, Бюро по трудоустройству.

Меҳнатни рағбатлантириш ва манфаатдорликни ошириш соҳасида бошқарувни ташкил этиш даражасини ошириш ва такомиллаштириш, аҳолини иш билан оқилона таъминлаш, ижтимоий таъминот тизимини яхшилаш, эркинлаштириш ва иқтисодий ислохотларни тобора чуқурлаштириш шароитида ижтимоий муҳофаза қилишни кучайтириш, шу асосда аҳолининг фаровонлиги барқарор юксалиб боришини таъминлаш ҳисобланди.

Аҳоли бандлигини таъминлаш масаласи давлатимиз сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Халқаро меъёрларда белгилангани каби юртимизда ҳам ҳар бир шахснинг меҳнат қилиш, эркин касб танлаш, адолатли меҳнат шароитларида ишлаш ва ишсизликдан ҳимояланиш ҳуқуқлари қонун ҳужжатларида мустаҳкамлаб қўйилган.

Биргина 2022 йил 20 октябрь куни қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги қонунинг ўзи ҳам фикримизни яққол исботи бўла олади.

Жиноятчиликка қарши курашиш ва ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олиш борасида маъмурий ҳудудда яшовчи аҳолининг бандлиги таъминланганлиги энг асосий омиллардан бири бўлиб, ушбу мақсадларда ички ишлар органлари томонидан меҳнат органлари билан ҳамкорликда қатор ишлар амалга оширилиб келинмоқда.

Хусусан, ички ишлар органларининг соҳавий-хизматларидан Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси хизмати, Тергов, МваФР, Пробация ва Тергов хизматлари билан яқиндан ҳамкорлик қилиниб, ИИБ профилактик хисобида турганлар, жиноят содир этишга мойил бўлган ҳамда пробация назоратидаги шахслар бандлигини таъминлаш ҳамда ижтимоий фойдали меҳнатга жалб этиш йўналишида тегишли амалий ва профилактик чора-тадбирлар кўрилмоқда.

1992 йилда Ўзбекистон Халқаро меҳнат ташкилоти аъзолигига қабул қилинди, 14 июль 1993 йилда меҳнат муҳожирлари ишлари бўйича Республика агентлиги ташкил этилди.

Халқаро меҳнат ташкилоти - БМТнинг ихтисослашган муассасаси булиб, 1919 йилда Миллатлар лигаси (иттифоқи) ҳузурида меҳнат қонунлари ва меҳнат шароитларини яхшилаш масалалари бўйича конвенция ва тавсияларни ишлаб чиқиш учун халқаро комиссия сифатида тузилган.

Халқаро меҳнат ташкилоти 8 соатлик иш куни, оналикни ҳимоя қилиш, болалар меҳнатида оид қонунлар ва иш ўринларида хавфсизликни таъминлаш юзасидан халқаро меъёрлар ишлаб чиқишига, иш билан бандлик дастурларини тайёрлашга катта ҳисса қўшиб келаётган халқаро ташкилот хисобланади.

Бу ташкилот меҳнат шароитларини муҳофаза қилиш ва яхшилаш, иш билан тўлик бандликни таъминлаш ва турмуш даражасини кўтариш, тадбиркорлар ва меҳнаткашлар ўртасида ҳамкорликни рағбатлантириш чораларини ишлаб чиқиш учун ҳуқуқатлар, тадбиркорлар ва меҳнаткашларни тенг ҳуқуқларда бирлаштиради.

Халқаро меҳнат ташкилоти таркиби Халқаро меҳнат конференцияси; маъмурий кенгаш; халқаро меҳнат бюроси; уч томонлама кўмиталар; минтақавий ва махсус конференциялардан ташкил топган. Қароргоҳи Женевада. Тинчликни мустаҳкамлаш йўлида кўрсатилган фаолияти учун Нобель мукофотида сазовор бўлган (1969).

Ўзбекистон Республикаси томонидан ташкилотнинг 11 та конвенцияси ратификация қилинган.

2001 йил 13 февраль кунги Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Меҳнат ва аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида”ги ПФ-2810-сонли фармони (*Ҳужжат кучини йўқотган 30.04.2021*) билан Меҳнат вазирлиги ва Ижтимоий таъминот вазирлиги негизида Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш вазирлиги тузилди.

Вазирликнинг асосий вазифаси сифатида аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқиш ва уларни амалга оширишни назорат қилиш, меҳнатга ҳақ тўлаш соҳасида ягона умумдавлат сиёсатини юритиш, ишсизлар ва уларнинг оила аъзоларини ижтимоий қўллаб-қувватлашни амалга ошириш, ёш Республика тараққиётида ишчи кучидан фойдаланиш бўйича Халқаро меҳнат ташкилоти, бошқа давлатларнинг меҳнат органлари билан алоқаларни йўлга қўйиш ва ривожлантириш белгиланган.

Бандлик соҳасида давлат сиёсатини янада такомиллаштириш, банд бўлмаган аҳолини, айниқса, ёшларни ишга жойлаштириш бўйича чора-тадбирлар самарадорлигини ошириш, меҳнат ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва меҳнат муҳофазасини кучайтириш, аҳоли бандлигини таъминлаш бўйича мувофиқлаштирилган самарали ишларни амалга оширишда давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, маҳаллий ижро ҳокимияти органларининг масъулиятини тубдан кучайтириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги “Бандлик соҳасида давлат сиёсатини янада такомиллаштириш ва меҳнат органлари фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5052-сонли фармони билан Ўзбекистон Республикаси Меҳнат вазирлиги Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги этиб қайта ташкил этилди.

Вазирликнинг асосий вазифаси сифатида янги иш ўринлари ташкил этиш учун давлат буюртмасини ишлаб чиқиш, аҳоли бандлигини таъминлашга доир ҳудудий ва тармоқ дастурларни амалга ошириш, олий ва ўрта махсус, касбий таълим муассасалари битирувчиларини ишга жойлаштиришни таъминлаш бўйича чора-тадбирларни мувофиқлаштириш, кам таъминланган оилаларга нафақаларни ўз вақтида тўлаш ва моддий ёрдам беришни мониторинг қилиш ҳамда бошқалар белгиланди.

Ривожланган давлатлар тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, жиноят қонунчилигини такомиллаштириб бориш, тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширишда энг янги усул ва воситалардан фойдаланиш жиноятчилик даражасини камайтиришда кутилганидек самара бермаяпти. Деярли барча давлатларнинг жиноят қонунчилигида такроран содир этилган ва рецидив жиноятлар ҳақидаги қоидаларнинг мавжудлиги ва бу турдаги жиноятларнинг тез-тез содир этилаётганлиги жиноят учун берилган жазо ҳуқуқбузарларни ахлоқан қайта тарбиялаш вазифасини жуда қийинчилик бажараётганлигидан далолат беради.

Кўрсатиб ўтилган омиллар бутун дунёда жиноятчиликка қарши курашиш борасидаги ишларга бўлган ёндашувни тубдан қайта кўриб чиқишни тақозо этди, дейиш мумкин. Бундан кейин жиноятчиликка қарши курашиш фақатгина содир этилган жиноятларни очиш, ҳуқуқбузарларни топиш, қонуний жазо тайинлаш ва уни ижро этишдан иборат бўлиб қолиши мумкин эмас. Ҳатто, содир этилиши режалаштирилаётган ҳуқуқбузарликнинг олди олинганда ҳам бу вазифани бажаришга жуда кеч киришилган деб ҳисоблаш керак бўлади. Шу тариқа дастлаб жиноятчиликка қарши курашиш фаолиятининг кичик элементи сифатида пайдо бўлган ҳуқуқбузарликлар профилактикаси кейинчалик жиноятчиликка қарши курашиш фаолиятдан ҳам юқори турувчи алоҳида ва кенг қамровли фаолият йўналишига айланди.

Аҳолининг жамиятда юз бераётган ҳар бир ҳодисага нисбатан ўзининг фаол муносабатини билдириши, хусусан, ён-атрофдаги хонадонларда юз бераётган нотинчлик, кўчада шубҳали шахслар пайдо бўлганлиги ёки содир этилиши мумкин бўлган ҳуқуқбузарлик ҳақида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга дарҳол хабар бериши, шунингдек уй-жой ва автомобилларни қаровсиз қолдирмаслик, жуда кўп миқдордаги нақд пул ёки қимматбаҳо буюмларни банк ва ломбардларда сақлаш одатининг шаклланганлиги ҳам потенциал жабрланувчилар сонининг камайишига хизмат қилмоқда.

REFERENCES

1. Шавкат Мирзиёевнинг ички ишлар ходимларини касб байрами муносабати билан байрам табриги (2020 йил 25 октябрь)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги «Ички ишлар органлари ходимларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3216-сон қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 апрелдаги «Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2896-сонли қарори.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги қонуни., 20.10.2022 й;
5. *Жўраев М.Ў.* Ички ишлар органлари тизимини ислоҳ қилишнинг устувор йўналишлари // Ички ишлар органларида норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ижросини таъминлаш механизми: бугунги ҳолати ва истиқболлари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари (2020 йил 4 март).
6. Мухамедов Ў.Х. Ўзбекистонда халқпарвар ички ишлар тизимини яратиш истиқболлари: Монография. – Т., 2020. – Б. 500.

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA BADIY DETALLAR

O'rolova Mohichehra

Termez davlat universiteti 2- bosqich talabasi

Hafizova Feruza

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8105557>

Annotatsiya. Maqolada badiiy detallar va ularning hikoyadagi o'rni Shukur Xolmirzayev hikoyalari asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: detal, shakl, mavzu, psixologik, tasvir, hikoya, mazmun, nutq, portret.

ARTISTIC DETAILS IN THE STORIES OF SHUKUR KHOLMIRZAYEV

Abstract. The article analyzed artistic details and their place in the story on the basis of the stories of Shukur Kholmirzayev.

Key words: detail, form, subject, psychological, image, story, content, speech, portrait.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ДЕТАЛИ В РАССКАЗАХ ШУКУРА ХОЛМИРЗАЕВА

Аннотация. В статье были проанализированы художественные детали и их место в рассказе на основе рассказов Шукура Холмирзаева.

Ключевые слова: деталь, форма, тема, психологический, образ, рассказ, содержание, речь, портрет.

Badiiy asarlarda detallar turli xil shakllarda qo'llaniladi. Detalning predmet detal, ruhiy detal, nutqiy va portretik kabi turlaridan ko'p foydalaniladi. Badiiy asarda eng bir kichik detal ham voqea rivojini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Qahramon nutqining o'ziga xos qilib ko'rsatishi asarda obrazlar xarakterini ochib berishda tub burilish yasaydi. Portretik detallar esa qahramonning tashqi qiyofasini ko'rsatadi. Shukur Xolmirzayevning "Olam tortishish qonuni" hikoyasida Husan akani to'lachadan kelgan, o'zidan katta kishini (mansabi katta) ko'rganda qisilib turadigan, qo'li ko'ksida bir odam sifatida tasvirlaydi.

Uning o'z olami bor edi, hattoki farzandi vafot etganda ham uyiga keladigan nozik mehmonlar haqida o'ylaydi. Vafot etar chog'ida esa o'g'ining ruhiga u dunyoda sen yolg'iz eding, bu dunyoda men yozg'iz edim- deb shivirlaydi. U doim o'zligini, insonlar orasida qadrini topishga intiladi. Aynan birgina qimtinib turish orqali yaratilgan portret detalining o'ziyoq kitobxon berajak ming bir savolga javobni o'zida jamlagandek go'yo. Asardagi predmet detali Husan aka feldsher bo'lib ishlaydi. Hikoyachiga Husan aka ukol qiladi, ammo ukol unga yomon ta'sir qilib butun badaniga toshma toshib ketadi.

Aynan ukol detali ham obraz xarakterini ochib beradi. U butun jamiyat tomiriga o'z dunyosining ineksiyasini quymoqchi bo'ldi ammo bunga jamiyat aks ta'sir ko'rsatdi. Nutqiy detal: "Barcha mehmonlar kelishdi..Jamo'a xo'jaligi direktori...Vrachlar..Brigadirlar...Bo'lim mudirlari faqat siz yo'qsiz. Shunday bo'lmaptida". Husan aka tomonidan aytilgan bu so'zlar qahramon xarakteridagi o'ziga xoslikni namoyon qiladi. U doim bor budini sarflab o'z tabiri bilan aytganda 'nozik odamlarni uyiga mehmonga chaqiradi, dabdabali dasturxon yozadi, keyin esa bir necha oy yeyishga nonga puli ham qolmay, ko'chada ko'rinmay yuradi.

Hikoyachida Husan akaning bu xatti-harakatlariga nisbatan achinish hissi paydo bo'ladi. U vafot etar chog'ida o'sha insonlar uning yonida lekin endi unga buning qizig'i yo'q. Endi u o'z dunyosi eshiklari kalitini ochilishini kutib turar edi. Shukur Xolmirzayev hikoyalari

qo'llanilgan har bir so'z hikoya mazmuni, unda yuritilajak fikr tizgini, g'oya sermazmunligini ochib berishga xizmat qiladi. Surxon elining farzandi bo'lgan bu ijodkor o'sha yurt ruhini, obi havosini asarlariga singdiradi. Badiiy adabiyotda detallar nishonga tegishi aniq bo'lgan miltiq vazifasini bajarishi lozim. Detallarning turlari ko'p bazi yozuvchi o'z asarida qahramonini gapirtirib qo'yib, bazilari esa ma'lum predmet orqali hikoyalar umuman olganda asar haqida aytar so'zini aytadi.

Shukur Xolmirzayevning "Zov ostida adashuv" hikoyasini olaylik yeti yoshli bola, otasi, onasi, singlisi. Otasi cho'pon, onasi sigir sog'uvchi predmet detalining o'ziyoq bolaning yaqinlari chorvachilik bilan shug'ullanishiga ishora qilmoqda. Hikoyada o'tovimiz Zovboshidan besh-olti chaqirim narida kungay betida edi. Ko'chlarmiz aravaga ortilga men, singlim va onam arava ustida o'tirar edik deyiladi. Arava detalining o'ziyoq uzoq qishloq joylarda tog'-yon bag'irlarida yuz berayotgan voqea hodisa haqida hikoya qilinayotganini sezish mumkin.

Hikoya qahramoni agar Zovboshiga biror echkimi tushib ketadigan bo'lsa uni qidirishni to'xtatishlari, chunki Zovboshi juda chuqur va bo'rilar ko'p bo'lishini eshitganini aytadi. Inson har qanday sharoit va mashaqqatlarga qaramasdan hayotni sevishi, Xudo yaratgan barcha yaratma muqaddas bilishi lozim. Bu hikoyada ham o'tov qurib yozlik uyda yashagan tog'lik aholi hayoti, ular boshidan o'tgan turli xil voqeaalardan biri haqidadir. Ular bu o'tovda yozda yashashadi. Har bir narsaning o'z nihoyasi, o'z yakuni bor deganlaridek, yoz nihoyasiga yetadi. Kunlar soviydi, butun oila o'z uyiga yo'l oladi. Otam o'ta kamgap edi- deydi bola. Bu xarakter detalining o'ziyoq bola atrof- muhit bilan o'z bilganicha tanishgan, ota o'z dunyosi bilan o'vora. G'oyo u boshqa dunyo odamidek.

Tuman ostida qolgan tog'-yon- bag'ridan o'z qishloqlariga ketayotgan oila havo o'ta namligidan aravamiz yurmay qoldi. Birinchi aravadan onam, keyin men, undan so'ng singlim tushdik. Otam esa aravani haydash bilan band edi deyiladi. Bola o'ziga notanish bo'lgan tumanli olamda onasining ogohlantirishiga qaramasdan otasi yoniga bormoqchi bo'ladi. Hayotga kelgan chog'imizda bizni bu dunyodagi farishtadek kutib olishib, turli so'qmoqlada biz bilan, bizni hech bir yerimizga shikast yetkazmasdan voyaga yetkazishadi. Biz esa ulg'ayamiz oppoq bo'lib ko'ringan tumanlar ostida (orzu, maqsad, do'st, sevgi va hokazolar) g'arq bo'lamiz. Bola adashib yurgan chog'da kimsasiz bir uyga duch keladi. Uy suvoqdan qilingan. Suvoq uyning devoli o'rtasida bir gul ochilib turibdi. Gul detali- bu detalning o'ziyoq kelajakka umid bilan qarashga, uni yorug' kelajak kutib turganligiga ishora.

Muvafaqiyatga erishishda bizga ko'makchi kerak bo'ladi. Ko'mak beruvchilar doimo hayotimizning yozi-yu, qishida soyabon bo'ladi. Bir zamonlar kelganda bizga ko'mak bo'lgan tirgaklarni unutimiz go'yo. Bu yerda psixologik detal yetakchilik qiladi. Bola tumanlar ichida adashib qoladi. Ovoz kelgan tarafga qarab yuradi, ammo bu sarob edi. Insonlar ko'magi va bolaning zakiyli uni hech kim chiqa olmagan zov boshidan omon olib chiqadi. Tumanlarda adashsa adashsin ammo hech kim hayot yo'llarida adashmasin.

Adibning "Qush tili" hikoyasi. Inson to'rt unsurdan yaratilgan. Tabiatning bir qismi. Biz doim unga intilib yashaymiz. Shamolning yelishi, qushlarning chug'ur - chug'uri, suvlarning shildirashi inson tabiatiga tanish holat. Hikoyaning aynan mana shunday tabiat detali bilan boshlanishi ham insonning tabiatga bo'lgan cheksiz muhabbati aks ettiradi. Hikoya qahramoni dala hovlida ilimiy ishini o'z nihoyasiga yetkazish uchun kelgan tarix fani professori Qamariddin aka. Ilimiy maqolalarida Kushon podshohligining markazi Toshkent bo'lganini isbotlovchi dalillar

mavjud ekanligi haqida yozadi. O'g'li Jahongir ariq boshida yaralangan qushni topib oladi. Darxol otasini chaqirib qush haqida aytadi. Ota bola qushni olishmoqchi bo'lganda butun qushlar to'dasini unib olib ketmang degandek chinqirib aylanishadi. Mana shu singan qanot -predmet detaliga e'tibor beradi.

Ziyrak kitobxon hikoya yakuniga yozuvchi sizni tayyorlaganiga, hikoya yakunida qandaydir ayanchli yakun mavjud ekanligiga ishora mavjudligini fahmlashadi. Jahon adabiyotining durdona asari "Anna Karenina" asar boshida poyezd yo'liga o'zini tashlagan obraz mavjud. Asar yakunida esa Anna ham aynan shu tarzda joniga qasd qiladi.

Badiiy asarda ham lisoniy psixologiya, uning on ostiga aynan shu hodisa o'rnashgan. Yakun ham shunga yetaklaydi. Bu hikoyada ham ota-bola qushni uyga olib ketishadi. Yaralangan qanotlarini tuzatishadi. Mayna haqida shunday rivoyat mavjud. U butun qush va jonivorlarni ovozini o'xshata oladigan qush. Shuning uchun ham ularning barchasini mayna qilar ekan. Nomi o'ziga mos bu qush ta'rifini eshitgan o'g'il butun hayrati oshadi.

Qushga mehr qo'yadi. Go'shtsevar qush bo'lganligi bois unga turli chigirtka va chuvalchaglarni terib olib kelib berishadi. Bola qo'shnisi Olovuddin akani hech narsa demasada yomon ko'radi. Bu yerda psixologik detal yetakchilik qiladi. Voqea rivojida aynan shu inson qushni qo'yib yuborib, mushukka yem bo'lishiga sababchi bo'ladi. Inson bazida o'zida bor narsalarga shukur qilmaydi, o'sha narsa yo'qolsagina uning qadr -qiymati oshganini sezishadi. Shukur qilishdek buyuk bir baxtdan mosuvo bo'lishadi. Qamariddin va uning oilasi tabiat ne'matlariga xiyonat qilishmadi, yaratuvchi mavjud ekanligiga ishonishdi. Bazi battol kimsalar esa teskarisi. Tabiat bilan urush olib boradi. Yakunida esa mag'lub bo'lgan o'zlari.

Yozuvchi tomonidan yozma adabiyotga singdirilgan xalq falsafasi elementlari logik folklorizmlar bo'lib, asarning mantiqiy yaxlitligini, badiiy g'oyasining ifodalanishini ta'minlashga xizmat qilgan. Xalq badiiy falsafasiy tasavvurlarining yozma adabiyotdagi diffuziyasi juda ko'p uchraydigan hodisadir. Zero, mantiqiylik, mantiqiy yaxlitlik va uzviylik har qanday badiiy asarga qo'yiladigan talablardan biri bo'lib, ularning mohiyatan umuminsoniy xarakter kasb etgani ilmiy-badiiy talqin qilingan. Har bir yozuvchining voqelikni ijodiy o'zlashtirishi uning ijtimoiy-estetik ideali, dunyoqarashi, didi, bilim saviyasi bilan bog'liq zahmattalab, murakkab jarayondir. Professor B.Sarimsoqov san'atkorning o'ziga xos estetik olami haqida to'xtalar ekan: "Agar u tabiatga uyg'unlikni yo'qotmagan holda o'zining badiiy tabiatini yarata olsa va bu badiiy tabiat real borliqda yaratilishga imkonsiz bo'lsa, bunday ijodkorni haqiqiy san'atkor hisoblash mumkin", - deb yozadi. Har qanday yozuvchi yaratgan asarini o'zining bilim saviyasiga, hayotiy falsafasiga, qanchalik yetuk shaxs imkoniyatlariga egaligiga asoslanib yaratadi.

Yozuvchining yozgan asari hajmiga qarab emas, mazmuniga qarab kitobxonlar orasida baholanadi. Shukur Xolmirzayev o'ziga xos xususiy badiiy uslub sohibi sifatida bir xil fikrlilikda, o'zgalar fikrini tanqid qilish, voqealarni barchaga xos tarzda ifodalashdan qochadi, so'zga xasis bo'lsada, fikrini o'quvchiga to'la va yorqin yetkazishga erishadi. Ammo ba'zi vaqtlarda uning yozganlari nihoyasiga yetmagandek tasavvur uyg'otadi. O'quvchi sekundlarni sanaydi, qahramonlar hayoti nima bilan yakunlanishini kutadi. Qahramonlar portretini o'zgacha yo'sinda tasvirlay oladi, asosiy e'tiborini qahramonning ichki dunyosini yaratishga qaratgandek ko'rinadiki, bu o'quvchini hayolga tolilishga, mulohazakor bo'lishga undaydi. Asar qahramonlari hayoti haqida e'lon qilingan hukm o'quvchi e'tiboriga taqdim etiladi.

Har bir o'quvchi qanday asar o'qimasin o'qigan asar qahramonlarining taqdirini o'zi xohlaganidek bo'lishini istaydi. Adibning "Qorbobo keladi" hikoyasida bola obrazi ruhiyati ifoda etilgan. U bola bo'lganda ham juda sodda, ishonuvchan, qalbi pok, orzu qilgan narsalarini o'zi xohlaganday tasavvur qiladigan va shunga o'zi ham ishonadigan obraz sifatida tasvirlangan.

Yozuvchining "Bahor" hikoyasida esa tog'li hududlarda yashovchi, qalbida ilk muhabbat kurtak otayotgan va bu ayni bahor faslida daraxtlar uyg'onib, barg yozayotgan fasl tasvirlanib hikoyaga yanada joziba bergan. "Jo'raboshi" hikoyasi o'zlarini ko'chaning "xo'jayinlari" deb, biluvchi bir guruh, har xil yoshdagi bolalarning hayotidan olingan haqqoniy lavhadir. "Ko'cha xo'jayinlari" ning boshlig'i Habibulla ismli bola bo'lib, u harbiy xizmatga ketish arafasida o'z "ishchilari" bilan xayrlashishi, ularga vazifalar tayinlashi arafasida ulardagi ruhiyatning o'zgarishi orqali bolalar hayotini tasvirlaydi. Bolalik, o'smirlik, o'spirinlik davri va ular bilan xayrlashuv sifatida ifoda etiladi.

Adibning "Nasib etsa" hikoyasida haqiqatgo'y bola to'g'risida gap boradi. Elyor Bo'ritosh opasini juda yaxshi ko'radi. U ishdan kelgan zahoti bola uning atrofida girdi kapalak bo'lib o'ynar, u bilan sihatlashar edi. Bo'ritoshni qishlog'idan Berdiyora yaqinda olib qochib kelganligi uchun Elyor unga oilasi, qishlog'i to'g'risida o'zini qiziqtirgan savollarni beraveradi. Shu orqali bola ruhiyati asta-sekinlik bilan ochila boradi. Adib bola ruhiyati orqali inson hayotidagi o'zgarishlarning ta'sirini ushbu hikoyada tasvirlaydi va buni uddasidan chiqadi.

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida bola ruhiyatini ochar ekan ko'proq ularni qiziqarli holatlarda aks ettirishga harakat qiladi. Bunday paytda yozuvchi bolalar hayotida yuz berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalarga e'tiborini qaratadi. Masalan, maktab tasvirida predmet detalini berish orqali unda bolalarning maktab yoshiga xos bo'lgan jihatlarini ochishga harakat qiladi, qishloq hayotidan lavhalarda peyzaj detali keltirish orqali esa, tabiat va bola ruhiyatidagi o'xshashliklar yoritiladi. Bolalar turmush tarzining ko'p qismini egallab turadigan jarayon bu o'yin. Yozuvchi hikoyalarida o'yin epizodidan foydalanar ekan, keltirilgan o'yinning qanday o'ynalishi, o'ynalish qonun-qoidalari haqida ham gapirib o'tadi. Bundan yozuvchining o'zbek milliy o'yinlari turkumiga kiruvchi o'yinlaridan anchagina yaxshi xabardor ekanligini bilib olamiz. Yozuvchi hikoyalarida murg'ak bolaning ko'nglidan o'tayotgan tuyg'ularni mahorat bilan ochib bergan. Ko'ngil oynasi bir sinsa yoki lat yesa qayta tuzatib bo'lmaydigan shisha misoli. Ko'ngil bir ozor yesa o'z holiga kelishi, avvalgiday bo'lishi qiyin.

Shukur Xolmirzayev bola obrazini yaratar ekan bu jihatlarni ham yoddan chiqarmaydi va uni mahorat bilan ko'rsata oladi. Shukur Xolmirzayev jahonning mashhur yozuvchilari qatorida, ularga bo'ylasha oladigan darajada tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining alohida bo'rtib ko'rinib turuvchi bir qirrasidir. Mana shu sababdan ham katga imkoniyati tufayli tabiat qonunlari, hayvonlarning yashash tarzlari, har bir giyohning o'ziga xos xususiyatlari haqida puxta bilimga ega. Bu jihatdan J.London, E.Xeminguey, S.Tompson asarlarining yozuvchi ijodiga ta'siri ham kattadir. Tanqidchi U.Normatov "Zaminda yashaymiz, zaminni o'ylaymiz" maqolasida Sh.Xolmirzayev hikoyalariga xos mazkur xususiyat haqida shunday deydi: "Inson va tabiat munosabati Sh.Xolmirzayev hikoyalarining yetakchi leytmotiviga aylanib qoldi.

Shunisi xarakterliki, yozuvchining so'nggi-yillarda yaratgan deyarli barcha hikoyalari shu mavzu atrofida aylansa-da, ular bir-birini takrorlamaydi, har gal avtor masalaning yangi qirrasini kashf etadi, yangi xarakter yaratadi, xarakter qalbining yangi tomonini ochadi...". Shu nuqtai nazardan yozuvchining inson va tabiat mavzuidagi hikoyalarini ko'zdan kechirsak, inson

xarakterining qanchalar murakkab ekanligi, bu murakkabliklar, uning hatto, tabiatga munosabatlarida ham namoyon bo'lishini kuzatamiz. Chunonchi, "Kulgan bilan kuldigan" (1972) hikoyasida Shukur Xolmirzayev vatan go'zalligi, boyligi, umuman, tabiatga befarq bo'lmagan, uni sevuvchi kishilarni tashvishga solayotgan - tabiat boyliklarini asrash masalasini ilgari suradi va bu masalaning mohiyatini oddiy bir voqea tasviri orqali ko'rsatadi.

"Kulgan bilan kuldigan" hikoyasida bosh qahramon tog'dagi kakliklar haqida qayg'uradi, birikki qushni emas, umuman, hududdagi barcha qushlarni qahraton ayozdan omon chiqarib olish g'amini yeydi. "Jarga uchgan odam"da esa o'zi tabiat va uni asrash xususida film yaratmoqchi bo'lgan kinorejissor butun boshli ayiqni o'ldirib ikki bolasini yetim qilgani uchun tegishli tashkilotlar tomonidan emas, oddiy bir tabiat jonkuyari qo'lidai ayovsiz jazolanadi.

Yozuvchining bu kabi asarlarida aks etgan o'zboshimchalik oqibatida yuzlab tog' qishloqlari aholisi vohalarga ko'chirilib, yashnagan go'shalar vayronaga aylangani, ming-yillik tarixiy obidalarning qarovsiz qolib ketgani, xalq kelajagini ta'min qiladigan yer-suvning isrof bo'layotgani haqidagi fikrlar va tashvishli mulohazalar ijodkor izhor qilayotgan xalq dardining in'ikosidir.

REFERENCES

1. Boboyev T. "Adabiyotshunoslik asoslari". - Toshkent: O'zbekiston, 2002.
2. N. Erkayeva. " Shukur Xolmirzayev haqida" Toshkent. Ma'naviyat nashriyoti
3. Xolmirzayev Sh. Saylanma./ "Boychechak ochildi".I J. - Toshkent: "Sharq", 2005. - B.72.
4. Xolmirzayev Sh. "Olis yulduzlar ostida". - Toshkent: Yosh gvardiya,1971.
5. Xolmirzayev Sh Kimsasiz xovli- Toshkent Sharq 1992
6. Xolmirzayev SH., Yunus T. Insonni kashf etish baxti // Sharq yulduzi. 1993. № 9. - B. 120.

“MA’NAVIYAT” UMUMIY SEMALI LEKSEMALARNING SHAKLLANISHIDA SO‘Z YASOVCHI QO‘SHIMCHALARNING O‘RNI

Sayfullayeva Fotima Baxodir qizi

Navoiy davlat pedagogika institute O‘zbek
tili va adabiyoti fakultet 2 - bosqich talabasi

Telefon raqam: +998919205260

fotimasayfullayeva004@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8105571>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining lingistik xususiyatlari, uning ichki tuzilishi, “ma’naviyat” umumiy semali atov birliklarning shakllanishida so‘z yasovchilarning o‘rni ochiqlandi.

Kalit so‘zlar: lingvoma’naviyatshunoslik, ma’naviyat, so‘z yasovchi qo‘shimchalar, leksema, makroguruh, e’tiqod, affiks, lingvistik xususiyat.

"SPIRITUALITY" IS THE ROLE OF WORD-MAKING SUFFIXES IN THE FORMATION OF COMMON SEMAL LEXEMES

Abstract. In this article, the linguistic features of the lexical-semantic category “spirituality”, its internal structure, the role of word processors in the formation of noun units with the general meaning “spirituality” have been revealed.

Key words: linguistics and spirituality, spirituality, word-forming affixes, lexeme, macrogroup, belief, affix, linguistic feature.

РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СУФФИКСОВ В ОБРАЗОВАНИИ ОБЩИХ СЕМАНТИЧЕСКИХ ЛЕКСЕМ " ДУХОВНОСТЬ "

Аннотация. В данной статье раскрыты лингвистические особенности лексико-семантической категории “духовность”, ее внутреннее строение, роль словообразователей в образовании общих семантических единиц “духовность”.

Ключевые слова: лингводуховность, духовность, словообразовательные суффиксы, лексема, макрогруппа, убеждение, аффикс, лингвистический признак.

KIRISH

Dunyo tilshunosligida lingvokulturologiya yo‘nalishidagi muammolardan biri shaxs ma’naviy sifatlari va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni masalasini tadqiq qilish muhimligicha qolmoqda. Har bir millat milliy o‘zligini saqlab qolishga jiddiy e’tibor qaratayotgan bugungi globallashuv davrida “ma’naviyat” mavzusiga qiziqishning ortib borayotgani ushbu konseptning semantik tarkibi, til tizimidagi o‘rnini belgilash orqali shaxs ma’naviy sifatlarning lisoniy tabiatini o‘rganish ilmiy jihatdan dolzarblik kasb etadi. [1, 5]

Shuning uchun ham til va ma’naviyat kesishmasida yangi soha vujudga keldi. Tilshunoslikdagi yangi soha bo‘lmish lingvoma’naviyatshunoslikning asosiy maqsadi ma’naviyat va til o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishdir. Ma’naviyatning tilshunoslikda o‘ganilishi o‘quvchiga bir qadar qulaylik yaratadi. Chunki tilshunoslikda ma’naviyat konseptining ichki bo‘linishlari, semalari, uning matn bilan aloqadorligi o‘rganiladi. Biroq hozirga qadar tilshunosligimizda “ma’naviyat” semantik maydoninig kategoriyalarini ifodalovchi til ifodalarning tizimli tadqiq etilmaganligi, ularning lisoniy qiymati ochilmaganligi tilshunoslar oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev yig'ilishda. – Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat. [2, 1] Darhaqiqat, biz har bir sohada ma'naviyatga e'tibor qaratishimiz zarur. Aholining ziyoli bo'lmagan qatlami ham ma'naviyat haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak. “Ma'naviyat” semantik maydonining kategoriya va ma'naviy guruhlarini o'rganib, lug'at bazasini yaratish zamonaviy tilshunosligimizning asosiy maqsadlaridan biridir.

Ma'naviyatga oid atov birliklarni aniqlashda “O'zbek tilining izohli lug'ati”dan foydalanamiz. O'TILda “ma'naviyat” umumiy semali leksemalar turli xil shaklda berilgan. Ya'ni ular tuzilishiga ko'ra tub va yasamaga bo'linadi. Yasama “ma'naviyat” umumiy semali leksemalarning shakllanishida so'z yasovchi qo'shimchalarning o'rni katta. Xususan, “-lik sifat va ravishlarga (belgi bildiruvchi so'zlarga) qo'shib belgi oti yasaydi”. [3, 97] “Ma'naviyat” umumiy semali leksemalarning ko'pchiligi –lik affiksi bilan yasaladi. Leksemalar ijobiy xususiyatiga ko'ra *xolislik, uddaburonlik, bag'rikenglik, fidokorlik, ezgulik, kamtarlik, saxiylik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik, vatanparvarlik, rahmdillik, rostgo'ylik*; salbiy xususiyatga ega birliklar “xudbinlik” uyasi orqali *manqurtlik, yovuzlik, kibrlik, xoinlik, yolg'onchilik, hasadgo'ylik, axloqsizlik, firibgarlik, irodasizlik, munofiqlik, farosatsizlik* guruhlarini hosil qiladi.

Sifat so'z turkumiga qo'shilgan -lik affiksi *fidokor* leksemasiga “shug'ullanmoq” semasini yuklab, “ma'naviyat” leksik-semantik kategoriyasining e'tiqod makroguruhidagi *fidokorlik* semasini hosil qiladi. Farosat leksemasi mavhum ot va u ma'naviyat kategoriyasiga kirsada, –lik affiksi qo'shilgach jarayon otiga aylanib, “e'tiqod” makroguruhiga kiradi.

“Ma'naviyat” leksik-semantik kategoriyasini hosil qiladigan leksemalardan biri *mehnatsevarlik*, mehnatsevarga xos xislat, xatti-harakat ma'nolariga ega. [4, 587] Biroq “e'tiqod” umumiy semali atov birliklarining shakllanishida asos bo'ladigan “jonkuyarlik” uyasi orqali “mehnatsevarlik” guruhi shakllangan. Aslida *mehnat* so'zining e'tiqodga bevosita aloqasi yo'q. Ammo mehnat so'ziga -sevar, ya'ni tarkibida “sevmoq”, “mehr qo'yimoq”, “shug'ullanmoq”, “e'tibor” semasi bo'lgan, sintaktik usulda yasaliş uni markaz leksema sifatida shakllantirgan. Bu so'zning chekka qismlarining shakllanishiga yana bir omil -*furush* affiksi turadi. Ushbu so'z yasovchi asli tojik tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibida bo'lib, “sotmoq” ma'noli *furoxtan* fe'lining hozirgi zamon sifatdoshi shaklidir. [3, 74]- *frush* affiksning “e'tiqod” umumiy semali atov birliklarini shakllantirishida ikkita asosiy xususiyati mavjud:

1) -*furush* affiksi e'tiqod atov birliklariga bevosita ham, bilvosita ham kirmaydigan so'zlarga qo'shib ularning ba'zilarini bevosita guruhga kirishiga xoslaydi. Bunday so'zlar ijobiy va salbiy atov guruhlarini hosil qilishi mumkin. Ijobiy “e'tiqod” umumiy semali atov birliklarining makro guruhiga kiruvchi “mehnatsevarlik” mikroguruhiga chekka birlik sifatida o'ziga tegishli leksemalar bilan kabilarni kiritish mumkin. -*furush* tarkibidagi “shug'ullanmoq” semasi “mehnatsevar” mikroguruhini shakllantirgan;

2) -*furush* affiksi bilvosita “e'tiqod” umumiy semali atov birliklari guruhiga kiruvchi so'zlarga qo'shib ularning bevosita ushbu guruhga kirishini ta'minlaydi.

-*furush* affiksi salbiy “e'tiqod” umumiy semali atov birliklarining “xudbinlik” uyasiga kiruvchi “yovuzlik”, “manqurtlik”, “firibgarlik” mikroguruhini shakllantiradi. [1, 13-14]

Demak, -lik affiksi, asosan, sifatlarga ba'zan mavhum otlarga qo'shib "ma'naviyat" umumiy semali atov birliklarni hosil qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.

"Ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasiga kiruvchi yana bir leksema *xushmuomalalik* bo'lib birovga yaxshi muomalada bo'lish [4, 432] ma'nosi bilan "samimiyat" uyasi orqali "e'tiqod" leksemasiga bog'lanadi. Ushbu leksema *xush-* va *-lik* affikslari orqali yasalgan.

"E'tiqod" umumiy semali atov birliklarining "farosat" uyasiga xos bo'lgan *farosatli* sifatining markaziy qatorlarini *fahmli, aqlli, didli* ma'nolari tashkil etib, yadro atrofidan joy olgan. *-li* yasovchisi otlarga qo'shib *mavjudlik, egalik* ma'nosini yuzaga keltirgan. *O'zi juda farosatli, dono, dostonchi chol. Bahrombek oilada ko'proq otasiga tortgan, xayolchan, kamgap, ishni pishiq qiladigan, farosatli o'g'il edi.* [4, 331]

-chan affiksi uyat leksemasiga qo'shib so'zga *mavjudlik, xoslik* ma'nolarini yuklaydi va "e'tiqod" atov birligi makroguruhining "vijdon" mikroguruhiga kiradi.

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lingvoma'naviyatshunoslikning taraqqiy etishida yasalmalar ham ishtirok etadi. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda ta'kidlash lozimki, "ma'naviyat" konseptining ichki guruhlarga bo'linib kengayishida so'z yasaovchi qo'shimchalar alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa faol so'z yasovchilar, ya'ni *-lik, -li, -chan* qo'shimchlari diqqatga sazovor. Ma'naviyatga oid leksemalarning ko'pchiligi ushbu qo'shimchlar orqali yasalgan. Lingvoma'naviyatshunoslik bir xalqqa xos bo'lgan shaxs ma'naviy sifatlari bilan bog'liq tushunchalarni aks ettiradi. "Ma'naviyat" leksik kategoriya sifatida shaxs ma'naviy sifatlarni ifodalovchi leksemalarining lingvistik xususiyatlarini yoritadi

REFERENCES

1. Yuldashev Farrux Haqberdiyevich o'zbek tilining "Ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasi "e'tiqod" ma'naviy guruhi atov birliklari tizimi 10.00.01 – o'zbek tili filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) aftoref.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi
3. Хожиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиши тизими. – Тошкент, 2007. – Б. 168
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. II. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б.587.

NEGATIVIZM SHAXS XUSUSIYATI SIFATIDA.

Yaxyoyeva Muhayyo Hikmatullo qizi

Termiz davlat universiteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8105972>

Annotatsiya. Maqolada Negativizmning namoyon bo'lish xususiyatlari temperament turiga bog'liq. Temperamentning zaif turi bolaning injiqliklari kabi kamroq intensiv va ta'sirchan salbiy ko'rinishlari bilan tavsiflanadi: yig'lash, izolyatsiya, begonalashish, qochish. Kuchli temperament turi uchun o'jarlik xarakterlidir, ya'ni bolaning yanada qizg'in va ta'sirchan salbiy ko'rinishlari: qo'pollik, dürtüsel faol rad etish, aksincha harakat qilish istagi, histerik reaksiyalar, tajovuzkorlik. Bolalarning negativizmi nafaqat kattalar yoki tengdoshlar bilan o'zaro munosabatda, balki oddiy ijtimoiy me'yoriy rejimli vaziyatlarda ham o'zini namoyon qiladi.

Kalit so'zlar: O'smirlik, ontogenez, deviant, xulq-atvor, xarakter aksentuatsiyasi, negativizm, o'z-o'ziga baho berish, mardlik, jasurlik, tantiqlik.

НЕГАТИВИЗМ КАК ЧЕРТА ЛИЧНОСТИ.

Аннотация. В статье особенности проявления негативизма зависят от типа темперамента. Слабый тип темперамента характеризуется менее интенсивными и впечатляющими отрицательными проявлениями, такими как капризы ребенка: плач, замкнутость, отчуждение, избегание. Для сильного типа темперамента характерно упрямство, то есть более интенсивные и впечатляющие негативные проявления ребенка: грубость, импульсивный активный отказ, стремление действовать наоборот, истерические реакции, агрессия. Детский негативизм проявляется не только во взаимодействии со взрослыми или сверстниками, но и в ситуациях с нормальными социальными нормами.

Ключевые слова: подростковый возраст, онтогенез, девиантность, поведение, акцентуации характера, негативизм, самооценка, смелость, смелость, критичность.

NEGATIVISM AS A PERSONALITY TRAIT.

Abstract. In the article, the features of the manifestation of negativism depend on the type of temperament. The weak type of temperament is characterized by less intense and impressive negative manifestations, such as the whims of the child: crying, isolation, alienation, avoidance. For a strong type of temperament, stubbornness is characteristic, that is, more intense and impressive negative manifestations of the child: rudeness, impulsive active refusal, the desire to act the other way around, hysterical reactions, aggression. Children's negativity manifests itself not only in interactions with adults or peers, but also in situations with normal social norms.

Key words: adolescence, ontogenesis, deviance, behavior, character accentuations, negativism, self-esteem, courage, courage, criticality.

Negativizm - bu bolaning tengdoshlari yoki kattalar tomonidan unga nisbatan haqiqatan ham mavjud (yoki haqiqiy deb qabul qilingan) salbiy munosabatiga qarshi norozilik shakli. Bolalarning negativizmi turli yo'llar bilan namoyon bo'lishi mumkin: qo'pollik, o'jarlik, izolyatsiya, begonalashuv. Barcha holatlarda salbiy reaksiyalarning psixologik asosi bola uchun ba'zi o'ta muhim ehtiyojlarning qondirilmaligidir. ijtimoiy xarakter: muloqotga bo'lgan ehtiyoj, ma'qullash, hurmat qilish, ehtiyoj hissiy aloqa- muhim boshqa (tengdosh yoki yaqin kattalar) bilan hissiy uyg'unlik.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan choralar tarkibida, xususan o'smirlarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarga kirishishda empatiya hissini rivojlantirish, shaxs sifatida o'zini to'g'ri baholash, jamiyatda o'z o'rnini topishida yordam berish hamda axloqiy ko'nikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalalar hisoblanadi.

Inson onogenezida o'smirlik balog'atga etish davri bo'lib, yangi xislar, sezgilar va jinsiy xayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan xam xarakterlanadi. O'z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni psixik rivojlanishdagi krizis deb nomlagan. O'smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni asosan jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi.

Jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik, yig'loqlik, kabi xususiyatlar xos. O'smirlar va bolalar psixikasining yosh davrlarida o'ziga xos xususiyati mavjud bo'lib adabiyotlarda emotsional yetuk emaslik, kattalar avtoritetiga bo'ysunish, ishonuvchanlik, jinsga oid munosabatlar haqida xabardorligi va hayotiy tajribasining yetarli darajada emasligi, boshqa insonlarni mavjud harakatlarini oldindan ayta olish va murakkab vaziyatlarda tanqidiy hamda to'liq baholay olmaslik kabi sifatlar namoyon bo'ladi.

Ehtiyojni to'sib qo'yish (xafagarchilik) chuqur his-tuyg'ularning manbai bo'lib, ular bola tomonidan anglab etilganidek, unda salbiy xulq-atvor tendentsiyalarining paydo bo'lishiga ko'proq yordam beradi. Muvaffaqiyatsizlikka reaksiya sifatida (istalgan narsaga erishishda) teskari zarba kompensatsion, himoya qiluvchi hisoblanadi. Bu bolaga u uchun qiyin, ziddiyatli hayotiy vaziyatga chidashga yordam beradi: ba'zi hollarda unga bo'lgan muhim ehtiyojni tashqi ta'minlash tufayli, boshqa hollarda - o'zini "har qanday holatda ham" da'vo qilish orqali - qasddan intizomsizlik, soxtalik va boshqalar. O'jarlik ko'pincha 2,5-3 yoshdagi bolalarda namoyon bo'ladi, kelajakda xatti-harakatlar normallasadi va faqat ba'zida o'jarlikning ikkinchi to'lqini kuzatiladi - taxminan 5 yoshda. Psixologiya fanlari doktori Muxina V.S. "Negativizm - bu bola va kattalar o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishidagi hodisa, deb hisoblaydi.

Bola o'z ehtiyojlarini o'z-o'zini qondirishga moyilligini ko'rsatadi va kattalar eski munosabatlar turini saqlab qoladi va shu bilan bolaning faolligini cheklaydi. normal, to'g'ri rivojlanayotgan bola oldingi munosabatlarga qarshi. U o'jarlik bilan buning aksini qiladi. Negativizm - bu bolalar xatti-harakatlarining salbiy xususiyati bo'lib, u boshqa odamlarning so'rovlari, maslahatlari, talablari, ko'rsatmalariga asossiz va mantiqsiz qarshilik ko'rsatishda, boshlangan harakatni istalgan natijaga olib kelmasa ham, har qanday holatda ham davom ettirish istagida namoyon bo'ladi.

Qaysarlik deganda bolaning vaqtinchalik holati, ko'pincha haddan tashqari hayajonlanganligi nazarda tutilgan asab tizimi bola, ortiqcha ish, og'ir affektiv tajribalar, hissiy qo'zg'aluvchanlik. Negativizm kattalarning talablari va harakatlariga salbiy munosabat deb hisoblaydi. Zaxarovning so'zlariga ko'ra A.I. Negativizm kelishmovchilikni ifodalash usullaridan biri bo'lib, u ko'pincha mag'rur odamlarda uchraydi. tuyg'u kuchaygan qadr-qimmat, va ayni paytda tabiatan faol va baquvvat bolalar. Bola hamma narsani o'z yo'lida qilishni xohlaydi, u ilgari yoqtirgan narsadan bosh tortadi, sizni xafa qilish uchun hamma narsani qiladi, hamma narsada itoatsizlikni ko'rsatadi, hatto o'z manfaatlariga zarar etkazadi.

Negativizm (inkor) - sub'ektning boshqa shaxslar yoki ijtimoiy guruhlarining talablari va kutishlariga qasddan qarama-qarshi bo'lgan harakatlarida namoyon bo'ladigan motivsiz xatti-harakati. Negativizm vaziyatli reaksiya yoki shaxsiy xususiyat sifatida (bema'ni qarshilikning klinik holatlari bundan mustasno) sub'ektning o'zini o'zi tasdiqlash, o'zining "men" ni himoya qilish zarurati bilan bog'liq, shuningdek, shakllangan egoizmning natijasidir. Sub'ekt va uning boshqa odamlarning ehtiyojlari va manfaatlaridan begonalashishi.

Negativizmning psixologik asosi sub'ektni kelishmovchilikka qo'yish, ma'lum talablarni, murojaat shakllarini, ma'lum bir ijtimoiy guruh a'zolarining kutishlarini, ushbu guruhga qarshi norozilik bildirish va ma'lum bir shaxsni rad etishni rad etishdir. Yosh inqirozlari davrida bolalarda negativizmning eng aniq reaksiyalari. Ular o'z ifodasini namoyishkorona xulq-atvorda, o'jarlikda, ziddiyatda topadilar. Bunday bolalar bilan ishlashning psixokorreksiya usullari xulq-atvor shakli sifatida negativizmni yo'q qilishga imkon beradi.

Inqirozning boshlanishini tavsiflovchi birinchi alomat negativizmning paydo bo'lishidir. Biz bu erda nima xavf ostida ekanligini aniq tushunishimiz kerak. Bolalarning negativizmi haqida gapirganda, uni oddiy itoatsizlikdan ajratish kerak. Negativizm bilan bolaning barcha xatti-harakatlari kattalar unga taklif qilgan narsaga ziddir. Agar bola biror narsa qilishni xohlamasa, chunki u o'zi uchun yoqimsiz bo'lsa (masalan, u o'ynayapti, lekin u uyquga ketishga majbur bo'lsa, uxlashni xohlamaydi), bu negativizm bo'lmaydi.

Bola o'ziga jalb qilingan narsani qilishni xohlaydi, unga xohish bor, lekin u taqiqlangan; agar u hali ham shunday qilsa, bu negativizm bo'lmaydi. Bu kattalar talabiga salbiy munosabat bo'ladi, bu bolaning kuchli istagidan kelib chiqadigan reaksiya. Negativizm bolaning xatti-harakatlaridagi bunday ko'rinishlarni, agar u kattalardan biri tomonidan taklif qilingani uchungina biror narsa qilishni xohlamasa, ya'ni bu harakat mazmuniga emas, balki kattalar taklifining o'ziga bo'lgan munosabatdir. Negativizm, oddiy itoatsizlikdan ajralib turadigan xususiyat sifatida, boladan buni qilishni so'rganligi sababli qilmasligini o'z ichiga oladi.

Bola hovlida o'ynayapti va xonaga kirishni xohlamaydi. U uyquga chaqiriladi, lekin onasi undan so'rashiga qaramay, u itoat qilmaydi. Salbiy reaksiyada bola biror narsani aniq qilmaydi, chunki undan buni qilishni so'rashadi. Harakatning asosiy motivi teskarisini qilishdir, ya'ni. unga aytilgan narsaning mutlaqo aksi.

Bolalarning negativizmi bilan biz bolaning sog'lig'i va xulq-atvori holatini tushunamiz, bunda u ongsiz ravishda kattalar yoki tengdoshlarning direktiv ta'siriga qarshi turishga harakat qiladi. Bunday qarama-qarshilikning sababi uning istaklari va o'zini-o'zi tasdiqlashini hisobga olish, o'zini shaxsiy da'volar chegaralariga kirishdan va yaqin kattalar tomonidan salbiy ta'sirlardan himoya qilishning qondirilmagan ehtiyoji bo'lishi mumkin. Bolalarning negativligining belgilari temperament turiga qarab, o'jarlik va injiqlik bo'ladi. Negativizmning namoyon bo'lish sabablarini bolaning ichida joylashtirish mumkin emas, ular doimo tashqaridan paydo bo'ladi: tarbiya uchun mas'ul bo'lgan kattalarning ta'lim ta'sirining psixologik va pedagogik qobiliyatsizligi tufayli. Uchinchidan, bolalarda negativizmni aniqlash uchun maxsus diagnostika vositalari topilmadi. Biz negativizm belgilarini aniqlashga qaratilgan diagnostika usullarini ishlab chiqmoqdamiz. Biz bunday belgilarni o'z vaqtida - erta yoshda aniqlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. Eng yangi psixologik-pedagogik lug'at / komp. E. S. Rapatsevich; jami ostida ed. A.P. Astaxova. - Minsk: zamonaviy maktab, 2010. - 928 b.
2. Tadjieva S.X., Sabirova D.G'. "Tanglik vaziyatida qolgan bolaga psixologik yordam ko'rsatish". T.: RBIMM, 2011 y. 142 b
3. Kamolova, S. (2021). THE ROLE OF UNIVERSAL AND SCIENTIFIC VALUES IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, (2).
4. Ganieva, M. (2023, June). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).
5. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING SAVOD CHIQUARISHIDA MA'NAVIYATGA OID SO'ZLARNING O'RNI

Sayfullayeva Fotima Baxodir qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti O'zbek
tili va adabiyoti fakultet 2-bosqich talabasi

Telefon raqam: +998919205260

fotimasayfullayeva004@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8106086>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarning savod chiqarishida ma'naviyatga oid leksemalarning o'rni, ularni o'quvchilarga oson tushuntirish yo'llari aytib o'tildi. "Ma'naviyat"ga oid tushunchalarning mohiyatini idrok etish orqali o'quvchilarning savodxonligini oshirishdagi o'rni ochib berildi.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, boshlang'ich sinflar, ta'lim, tarbiya, adolat, vijdon, do'stlik, savod chiqarish.

THE ROLE OF WORDS ABOUT SPIRITUALITY IN THE PRODUCTION OF BASKETS BY PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. This article mentioned the role of lexemes related to spirituality in the savod release of elementary grades, ways to explain them easily to students. By perceiving the essence of concepts related to "spirituality", its role in improving the literacy of students was revealed.

Key words: spirituality, elementary grades, education, upbringing, justice, conscience, friendship, savoeing.

РОЛЬ СЛОВ О ДУХОВНОСТИ В ОБУЧЕНИИ ГРАМОТЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В этой статье была описана роль лексем духовности в образовании грамотности начальных классов, способы их легкого объяснения учащимся. Через восприятие сущности понятий, относящихся к "духовности", выявлялась ее роль в повышении грамотности учащихся.

Ключевые слова: духовность, начальные классы, образование, воспитание, Справедливость, Совесть, дружба, выпуск грамоты.

KIRISH

Mustaqillik yillarida bizning ta'lim tizimimiz ham boshqa sohalar singari tiklandi. Uning mohiyati va ahamiyati shakli va usullari o'zgartirildi. Hozirda yosh avlodga katta e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim va ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning sa'y-harakatlari bilan ta'lim tizimi tubdan o'zgardi. Yevropa andozalari asosida maktablarda darslar o'tila boshlandi. Yosh avlodga yaratib berilgan sharoitlardan oqilona foydalanib, shu yurtga munosib farzand bo'lish kerak. Bunga ta'lim va tarbiya bilan erisha olamiz. Yevropacha ta'limdan foydalansak-da, biz asli kimligimizni unutmasligimiz kerak. Sharqona mentalitet, qadriyat, eng asosiysi ma'naviyatimizni saqlab qolishimiz zarur. Prezidentimiz "Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman, deganlarida aynan mana shularni nazarda tutgan bo'lsalar ajab emas.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Bugungi yosh avlodni tarbiyalash uchun ularda, avvalo, ma'naviyatni shakllantirishimiz zarur. Buning uchun faqatgina ma'naviyatshunoslik darslarimiz kamlik qilmoqda. Chunki bugungi kunda shaxs ma'naviyati global masalalar qatorida markaziy o'rinni egallab kelmoqda. Zero, juda ko'p muammolar shaxs ma'naviyati orqali ijobiy yechim topganligi va topayotganligini tushunish qiyin emas. Shuning uchun ham tilshunosligimizda paydo bo'lgan yangi sohalardan biri – lingvoma'naviyatshunoslik ham aynan yosh avlodning ma'naviy salohiyatini oshirishni ko'zda tutgan. Avvalo, bugungi kun o'quvchisiga ma'naviyatning mohiyatini tushuntirish, uni idrok etish va amaliy ahamiyatini singdirish har birimizning muhim vazifamizdir.

Lingvoma'naviyatshunoslik yo'nalishiga e'tibor va uning tadqiqi kundan kunga ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan amaliy ahamiyatga ega bo'la boshlayapti. Ta'lim yo'nalishi esa, bir tomondan, "ma'naviyat" lisoniy kategoriyasi unsurlari mohiyatini o'quvchilarga singdirish, ikkinchi tomondan, ushbu tizimga kiruvchi til ifodalarining ma'naviy mohiyati ta'limi orqali ular shaxsiy ma'naviyatini yuksaltirish mexanizmini takomillashtirish vazifalarini o'z zimmasiga oladi. Bu esa biz tilshunoslarni bu sohada aniq maqsadlar qo'yib, ma'naviyatni o'quvchilarga keng targ'ib qilishga chorlaydi. Ammo bu unchalik ham oson ish emas. Chunki "ma'naviyat" konsepti va unga oid tushunchalarni barcha birdek tushuna olmaydi. Shuning uchun ham biz tadqiqotlarimiz davomida "ma'naviyat" konseptining yosh xususiyatlarini ishlab chiqmoqdamiz.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.

"Ma'naviyat"ni o'rganishni yoshlikdan boshlash lozim. Zero, "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir", – deb xalqimiz bejizga aytmagan. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviyat va uning kategoriyalarini o'rgatish eng katta vazifalarimizdan biri desak, adashmaymiz. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining savod chiqarishida ma'naviyatga oid so'zlarning o'ni katta. Shuning uchun ham biz tilshunoslar "ma'naviyat" konseptini boshlang'ich sinf o'quvchilariga moslab ishlab chiqishimiz zarur. Oddiygina boshlang'ich sinf o'quvchisidan ma'naviyat nima? deb so'raganda javob berolmaydi. Bu tabiiy hol. Ma'naviyat so'zining mohiyatini katta yoshdagi insonlar ham zo'rg'a izohlashadi. Mana shu holatlarning oldini olish maqsadida lingvoma'naviyatshunoslik sohasi vujudga keldi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'naviyatga oid tushunchalarning mohiyatini oson usullarda o'rgatishimiz kerak. Masalan, ma'naviyat leksemasining izohini "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan foydalanib, o'quvchilar ongida tasavvur uyg'otamiz. Ya'ni *ma'naviyat bu – odob, axloq, kattalarga salom berish, kichiklarni izzat qilish, yaxshi o'qish, toza-ozoda yurish* deb tushuntirsak, o'quvchilarda ma'naviyat bilan bog'liq tasavvur uyg'onadi. "Ma'naviyat" konseptini o'rgatish uchun kundalik hayotda ko'p ishlatadigan ma'naviyatga oid so'zlarning mohiyatini ochib berish kerak.

Xususan, *adolat, yaxshilik, farosat, vijdon, jasurlik, mehribonlik, ezgulik, do'stlik* leksemalarini asl mohiyatini o'quvchi tilida tushuntirsak, keyinchalik ularning savod chiqarishi ham oson bo'ladi. Chunki "ma'naviyat" leksik-semantik kategoriyasi va uning ma'naviy guruhlari matnlar tuzishda, o'quvchilarning nutqini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Xususan, *adolat deganda tenglik, rostgo'ylik, to'g'ri qaror chiqarish*; *farosat deganda aqllilik, ziyraklik, vazifalarni aytilmasa ham bajarish*; *mehribonlik deganda g'amxo'rlik, narsalarini yaqinlari bilan bo'lishish, yordam berish va onani ko'z o'ngingizda gavdalantirishingiz kerak, deya ma'naviyatga oid tushunchalarni izohlab berishimiz lozim.*

O‘zbek tilida “ma‘naviyat” leksik sistemasining mohiyatini ochishda uning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan “e‘tiqod” umumiy semali atov birliklari alohida o‘rin tutadi. “E‘tiqod”, “xolislik”, “ma‘rifat”, “muhabbat”, “iymon”, “ishonch”, “adolat”, “axloq”, “vijdon”, “vatanparvarlik”, “shaxsiy takomillashuv” tushunchalari ma‘naviyatning asosini tashkil etadi. [bu tushunchalarni o‘rganish o‘quvchilar nutqida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Bu usul o‘quvchilarning tez va oson savod chiqarishida ham qo‘l keladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ma‘naviyatning yosh avlodni tarbiyalashda, ularning komil inson va yetuk shaxs bo‘lib yetishishida o‘rni beqiyos. Ma‘naviyatni lisoniy jihatdan tahlil qilib o‘rganuvchi ligvoma‘naviyatshunoslik sohasi ham kundan kunga ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy jihatdan rivojlanib taraqqiy etib bormoqda. Bu esa “Ma‘naviyat”ga oid so‘zlarning o‘quvchilar nutqidagi tavsifini shakllantirib, uning o‘quvchilar tarbiyasidagi o‘rni qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatib bermoqda.

REFERENCES

1. <https://hikmatlar.uz/quote>
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. J. II. – Toshkent: O‘zME, 2006. – B.587.
3. Yuldashev F. H. O‘zbek tilining “Ma‘naviyat” leksik-semantik kategoriyasi “e‘tiqod” ma‘naviy guruhi atov birliklari tizimi 10.00.01 – o‘zbek tili filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) aftoref. – B. 7

SIYOSIY NUTQQA QO'YILADIGAN KOMUNIKATIV TALABLAR VA ULARNING AMAL QILINISHI

Iqboloy Yovmudboyeva G'ulom qizi

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8110058>

Annotatsiya. Ushbu maqolada siyosiy nutq haqidagi ta'riflar tahlil qilinib, aniq xulosalar aytilgan. Siyosiy nutqqa qo'yiladigan kommunikativ talablar misollar bilan tadqiq qilingan.

Nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyligi, tozaligi kabi talablar siyosiy nutq uchun qanchalik ahamiyatli ekanligi misollar yordamida sharxlangan.

Maqolada nafaqat o'zbek notiqolari nutqlaridan, balki xalqaro minbarlardagi nutqlardan amaliy misollar sifatida foydalanilgan.

Kalit so'zlar: Siyosiy nutq, kommunikativ talab, nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyligi.

COMMUNICATIVE REQUIREMENTS FOR POLITICAL SPEECH AND THEIR VALIDITY

Abstract. This article analyzes definitions of political discourse and makes specific conclusions. Communicative requirements for political speech have been researched with examples.

Such requirements as correctness, accuracy, logic, cleanliness of speech are expressed using examples of how significant it is for political speech.

The article uses not only the speeches of Uzbek speakers, but also speeches at international pulpits as practical examples.

Key words: political speech, communicative demand, correctness, accuracy, logic of speech.

КОММУНИКАТИВНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ К ПОЛИТИЧЕСКОМУ ДИСКУРСУ И ИХ РЕАЛИЗАЦИЯ

Аннотация. В этой статье анализируются определения политического дискурса и делаются конкретные выводы. Коммуникативные требования к политическому дискурсу были исследованы на примерах.

Насколько значимы для политической речи такие требования, как правильность, точность, логичность, чистота речи, были истолкованы на примерах.

В качестве практических примеров в статье использованы не только выступления узбекских ораторов, но и выступления с международных трибун.

Ключевые слова: политическая речь, коммуникативное требование, правильность, точность, логичность речи.

Siyosiy nutqning tadqiq qilinishi nutq madaniyati uchun yetakchi masalalardan hisoblanadi. Siyosiy-ijtimoiy notiqlikning mahsuli bo'lgan siyosiy nutq aniq maqsadga, ya'ni jamiyatdagi muhim masalalarni tahlil qilishga yo'naltirilganligi, muayyan vaqt reglamentiga egaligi bilan boshqa turdagi nutq shakllaridan ajralib turadi. O'zbek nutq madaniyati yo'nalishi uchun ilk darsliklardan hisoblangan R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, E.Tojiyevlar muallifligidagi "Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari"(1990-yilgi nashri) kitobida siyosiy nutq "Ommaviy ma'ruzalar" mavzusida o'rganiladi va bu jarayonda nutqning siyosiy o'ziga xosliklari va xususiyatlari umumiy qarashlar bilan baholanadi. Aslida esa ommaviy ma'ruzalar nutq madaniyati

uchun qay darajada ahamiyatli bo'lsa, siyosiy nutqning ahamiyatligi ham xuddi shu darajadadir. Keyinchalik To'ra Qudratovning "Nutq madaniyati asoslari" o'quv qo'llanmasida siyosiy nutq tahliliga butunlay boshqacha yondashiladi. Ya'ni, ushbu nutq mazmuniga ko'ra emas, balki ifodalanishiga ko'ra og'zaki va yozma nutq shaklida tasnif qilinib, izohlanadi. Nisbatan yangi R.Rasulov, N.Husanov, Q.Mo'ydinovlar muallifligida 2006-yilda nashr qilingan "Nutq mahorati" o'quv qo'llanmasida "Notiqlik turlari. Nutq ko'rinishlari"- deb beshta turga ajratadi va birinchi turini "Siyosiy-ijtimoiy notiqlik"- deb nomlaydi. Lekin ularning orasidan "Sud notiqligi"ga kengroq to'xtalib o'tadi. Siyosiy nutq tahliliga kelganda Yunon notiqlik maktabi va sharq voizligi bilan cheklanib qoladi. N.G'oyibov, D.Yusobov, A.Mavlyanovlar muallifligidagi "Notiqlik san'ati" ma'ruzalar matnida esa siyosiy nutq quyidagicha ta'riflanadi:

Asosan, rahbarlar tomonidan qilinadi va shuning uchun ham dasturilamal xususiyatga ega bo'lib, bunday nutqlarda davrning dolzarb masalalari, boy faktik materiallar aks ettiriladi. [1:47]

Ushbu fikrlarga qo'shimcha ravishda Hindistonning Maurer universiteti tasarrufidagi Huquq maktabi o'qituvchisi, huquq fanlari doktori Jennifer Muellerning "Difference between political speech & commercial speech" (Siyosiy va tijoriy nutqning o'zaro farqi) maqolasidagi siyosiy nutqqa berilgan izohni keltirib o'tsak: Siyosiy nutq bu shunchaki hokimiyat tomonidan ishlab chiqilgan nutq emas, ba'liki ijtimoiy muammolarning muhokamasi hamdir. Siyosiy nutqning asosiy mazmuni xalqning farovniligi. [2]

Ya'ni siyosiy nutqda yuqorida ta'kidlaganimizdek, aniq maqsad ko'zlangan bo'ladi. Bu maqsadning amalga oshish darajasi esa bevosita nutqning to'g'ri tashkil qilinganligiga bog'liq. Nutq to'g'ri tashkil qilinishi uchun esa, albatta, kommunikativ talabalar (nutqning to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliqi, tozaligi)ga javob berishi lozim. Siyosiy nutq katta imkoniyat bilan birga, majburiyatlardan ham iboratligi bois, har bir talabning qanoatlantirilishi imkoniyat va majburiyatlarini bir butunlashtiradi.

Kommunikativ talablar va ularning amal qilinishi haqida kengroq to'xtalib o'tsak:

Nutqning to'g'riligi: "To'g'rilik deganda deb yozadi V.G.Kostomarov,-nutq madaniyatining zarur va birinchi sharti sifatida adabiy tilning ma'lum paytda qabul qilingan normasiga qat'iy va aniq muvofiq kelishini, uning talaffuz, imloviy va grammatik normalarini egallashni tushunish lozim bo'ladi".[3:24] Demak, adabiy me'yor (leksik – semantik, grafik, fonetik, aktsentologik, grammatik morfologik va sintaktik so'z yasaliq, imloviy, uslubiy, punktuatsion)larga asoslangan nutq, nutqning to'g'riligi talabini ham qanoatlantira oladi. Siyosiy nutqni uning auditoriyasi jihatidan tahlil qilsak, ya'ni siyosiy nutq rasmiy doiralar uchun xosligini ham inobatga olsak, "nutqning to'g'riligi" tom ma'noda siyosiy nutq uchun birinchi talab deya olamiz. Chunki rasmiy doiralarda adabiy til me'yorlariga amal qilish shartligi qonun doirasida belgilangan.

Yaxshi siyosatchi – yaxshi notiq ham hisoblanadi. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev dunyo hamjamiyati e'tirof qilganidek nafaqat oqil siyosatchi, balki notiq hamdir.

Bugun prinsipial jihatdan g'oyat muhim bo'lgan bir fikrni yana ta'kidlab aytishni zarur deb bilaman: O'zbekiston va uning bag'rikeng xalqi tinchliksevar siyosat yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash tamoyillarini amalga oshirish pozitsiyasida doimo mustahkam turib kelmoqda. [4:139] Yuqorida yurtboshimizning prezidentlik lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi

“Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo etamiz” mavzusidagi ma’ruzasidan parchada adabiy me’orning barcha tamoyillariga qat’iy amal qilinganligini ko’rishimiz mumkin. Ya’ni jumladagi so’zlar leksik-semantik jihatdan bir butunlik hosil qilganki, hajman kichik jumlada katta g’oya jamlangan. Shuning bilan birga, morfologik va sintaktik me’yorlarga ham to’liq rioya qilingan. Rasmiy uslubdagi ushbu jumlar uslubiy normalarga asoslangan holda qurilgan.

Nutqning aniqligi. Nutqning aniqligi talabi ham to’g’rilik talabining uzviy davomi bo’lib, nutqning bir butunligini ta’minlovchi me’zoni hisoblanadi. Nutq tarkibidagi so’zlar o’z o’rnida qo’llanilganda, ya’ni nutq aniqligi talabi qanoatlantirilgandagina u yaxlit butunlik shakliga kiradi.

Nutqning aniqligi so’zning o’zi ifodalayotgan voqelikka mutlaqo mos va muvofiq kelishidir. Aniqlik ikki xil bo’ladi: narsaning aniqligi va tushunchaning aniqligi. Narsa aniqligi nutqda aks etgan mavjudlikning narsalar, hodisalar doirasi bilan nutq mazmunining munosabatida ko’rinadi. [5:53]

Ushbu talab ham siyosiy nutqning o’ziga xosliklarini ta’minlovchi talabdir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek siyosiy nutqning mazmun-mohiyatini jamiyat taqdiri tashkil qilgan ekan, undagi har bir jumla sinonimik qatorlardan tog’ri tanlab olingan, ko’p ma’nolilik va omonimlik jihatlariga e’tibor berilgan holda o’z o’rnida qo’llanilmog’i lozim.

Nutqning mantiqiyliigi. Jumladagi mantiq so’zidan ham ma’lumki bu talab ham oldingi talablar bilan bevosita bog’langan. Chunki aniqlik va to’g’rilik mavjud bo’lmagan nutqdan mantiqiylikni izlash befoyda. Mantiqlik talabini qanoatlantirish uchun adabiyotimiz darg’asi A.Qahhor ta’biri bilan aytganda: “So’zni mixday qoqib, shapkasini sug’urib olish kerak” R.Qo’ng’urov, E.Begmatov, E.Tojiyevlar muallaifligidagi “Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari”(1990-yilgi nashri) qo’llanmasida Nutqning mantiqiyiligini izohlashda A.G.Chernishevskiyning “Nimani noaniq tasavvur qilsang, shuni noaniq ifoda etasan, noaniqlik va ifodani chalkashtirish fikrlar chigalligidan dalolatdir.” jumlasini keltiradi. Ya’ni mantiqiylik notiqdan so’zlardan saralab foydalanish, tinglovchilar hech ikkilanmasdan uni qabul qilishini talab qiladi.

Siyosiy nutq uchun ham bu talab o’rinli, siyosiy jarayondagi har bir jumla mantiq qonuniyatlariga asoslanadi. Quyida biz AQSh kinoijodkorlarning “Debate” (Munozara) filimidagi suhbatning mantiqiyiligini tahlil qilamiz:

Talaba qiz: *Nima uchun AQSh dunyodagi eng buyuk davlat?*

Birinchi siyosatchi: *Imkonitalar sabab.*

Ikkinchi siyosatchi: *Ozodlik va ozodlik sabab.*

Uchinchi siyosatchi: *AQSh dunyodagi eng buyuk davlat emas. Bu yerda hamma narsa sotiladi va sotib olinadi. Qanaqa umumiy imkoniyalar haqida gapirayapsiz? Ozodlik? Nima faqat AQSh ozodmi? Kanada ozod, Yaponiya ozod, Britaniya ozod, Fransiya ozod, Germaniya ozod. AQSh ortiq dunyodagi eng buyuk davlat emas.[7]*

Buyuk so’ziga yuzaki baho bergan ikkita siyosatchi umumiy fikrlar bilan javob berdi. Buyuklik darajasini belgilovchi jihatlariga e’tibor qaratilmadi. Ulardan farqli ravishda esa uchinchi siyosatchi berilgan savolga **tahliliy asoslar** bilan mantiqiy javob qaytardi. Bu esa tinglovchilarda oldingi nutqlarga nisbatan kuchliroq ta’sir paydo qildi.

Nutqning tozaligi. Nutqni notiqning mahsuloti deb tasavvur qiladigan bo‘lsak, u sotuvga chiqishi oldidan so‘nggi ko‘rikdan o‘tkazilish jarayonidir. Bu jarayonda uning tarkibidagi begona unsurlar olib tashlanadi. Nutqning tozalik darajasi uning tarkibida parazit so‘zlar (ko‘p takrorlanuvchi), sheva so‘zlar, o‘rinsiz qo‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari, jargonlar, vulgarizmlar, kanselyarizmlar uchramasligi bilan baholanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, nutqning tozaligi deganda eng avvalo, uning adabiy tilning lisoniy normasiga muvofiq kelish - kelmasligi tushuniladi. [8:56,57]

Har qanday siyosiy nutq, albatta, yuqoridagi unsurlardan ozod bo‘lishi kerak. Chunki turli o‘rinsiz takrorlar yoki jargon, vulgarlarning uchrashi nutqning siyosiylik ahamiyatini pasayishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, siyosiy nutq uchun ham kommunikativ talablarning o‘rinlanishi nutq mazmunini boyitadi. Har qanday harakatdagi jarayon ma‘lum talablarga bo‘ysunganidek, siyosiy nutq ham yuqoridagi talablarga bo‘ysunishi lozim. Zero, talablar ko‘zlangan maqsad yo‘lidagi yo‘l belgilaridir va bu belgilar orqali manzilga oson yetib boriladi. Minbarga chiqqan har bir siyosatchi notiqning o‘z fikri va o‘z so‘zi bo‘ladi. To‘g‘ri, aniq, mantiqiy, toza nutq orqali esa bu fikrni boshqalarniki ham qila olishi, shubhasiz.

REFERENCES

1. G‘oyibov N., Yusobov D., Mavlyanov A. Notqlik san‘ati. T.: 2012.
2. Jennifer Mueller. Difference between political speech & commercial speech. Classroom.synonym.com
3. Kostamarov V.G. Kultura rechi i stil. – M. 1960.
4. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: O‘zbekiston 2018.
5. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyati asoslari T. 1992.
6. Karimov I. O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura T.: O‘zbekiston 1996.
7. Youtube.com
8. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T.: 1993

**HIKOYADA TUGUN TUSHUNCHASI
(ULUG‘BEK HAMDAMNING "BIR PIYOLA SUV" HIKOYASI MISOLIDA)**

O‘ralova Mohichehra

Termez davlat universiteti 2 - bosqich talabasi

Hafizova Feruza

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8110480>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tugunning o‘ziga xos xususiyatlari, Ulug‘bek Hamdamning "Bir piyola suv" hikoyasidagi tugunlar mazmuni, hamda asarning falsafiy ma‘nolari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Tugun, fabula, voqea, tahlil, mazmun-mohiyat, psixologik tahlil, falsafiy qarashlar, kompozitsiya, vazifa.

**THE CONCEPT OF A KNOT IN THE STORY
(ON THE EXAMPLE OF ULUGHBEK HAMDAM'S STORY "A BOWL OF
WATER")**

Abstract. This article will talk about the peculiarities of the knot, the content of the knots in Ulughbek Hamdam's story "a bowl of water", as well as the philosophical meanings of the work.

Key words: knot, fabula, event, analysis, content-essence, psychological analysis, philosophical views, composition, task.

**ПОНЯТИЕ УЗЛА В РАССКАЗЕ
(НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА УЛУГБЕКА ХАМДАМА "ЧАША С ВОДОЙ")**

Аннотация. В этой статье будут рассмотрены особенности узла, содержание узлов в рассказе Улугбека хамдама "чаша с водой", а также философский смысл произведения.

Ключевые слова: узел, фабула, событие, анализ, содержание-сущность, психологический анализ, философские воззрения, композиция, задача.

Hozirgi adabiy jarayonimizning yirik vakili, o‘zbek nasriga, ayniqsa, hikoyachiligiga, o‘zining yangi ovozi, yangi ruhi bilan kiri kelgan, iste‘dodli yozuvchilarimizdan biri bu Ulug‘bek Hamdam hisoblanadi. U yozgan roman, qissa va hikoyalar kitobxonlar tomonidan juda iliqlik bilan kutib olinadi.

Ulug‘bek Hamdam hikoyachilikda o‘zining alohida o‘rnig eg bo‘lgan buyuk ijodkordir. Uning hikoyalarida ramziy tasvirlar bilan bog‘liq holda real hayot, hamda, hayolot to‘g‘risida falsafiy tushuncha va qarashlar, inson qalbidagi tushunish mushkul bo‘lgan hissiyotlar, voqealar yuksak mahorat bilan talqin qilinadi. Hikoyalaridagi insonlarning turli qiyin mushkulotlarga tushib qolishi, ma‘lum bir shaxs yoki voqea yoritilishi zarur bo‘lgan mazmun, mohiyat, yashirin, mavhum holda berilishi, kitobxonni chuqurroq va teranroq fikrlashga da‘vat qiladi. Ulug‘bek Hamdam hikoyalarini tinglar ekanmiz, ularning har biridan ma‘naviy ozuqa olib, falsafiy mushohadaga sho‘ng‘iyimiz. Hikoyalardagi tugun, kompozitsiya bizni bot - botasarni chuqurroq tinglab, psixologik tahlil qilishimizga undaydi. Ulug‘bek Hamdamning "Bir piyola suv" hikoyasi ham xuddi shu uslubda yozilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tugun - asosan asarlardagi voqealar rivojini shakllantirib, o'quvchini asar ichiga yetaklovchi, qahramonlar taqdiriga qiziqtiruvchi, fabula rivojidagi voqeadir. Ko'pincha tugun asar o'rtasi va oxirida ko'proq uchraydi. Ammo ba'zi asarlar tugundan boshlanishi ham mumkin.

Ulug'bek Hamdamning " Bir piyola suv " hikoyasi ham tugundan boshlanadi.

Asarda, yuk tashuvchi kishiga juda ham muhim bo'lgan bir topshiriq yuklatiladi. Biroq bu topshiri haqid batafsil ma'lumot berilmaydi. U ikkita ot qo'shilgan aravani, shom tushgunga qadar, manzilga eltishi zarur, ammomanzil haqida ham, hatto, bu topshiriq aynan nega unga berilgani haqida ham ma'lumot yo'q. Ayni manashu iznma - ketin kelayotgan jumboqlar, asarning tuguni hisoblanadi Yuk tashuvchi o'z zimmasiga yuklatilganvazifalarni bajarish uchun yo'lga chiqadi. Avvaliga yon atrofidagi bepayon sahro, jazirama issiq, osmonda uchayotgan qushlar, unga tetiklik bag'ishlaydi. Xuddi ular unga nimanidir demoqchidek, unga yuklatilgan vazifani anglashayotgandek edi. Bundan u juda zavqlanib qo'shiq kuylagisi, baqirgisi keladi. Ammo ko'p o'tmay, jazirama issiq, yo'l azobi tufayli uning tanasi chanqab, yon atrofdan buloq izlay boshlaydi. U shunchalik chanqay boshlaydiki, barcha narsa yodidan ko'tariladi. Yolg'izlikda, borib - bori bir karvonsaroyini va bir piyola suv tutib turgan go'zal qizni ko'radi. U mamnunligidan karvonsaroy tomon shoshadi va vazifasi yodidan ko'tariladi. Karvonsaroyga borib bir piyola suv ichib chanqog'i qoladi. Mana shu vaziyatda u o'ziga, " shuncha yo'l bosib, bir piyolagina suvga qonib qoldimmi? " - degan savolni beradi. Ayni shu o'rinda yan bir tugunni kurishimiz mumkin. Bu holat inson nimagadir muhtoj bo'lganda uning nafsoniy sifatleri yuzaga chiqishidan darak beradi.

U karvonsaroy ichiga kirib, turli ishratparast insonlar va u yerdagi aysh -ishratni ko'rib ketgisi kelmay qoladi, ammo suv haqqini berish uchun navbatda turib, ancha vaqti ketadi va u endi bu yerdagi insonlarga rahmi kela boshlaydi, ularning umrini bekorchi narsalarga sarflayotganini ko'rib achinadi.

Suv haqqini beribaravasi tomon oshiqadi, u yerg boribxursandligidan sakramoqchi bo'ladi, ammo qarasaki, u harakat qilolmasdi, u endi ilgarigidek navqiron emasdi. Bu holatni ko'rib ,hushidan ketadi va yelkasida qanaqadir namlikni va qo'llarida tayoqni his qiladi. Tayoq yordamida o'rnidan turib aravani ochib qarasaki, arava ichida to'la ko'zalarda suv , ularning biri yorilib oqib yotardi .

Ko'rib turganingizdek asar boshdan oyoq tugun ustiga qurilgan va aynan shu tugun asarga o'ziga xos joziba baxsh etgan. Odatda tugundan so'ng doimo yechim keladi. (Yechim bu, asarning tushunilishi qiyin bo'lgan qismlarini, yani tugunni yoritib beruvchi qism hisoblanadi.) Ammo Ulug'bek Hamdam bu hikoyasida tugunlardan so'ng yechimlarni berib o'tmagan, balki bu vazifani o'quvchining o'ziga havola qilib qo'ygan.

Hikoya falsafiy ma'nolarga boy ravishda yozilgan. Masalan: inson dunyoga kelishi bilan Alloh unga mashaqqatli sahro yo'li (hayot) ni beradi. Umrining nihoyasiga qadar esa hech qachon qonmaydigan, o'ziga muqim intiltirib yashatuvchi suv (poklik) ni beradi . Vazifasini ado etgunga qadar esa yordam beruvchi (qushlar) va umri, vaqtini o'g'irlaguvchi to'siqlar. Ba'zida insonlar o'zida mavjud bo'lgan narsalarni uzoq izlashadi, xuddi yuk tashuvchi bir piyola suvni izlagani kabi . Qaysi yo'lni tanlash har bir insonning o'ziga bog'liq. Bu hikoyadan hamma har xilcha xulosa chiqarishi tabiiy. Bu yerda eng muhimi tog'ri munozara yuritishdir.

Ulug‘bek Hamdam o‘z ijodi va ijodkorlar haqida shunday yozadi: "Ijodkor o‘z yuragining pokligiga ahamiyat bermog‘i, binobarin, o‘z qalbining bir umrlik sadoqatli qo‘riqchisiga aylanmogi shart. Qorayib ketgan yurak bilan nafaqat zo‘r, balki miyona asar ham yozish mushkul. Yozish san‘atining ko‘pdan - ko‘p sir - u asrori tagiga yetgan, tizgan satrlarida nainki stilistik, balki bironta orfografik xato uchramaydigan ijodkorlarimiz bor. San‘atlariga tasanno deymiz, lekin ne yoziqki, ularning aksariyatida mazmun to‘piqqa ham chiqmaydi, asardan vulqondek otilib chiqib o‘quvchi yuragiga to‘g‘ri borib uriladigan badiiy zarb yo‘q, xuddi qishki tumanlar ar xira ko‘rinib turgan quyoshdek taftsiz, nursiz..." Darhaqiqat ushbu jumlar orqali ham yozuvchining asarlari va asl adabiyot nima ekanligini anglashimiz mumkin.

Xulosa qilib aytish joizki, Ulug‘bek Hamdam hikoyalarning g‘aroyibli, undagi tugun va falsafiy, psixologik tahlilning mavjudligidir. Tugun o‘quvchini fikrlashga undaydi, asarga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Asarlarning eng muhim qismlari: syujet (qurilish) fabula (voqea) yechim, kompozitsiya, kulminatsiya (asarning eng yuqori nuqtasi) ichida tugun ham o‘z o‘rniga egadir desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

REFERENCES

1. D.Quronov. "Adabiyot nazariyasi asoslari": darslik / Toshkent: "Noshir" nashriyoti, 2019. 336 b.
2. <https://www.ziyouz.com>
3. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug‘ati. - Toshkent: Akademnashr, 2013. 408 b.
4. <https://fayllar.org>

MAKTABGACHA, MAKTAB VA OLIY TA'LIM TIZIMLARIDAGI YANGI IMKONIYATLAR.

Najepova Sayyora

NDPI ning Fizika-matematika fakultetining 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8113219>

Annotatsiya. Maktab, maktabgacha va oliy tizimlarda bolalarni tarbiyalashda ularni kelajakda yetuk shaxs sifatida kamol topishida albatta o'qituvchi va tarbiyachilarning o'rni katta. Turli oliy maktablarda maktablarda yuqori, oliy malakali mutaxassislar tayorlash. Shunday ekan bolalarni o'qitishda yangi zamonaviy uslublardan foydalanish bolalarni yangi zamon ruhida tarbiyalashida, ularni yetuk mutaxassis bo'lib yetishida asosiy omil bo'ladi, desak to'g'ri bo'ladi.

Kalit so'zlar: Imkoniyatlar, oliy ta'lim tizimi, islohatlar, kredit modul tizimi.

NEW OPPORTUNITIES IN PRESCHOOL, SCHOOL AND HIGHER EDUCATION SYSTEMS.

Abstract. In the upbringing of children in school, preschool and higher systems, there is certainly a great role for archers and educators in maturing them as a mature person in the future. High, highly qualified specialists in schools in different higher schools. So it would be correct to say that the use of new modern techniques in teaching children will be the main factor in raising children in the spirit of a new time, making them mature professionals.

Key words: opportunities, higher education system, reforms, credit module system.

НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ В СИСТЕМЕ ДОШКОЛЬНОГО, ШКОЛЬНОГО И ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Аннотация. В воспитании детей в школьной, дошкольной и высшей системах, безусловно, велика роль педагогов и воспитателей в их дальнейшем взрослении как зрелых личностей. Подготовка высококвалифицированных специалистов в школах различных вузов. Таким образом, правильно сказать, что использование новых современных стилей в обучении детей будет ключевым фактором в воспитании детей в духе нового времени, их становлении зрелыми специалистами.

Ключевое слова: возможности, система высшего образования, реформы, кредитная модульная система.

Mamlakatimizda istiqloqlning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellectual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim –tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollangan tarbiyachilar bilan to'ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan uning maktabgacha ta'lim bosqichiga

e'tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha yoshdagi ta'lim muassasalariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish mamalakatimiz ilmiy texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlar yo'nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida, maktablarda yoki markazlarda oladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munsoabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqardi. [1]

Shuning uchun bolani yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi ya'niy texnologiya. Texnologiya yunoncha ikkita "texno", „logiya" so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, mohirlik, ustalik to'g'risidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. Yangi pedagogik texnologiya esa shu paytgacha ta'lim-tarbiya berishda foydalanib kelgan an'anaviy uslublardan voz kechgan holda yangi, qildiradigan, ijodiy izlanishga chorlaydigan uslublar yig'indisidan mohirlik bilan foydalanishadi. Shu bois, bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning faoliyatlari oila sharoitiga yaqinlashtirilib, 2-3 yo'nalish uyg'unlashtirilib turli xil o'yinlardan foydalanish orqali tashkil qilinmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida xalqaro aloqalarga keng o'rin berilib rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Germaniya, Gollandiya tajribalari o'rganilib, xududiy va milliy xususiyatlarimiz hisobga olingan holda, ijodiy qo'llanilmoqda. Mariya Motessori ilmiy izlanuvchan, tabiatshunos, vrach, psixolog Italiyada yashab ijod etgan, Uning maktabgacha tarbiya sohasida pedagogik faoliyatini butun dunyo xalqlari biladi U bolalar bilan ishlash jarayonida bolalarga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni: ularning qobiliyatlari, qiziqishlari, bilim darajalarini o'rgandi. Shularga asoslanib didaktik o'yinlar va didaktik materiallar yaratdi. Uning fikricha pedagogika bolaga yordam bermaydi balki, tarbiyachiga yordam beradi. Haqiqatdan ham shunday. O'rgatish uslubi bolalarning istagi, qiziqishi, mushohada qilishi bilan bog'lanmas ekan, bu uslubning samarasi to'g'risida o'ylamas ham bo'ladi. Maktabgacha ta'lim sohasida pedogogik jarayonga xozirgi kun talablari bolalarni erkin fikrlashga undovchi qanday topshiriqlar, ta'limiy o'yinlardan foydalanish lozimligi to'g'risida tushuncha beradi. [2].

Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi. Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqinlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish,

ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. [3]Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga birlashtirilishi bo'ldi. Maktab bitiruvchilarining oliy ta'limga qamrovi 25 foizdan 50-60 foizga etkaziladi; OTM davlat granti asosida qabul ikki barobar oshiriladi, shuningdek, qizlar uchun alohida davlat grantlari joriy etildi; O'qishga kirish soddalashtiriladi;

Ona tili bo'yicha bilimlarni baholashning milliy test tizimi paydo bo'ldi;

Mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar soni ikki baravarga kamaydi;

Oliy ta'lim o'quv jarayonida kredit-modul tizimi joriy etildi;

Pedagogik ta'limning 6ta yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati 3 yil etib belgilandi;

10ta OTM o'zini-o'zi moliyalash tizimiga o'tib, kamida 5ta OTM transformasiya qilindi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni bog'chalarga qamrab olish ko'rsatkichini 60 foizga etkazish ko'zlandi. Shu bilan birga, 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimini joriy qilish davom ettiriladi. Shu maqsadda 130 mlrd so'm mablag' ajratiladi. 2020 yilda 36ta yangi maktab qurilib, 216tasi kapital ta'mirdan chiqarildi. Ushbu ishlarga esa 1,7 trln so'm mablag'sarflanishi rejalashtirilgan edi. Joriy yilda 55ta xususiy maktab tashkil etilishi, ularning respublikadagi umumiy soni 141 taga etkazilishi bildirildi. Yuqori malakali o'qituvchilar maoshini yanada oshirish masalasi davom etadi. Professional kasb-hunar ta'limda yangi tizim yo'lga qo'yildi: 340ta kasb-hunar maktabi, 147ta kollej va 143ta texnikum tashkil etildi. Milliy malaka tizim ishlab chiqiladi, natijada 9000ga yaqin kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlanadi. Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan. Hujjatda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi ta'lim muassasalarini qurish, ta'mirlash va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash nazarda tutilgan.[4]

"Yangi O'zbekiston strategiyasida oliy ta'lim tizimlaridagi vazifalar:

Oliy ta'limga qamrov darajasini 50 foizga yetkazish bilan birga asosiy e'tibor ta'lim sifatini oshirishga qaratiladi. 2026-yilga qadar kamida 10 ta oliy goh nufuzli xalqaro reytinglarga kiritiladi;

Talabalarning yashash sharoitini yaxshilash uchun kelgusi besh yilda qariyb 100 ming o'rinli talabalar yotoqxonalari barpo etiladi;

Oliy ta'limda raqobat muhitini kuchaytirish maqsadida 2026-yilgacha xususiy oliygohlar soni kamida 50 taga yetkaziladi.

Doktoranturaga qabul davlat buyurtmasi hamda manfaatdor tashkilotlar mablag'lari hisobidan to'lov-grant asosida joriy etiladi," - deb ta'kidladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining saylovoldi dasturida.

Oliy ta'lim muassasalari professor oqituvchilarning malakasini oshirish;

Ta'limning turli yonalishlari uchun yangi o'quv dasturlari, zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar yaratilishi;

Oliy ta'lim muassasalari professor o'qituvchilarning xorijiy ilmiy ammaliy seminar, konferentsiya va simpoziumlarda keng ishtirok etishi;

Professor oqituvchilarning va talabalarning xorijiy almashinuv dasturlari va treninglarda qatnashuvi;

Xorijiy o'qituvchi va professorlarning respublika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini takomillashtirish va tajriba almashinuvi maqsadida ishlashga taklif etish; Oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik XXR, Koreya Respublikasi, Malayziya, Misr, Ummon Sultonligi, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Turkmaniston, Ukraina va boshqa qator davlatlar bilan hukumatlararo va ...aro shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik XXR, Koreya Respublikasi, Malayziya, Misr, Ummon Sultonligi, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Turkmaniston, Ukraina va boshqa qator davlatlar bilan hukumatlararo va shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, 2030-yilga qadar respublikadagi barcha oily ta'lim muassasasi (OTM)ning 85 foizi, jumladan, 2020/2021-o'quv yilining o'zida 33 ta oily ta'lim dargohini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi. Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib boorish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash hamda talabalar bilimini reyting asosida baholashga asoslanadi. Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning-qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimni reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirishga xizmat qiladi. Bunda dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir.

Shu bila birgalikda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, XXR, Malayziya, Hindiston, RF va boshqalar bilan to'g'ridan-to'g'ri muassasalararo shartnomalar asosida hamkorlik olib borishmoqda.

Ushbu shartnomalar professor o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, ularning turli konferentsiya va simpoziumlarda ishtirok etishi, qoshma ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilmiy maqolalar chop ettirish va hokazo vazifalarni korib chiqadi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari Britaniya Kengashi, Gyote nomidagi institut, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Koreya va Yaponiyaning xalqaro hamkorlik boyicha agentliklari, Hindiston va Malayziya texnik hamkorlik dasturi, BMTning rivojlanish dasturi, JB, ATB, ITB va boshqalar bilan yaqindan aloqa o'rnatgan. Ushbu barcha dastur va loyihalar davlatda oliy ta'limni rivojlantirish, ilgor xorijiy tajribani qollagan holda o'quv-metodik jarayonni takomillashtirish, professor o'qituvchilarning malakasini oshirish, talabalar almashinuvini kengaytirishga yo'naltirilgan. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari Evropa Ittifoqining Tempus va

Erazmus Mundus nomli ta'lim dasturlarida faol ishtirokini alohida ta'kidlash joiz. Ayni paytda respublikada Evropa Ittifoqining Tempus o'quv dasturining 20ta loyihasi tadbiiq etilib, ularda O'zbekistonning 40 atrofida oliy ta'lim muassasalari ishtirok etadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o'yin mazmuniga ko'proq bog'liqdir. Chunki bolaning xatti-harkati qanchalik ihsam va umumlashgan bo'lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o'tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to'g'ri ifodalashga intiladi.

Oliy ta'lim tizimida esa oliy talim sifatini taminlash borasida shu paytgacha mavjud bo'lgan milliy va xorijiy tajribalar shuni korsatadiki, hozirgi paytda OTMlarda alohida, tizimsiz tarzda otkaziladigan islohotlar va innovatsiyalar samarasiz bo'lib, bu ko'pincha oliy ta'lim sohasidagi umumiy samaradorlikka putur yetkazadi. Shuning uchun oliy talim sifatini oshirish bo'yicha shu paytgacha to'plangan xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimi yutuqlari bilan o'zaro uyg'unlashtirgan holda ham faqat majmuaviy, tizimli va bir butun tarzda amalga oshirish mamlakatimizda oliy ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishi shakshubhasizdir. So'ngi yillarda ta'lim tizimida turli xildagi yangiliklar va islohotlar bu oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatining ortishiga yordam beradi. Jumladan, modul kredit tizimi orqali talabaning kasbiy rivojlanish va kamol otiga ijobiy ta'sir qilish mumkin. Ya'ni ularning mehnat bozorida o'z o'rinlarini topishlarida zamonaviy talablarga javob beraoladigan inson kapitalini o'zlarida shakllantirishga qaratilgandir. Ta'limda sifatning ortishi salohiyatli kadrlar yetishtirib chiqarishga ham yordam beradi. Shuboisdan ham, biz oily ta'limdagi barcha islohotlar va yangiliklarni qo'llab-quvvatlaymiz, shuningdek, kelgusida tashabbuskorlik bilan biz ham oilygohimizda ko'plab yangiliklar qilishni maqsad qilganmiz. Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim sohasidagi islohotlar bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan also qolishmaydi. Bu islohotlar bugun allaqachon natijasini ham ko'rsatyapti.

REFERENCES

1. "Barkamol avlod – O'zbekiston Taraqqiyotining poydevori".
2. Germaniyalik X.Langvaldning Respublika miqyosida o'tlazilgan amaliy-kengashidagi nutqlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish
4. konsepsiyasi. 2-bob
5. <https://yuz.uz>.
6. Ganiyeva, M. (2023). THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPING THE LOGICAL THINKING OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS (IN MATHEMATICS LESSONS). *Science and innovation*, 2(B3), 30-33.
7. Ganiyeva, M. (2023, June). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education* (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).
8. Ganiyeva, M. (2021). *Effective Methods of TRIZ*.
9. Ганиева, М. А., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Формирование методов групповой работы с учащимися общеобразовательных школ. *Вопросы науки и образования*, (10 (22)), 149-151.

BOG'LANISHLI NUTQNI O'STIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Olimjon Eshimbetov

Toshkent gumanitar fanlari universiteti o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa fanlari doctori PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8113239>

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarda matn vositasida o'quvchilarning bog'langan nutq malakasini o'stirishning ilmiy-nazariy asoslari borasida atroflicha fikr-mulohazalar yuritiladi. Turli xil didaktik o'yinlar va ularni ta'lim jarayonida maqsadli qo'llashning interaktiv jihatlari tadqiq qilindi. Ayniqsa, matn vositasida o'quvchilarning bog'langan nutq malakasini rivojlantirish usullari mexanizimiga alohida e'tibor berildi.

Kalit so'zlar: nutq, ko'nikma, tahlil, metod, tasavvur, interaktiv, pedagogik texnologiya, tallafuz, talqin, so'zlash malakasi, bayon qilish madaniyati, nutqiy xoslangan hodisa, og'zaki hamda yozma bayon jipsligi, til madaniyati va nutq madaniyati.

LINGUODIDACTIC FOUNDATIONS OF LINKAGE SPEECH CULTURE

Abstract. The article provides comprehensive feedback on the scientific and theoretical basis of growing students' connected speech skills in primary-grade students by means of text. A variety of didactic games and interactive aspects of the target hand were researched in the process of training them. Particular attention was paid to the mechanism of methods for the development of students' associated speech skills in the text tool.

Key words: speech, skills, analysis, method, imagination, interactive, pedagogical technology, tallafuz, interpretation, speaking skills, culture of Statement, Speech-specific phenomenon, oral and written statement fluency, language culture and speech culture.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СВЯЗНОЙ РЕЧИ

Аннотация. В статье подробно рассмотрены научно-теоретические основы развития связной речевой компетенции учащихся с помощью текста у учащихся начальных классов. Были исследованы интерактивные аспекты различных дидактических игр и их целенаправленного использования в образовательном процессе. особое внимание было уделено механизму способов развития связной речевой компетенции учащихся средствами текста.

Ключевые слова: речь, умение, анализ, метод, воображение, интерактивность, педагогическая технология, произношение, интерпретация, речевая компетентность, повествовательная культура, речевое явление, устное и письменное повествование, языковая культура и культура речи.

Ravon, ifodali hamda ta'sirchan nutq hamisha hayotiy ehtiyoj hosilasi bo'lib kelgan. Binobarin, kishilik jamiyati tomonidan to'plangan bilim, tajriba va aqliy salohiyatni o'zlashtirishda vosita vazifasini bajaradigan so'zlash manerasida ijodiy mustaqillik nazariy axborot bilan uyg'unlashadi. Aslida belgilangan o'quv materialining ong-tuyg'uda to'liq o'zlashtirilishi jarayoni muayyan tizim intizomini taqozolaydi. SHu ma'noda, matnni kitobxon tasavvuriga yetkazib berish qanchalik ahamiyat kasb etsa, uni hissiy idrok etish va ifodalash ham shunchalik zarurat tug'diradi. Ta'lim mazmuni mudom shaxs axloqiy tarbiyasiga ta'sir o'tkazishga intilishini hisobga olsak, ma'naviyat va ma'rifat yaxlitligi ehtiyoji qabarib ko'rinadi. Vaholanki,

«ma'naviyatning yana bir muhim xususiyati odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qilishida namoyon bo'ladi»[1].

Insoniyat taraqqiyotiga nazar tashlasak, milliy uyg'onish, o'zlikni anglash hamda jamiyatga munosabatning faollashuvi aynan ma'rifatdan ibtidolanishi ayon bo'ladi. To'g'rirog'i, sog'lom e'tiqod va yuksak ma'naviyat estetik idrokda tutashadi. Zotan, intellektual bilim, aqliy salohiyatga intilish har bir mamlakat kundalik hayot mazmuni, taraqqiyot yo'sini kafolati sanaladi. Joriy kunda ijtimoiy ongda jiddiy yangilanish hosil bo'layotganligini hisobga olsak, ma'naviy-estetik qadriyaviy mezonlarni shakllantirish zarurati salmog'i yanada ortadi. Aynan murakkab hamda tahlikali davr ruhiyatida voyaga yetayotgan avlod ma'rifati o'zgacha mas'uliyatni taqozo etishi isbot talab qilinmaydigan haqiqat.

Avlod ma'naviyati va ma'rifati shakllanishida falsafiy tafakkur muhim o'rin egallaydi. Voqelikning umumiy, juz'iy hamda muntazam takrorlanib turadigan munosabatlari aslida intellektual salohiyatdan ibtidolanadi. Binobarin, borliqni aks ettirish, insoniyat olamini idrok etish yo'sinidagi intilishlar o'ziga xos ifodasi **so'zlash malakasida** voqe bo'ladi. To'g'rirog'i, qadriyaviy mezonlar barqarorlashuvi ratsional bilishning oliy bosqichi – **nutqiy xoslangan hodisada** maromiga yetadi. SHu ma'noda, mudomi odamzod onggi va tuyg'usini ham yaxlitlashtirish, ham jiddiy yangilashga moyillik o'zlashtiruvchi badiiy-estetik idrokining davr ruhiyatiga tutashuvini ta'minlaydi. Negaki, **bayon qilish madaniyati** doimo yaxlit tasavvur shaklida hosil bo'ladi hamda real salmoqdorlik kasb etadi.

O'quvchi mustaqil fikrlash madaniyati, ijodiy imkoniyatlari namoyon bo'lish tarzi hamda lug'at zahirasi aynan nutq faoliyatini markazlashtiradi. To'g'rirog'i, unda o'zlashtirilgan bilim darajasi, erishilgan malaka hajmi va amaliy ko'nikma o'z ifodasini topadi. Ayon bo'ladiki, yetuk mutaxassis tomonidan amalga oshiriladigan har qanday uslubiy qo'llanma **og'zaki hamda yozma bayon jipsligini** tayin etishga yo'naltiriladi. SHu ma'noda, ta'limni to'g'ri tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad **til madaniyati va nutq madaniyati** uyg'unligiga erishishdan iborat, deya e'tirof etish joiz.

Har bir millat tili qudratini uning amaliy ishlanganlik darajasi ta'minlaydi. Aniqrog'i, adabiy til va sheva o'rtasidagi keskin tafovutni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy bilim va nutqiy faoliyat butunligini tayinlash mutaxassis oldiga muayyan vazifalarni ko'ndalang qo'yadi. Ana shu maqsadning qanday amalga oshishi, avvalo, «o'qituvchining ijodiy izlanishiga, samarali metodlarni topa olishi, undan unumli foydalanishiga tutashadi»[2]. SHunday ekan, og'zaki va yozma nutq bog'lanishlarini mustahkamlash hamda taraqqiy toptirish hamisha dolzarb ahamiyat kasb etadi. Aslida nutqiy aloqa istilohi muayyan nazariy-amaliy ittifoqni oydinlashtiradi, o'zlashtirilgan material ko'lamini tushuncha hamda ifoda mushtarakligiga yo'naltiradi. To'g'rirog'i, axborot va qo'llanma orasidagi munosabat uning mohiyatini dalolatlaydi. Ham ilmiy ma'lumot va ta'lim ko'nikmasi, ham nutq texnikasi va ifoda madaniyati o'zaro bog'liqligi qo'yilgan masala mohiyatini yanada murakkablashtirib yuboradi.

Og'zaki va yozma nutq madaniyati uzluksizligi ta'minoti hamisha metodika e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Uning mohiyatini muntazam nazorat qilish faoliyati bilan izohlash maqsadga muvofiq. Mushohada ifodasidagi izchillik hamda savodxonlik darajasi yaxlitligi uning mag'zini tashkil etadi. Aslida nutqiy faoliyat muhit, ruhiyat va tarbiya o'zaro hamkorligini taqozolaydi. Eng avvalo, mazkur murakkab jarayon adabiy til xarakterini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan to'liq o'zlashtirishdan ibtidolanadi. Nazariy ma'lumot vositasida egallanadigan ijodiy layoqat og'zaki

va yozma nutq uzluksizligini ta'minlaydi. Shu ma'noda, og'zaki va yozma nutq madaniyatini taraqqiy ettirish, amaliy hamda nazariy ko'nikmalarni birlashtirishga ehtiyoj tug'diradi. Unda ijodiy mayl, amaliy ko'nikma hamda ifoda malakasi rivojlanib turadigan yaxlit jarayon tusini oladi. Insonning ma'naviyati, madaniyati va odob-axloqi uning tilida yaqqol namoyon bo'ladi. Kuzatishlar shuni yaqqol ko'rsatyaptiki, o'quvchi nutqi ravon emas, so'z boyligi ham kamroq.

Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Jamiyat taraqqiyotini hayotning takomillashuvini shuningsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunga erishishning birdan-bir yo'li yosh avlodning o'qish va bilim ko'nikma va malakasini shakllantirishdir. Hadislarda «Beshikdan to qabrgacha ilm izla», deyilishida judda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish va intilishlar insonni ma'naviy jihatdan o'stiradi, axloqiy barkamollikka eltadi. SHuning uchun ham bizning davrimizda xalq ta'lim tizimiga, yoshlar ma'naviyatining muhim bir manbai sifatida katta e'tibor berilmoqda.

O'qishda malakasizlik, o'qish madaniyatini bilmaslik har qanday o'rganish jarayonini tinkani quritadigan og'ir mehnat va majburiyatga aylantiradi. O'qish va o'rganish malakasi muayyan darajada shakllangan kishi uchun esa, ushbu faoliyat zavq beradigan ijodiy faoliyatga aylanadi. Qiynayotgan ishning samaradorligini ta'minlaydi.

Maktab adabiy ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o'rganishning maqbul usullari va shakllaridan foydalanish, shu jarayonda badiiy-estetik tushuncha va zavqni tarbiyalash, ularni kitobxonlikka o'rgatish kabi muammolar, (u) metodist olimlarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelayotgani ham xuddi shu sababdandir.

Bunday kamchiliklardan qutulishning birdan-bir yo'li ona tili darslarida o'quvchining mustaqil fikrini rag'batlantirib borish kerak.

Bola maktabga gapirishni bilgan holda keladi, lekin u o'qishning birinchi kunlaridan boshlab beriladigan yangi tushuncha, fikr, hissiyotni ifodalab berish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Buning uchun uning so'z boyligi etishmaydi. Bola maktabga kelguncha, uning so'z boyligi bolalar bilan o'yin faoliyati uchun, shuningdek, uning talab va qiziqishlari oila doirasida bo'lib, ota-onalari va qarindoshlari bilan suhbatlashish uchun yetarli edi. Maktabda esa ko'pincha to'liq va keng javob berishga, o'qituvchi va sinf oldida so'zlashga to'g'ri keladi. Undan tashqari, maktabgacha bola o'z fikrini yozma holda ifodalagan emas. Bular yuzasidan malaka hosil qilishi uchun bola maxsus o'qishi, fikr yuritishga o'rgatilishi zarur.

Ona tilini mukammal o'qitish o'quvchilar nutq madaniyatini o'stirishga keng imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi rahbarligida tabiat hodisalarini, kishilarning mehnat faoliyatini kuzatadilar, o'rtoqlari bilan fikr almashadilar, o'qituvchi va boshqalarning adabiy til normalari asosidagi nutqlarini eshitadilar, kitob o'qiydilar, o'zlari matn tuzadilar.

Bola maktabga kelgan dastlabki kunlardan o'zaki va yozma nutq qoidalarini, grammatikani o'rganadilar. Bu grammatik qoidalar o'quvchining nutq ko'nikma va malakasini o'stirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ishi bilan bog'lab olib borilsa, adabiy nutqning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bog'lanishli nutq aqliy, ruhiy va ma'naviy faoliyat hosilasi, unda ijodiy axborot uzluksiz hamkorligi, qayta idrok etish tizimi va mustaqil fikrlash malakasi yaxlit hodisaga aylanadi. Tasavvurdan tasvirga, tasvirdan ifodaga o'tib turadigan konstruksiya tabiati jarayon tezkorligini taqozolaydi. Eng avvalo, nutq hamda adabiy til mohiyati orasida mavjud tafovutni aniqlashtirish joiz. Lug'aviy birlik to'la o'zlashtirish jarayonida nutqqa evriladi. To'g'rirog'i, nutqiy malaka

muallif talqinidan kitobxon tasavvuriga ko'chishi vositasida salmoq kasb etadi. Jahon madaniyatida «qayta mutolaa» istilohi mavjud. Jiddiy ijodiy mehnat sifatida o'zlashtirish estetikasi «olam va odam haqidagi tasavvurlar, muayyan dunyoqarash bilan o'zaro muloqotga kirishish bosqichi» [3] ekan, nutqiy faoliyat ko'p qirrali jarayon sajiyasini oladi. Unda ijtimoiy mohiyat va ruhiy madaniyat, tasavvur tiniqligi va taassurot yaxlitligi, ifoda mustaqilligi va tasvir muqobilligi aks etadi.

Binobarin, nutqiy malakani o'zlashtirish tizimida kitobxon analogik talqinga suyanadi. Aniqroq aytganda, subyekt real voqelik va ijodiy yondashuv orasidagi tafovutlarni bir-biriga muqoyasa qiladi. Rus uslubiyatchisi V.O.Punskiy nutqiy faoliyat mazmunini ilg'or o'zlashtirish yordamida xotirada qayta tiklash jarayoni mexanik tarzda esda saqlashga nisbatan 25 barobar samarador bo'lishini e'tirof etadi [4]. Darhaqiqat, nutq psixologiyasini to'g'ri tayin etish va o'zlashtirish bir-biriga bog'liq omillar. Bu omillar, o'z navbatida, maxsus nazariy bilim malakasi va uzluksiz ijodiy layoqat o'zaro hamkorligidan o'sib chiqadi.

O'zbek tili so'z, so'z birikmalari va gap darajasidagi biri-biridan uslubiy jihatdan farqlanadigan sinonimlarga nihoyatda boy tildir. SHu bois o'quvchilarda ularning har birini matnning uslubiy turigagina emas, balki nutqiy janriga nisbatan ham to'g'ri qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish kerak.

Fikrni matn tarzida ifodalashda yuqorida tilda olingan barcha talabalarga rioya qilishga odatlantirish va bu borada zaruriy ko'nikmalarni hosil qilish maqsadida o'quvchilarni muntazam ravishda mashq qildirish kerak.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirish maqsadida darslarda matnlardagi tarixiy va eskirib qolgan so'zlarni topib, ularni hozirgi kunda qo'llanadigan sinonimlari bilan almashtirish topshirig'ini berish ham mumkin.

REFERENCES

1. Karimov I.A yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 25
2. Golubkov V.V. Masterstvo ustnoy rechi. –M.: Prosveshenie, 1965. –S. 9.
3. Tvardovskiy A.T. Sobr. soch. v 5-i t. – M.: Nauka, 1971. – S. 342.
4. Punskiy V.O. Azbuka uchebnogo truda. – M.: Prosveshenie, 1988. – S.301.

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARDA NUTQ O'STIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MASHG'ULOTLAR IZCHILIGI

Olimjon Eshimbetov

Toshkent gumanitar fanlari universiteti o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa fanlari doctori PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8113288>

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinfi o'quvchilarda matn vositasida o'quvchilarning nutq o'stirish bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlar izchiligi borasida atroflicha fikr-mulohazalar yuritiladi. Turli xil interaktiv o'yinlar va ularni ta'lim jarayonida maqsadli qo'llashning interaktiv jihatlari tadqiq qilindi. Ayniqsa, matn vositasida o'quvchilarning bog'langan nutq malakasini rivojlantirish usullariga alohida e'tibor berildi.

Kalit so'zlar: matn, nutq, ko'nikma, tahlil, metod, tasavvur, interaktiv, pedagogik texnologiya, tallafuz, talqin, so'zlash malakasi, bayon qilish madaniyati, og'zaki hamda yozma nutq.

THE SEARCH FOR ACTIVITIES RELATED TO SPEECH GROWING IN ELEMENTARY STUDENTS

Abstract. In the article, primary-grade students receive comprehensive text-based feedback on the students' search for activities related to speech culture. Various interactive games and interactive aspects of the target hand in their educational process have been researched. Particular attention was paid to the methods of developing students' associated speech skills in the text medium.

Key words: text, speech, skills, analysis, method, imagination, interactive, pedagogical technology, interpretation, speaking skills, culture of statement, oral and written speech.

ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ ЗАНЯТИЙ, СВЯЗАННЫХ С РАЗВИТИЕМ РЕЧИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В статье дается подробная обратная связь о последовательности занятий учащихся по развитию речи у учащихся начальных классов с помощью текста. Исследованы различные интерактивные игры и интерактивные аспекты их целенаправленного применения в образовательном процессе. Особое внимание было уделено методам развития связной речевой компетентности учащихся средствами текста.

Ключевые слова: текст, речь, навыки, анализ, метод, воображение, интерактивность, педагогическая технология, произношение, интерпретация, устная и письменная речь, устная культура, устная и письменная речь.

Jamiyat faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilganligi shaxs omiliga e'tibor ortishiga turtki beradi. O'z navbatida, inson fenomenining muayyan mavqe kasb etishi qadriyaviy mezonlar barqarorlashuviga sharoit hozirlaydi. Unda ta'lim tizimining uzluksiz mohiyati aks etadi. Xususan, odamzot ahvoli-ruhiyasini belgilaydigan nutqiy malakani shakllantirish va bosqichma-bosqich takomillashtirish muntazam davom etadigan jarayon hisoblanadi.

Joriy hodisa belgi-tovush-ohangni to'g'ri talaffuz qilish, muayyan lug'at zahirasiga ega bo'lish, ulardan o'rinli hamda unumli foydalanish va savodxonlik madaniyatiga erishishdek

xususiyatlarni qamraydi. SHu nuqtayi nazardan, nutqiy malakani soʻz-soʻz birikmasi-gap modellari bogʻlanishini taʼminlaydigan asosiy vosita sifatida baholash maqsadga muvofiq keladi.

Operativ tezkorlik hamisha tayyor turgan ong faoliyati bilan bogʻliq boʻlib, taassurot hamda mushohada ixchamligini taqozolaydi. Tabiiyki, ogʻzaki va yozma nutq malakasini uyushtirish subyekt soʻz boyligini oshirib borishga ehtiyoj sezadi.

«Nutq oʻstirish bilan bogʻliq boʻlgan mashgʻulotlar izchil, doimiy ravishda oʻtkazib borilmasa, taʼlimning yaxshi, sifatli boʻlishiga, oʻquvchilarning madaniy nutqini egallashlariga erishib boʻlmaydi. SHunga koʻra, darsda nutq oʻstirishni takomillashtirib borish, boshlangʻich sinflar ishini oʻrta sinflar ishi bilan, oʻrta sinflar ishini yuqori sinflarda amalga oshiriladigan ishlar bilan bogʻlangan holda davom ettirish oʻqituvchi zimmasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi[1] »

Har qanday taʼlim jarayoni pedagogdan ijodiy yondashuvni talab etadi. Xususan, bolaning bilish faoliyatini toʻgʻri tashkil etish, uning oʻzlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda, uni mustaqil fikrlashga yoʻnaltirish lozim.

Psixologik taomillarga muvofiq, nutqiy faoliyat tinglash va anglash darajalaridan iborat. Bunda matn xarakteri va mazmuni nazariy axborot tabiatidan kelib chiqadi. Toʻgʻrirogʻi, yozish, bayon, ifoda va tarjima uzviy qismlarini bir-biriga tutashtirish murakkab-zahmattalab jarayon sanaladi. Unda asosiy eʼtibor tilga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga qaratiladi. Oʻqitish tizimi muhim tarkibiy juzvi – nutqiy faoliyat doimo butunlikni taqozolashini hisobga olsak, masala mohiyati yanada ayonlashadi.

Shu nuqtayi nazardan, lugʻaviy birliklarni anglash va amaliyotda qoʻllash jipsligi taʼlim maqsadi toʻgʻri tanloviga borib taqaladi. Ifodali oʻqish, materialni oʻzlashtirish va tasavvurda qayta tiklash aynan toʻgʻri tanlovga bogʻlanadi.

Mazkur nuqtada masalaning mohiyati unchalik oydinlashmaydi. SHu boisdan, ogʻzaki va yozma nutq tabiatini til-adabiyot-mantiq-falsafa-jamiyat uzviy taʼsiri jarayonida oʻrganish maqsadga muvofiq. Bogʻlanishli nutq aqliy, ruhiy va maʼnaviy faoliyat hosilasi, unda ijodiy axborot uzluksiz hamkorligi, qayta idrok etish tizimi va mustaqil fikrlash malakasi yaxlit hodisaga aylanadi. Tasavvurdan tasvirga, tasvirdan ifodaga oʻtib turadigan konstruksiya tabiati jarayon tezkorligini taqozolaydi. Eng avvalo, nutq hamda adabiy til mohiyati orasida mavjud tafovutni aniqlashtirish joiz.

Lugʻaviy birlik toʻla oʻzlashtirish jarayonida nutqqa evriladi. Toʻgʻrirogʻi, nutqiy malaka muallif talqinidan kitobxon tasavvuriga koʻchishi vositasida salmoq kasb etadi. Jahon madaniyatida «qayta mutolaa» istilohi mavjud. Jiddiy ijodiy mehnat sifatida oʻzlashtirish estetikasi «olam va odam haqidagi tasavvurlar, muayyan dunyoqarash bilan oʻzaro muloqotga kirishish bosqichi» [2] ekan, nutqiy faoliyat koʻp qirrali jarayon sajiyasini oladi. Unda ijtimoiy mohiyat va ruhiy madaniyat, tasavvur tiniqligi va taassurot yaxlitligi, ifoda mustaqilligi va tasvir muqobilligi aks etadi.

Maʼlumki, bolalarda kuzatish asta-sekin rivojlanib boradi. Oʻquvchilar quyi sinfdan boshlab ob-havo, tabiat voqea-hodisalarini (yil fasllaridagi oʻzgarishlar, kun va tunning almashinishi, kunning qisqarishi, tunning uzayishi yoki qisqarishi) kuzatib, kalendarga belgilab boradilar. Kuzatishlarni har haftada va har oyda bir marta umumlashtiradilar. Bularning barchasi bolalarga oʻz soʻzlari bilan erkin hikoya tuzishga imkon beradi. «Birovlarning» soʻzlaridan foydalanish, yaʼni oʻqiganlarga tayanish uchun zaruriyat qolmaydi. Bunday usul bilan matnga

tayyorlash o`quvchilarning o`zlari ko`rgan, eshitgan, kuzatgan predmet va voqea-hodisalar haqidagi bilimlarini qayta tiklashga yordam beradi.

Masalan, qushlarning qishdagi hayotini kuzatish haqida matn yozishga o`quvchilar quyidagi mashqlar yordamida tayyorlanadi. Avval o`qituvchi o`quvchilarga qushlarni kuzatib borishni, kuzatishda nimalarga etibor berishni, qaysi matn, rasmlar bilan tanishishni kuzatgan va o`qiganlarini solishtirishni, kalendarga belgilab, kuzatish daftarlariga yozib borishni topshiradi. Qushlar hayotiga oid o`qigan asarlari, kuzatishlari, o`qish va tabiatshunoslik darslarida o`tilgan mavzularni mustahkamlash jarayonida savollar orqali aniqlab, umumlashtirib boriladi. O`quvchilar kuzatishlarini o`qilgan asarlarning mazmuniga bog`lab so`zlab beradilar. Ona tili darslarida esa qushlar hayotiga oid o`rganilgan grammatik qoidalarga mos so`z, so`z birikmalari tanlanadi, gap va kichik-kichik bog`lanishli matnlar tuzdiriladi.

Muayyan amaliy ko`nikma hosil qilish uchun mutaxassis nutqda belgi va harf, so`z va gap, tushuncha va mushohada orasidagi mantiqiy aloqa intizomini anglashi lozim. O`quvchining lug`aviy birliklardan amalda foydalana olish malakasini shakllantirish muntazam mashg`ulotlar tizimi ustida ishlashni talab etadi. O`zlashtirilayotgan bilim va malaka birligiga erishish imitatsiya darajasidan oziqlanadi.

Talaffuz me`yorlariga o`rgatish hali nutqiy faoliyatga yo`naltirishning dastlabki pog`onasi, matn ustida ishlash jarayoni, lug`at jamg`armasini o`zlashtirish va mustaqil fikrlash ko`nikmasi hamkorligini ta`minlash ta`lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Unda til dalolati yuzasidan ko`nikma hosil etish hamda lug`at zahirasi muntazam boyitib borish – mustahkamlashga diqqat qaratiladi.

Nutq madaniyatini oshirishning muhim lingvistik omili nazariy ma`lumotni izchil teranlashtirib borish vositasida izohlanadi. Axborotni o`zlashtirish, odatda, oddiylikdan murakkablikka qadar harakatlanadi. Unda bilimlararo munosabatni tayinlash muhim ahamiyat kasb etadi. Grammatik materiallarni o`zaro muqoyasada tavsiflash aksariyat hollarda muvaffaqiyat keltiradi.

Negaki, lug`at boyligi va nutqiy ko`nikma yaxlitligi nazariy bilim teranligiga bog`lanadi. Vaholanki, o`zlashtiruvchi faoliyatida ijodiy malaka amaliy ko`nikma tarzida namoyon bo`ladi. Matnlararo shakllanadigan aloqa tizimi nutqiy madaniyat izchilligi va mantiqiylikiga yo`l ochadi. O`z navbatida, nutqiy tanlov aniqligi materialni tez hamda o`ng`ay o`zlashtirish uchun zamin hozirlaydi. Ta`lim ilmiyligi, tizimlilik, nazariya bilan amaliyotning o`zaro aloqadorligi, muntazamligi va bilimlarning bir-biriga bog`liqligi hamda aniqligi uning o`ziga xos xususiyatlarini tavsiflaydi.

Umuman, yosh avlodni har tomonlama barkamol, yuksak vatanparvarlik va insoniylik ruhida tarbiyalash, uning shaxs sifatida voyaga yetishini ta`minlashda til madaniyatiga ongli munosabatni shakllantirish muhim o`rin tutadi. Ham shaxsiy, ham tabiiy ravishda taraqqiy toptiriladigan nutqiy faoliyat inson ma`naviy borlig`ini belgilaydigan mezon sanaladi.

Binobarin, og`zaki va yozma bayon orasidagi lisoniy aloqa olam hamda odam munosabatlarini idrok etish, baholash vositasi bo`lish barobarida milliy o`zlik hissini mustahkamlash, ong-tuyg`uda jiddiy sifat o`zgarishlarini qaror toptirishdek vazifalarni bajaradi. Mazkur holat, o`z navbatida, nutq madaniyatini til quvvat-hofizasiga tutashtirish jarayonining naqadar mashaqqatli va mas`uliyatli maqsadga egaligini to`la dalolatlaydi.

Matn yaxlitligi ta'minoti axborot vazifadoshligidan oziqlanadi. Biroq funksional yangilikka intilish rekroproduktiv nutqni shakllantirish barobarida hissiy-ma'naviy muvozanatga putur yetkazadi. Aslida matn, inson tuyg'usi, ruhiyati kechinmalarini shakllantirishning eng muhim omilidir.

Nutqiy faoliyat mazmuni ilmiy tafakkur miqyosi, ijodiy malaka darajasi va amaliy ko'nikma teranligiga bog'liqdir. Matnning maqsadi shaxsni yuksak ma'naviy qadriyatlar asosida shakllantirishdan iborat ekan nutqiy faoliyat mantiqiy izchillikni muayyan nuqtaga yig'ish va umumlashtirish ustqurmasi bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Ta'lim tizimi didaktik mohiyatga erishganda maqsad uning yetakchi omiliga aylanadi. Yozma va og'zaki nutq uzluksizligini ta'minlashga qo'yiladigan asosiy talablardan biri mustaqil fikrlash madaniyati bilan bog'liq. Aslida mustaqil fikrlash madaniyati ogzaki va yozma nutq orasidagi tafovutni birlashtiradi. Adabiy asar tahlilida o'zaro hamkorlik yetakchi o'rin egallaydi. Unda tahlil tamoyili hissiy idrok izchilligi bilan birikadi.

«Didaktik tahlil yuzaga chiqishi uchun faqat eshituvchi rovida bo'lishi aslo yetarli emas, u albatta, tahlil qiluvchi martabasida bo'lishi kerak. SHundagina natija ijobiy bo'ladi. Adabiyot darslari teng tomonlar faoliyati ekanligi, bu faoliyat ishtirokchilaridan biri bo'lmish o'qituvchi faqat hayotiy tajribasining boyligi, badiiy asarga munosabat malakasini egallaganligi, estetik mezonlarning shakllangaligi bilan o'qituvchilardan ajralib turishi haqida gapirgan edik. Garchi o'quvchilar sinfda o'rganiladigan asarlarni o'qituvchi singari oldindan to'liq o'qib chiqmagan bo'lsalarda, o'zlarining axloqiy mezonlariga, ma'naviy tajribalariga egadirlar.

Chunki har bir inson dunyoga kelgan kundan boshlab o'zi bilib yoki bilmay ma'naviy tajriba orttiraveradi. Binobarin, badiiy asar talqinidan ta'sirlanish, unga qadriyatlar nuqtayi nazaridan baho berishda o'quvchilar ham o'ziga yarasha ma'naviy huquqqa egadirlar. Adabiyot predmetining maktabda o'rganiladigan o'zga o'quv predmetlaridan asosiy farqi shunda[3]», - deya e'tirof etadi uslubiyatchi-olim Q.Yo'ldoshev. Darhaqiqat, didaktik tahlil nutqiy faoliyat madaniyatini bosqichma-bosqich shakllantirishga zamin hozirlaydi. Unda og'zaki nutq izchilligi yozma nutq mantiqiyiligini ta'minlaydi.

Yozuv madaniyati tinimsiz takrorlanib turadigan murakkab tizim sanaladi. To'g'rirog'i, uslubiy husnixat doimiy va davomiy mashqni taqozolaydi. O'z navbatida, nutqiy faoliyat har bir shaklida ma'naviy tajriba va nazariy o'zlashtirish darajasi bayon muvafaqqiyatini ta'min etadi. Axloqiy mezonlar ta'sirida shakllanadigan nutqiy madaniyat o'quv talablarini birinchi o'ringa ko'taradi. Tahlil va idrok uzviyligi ta'minotini markazlashtiradigan konstruksiyada yaxlitlik maksimal nuqtaga ko'tariladi.

Moddiy va g'oyaviy munosabat nisbatiga qurilgan tizimda dunyoqarash qadriyatga evriladi. Tasvir tiniqligi hamda ifoda izchilligi muvozanati nutqning organik uyushmasini izohlaydi. Ijtimoiy borliq mohiyatidan ifoda madaniyatiga o'tish matn ijodiy sarhadlarini shakllantiradi. Ichki va tashqi ma'no qatlamlari boshqaruvchanligi og'zaki va yozma nutq mundarijasini butunlashtiradi.

SHu ma'noda, nutqiy faoliyat uzluksizligi bayon va tahlil, tasvir va ifoda, talqin va muhokama tushunchalarini jipslashtiradi. Aslida yozma nutq og'zaki bayon namoyon bo'lish tamoyilini reallashtiradi. Mohiyat, ong hamda yaxlitlik nutq struktural tizimini tasdiqlaydigan asosiy tushunchalar: unda obyektiv materiya subyektiv modallikni yuzaga chiqaradi.

Umumtaraqqiyot darajasidan ajralib chiqadigan, aniqroq aytganda, saralanadigan nutqiy faoliyat inson dunyoqarashida markazlashadi.

Uning ruhiy-uslubiy negizini mushohada nisbati tashkil etadi. Tafakkur ma'naviy-ma'rifiy-falsafiy-ijtimoiy-qadriyaviy sajiyasi aniq-hissiy ifoda tiniqligi, adabiy umumlashma shartliligi hamda materiya mavjudligi ichki hamkorligi vositasida butunlay rasmiylashadi.

REFERENCES

1. Hotamov A., Zunnunov N. Adabiyot o`qitish metodikasi. – T.: 1992. – B 268.
2. Tvardovskiy A.T. Sobr. soch. v 5-i t. – M.: Nauka, 1971. – S. 342.
3. Yo`ldoshev Q. Adabiyot o`qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O`qituvchi, 1996. – B. 104.

5–7-СИНФ ТАРБИЯ ДАРСЛАРИДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ САМАРАДОРЛИГИ

Олимжон Ешимбетов

Тошкент гуманитар фанлар университети ўқитувчиси педагогика фанлари бўйича
фалсафа фанлари доктори PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8113467>

Аннотация. 5–7-синф Тарбия дарсларида китобхонлик маданиятини ривожлантириши самарадорлиги, методик (матн устида ишлаш, таҳлил, тақриз, мунозара) тизими ва дидактик таъминоти (китобхонлик дастури, бадий адабиёт, лугат, энциклопедия) мутолаага муттасил ва мунтазам рағбатлантирувчи стратегиялар (китоб танлаш, фаол ўқувчи, ўқиш экрани, маълумот карточкаси, анжуман)ни интеграциялаш асосида такомиллаштириши.

Калим сўзлар: Китобхонлик дастури, бадий адабиёт, лугат, энциклопедия, нутқ маданияти, мотивация, ўқиш учун кўриш, таништирувчи ўқиш, ўрганувчи ўқиш, мутолаа маданияти.

THE EFFECTIVENESS OF THE DEVELOPMENT OF THE CULTURE OF READING IN THE LESSONS OF EDUCATION OF GRADES 5-7

Abstract. 5-7th grade Effectiveness of development of reading culture in educational classes, methodical (text work, analysis, review, discussion) system and didactic support (reading program, fiction, dictionary, encyclopedia) continuous and regular encouraging strategies for reading (book selection, active improvement based on integration of reader, reading screen, information card, convention).

Key words: Reading program, fiction, dictionary, encyclopedia, speech culture, motivation, vision for reading, introductory reading, learner reading, Mutola culture.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ ЧТЕНИЯ НА УРОКАХ ВОСПИТАНИЯ 5-7 КЛАССОВ

Аннотация. 5-7 класс Эффективность развития культуры чтения на учебных занятиях, методическая (текстовая работа, анализ, повторение, обсуждение) системная и дидактическая поддержка (программа чтения, художественная литература, словарь, энциклопедия) непрерывные и регулярные стратегии поощрения чтения (выбор книги, активное улучшение на основе интеграции считывателя, экрана чтения, информационной карты, условности).

Ключевые слова: Программа чтения, художественная литература, словарь, энциклопедия, культура речи, мотивация, видение для чтения, вводное чтение, обучающее чтение, культура чтения.

Маълумки, 2021–2022 ўқув йилидан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Президентининг ташаббуси билан Тарбия фани узлуксиз таълим тизимида жорий этилди. Мазкур фанни ўқитишдан асосий мақсад узлуксиз таълим тизимида таълим олувчиларга “умуминсоний кадриятлар ва юксак маънавиятни янада чуқур сингдириш, уларни ватанпарварлик ва инсонпарварлик руҳида тарбиялаш, умумий ўрта таълим муассасаларида маънавий-тарбиявий ишларни янги асосда ташкил этиш” [1] дан иборат.

Тарбия фанининг мазмуни ва методик таъминоти таркибида маънавий тарбия концепциясининг бир қисми сифатида ўқувчиларни ҳаётга тайёрлаш, ўз ҳуқуқ ва бурчларини теран англашти, жамиятга дахлдорлик ҳиссини туйишлари назарда тутилади. Шунингдек, нотаниш вазиятларда дуч келган муаммолар юзасидан зарур ҳулосалар чиқара олиш, бир қатор ечимлар ичидан муҳимини танлашга ўргатиш усуллари ҳам белгиланган [1].

Умумий ўрта таълим тизимида Тарбия фанини ўқитиш орқали 5–7-синф ўқувчиларида қуйидаги компетенциялар шакллантирилиши кўзда тутилган:

Тарбия фанидан бошланғич синфларда (А2), 9-синфларда (А2) ва 11-синф ўқувчиларига қўйиладиган минимал малака талабларида ҳар бир босқичда маънавий-ахлоқий тарбия беришга эътибор қаратилиш, ўқувчиларда танқидий тафаккурни шакллантириш билан бир қаторда ҳуқуқий, фуқаровий, иқтисодий, жисмоний, эстетик тарбия бериш масаласи ўрин олган [1].

Бизнингча, белгиланган компетенциялар мазмунидан Тарбия фанининг ўқув дастури ва дарсликлари мазмунида ватанпарварлик, тадбиркорлик, иродалилиқ, мафкуравий иммунитет, меҳр-оқибатлилиқ, масъулиятлилиқ, бағрикенглиқ, ҳуқуқий маданият, инновацион фикрлаш, меҳнатсеварлик каби кўникмаларни шакллантиришга алоҳида урғу берилгани маълум бўлади. Хусусан, бунда миллий анъаналар, улуғ алломаларнинг ҳаёт йўллари, асарлари ва замондош қаҳрамонларнинг фаолияти қамраб олингани билан аҳамиятлидир.

Ўқувчиларда китобхонлик кўникмаларини шакллантириш фанга қўйилган малакавий талабларнинг тўлиқ таъминланишига олиб келади. Булар синфлар кесимида қуйидагича белгиланган:

5-синф учун малака талаблари

Шахс сифатида ўзини англайди; хатти-ҳаракатларини таҳлил қила олади; фавқулотда вазиятларда тўғри ҳаракат қилишни билади.

6-синф малака талаблари

Ўз фаолиятини таҳлил қилади баҳолайди; ўзини ўзи ривожлантиради; ўз мажбуриятларни бажаради; мулоқотга кириша олади; ҳамкорликда ишлайди; ўз-ўзига ҳурмат кўрсатишга одатланади; маънавий-ахлоқий меъёрларга амал қилади.

7-синф учун малака талаблари

Жисмоний ва интеллектуал имкониятларини ривожлантиради; креатив сифатларини намоён қилади; медиамаданиятга эга бўлади [2].

Фанни ўқитишга қўйилган талаблар ҳамда ўқув дастури мазмунидан келиб чиққан ҳолда адабиётлар рўйхати шакллантирилди. Ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари ва билиш жараёнларининг шаклланганлик даражасига кўра бадиий асарлар мавзуси ва тарбиявий аҳамияти жиҳатидан гуруҳлаштирилди. Натижада ўқувчиларнинг китобхонлик кўникмалари маълум даражада ортишига муваффақ бўлинди.

Тарбия фани дарсларида ўқувчиларнинг маънавий сифатлари ва эстетик дидларини тарбиялаш, оилалар билан ҳамкорлик ишларини мустаҳкамлаш, ўқишга доир долзарб муаммоларни ҳал қилиш самарали бўлиб, бу борада инновацион технологиялар ижобий таъсир кўрсатади. Хусусан, “Лойиҳа асосида ўқитиш”, “Қизиқишлар асосида таълим бериш”, “Арт-фест”, “Намуна кўрсатиш”, “Мисоллар орқали ўқитиш” каби таълимнинг

илғор технологиялари ҳам китобхонлик маданиятини ривожлантиришда алоҳида таъсир кучига эга. Жумладан, “Такриз” технологияси ўқувчиларнинг китобхонлик даражасини оширишдаги самарали ёндашувлардан биридир. Бунда баҳолар такризнинг ҳар бир банди бўйича берилади. Китоб ҳақидаги маълумотлар жуда кам, чунки ўқувчилар ёки тингловчилар мавжуд маълумотни билишади деб тахмин қилинади.

Китобни ижоди ўрганилаётган муаллифнинг бошқа китоби ёки шу мавзудаги бошқа китоб билан таққослаш; китоб тўғрисида тўғри ва мулоҳазали фикр билдириш (қизиқарли, кўнгилочар, илҳомлантирувчи ва ҳ.к.) такриз таркибидаги яна бир жиҳатлардан ҳисобланади. Жараёнда ўқувчиларга китоб мазмуни хусусида “Бу қалбингизни ўртадимми?”, “Сизни ўйлашга мажбур қилдимми?”, “Агар сиз бошқаларга уни тавсия қилсангиз, нима учун, нимаси билан бу жуда яхши эканлигини тушунтиринг”, “Ҳисобот ва такризни тайёрлашда холис бўлинг”, “Ижобий кайфиятни намойиш этинг, салбий гаплардан қочинг”, “Тақдимот пайтида дўстона муносабатда бўлинг” каби мурожаатлардан ўринли фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Иш жараёни ҳар бири алоҳида вазифаларни ўз ичига оладиган босқичлардан иборат:

1-босқич. Тингловчиларни китобни ўқиганлар ва ўқимаганлар гуруҳига ажратиш. Ҳар бир гуруҳга вазифа бериш.

Китобни ўқиган гуруҳ учун вазифа (1-гуруҳ):

- а) маърузачи (такризчи)нинг фикрига қўшилмасизми ёки йўқми?;
- б) китоб ҳақида ўз фикрингизни билдириш.

Китобни ўқимаганлар гуруҳи учун топшириқ (2-гуруҳ):

- а) улар китобни ўқиб чиқишадими, қарор қабул қилиш;
- б) уларни қизиқтирган саволлар беринг.

2- босқич. Ҳисоботни тинглагандан сўнг, аниқлик киритувчи саволлар берилади. Қайдларни ёзиб бўлгач, 1-гуруҳ аъзолари ўз фикрини билдирган ҳолда, ўз тақдимот режаси устида ўйлаб кўришади (2–3 дақиқа). Масалан, “Бошқа фикр билан танишдим”, “Янгиликдан хабардор бўлдим” ва ҳ.к.

3-босқич. 2-гуруҳнинг тингловчи аъзолари тақдимотчига ўз саволларини ёзадилар ва қисқа қайдлар қиладилар. 2-гуруҳ ишининг мақсади кейинги ой учун ўқиладиган китоблар рўйхатини тузишдан иборат.

4-босқич. Хулоса чиқариш. 2-гуруҳнинг ҳар бир аъзоси анжуман давомида ўзи томонидан тузилган 3–4 та китобдан иборат рўйхатини эълон қиладди. Нима учун ушбу китоб маълум бир жойда жойлашганлигини тушунтиради. Масалан, “Мен муаллифни яхши кўраман”, “Мавзу мени қизиқтириб қўйди”, “Персонажлар менга ёқди”, “Китоб тақдимоти маъқул бўлди” каби.

5-босқич. Анжуманни баҳолаш: ўқувчилар нимани ўргангани, яна нимани ўқишни хошлашлари аниқланади.

Ушбу тавсифланган ўқув анжумани олти кишилик гуруҳда икки астрономик соатни олади. Бу гуруҳнинг сонли таркибини режалаштиришда эътиборга олиниши керак.

Тарбия дарсларида мунозарали усуллардан фойдаланиш китобхонлик фаолиятининг энг самарали стратегияларидан бири ҳисобланади. Агар мунозара бадиий матн материали бўйича ташкил этилса, унда қуйидагилар мунозара мавзусига айланиши мумкин:

матннинг ғоявий-мазмунли жиҳати ва муаллиф кўтараётган муаммо;

асарни яратган муаллиф шахси;
ижодкорни илҳомлантирган манбалар ва асарни яратишга ундаган сабаблар;
асар талқини ва матн бўйича ўқувчилар қарашларининг турлари;
муаллиф қўллаган тил воситаларининг роли;
асарнинг ижтимоий маданий шароити;
матндаги тафсилотлар роли ва бошқалар.

Гуруҳда мунозара ташкил этишнинг мақсади – ўқувчининг матндаги асосий ғоя ва ахборотларни таҳлил қилиш кўникмаларини шакллантириш .

Навбатдаги вазифа – матндаги антоним сўзларни топиш ҳамда уларнинг матндаги ролини белгилаш, шунингдек матндаги қарама-қаршилик (антитеза)ни аниқлаш. Мунозара якунида ўқитувчи болаларни амалга оширилган ишдан сўнг матнни тушунишда қандай янгилик пайдо бўлганлиги ҳақидаги саволга жавоб бериш йўли билан ҳиссий фаолиятга ундайди.

Мактаб ўқувчиларининг нутқ фаолиятини фаоллаштириш учун қуръа ташлаш жараёнида тақсимланадиган гуруҳдаги роллар нуқтаи назаридан муҳокама юритишни таклиф этиш мумкин (масалан, “Навқиронлик”, “Етуклик”, “Кексалик” ёки “Оптимизм”, “Пессимизм). Мунозарада экспертлар танлаш гуруҳларнинг ишини баҳолаш мезонларини белгилаш ва фаоллаштиришнинг усули бўлиши мумкин.

Тарбия фанини ўқитишда оилавий анъаналар ва тарбия усуллари таяниш ҳам муҳим жараён саналади. Зеро, ҳар бир оила ўзига хос анъана, бой ижодий-интеллектуал бойликка ҳам эга. Ана шу маънавий-маданий бойликни ўрганиш, ундан жамият тараққиётида фойдаланиш, келгуси авлодларга етказиш учун ҳам билим ва тафаккур манбаи китобхонликни оиладан бошламоқ зарур. Лекин бу муаммо О.Шарофуддинов таъкидлаганидек, “Кенг маънодаги китобхонлик масаласи фақат чақириқлару даъват билан, хитобу шиорлар билан ҳал бўладиган масала эмас... маънавият масалаларига жуда катта аҳамият бераётган, уни ҳар бир фуқаро қалбига етказиш тадбирларини жуда жиддий ўйлаётган жамият. бу йўлдаги дастурига китобхонлик дастурини ҳам қўшиб қўймаса бўлмайди” [3] . Олим буни бежиз таъкидламайди. Чунки, болаларни китоб воситасида тарбиялаш жуда қийин жараён. Шу боис ҳам мутолаа қилинаётган асарларнинг сюжети болалар ва унинг оила аъзолари учун тарбиявий аҳамият касб этиши, уларда эзгу сифатларни шакллантириши, билим олишга қизиқтириши муҳим саналади. Ана шундагина китобхонлик ўсмир маънавиятини шакллантиришга ёрдам беради.

Бунда ота-онанинг маънавий дунёси, хулқ-одоби, орзу-умидлари, ҳаётий тажрибаси, анъаналари ва касби катта ёрдам беради. Чунки китобхонлик маданиятининг илк куртаклари дастлаб оила бағрида кўз очади.

Аёнки, оилавий китобхонликнинг илдизлари узоқ ўтмиш билан узвий боғлиқ. Тарбия фанини ўқитиш технологиясининг оила китобхонлиги ва ахлоқий тарбияга бориб тақалиши шахс маънавиятини шакллантиришдаги ўрни масаласи билан боғлаб ўрганишга асос бўлади. Бу борада тадқиқотчи М.Жўравнинг инсон маънавий оламини яратишда китобнинг аҳамияти ҳақидаги фикрлари ўринлидир. Унинг фикрича, китоб инсони яшашга ўргатади, умр моҳиятини англашга ёрдам беради ҳамда маънавий жиҳатдан юксалтиради [4] .

Китобхонлик инсонни маънавий бойитиб, уни маърифий камолот сари етаклайди. Зеро, инсоннинг шахс сифатида шаклланиши маънавий тафаккур илдининг қанчалик чуқур ва мустақамлигига боғлиқ. Бу мустақамлик эса китоб ўқиш, ўқиган китобининг энг муҳим нуқтасини илғаб олишдан иборатдир.

Баркамол авлод тарбиясида оилавий китобхонликнинг роли масаласи мамлакатимизда С.Чиниева, М.Иномова, Ш.Шодмонова ҳамда М.Нигматоваларнинг тадқиқотларида ўз ифодасини топган. Хусусан, М.Иномованинг илмий изланишларида болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси, уларнинг билим олишига оилада асос солиниши ва такомиллашиб бориши тадқиқ этилади[5]. Ш.Шодмонованинг изланишларида эса бошланғич синф ўқувчилари ахлоқий камолотида ота-оналарнинг болалар билан халқ оғзаки ижоди намуналаридан, ўйинлардан фойдаланиши ҳақида қизиқарли мисоллар келтирилади [6] .

Маълумки, бола китоб ўқишни билган тақдирда китоб унинг маънавий ҳаётида муҳим роль ўйнайди. Бунинг учун эса китоб боланинг маънавий бойиши учун уни ақлий, эстетик ўсишга йўллаши зарур. Бунда дастлабки туртки оилада болага ўқиб берилган биринчи китоб бўлса, иккинчиси бола отаси ва онасининг ўқишини эшитиб, бадий образлар гўзаллигини ҳис этишидир. Ана шу биринчи ва иккинчи учрашув боланинг кейинги, ўсмирлик даврида фаолиятининг барча соҳалари: меҳнат, ўйин, мусиқа, ижод билан боғлиқ бўлиб, ҳаётининг ҳамма томонларини қамраб олиши зарур. Чунки ўқувчи ҳаётини ижодий меҳнат, эртаклар олами, фантазиялар, ўйин ва мусиқасиз тасаввур этиш қийин. Буларнинг барчасини китобхонлик ҳам қамраб олса, ана шунда унинг ҳаёти мазмунсиз, маънавий қашшоқ эмас, балки воқеа-ҳодисаларнинг туб моҳиятини англаб олишга ҳаракат қиладиган, турмуш зиддиятларини тушунадиган баркамол шахс бўлиб етишишига ёрдам беради [6] .

Китобхонлик маданияти ривожига, аввало, оилада ота-она томонидан эътибор қаратилади. Китобхонлик, китоб ўқиш фарзанд вояга етаётган оиланинг ўқимишлилик даражасига боғлиқ. Чунки ўқимишли оилада китобхон вояга етади. Тадқиқотчилар ўқимишлиликнинг уч шартини келтирадилар: биринчиси, илм олмоқ, яъни илмлилик бўлса; иккинчиси олган илмидан тўғри хулоса чиқариб, ҳаётга тўғри татбиқ эта олиш; учинчиси эса билими натижасида фикрлашга ўрганиш, тўғри фикр юритишдир [7] .

Тўғри фикр юритадиган инсон эса маънавий, ақлий жиҳатдан юксала бошлайди. Лекин бу маънавий юксалиш, илмий адабиётлар, ҳаёт қонуниятлари ҳақидаги билимлар воситасида амалга ошса, ақл билан идрок этилса, бадий асарлар эса ҳис-туйғулар, қаҳрамонлар руҳияти орқали юз беради. Бадий асарлардаги ҳис-туйғулар китобхонликни тарбиялайди. Натижада китобхон ўқилган китобдаги воқеа-ҳодисаларни ҳис эта оладиган, қаҳрамонлар характерини муҳокама этадиган, асардаги воқеа-ҳодисалар билан ҳаётдаги воқеликни қиёслайдиган бўлади. Бу эса фақат китобхонни эмас, у орқали оила бошқа аъзоларининг ҳам маънавий савиясини кўтаради, натижада оила мустақамлигига сабаб бўлади.

Ўқиш маданиятини тарбиялаш соҳасидаги ишларни биргаликда ва ҳамкорликда олиб бориш лозим. Бу борада мактаб ва оиланинг роли каттадир. Чунки оила бола тарбиясида бошланғич ва асосий роль ўйнайди. Ҳамма оилалар учун бир хил умумий тарбиявий формула яратиш мумкин эмас. Бироқ оилаларда тарбиянинг бутун бир тизими

яратилганки, уни ҳар бир оила ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда қўлласа яхши натижаларга эришиш мумкин.

Оила, мактаб ва маҳалланинг ўзаро ҳамкорлиги фарзанднинг баркамол бўлиб улғайишида муҳим аҳамият касб этади. Китобхонлик маданиятини тарбиялашда ҳам айнан шу уч омил асосий мезон ҳисобланади. Ҳали ижтимоий муҳит, борлик, ўзаро муносабатлар юзасидан етарли тасаввурлари шаклланмаган болаларга уларнинг диди, тафаккури ва тушунчасига мос китобларни тавсия этиш, маромига етказиб ифодали ўқиб бериш ота-оналар ва тарбиячилар зиммасидаги масъулият ҳиссини оширади.

Бола китобнинг аҳамияти, ундан қандай фойдаланиш, уни қандай асраш ҳақидаги тушунчани дастлаб оилада ота-онадан ўрганиши лозим. Ҳар бир боланинг ўзига хос хусусияти, юриш-туриши, қобилияти ва имкониятларини ота-онаси билади. Шунинг учун ҳам боланинг китобни тўғри танлашида, ундан оқилона фойдаланишида ҳамда китобга муҳаббат қўйишида ота-онанинг роли ниҳоятда катта.

Ота-оналар ёрдамида болага тавсия этиладиган китоблар, албатта, бадиий юксак савияда бўлиши керак. Тавсия этиладиган китоблар боланинг ёши, психикаси, ўқиш ва тушуниш қобилиятига мос келиши мақсадга мувофиқ. Шу туфайли ёзувчилар болалар учун китоб ёзаётганларида мана шу жиҳатга алоҳида эътибор берадилар. Китобларни тавсия этишда ота-оналарнинг ўзлари китобхонлик маданиятига эга бўлишлари мақсадга мувофиқ.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Умумий ўрта таълим муассасаларида “Тарбия” фанини босқичма-босқич амалиётга жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисидаги қарори // <https://lex.uz/docs/4885018>
2. Umumiy o'rta ta'limning tarbiya fanidan davlat ta'lim standarti. <https://lex.uz/docs/-4885018>.
3. Шарофуддинов О. Китобсиз яшаб бўлмас. ЎзАС, 1999 йил 24 сентябрь. – № 3. – 8-39-б.
4. Жўраев М. Китобим: Ношир ҳикояси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1976. – 179-б.
5. Иномова М.А. Педагогические основы использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье: Автореф. дисс. док. пед. наук. – Ташкент: ТГПУ им. Низами, 1998. – 42 с.
6. Шодмонова Ш.С. Оилада кичик мактаб ёшидаги болаларни миллий кадриятлар асосида ахлоқий тарбиялашнинг педагогик асослари: Пед. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 142 б.
7. Чиниева С.А. Ўзбек оилаларида китобхонлик воситасида ўсмирлар маънавиятини шакллантириш: Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 19-б.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ НУТҚИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Олимжон Ешимбетов

Тошкент гуманитар фанлар университети ўқитувчиси педагогика фанлари бўйича
фалсафа фанлари доктори PhD

1) statik yoki izometrik rejimda bir holatda zo'r berib ushlab turilganda kuch namoyon bo'ladi;

2) dinamik rejimda. Bunda mushak uzunligi o'zgaradi va mushakning elastik tarangligi katta kuch bilan sodir bo'ladi.

Dinamik rejimda qarshilikni yengadigan ish bajarilishi mumkin (miometrik rejim), masalan, uloqtirishdagi depsinishlar va hk. Ishning bunday faoliyati auksotonik qisqarish

deb belgilanadi (asab mushak apparatida o'zgarish sodir bo'lganda turlicha kuch talabiga muvofiq mushaklar qisqaradi va taranglashadi); va (pliometrlik rejimdagisi ish) sakrab tushishlarda, osilish va hakazolarda mushak uzunligi oshadi. Bu yerda mushaklarning auksotonik qisqarishi singari izotonik (asab-mushak apparatiga ta'sir qiladigan kuch o'zgarmasa mushak tarangligi bir xilda qoladi) qisqarish ham mumkin.

Shunday voqealar ma'lumki, kishida affekt (vahima, qo'rquv, g'azab) holatida g'oyat katta kuch va tezlik paydo bo'ladi. Bu kuch qaerdan paydo bo'ladi? Har bir yosh organizm normal sharoitda o'zida juda katta kuch zapasi va imkoniyatlarni saqlab yuradi. Odatda, bu kuch va imkoniyatlarning faqatgina bir qismi haqiqatan amalga oshiriladi va kishining keyingi hayotida sarflanadi va ko'pinsha juda oz qismi ishlatiladi. Muhim masala shundan iboratki, organizmimizdagi kuchning katta zapaslaridan imkoniyati borisha qanday qilib to'liqroq foydalanishdadir (hisoblab shiqilishisha, mushak tolalarining jami kuchi 30 ming kg ga yaqindir, suyaklarning sho'zilishga nisbatan mustahkamligi esa, sho'yanning mustahkamligiga tengdir).

Kuch qobiliyatlarining turli faoliyatlarga bog'liqligi bir kishining kuch qobiliyatlari organizmning shaxsiy rivojlanishiga zish bog'langan va undan foydalanish masalasi maqsadga muvofiq yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Kuch qobiliyatlari qarshilikni yengish tezligiga bog'liq bo'ladi va harakat tezligi qansha katta bo'lsa, og'irlik yoki qarshilik ko'rsatish darajasi shunshalik kam bo'lishi kerak va aksinsha.

Minimal quvvatdagi zo'r berishning (yadro itqitishda) namoyon bo'lishida esa ish o'rta zonada sodir bo'lishi kerak. Lekin bu zo'r berishi quvvati "portlovshi" kuchning rivojlanishi hisobiga eng qisqa vaqt ishida sodir bo'lishi mumkin.

"Portlovshi" kuchning darajasini baholashda tezkor kuch indeksidan foydalanish qulaydir. "Portlovshi kuchning" yorqin misoli sakrashdir, u harakatlanishda tez yuqori daraja zo'r berish qobiliyatini takomillashtirishda ifodalanadi.

Pastlab boruvshi harakatlarda mushak uzunligi zo'rlab oshirilsa mushak kuchi yuqori daraja izometrik kuchga nisbatan ansha ko'proq bo'ladi (50-100% ga). Masalan, shuqurlikka sakrashda sodir bo'ladigan kuch deppinishdagi kuchdan kattadir.

Bir xil tayyorgarlikka ega bo'lganda, vazni og'irroq sportchilar yengil vaznilariga nisbatan ko'proq natijaga erishadilar. Yuqori mahoratli sportchilarda tana og'irligi va kuch orasidagi bog'liqlik 0,93 shartli ko'rsatgishga teng, oddiy sportchilarda -0,80; mashq qilmaganlarda esa 0,00 ga teng bo'ladi. (Shuning ushuni sport bilan shug'ullanmagan kishilarning vazni yog' qatlami hisobiga, sportchilarning vazni esa, mushak massasining kattayishi hisobiga oshadi). Turli vazndagi kishilarning kuchini solishtirish ushuni odatda 1kg og'irlikka keladigan kuch miqdorini ko'rsatadigan nisbiy kuch miqdorini ko'rsatadigan nisbiy kuch quyidagisha o'lshanadi: mutloq og'irlik sportchining vazniga taqsimlanadi.

Kuch jihatdan tayyorlashning vositalari. Kuch jihatdan tayyorlashning ilg'or vosita va metodlari to'g'risida gapirganimizda tayyorgarlikning turli bosqichlarida qo'llanishi lozim bo'lgan tabiiy va oddiy vositalarni yoddan shiqarmaslik kerak. Ularga quyidagilar kiradi:

- 1) shakli va mazmuni bo'yisha juda xilma-xil jismoniy mashqlar;
- 2) foydali harakat koeffitsientini oshiradigan vositalar;

3) ruhiy holatni boshqarishga qaratilgan vositalar (zo'r berishni ongli ravishda effekt holatigasha oshirish);

4) organizmning u yoki bu funktsiya va sistemalariga tanlab ta'sir qilish vositalari (funktSIONAL tayyorlash sifatida) va hk.

Bevosita kuchni rivojlantirish vositalarini esa quyidagisha taqsimlash mumkin:

1) o'z tana og'irligini yengib bajariladigan mashqlar;

2) og'irliklar, sherikning qarshiligi, amartizator bilan bajariladigan mashqlar, tashqi muhitning murakkabroq sharoitida bajariladigan (umuman yoki qisman ta'sir ko'rsatadigan) mashqlar.

Hozirgi davrda kuch jihatdan tayyorlashning harakat amplitudasini, uning traektoriyasini, tezligini bajarish vaqtini, zo'r berish darajasini va hokazolarni oldindan dasturlashtiradigan texnik vositalar, Universal va iqtisoslashgan trenajyorlar kiritilmoqda;

3) maxsus musobaqalashuv mashqlari.

Izometrik mashqlarning xillari:

1. Xususiy izometrik mashqlar.

2. Amplitudani sheklovshi xarakatlar.

3. Ayrim harakatlarda o'ta og'ir yuk bilan statik zo'r berish.

4. Harakatning qiyinroq fazasida og'irlikni ushlab turish (masalan, bo'g'in burshagini o'zgartirganda, mushaklarni tortish harakatida burshakni o'zgartirish va hk.)

Izometrik zo'r berishni murakkabroq mashqlarda qo'llash lozim, lekin ularning hajmi juda katta bo'lmasligi va ulardan oldin albatta dinamik mashqlar bajarilishi kerak.

Nafas olish. Kuch mashqlari bajarilganda kuchlanishga to'g'ri keladi. Amerika olimlarining ma'lumotiga ko'ra shtanga ko'taruvshilarda kuchlanish vaqtida qorin bo'shlig'ida bosimning ortishi sababli ularda 10% grija va 10% gemoroy paydo bo'lishi aniqlangan. Noto'g'ri nafas olinganda ko'krak qafasidagi bosim ham 40-100 mm simob ustuniga oshadi, bu esa vena tomirlarining qisilishiga olib keladi va qon aylanishini, shuningdek ko'krak qafasidagi bosimning ko'payishi o'pka kapillyarlarini qisadi va natijada o'pkada qon aylanishi ham mushkullashadi. Bo'yin mushaklari bilan uyqu arteriyalarining qisilishi o'zidan ketish (shok)ga olib kelishi mumkin. Shuning ushun mashg'ulot vaqtida quyidagilarga e'tibor berish zarur:

1) zarur bo'lgandagina qisqa vaqt kuchlanishga ruxsat berish;

2) boshlovshilarga og'ir yuk ko'tarishga ruxsat bermaslik;

3) og'irlikni ko'tarishdan oldin nafas olmaslik;

4) boshlovshilarni mashq o'rtasida nafas olish va nafas shiqarishga o'rgatish.

Kuch imkoniyatlarini tarbiyalash metodikasi. Kuchni rivojlantirishning o'ziga xos usullaridan biri "ekstensiv" usuldir.

Ekstensiv metod qoidaga ko'ra, kishik og'irlikni ko'p marotaba ko'tarishda qo'llaniladi va bunda mushak eng ko'p taranglashib mushaklar yaqqol sharshagan holatigasha takrorlanadi.

Bu metodlar o'rgatishning boshlang'ish davrida (harakat texnikasini o'zlashtirish davrida) qo'llaniladi, tayyorgarlik davrining birinshi bosqishida qulay funktsional zamin yaratish (mushak hajmini oshirish va organizmni katta jadallikdagi jismoniy yuklamalarga tayyorlash) ushun, kuch shidamliligini tarbiyalash ushun qo'llaniladi.

Og'ir atletikada sport mashg'ulot jarayonlarida sportchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligi rejalar asosida tashkil etiladi, sport mashg'ulot jarayonlarini rejalashtirishda

mashg'ulot davrlarining xususiyatlari e'tiborga olinadi, sportchilar umumiy va maxsus tayyorgarliklarini haftalik, oylik va yillik rejalar asosida tashkil etiladi, sportchilarni umumiy va maxsus tayyorgarliklarini to'g'ri rejalashtirish musobaqalarda yuksak natijalarga erishishlarini ta'minlaydi. Sport mashg'ulotlarining asosiy vositalari sport turlariga muvofiq bo'lgan maxsus jismoniy mashqlar, ularga o'rganish uchun zarur bo'lgan yordamchi va umumrivojlantiruvchi jismoniy mashqlar hisoblanadi. Shuningdek tabiat omillari suv, quyosh va havoning sog'lomlashtiruvchi ta'siri, shaxsiy va jamoa gigienasi talablari sport tayyorgarlik vositasi bo'ladi.

REFERENCES

1. Барчуков И.С. Физическая культура. Учебное. пособие для вузов. М., ЮНИТИ-ДИНА, 2003.
2. Дворкин Л.С. Тяжелая атлетика. учебник для вузов. М., ФиС, 2005.
3. Маткаримов Р.М. О'гир атлетика назарияси ва услуги. Дарслик. Т., Узбекистан, 2015.
4. Маткаримов Р.М. Тяжелая атлетика. Учебник. Т., УзГИФК, 2005.
5. Озолин Н.Г. Настольная книга тренера: наука побеждает. М., ООО «Изд. АСТ», 2004.

MAMLAKATIMIZDA OG'IR ATLETIKACHILARNI
MASHG'ULOTLARGA MOSLASHTIRISH



Elboyeva Umida Rahimjon qizi

Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti jismoniy madaniyat fakultetining 2 - D guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8118841>

Annotatsiya. Ushbu maqolada og'ir atletikachi sportchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarda sportchini yuklamalarga moslashtirishning ayrim jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: yuklama, og'ir atletika, mashg'ulot, haftalik, oylik, musobaqalar, dast va siltab ko'tarish, tezlik, kuch, jismoniy harakat, mushak.

ADAPTATION OF WEIGHTLIFTERS TO TRAINING IN OUR COUNTRY

Abstract. This article reflects on some aspects of the adaptation of the athlete to the loads in training with weightlifting athletes.

Key words: load, weightlifting, training, weekly, monthly, competitions, set and jerk lifting, speed, strength, physical movement, muscle.

АДАПТАЦИЯ ТЯЖЕЛОАТЛЕТОВ К ТРЕНИРОВКАМ В НАШЕЙ СТРАНЕ

Аннотация. В этой статье рассматриваются некоторые аспекты адаптации спортсмена к нагрузкам на тренировках с тяжелоатлетами.

Ключевые слова: нагрузка, тяжелая атлетика, тренировка, неделя, месяц, соревнования, рывок и рывок, скорость, сила, физическое движение, мышцы.

Og'ir atletika sportida hozirda dast va siltab ko'tarish kabi klassik mashqlar to'plami mavjud bo'lib, bu harakatlarning ikkalasi ham butun vujud bilan amalga oshiriladi va katta jismoniy kuch, tezlik, harakatni idrok etish, bajarish texnikasi va moslashuvchanlikni o'zida birlashtiradi. Bundan tashqari bu sport turi mutloq va nisbiy kuch talab qiladi va qo'l, bel, oyoq va son mushaklari kuchli va tezkor kuchiga tayanadi.

Sportchiga berilgan yuklama to'g'ri yoki noto'g'ri tanlanganligini bilish uchun sportchilar berilgan yuklamani qay tarzda bajarishini haftalik va oylik mashg'ulot siklini kuzatish orqali bilib olish mumkin.

Ishning dolzarbligi shundan iboratki, og'ir atletika sport nazariyasida yuqori malakali sportchilarni mashg'ulot yuklamasiga moslashtirishning metodologik jihatlari hali to'liq ishlab chiqilmagan va bu yo'nalishda hali yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Sportchilar bilan mashg'ulotlar olib borishning ayrim muammolariga bag'ishlangan alohida amalga oshirilgan tadqiqotlarga qaramasdan bu jarayon mamlakatimizda yetarlicha o'rganilmagan. Shu

sababli ushbu ilmiy tadqiqot ishida sportchilarni yuklamalarga moslashtirishning ayrim jihatlari ko'rib chiqilgan.

Ilmiy adabiyotlarda og'ir atletika mashg'ulotining yuki og'irlik miqdori, takroriy mashqlar soni, ishlatiladigan mashqlar soni, yukning hajmi, mushaklarning faolligi va boshqa omillar bilan tavsiflangan. Shuningdek, sport turi bo'yicha mashg'ulotlar sport mahoratini oshirishga qaratilgan jarayon sifatida tushuniladi. Sportchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar asosan yangi narsalarni o'rganish va allaqachon o'zlashtirilgan narsalarni takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Oliy sport mahorati darajasiga yetgan, respublika va xalqaro miqyosdagi musobaqalarda qatnashgan sportchilar tayyorgarlik jarayonini kasbiy tayyorgarlik darajasida olib boradilar. Shuning uchun mashg'ulot uzoq muddatli jarayon hisoblanib, sportchilar bilan individual shug'ullanish sifatida tushuniladi.

Ilmiy tadqiqotlarda og'ir atletikachilarni mashg'ulot yuklamalariga moslashtirishning 12 haftalik sikllari ishlab chiqilgan bo'lib, ularda musobaqa mashqlari texnikasini takomillashtirishga qaratilgan mashg'ulot rejasi, ya'ni musobaqa mashqlariga nisbatan maxsus mashqlardagi shtangani ko'tarish soni va shiddati bo'yicha mashg'ulot yuklamalari taqsimlangan. Shuningdek, og'ir atletikachilarning dast ko'tarish texnikasini takomillashtirishda, maxsus mashqlarning parsial mashg'ulot yuklamalari yuzasidan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Unga ko'ra tajriba guruhi malakali og'ir atletikachilarining o'n ikki haftalik tayyorgarlik siklidagi dast ko'tarish mashqlaridagi yuklamalarning hajmi dinamikasi ishlab chiqilgan va amaliyotda birinchi bor dast ko'tarish mashqining final tezlanish fazasidagi harakatga o'xshash harakatda qo'llar mushaklar kuchini, shtangani ko'tarilish balandligi va tizza bo'g'imining yozilish burchagi oshirishga yo'naltirilgan hamda shtanganing harakat traektoriyasini boshqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi "XM-tren" trenajerida asosiy mashg'ulot yakunidan so'ng 1,2,3,4-shiddat zonalarida 1-4 haftada 200 marta, 5-8 haftalarda 176 marta, musobaqa oldi siklining 9-12 haftalarida 54 martadan bajarish tatbiq etildi.

Har bir sportchi murabbiy tomonidan berilgan yuklamaga to'g'ri amal qilishi va uni bajarishi lozim. Ma'lumki sportchiga murabbiy tomonidan beriladigan yuklamalar sportchining jismonan baquvvat qilishga undaydi. Sportchi murabbiyning bergan yuklamasini bajara olmasa yoki noto'g'ri bajarsa sportchiga tibbiy jarohat yetishi hech gap emas. Har bir sportda bo'lgani kabi og'ir atletika sport turida ham sportchiga beriladigan yuklama hajmi sportchining jismoniy sifatlariga qarab belgilanadi. Sportchilar natijalarining o'sishi ko'p jihatdan mashg'ulot yuklamasi qanchalik to'g'ri tanlanganligiga bog'liq.

Og'ir atletika sport turida mashg'ulotlar davomida o'tirib-turish mashqlari tananing baquvvatlashuvi hamda kuch qobiliyatlarining rivojlanishini ta'minlovchi asosiy mashg'ulotlardan hisoblanadi. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarda o'tirib-turish og'ir atletikachining mushaklari kuchni tarbiyalashning asosiy vositasi sifatida qaralib, o'tirib-turishlarda to'g'ri tanlab olingan yuklama kuch hamda sport-texnik ko'rsatkichlarning o'sishini ta'minlashi isbotlangan.

Og'irlik ko'tarishda og'irlik kattaligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu omil sportchi organizmiga ta'sir qilishning sifat va son jihatlari sifatida qaraladi va bu sportchi organizmining faoliyat yuritish darajasini qo'zg'atuvchining maxsus ta'siri kattaligiga asoslandi.

Shug'ullanuvchi yetarli darajada jismoniy tayyorgarlikka ega ekanligiga ishonch hosil qilganda, og'irlik vaznini hisobga olib o'rgatishga kirishish lozim. O'rgatilayotgan harakat

bilan nazariy jihatdan tanishib olgan, uni tahlil qila oladigan, umumiy vazifalar hamda harakatning har bir fazasi vazifalarini tushunadigan atletlar o'rgatishga yaxshi tayyorlangan hisoblanadi. Umumiy yuklamalar miqdoridan foydalanish mashg'ulot tizimining ayrim bosqichlarida uning vaqtinchalik kamayishi, yoki barqarorlashishi, yohud vaqtinchalik oshirishni nazoratda tutadi.

Jismoniy tarbiya jarayonida foydalaniladigan umumiy yuklama miqdori shunday bo'lishi kerakki uning qo'llanilishi sog'liqda salbiy o'zgarishlarini keltirib chiqarmasligi lozim. Qo'llaniladigan yuklamaga moslashib borgan sari, ya'ni moslashishli o'zgarishlar barqaror holat bosqichiga o'tgan sayin umumiy yuklama o'lchamining navbatdagi oshirilishi bajarilishi kerak. Erishgan tayyorgarlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, yuklama parametrlari shuncha katta oshiriladi.

REFERENCES

1. Дворкин Л. С. Тяжелая атлетика. учебник для вузов. М.: Советский спорт, 2005.
2. Matkarimov.R.M. Og'ir atletikachilar texnikasini takomillashtirishda maxsus mashqlarning parsial mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish uslubiyati. Fan sportga jurnali. №4/2021.
3. Matkarimov.R.M. Malakali og'ir atletikachilarda musobaqa mashqlar texnikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan parsial mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari. Fan sprotga jurnali. №1/2021.
4. Salomov.R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: 'ITA-PRESS', 2015.

МАРКАЗИЙ ФАРҒОНА НЕОЛИТ ДАВРИ ЖАМОАЛАРИ МАДАНИЯТИ

Кандахров Ифтихор Абдумурот ўғли

Ўзбекистон Республикаси маданий мерос агентлиги Я.Ғуломов номидаги самарқанд
археология институтининг тош даври археологияси бўлими
кичик илмий ходими

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8118936>

Аннотация. Ушбу мақолада Марказий Фарғона неолит жамоалари ва ёдгорликлари ёритилган.

Калим сўзлар: Ю.А. Заднепровский, Г.Ф. Коробкова, Ў.И. Исломов, неолит, Мадёр, Обишир маданияти, микропластина, нуклеус.

CULTURE OF CENTRAL FERGANA NEOLITHIC COMMUNITIES

Abstract. In this Makola, the Neolithic communities and monuments of Central Fergana are illuminated.

Key words: Yu.A. Zadneprovsky, G.F. Korobkova, O.I. Islamov, Neolithic, Madyor, Obishir culture, microplastina, nucleus.

КУЛЬТУРА НЕОЛИТИЧЕСКИХ ОБЩИН ЦЕНТРАЛЬНОЙ ФЕРГАНЫ

Аннотация. В этой статье рассматриваются неолитические общины и памятники центральной Ферганы.

Ключевые слова: Ю.А. Заднепровский, Г.Ф. Коробкова, О.И. Исламова, неолита, мадьярской, Обиширской культур, микропластина, ядрышко.

Фарғона водийси кишилиқ тарихи тош асри неолит даври жамоалари моддий маданиятини ўрганишда истиқболли ўлкадир. Марказий Фарғонадаги бу даврга оид дастлабки топилмалар 1958 йили Б.З. Гамбург ва Н.Г. Горбуновлар томонидан қуриган Дамқўл ва Марказий Фарғонанинг шимолий қисмларида топилган. Улар томонидан аниқланган материаллар В.М. Массон ҳамда В.А. Рановларнинг асарларида ўз аксини топган. 1963 ва 1964 йилларда Марказий Фарғонада қидирув ишлари Ю.А. Заднепровский томонидан амалга оширилган. Натижада, Қорақалпоқ даштидан микролитоид кўринишга эга 21 та топилмажой аниқланди.

Топилмалар Марказий Фарғонанинг жанубий, шарқий ва шимолий қисмларидан ҳам топилган. Ю.А. Заднепровский томонидан Марказий Фарғонадан аниқланган неолит даврига оид материаллар кейинги қатор йиллар мобайнида Г.Ф. Коробкова томонидан илмий жиҳатдан тўлиқ ва синчиклаб ўрганилган. 1965 йили Ў.И. Исломов бошчилигидаги Ўзбекистон Республикаси археология институти экспедицияси томонидан 23 та топилмажой аниқланган. Кейинчалик. Марказий Фарғонада Фарғона ва Россия археологик экспедициялари тадқиқот ишлари олиб борди. Бу изланишлар 1967, 1969, 1970 йилларда амалга оширилган. Барча тадқиқотлар умумийлашган ҳолда Ў.И. Исломов ва В.И. Тимофеевларнинг қатор мақолалари ва монографиясида ўз аксини топган. Натижада, бу ердан 120 дан зиёд маконлар топиб ўрганилган.

Марказий Фарғонанинг неолит даврига оид топилмажойлари қаторига Замбар 1-3 пунктлари, Янгиқадам 1-28, Дорозқўл, Тойпоқ 1-15, Узункўл 1-5, Янгисув, Гўртепа, Сигирчилик, Мадёр 1 15, Дамқўл топилма жойлари ва бошқаларни киритиш мумкин. Адабиётларда Ҳисор маданиятининг тарқалиши нафақат Ғарбий Тожикистон, балки Олой

водийси ва Тянь-Шан ҳудудларига ҳам тарқалганлиги таъкидланган. Шубҳасиз бундай материаллар Фарғона водийсидан ҳам топилган.

Шунинг билан бирга Фарғонанинг ўзида бошқаларга ўхшамайдиган чақмоқтошли индустриялар аниқланган. Марказий Фарғонадаги Қорақалпоқ чўли қадимда чўл ландшафтига эга бўлган неолит қабилаларининг маконлари кўллар бўйларида жойлашган. Марказий Фарғона неолити индустриялари микролит кўринишга эга бўлиб қуроллари салмогининг кўплиги билан, Ўрта Осиёдаги барча неолит ёдгорликларидан фарқ қилади. Ҳатто уларнинг конуссимон ва қаламсимон нуклеуслари ўта миттилиги билан ажралиб туради. Кўплаб тош буюмлар орасида кўпинча бир қирраси вентрал томонидан берилган бир тарафли ретушланган микропарахалар учрайди. Бироқ материалларнинг табиий таъсирлар натижасида емирилиб кетганлиги уларнинг функционал хусусиятини аниқлаш имконини бермайди. Бундан ташқари, бу ерда кертилган пластиналар, турли хил қирғиччалар, тешгичлар ва айрим баргсимон пойнаклар ҳам мавжуд. Бироқ Марказий Фарғона ёдгорликларининг биронтасида сопол буюмлар топилмаган.

Фарғона материалларининг ҳаддан ташқари ўзига хослиги ва ўта миттилиги уларни бошқа неолит комплекслари билан таққослаш имконини бермайди. Фақат айрим микролитларгина Калтаминор материалларига ўхшаб кетади. Эҳтимол, хронологик жиҳатдан ҳам улар бир-бирига яқин бўлиши мумкин. Шунини айтиш мумкинки, уларнинг ҳар иккаласи ҳам дашт ва чўл ҳайвонларини ва ўша пайтлардаги суви кўпроқ кўлларда балиқ овлаш билан шуғилланган жамоалардир.

Марказий Фарғона неолити даври ёдгорликларида ёрқин ифодаланган микролитизм ва унинг маҳаллий Обишир маданиятидан ўсиб чиққанлигининг кузатилиши бу ердаги ёдгорликларни мезолитдан янги тош асрига ўтиш ёки илк неолит даври билан саналаш имконинини беради. Анча кейинги даврларга Шимолий Фарғонадаги айрим ёдгорликларгина хос бўлиши мумкин ва улар йирик пластиналар, неолитга тўла хос бўлган тош рандалари ва бошқа буюмлари билан ажралиб тур ади (Мадёр 3, 4 ва бошқалар). Айтиш жоизки, Обишир ва Марказий Фарғона маданиятларининг кейинги ривожини аниқ эмас, яъни унинг моддий қолдиқлари топилган йўқ.

Шундай қилиб, голоцен даврида Марказий Фарғона ҳудудлари мезолитнинг иккинчи ярмида, жанубий ғарбдан Сух водийси бўйлаб кириб борган Обишир маданияти вакиллари томонидан эгалланган. Кўпроқ Марказий Фарғонанинг жануби-ғарбий қисмида жойлашган 30 дан зиёд Обишир маданияти ёдгорликлари аниқланган. Неолит даврига келиб, барча жойларда бўлгани каби бир қатор кашфиётлар қилинади ва тош асри маданияти гуллаб яшнайдди.

Бу даврда чайлалар типидagi уй жойлар ўрнини каркас типидagi ярим ертўлали турар жойлар эгаллайди, бу ўша давр учун мураккаб конструкцияли мейморий қурилиш фаолиятининг пайдо бўлиши эди (Қават 7 уйи). Айрим жойлардагина чайла типидagi мавсумий уйлар сақланиб қолади (Дорбазақир уйи). Хўжаликда ўта муҳим тармоқ инсон организми учун зарур протеинларни берувчи балиқчилик ривож топади. Кейинги маълумотларга кўра чорвачилик пайдо бўлади. Яна бир энг муҳим янгилик неолит давридан бошлаб ҳозиргача сақланиб келаётган сопол идишлар ишлаб чиқариш кашф қилинади. Бу буюмлар бадиий нақшлар бериш, уларнинг симметрик тарзда ишланишига ҳаракат қилиш ва ёдгорликлардан топилган кўплаб тақинчоқлар, табиий бўёқлар бу

даврд эстетик ва тасвирий санъатининг шаклланганлиги ва ривожланишда бўлганлигидан далолат беради.

Ўзбекистонда тош асри ёдгорликлари қатор ўзига хосликлари билан кўшни худудлар материалларидан ажралиб туради. Бу нарса аввало, уларнинг хронологиясида намоён бўлади. Дунёнинг бошқа қитъалари учун қабул қилинган хронологик ишланмалар юртимиз ёдгорликларига мос келмайди.

REFERENCES

1. Мирсоатова.С “Ўзбекистонда тош даври маданиятлари муаммолари” Самарқанд. 2010.
2. Заднепропетровский Ю.А. Неолит Центральной Ферганы. КСИА, вып. 7. М.: 1966
3. Исламов У.И., Тимофеев В.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. Ташкент. 1986.
4. Коробкова Г.Ф. Орудия труда и хозяйство неолитических племен Средней Азии. МИА, № 158. Л.: 1969

QIZILQUM HUDUDIDA O'RTA PALEOLIT DAVRI TOSH USTAXONALARI

Tursunqulov Fozilbek Narziqul o'g'li

O'zbekiston Respublikasi madaniy meros agentligi Y.G'ulomov nomidagi
samarqand arxeologiya institutining kichik ilmiy xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8118862>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qizilqum hududida o'rt paleolit tosh ustaxonalarining tosh davri jamoalari moddiy madaniyatini o'rganish yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qizilnura 1, Qorasigir havzasi, uchrindilar, Echkiliksoy, Lavlakon, terrassalar, tosh qurollar.

MIDDLE PALEOLITHIC STONE WORKSHOPS IN THE KYZYLKUM AREA

Abstract. This article covers the study of the material culture of the Stone Age communities of the Middle Paleolithic stone workshops in the Qizilqum area.

Key words: Kyzylnura 1, Karasigir Basin, hitches, goats, beets, terraces, stone weapons.

КАМЕННЫЕ МАСТЕРСКИЕ СРЕДНЕГО ПАЛЕОЛИТА НА ТЕРРИТОРИИ КЫЗЫЛКУМА

Аннотация. В данной статье рассматривается изучение материальной культуры общин каменного века среднепалеолитических каменных мастерских на территории Кызылкума.

Ключевые слова: Кызылнур 1, карасигирский пруд, Козий овраг, Лавлакон, террасы, каменные орудия труда.

O'zbekiston hududi tosh davri jamoalari moddiy madaniyatini o'rganishda Qizilqum sarhadlari o'ta istiqbolli bo'lib, o'ziga xos o'rni borligi ma'lum bo'ldi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, Qizilqum hududi paleolit davridanoq odamzod tomonidan o'zlashtirilgan ekan. Aniqrog'i, mazkur hududdan paleolit davrining barcha taraqqiyot bosqichlari hamda mezolit, neolit davriga oid yodgorliklar tadqiq etildiki, bu butun tosh asri davrida uzluksiz madaniyat yaratilganligini ko'rsatdi.

Xususan, qator muste davriga oid yodgorliklar tadqiq etilgan. Qo'lga kiritilgan manbalar bu moddiy madaniyatda o'z o'rniga ega. Qizilqum bo'yicha 1-marta 1962 yili E.D.Mamedov tomonidan Qizilnura 1 nomli paleolit yodgorligi kashf etilgan. Bu yodgorlik 1966 va 1970 yillari XAE ilmiy xodimi A.V.Vinogradov tomonidan atroflicha o'rganildi. Qizilnura 1 yodgorligi Qizilqum miqyosida nisbatan yirik yodgorlik hisoblanadi. U Qorasigir havzasining sharqiy qismida joylashgan. Yodgorlikda 2 metr chuqurlikkacha qidiruv shurfi qazilgan, bu gorizont pleystotsen davri pastki qismiga to'g'ri keladi. Qizilnura 1 yodgorligida madaniy qatlam saqlanib qolinmagan. Yer sathi uncha katta bo'lmagan maydonda 84 150 ga yaqin tosh qurol yig'ib olingan. Tosh buyumlari ichida bir yoki ikki maydonli disksimon tosh o'zaklari, qo'l cho'qmorlari, otshepdan yasalgan tosh qurollar, uchburchaksimon paykonlar, turli shakldagi otsheplardan yasalgan qirg'ichlar, ponasimon qurollar uchraydi.

Muste davriga oid tosh buyumlari ichida 26% ishlov berilgan qurollar bor. A.V.Vinogradov tadqiqoticha tosh buyumlar ichida 6,7 % ni paraqali element, 64% levalua elementi, 29% ni ish maydonlari to'g'irlangan element tashkil etadi. Tadqiqotchini fikricha Qizilnura 1 makoni tosh qurollari kolleksiyasi unchalik katta emas, lekin levalua elementi uni muste kompleksi ekanligini ravshan ko'rsatib turibdi. A.V.Vinogradov fikricha Qizilnura tosh

qurollari O'rta Osiyo miqyosidagi muste yodgorliklaridan Teshiktosh g'or makoni pastki madaniy qatlami quollariga juda o'xshash. Nisbatan kamroq bo'lsada Qayroqqum, Xojikent kabi levalua-muste yodgorliklari quollariga ham o'xshashlik jihatlari bor. Ayaqagitma paleolit makonlari (Boshog'itma 1,2,4,6- 15,31-38). XAE ilmiy xodimlari tomonidan 1967 yil Sharqiy Ayaqagitma havzasi arxeologik jihatdan atroflicha o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida 21 ta paleolit makonlari aniqlangan. A.V.Vinogradov E.D.Mamedovlar tadqiqotida Sharqiy Ayaqagitmada 4ta terassa yaqqol kuzatiladi. Asosan, birinchi va ikkinchi terassalar sathida paleolit makonlari joylashgan. Boshog'itma makonlari ichida 36-37 makonlari nisbatan yirikroq hisoblanadi. Boshog'itma 37-makonidan hammasi bo'lib, 92 nusxada tosh buyumlar topilgan. Shulardan 69 tasi otshepdan yasalgan buyumlar hisoblanadi.

Tosh buyumlar sirtidan otsheplar uchirib olganliklari izlari ko'rinib turibdi. Boshog'itma 11- makonidan disksimon tosh o'zaklari topilgan. Bu makonlar tosh qurollari ko'p jihatlari bilan Qizilnura 1 makoni tosh quollariga o'xshash. Qorasigir havzasi sharqiy qismi paleolit yodgorliklari (Qizilnura 2-7,8-20). 1970-yili A.V.Vinogradov va E.D. Mamedovlar Qorasigir havzasi sharqiy qismida yana arxeologik tadqiqotlar olib borishib, qator paleolit makonlarini aniqlashgan. Bu makonlar Qizilnura 1 makonidan farq qilib, ulardan topilgan tosh quollar soni ikki, uchtdan to o'ttiztagacha boradi.

Faqatgina havzaning g'arbiy-janubiy qismidan topilgan makonlarda nisbatan ko'proq tosh buyumlar uchratilgan. Xususan, Qizilnura 16 makonidan 100 dan ortiq tosh buyumlar qo'lga kiritilgan. Topilgan tosh quollarini tipologik jihatdan bir necha guruhga bo'lish mumkin. Tosh quollar muste davri jamoalariga tegishli.

Echkiliksoy vohasidan oz sonli bo'lsada paleolit davriga oid makonlar topilgan. Paleolit yodgorliklari Qorabog'quduq, Xo'jagumbazdan topilgan. Hammasi bo'lib, 5 ta makondan iborat. Janubiy-g'arbiy Qizilqum paleolit yodgorliklari tosh buyumlari jigar-kulrang rangli chaqmoqtoshli tog' jinslaridan yasalgan. A.V.Vinogradov ko'rsatishicha, sanoqli bo'lsada qora rangli chaqmoqtoshli slanslardan ham quollar yasalgan. Hattoki qayroqtoshdan yasalgan 85 paykonlar hamda disksimon bir taraflama ishlov berilgan tosh o'zaklari ham uchraydi.

Lavlakan paleolit makonlari. A.V.Vinogradov, E.D.Mamedovlar Qizilqumning ichki hududlari xususan, Lavlakan ko'li atrofida qator paleolit davri yodgorliklarini tadqiq etishgan. Bu makonlar Lavlakan 34,29,203,219,40,108,368 kabilar hisoblanadi. Lavlakan paleolit quollari paykonlar, qirg'ichlar, tishsimon usulda ishlov berilgan tosh quollari hisobalanib, Qizilnura, Ayaqagitma muste quollariga o'xshash.O'z navbatida Ko'lbuloq makon quollariga yon tomoniga chuqurcha hamda tishsimon usulida ishlov berilganligi bilan o'xshaydi. A.V.Vinogradovning tadqiqoticha Qizilqum hududida so'nggi paleolit davriga oid yodgorliklar noma'lum bo'lib kelmoqda edi.

Aniqrog'i, Ayaqagitma havzasi sharqiy qismida bir nechta makonlar so'nggi paleolit davriga oidligi ehtimoli to'g'risida fikr bildirilgan edi. Lekin bu fikr keyingi tadqiqotlarda o'z isbotini topmadi. Keyinchalik, A.V.Vinogradov tosh quollari sirtini mog'or bosish bo'yicha nisbatan yangirog'ini hisobga olib, bu quollar so'nggi paleolit davri jamoalariga tegishli bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari surdi. Shu nuqtai nazardan Qizilnura 15 –makonini so'nggi paleolit davri jamoalariga tegishli deb hisobladi. Qizilnura 15-makoni o'z moddiy madaniyati bilan Ustyurt hududidagi Esen 2 hamda Markaziy va G'arbiy Qozog'istondagi bir qancha so'nggi paleolit yodgorliklariga moddiy madaniyat jihatidan o'xshash degan fikrni ham bildiradi.

Qizilnura 1 makoni. Qizilqum bo'yicha 1-marta 1962 yili E.D.Mamedov tomonidan Qizilnura 1 nomli paleolit yodgorligi kashf etilgan. Bu yodgorlik 1966 va 1970 yillari XAE ilmiy xodimi A.V.Vinogradov tomonidan atroflicha o'rganilgan. Qizilnura 1 yodgorligi Qizilqum miqyosida nisbatan yirik yodgorlik hisoblanadi. U Qorasigir havzasining sharqiy qismida joylashgan. Yodgorlikda 2 metr chuqurlikkacha qidiruv shurfi qazilgan, bu gorizont pleystotsen davri pastki qismiga to'g'ri keladi. Qizilnura 1 yodgorligida madaniy qatlam saqlanib qolinmagan. Er sathi uncha katta bo'lmagan maydonda 150 ga yaqin tosh qurol yig'ib olingan. Tosh buyumlari ichida bir yoki ikki maydonli disksimon tosh o'zaklari, qo'l cho'qmorlari, otshepdan yasalgan tosh qurollar, uchburchaksimon paykonlar, turli shakldagi otsheplardan yasalgan qirg'ichlar, ponasimon qurollar uchraydi. Must'e davriga oid tosh buyumlari ichida 26% ishlov berilgan qurollar bor.

A.V.Vinogradov tadqiqoticha tosh buyumlar ichida 6,7 % ni paraqali element, 64% levalua elementi, 29% ni ish maydonlari to'g'irlangan element tashkil etadi. Tadqiqotchini fikricha Qizilnura 1 makoni tosh qurollari kolleksiyasi unchalik katta emas, lekin levalua elementi uni must'e kompleksi ekanligini ravshan ko'rsatib turibdi. A.V.Vinogradov fikricha Qizilnura tosh qurollari O'rta Osiyo 86 miqyosidagi must'e yodgorliklaridan Teshiktosh g'or makoni pastki madaniy qatlami qurollariga juda o'xshash.

Nisbatan kamroq bo'lsada Qayroqqum, Xojikent kabi levalua- must'e yodgorliklari qurollariga ham o'xshashlik jihatlari bor. Ayaqagitma paleolit makonlari (Boshog'itma 1,2,4,6-15,31-38). XAE ilmiy xodimlari tomonidan 1967 yil SHarqiy Ayaqagitma havzasi arxeologik jihatdan atroflicha o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida 21 ta paleolit makonlari aniqlangan. A.V.Vinogradov E.D.Mamedovlar tadqiqoticha SHarqiy Ayaqagitmada 4ta terassa yaqqol kuzatiladi. Asosan, birinchi va ikkinchi terassalar sathida paleolit makonlari joylashgan. Boshog'itma makonlari ichida 36-37 makonlari nisbatan yirikroq hisoblanadi. Boshog'itma 37-makonidan hammasi bo'lib, 92 nusxada tosh buyumlar topilgan. SHulardan 69 tasi otshepdan yasalgan buyumlar hisoblanadi.

Tosh buyumlar sirtidan otsheplar uchirib olganliklari izlari ko'rinib turibdi. Boshog'itma 11- makonidan disksimon tosh o'zaklari topilgan. Bu makonlar tosh qurollari ko'p jihatlari bilan Qizilnura 1 makoni tosh qurollariga o'xshash. Qorasigir havzasi sharqiy qismi paleolit yodgorliklari (Qizilnura 2-7,8-20). 1970-yili A.V.Vinogradov va E.D. Mamedovlar Qorasigir havzasi sharqiy qismida yana arxeologik tadqiqotlar olib borishib, qator paleolit makonlarini aniqlashgan. Bu makonlar Qizilnura 1 makonidan farq qilib, ulardan topilgan tosh qurollar soni ikki, uchtadan to o'ttiztagacha boradi.

Faqatgina havzaning g'arbiy-janubiy qismidan topilgan makonlarda nisbatan ko'proq tosh buyumlar uchratilgan. Xususan, Qizilnura 16 makonidan 100 dan ortiq tosh buyumlar qo'lga kiritilgan. Topilgan tosh qurollarini tipologik jihatdan bir necha guruhga bo'lish mumkin. Tosh qurollar must'e davri jamoalariga tegishli.

Qizilnura 15 makoni. Bu yodgorlik havzaning shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan. Makon maydoni 300*300 m o'lchamga teng keladi. A.V.Vinogradov fikricha Qizilnura 15 yodgorligi chaqmoqtoshli tog' jinsiga birlamchi ishlov beriladigan ustaxona hisoblanadi. Makon maydoni sathida uch joydan 464 nusxa tosh buyumlari topilgan. Tosh buyumlari ichida 350 dan ortig'ining sirt qismi juda silliqanib ketgan. Uchchala tosh qurollari jamlangan punktlar tosh qurollari tipologik jihatdan bir-birlaridan farq qilmaydi.

Tosh qurollari ichida keskich qurollar, tishsimon ishlov berilgan qurollar ko'pchilikni tashkil qiladi. Turli shakldagi qirg'ich qurollar ham o'z ishlov berilish usuliga ko'ra must'e davri jamolariga tegishli. Echkiliksoy vohasidan oz sonli bo'lsada paleolit davriga oid makonlar topilgan. Paleolit yodgorliklari Qorabog'quduq, Xo'jagumbazdan topilgan. Hammasi bo'lib, 5 ta makondan iborat. Janubiy-g'arbiy Qizilqum paleolit yodgorliklari tosh buyumlari jigar-kulrang rangli chaqmoqtoshli tog' jinslaridan yasalgan. A.V.Vinogradov ko'rsatishicha sanoqli bo'lsada qora rangli chaqmoqtoshli slanslardan ham qurollar yasalgan.

Hattoki qayroqtoshdan yasalgan 87 paykonlar hamda disksimon bir taraflama ishlov berilgan tosh o'zaklari ham uchraydi(A.V.Vinogradov, Mamedov 1970). Lavlakan paleolit makonlari. A.V.Vinogradov, E.D.Mamedovlar Qizilqumning ichki hududlari . Xususan, Lavlakan ko'li atrofida qator paleolit davri yodgorliklarini tadqiq etishgan. Bu makonlar Lavlakan 34,29, 203,219,40,108,368 kabilar hisoblanadi. Lavlakan paleolit qurollari paykonlar, qirg'ichlar, tishsimon usulda ishlov berilgan tosh qurollari hisobalanib, Qizilnura, Ayaqagitma must'e qurollariga o'xshash.O'z navbatida Ko'lbuloq makon qurollariga yon tomoniga chuqurcha hamda tishsimon usulida ishlov berilganligi bilan o'xshaydi.

Qoraqalpog'iston sarhadlari Ustyurt platosida ashel va muste davriga A.V.Vinogradov, E.Bijanov va M.Qosimovlar tomonidan Borsakelmas, Esen qirlaridan topilgan Esen 1,2,4,5,6, Qoraquduq yodgorliklari kiritilgan. Xullas, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, O'rta Osiyo sarhadlari kishilik tarixi taraqqiyoti tosh asri o'rta paleolit (muse) davrida odamzod yashashib, o'ziga xos madaniyat yaratishgan ekan. Bu haqda Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkmaniston hududlarida amalga oshirilgan tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan arxeologik, antropologik manbalar dalolat beradi.

A.P.Okladnikov, V.A.Ranov, N.Toshkenboev, M.Qosimov, R.Suleymanovlar O'rta Osiyo sarhadlarida muste davri jamoalarining moddiy madaniyati bir tomondan Old Osiyo (A guruhi), ikkinchi tomondan SHarqiy hududlar Sibir, Mongoliya, Xitoy (B guruhi) sarhadlari muste davri jamoalari moddiy madaniyatiga o'xshashligini ta'kidlashgan. SHuningdek, V.A.Ranov, N.Toshkenboev, M.Qosimov, R.Suleymanovlar muste jamoalarining moddiy madaniyatini mahalliy madaniy variantlarga bo'lishgan. Keyingi yillarda O'zbekiston-Rossiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi (O'.Islamov, R.Suleymanov, A.P.Derevyanko) xodimlari tomonidan muste davriga oid bir qator yangi yodgorliklar topilishiga erishilgan.

REFERENCES

1. А. В. Виноградов Древние охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья Москва, 1980
2. Касымов М. Р. Кремнеобрабатывающие мастерские и шахты каменного века Средней Азии. Ташкент, 1972 б
3. N.O'. Xolmatov O'rta Osiyo Arxelogiyasi: tosh asri Toshkent, 2020

ЎҚУВЧИЛАРНИНГ НУТҚИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШГА ДОИР ИНТЕРАКТИВ МЕТОДЛАР

Олимжон Ешимбетов

Тошкент гуманитар фанлар университети ўқитувчиси педагогика фанлари бўйича
фалсафа фанлари доктори PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8118972>

Аннотация. Ўқувчиларнинг нутқий компетенцияларини самарадорлигини оширишга доир интерактив методлар, она тили дарсларида ўқувчиларнинг нутқий компетенцияларини ривожлантириш методикаси коммуникатив, интегратив, креатив нутқий билим ва кўникмаларни ҳосил қилиш, баён этиши услублари имкониятларидан таълим жараёнида оғзаки ва ёзма нутқининг ўсиш кўрсаткичини аниқлаш асосида такомиллаштириш.

Калим сўзлар: Нутқ, матн, оғзаки нутқ, ёзма нутқ, нутқ одоби, сўзлашув услуби, шакл, фикрлаш, билим, кўникма, малака, бадиий матн, интерактив метод.

INTERACTIVE METHODS TO IMPROVE THE EFFECTIVENESS OF STUDENT SPEECH COMPETENCIES

Abstract. Interactive methods for improving the effectiveness of speech competencies of students, methodology for developing speech competencies of students in native language lessons improving on the basis of determining the growth rate of oral and written speech in the educational process from the possibilities of communicative, integrative, creative speech knowledge and skills generation, methods of statement.

Keywords: Speech, text, oral speech, written speech, speech etiquette, colloquial style, form, thinking, knowledge, skills, competence, artistic text, interactive method.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ РЕЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. Интерактивные методы повышения эффективности речевых компетенций учащихся, методика развития речевых компетенций учащихся на уроках родного языка совершенствование на основе формирования коммуникативных, интегративных, творческих речевых знаний и умений, определения показателя роста устной и письменной речи в образовательном процессе от возможностей повествовательных стилей.

Ключевые слова: Речь, текст, устная речь, письменная речь, речевой этикет, манера речи, форма, мышление, Знания, навыки, компетенции, художественный текст, интерактивный метод.

Ўқувчиларнинг нутқий компетенцияларини ривожлантириш, нутқий кўникмаларни шакллантириш, оғзаки ва ёзма нутқини ривожлантириш ва такомиллаштириб бориш мақсадга мувофиқ. Бунда нутқий компетенцияларини ривожлантиришга йўналтирилган мавзуларни замонавий таълим технологиялари, интерактив методлар, дидактик ўйинлар асосида ташкил қилиш ўз олдимишга қўйган мақсаднинг тугал ечимига эришган бўламиз. “Инновацион педагогик технологиялар воситасида ўқитишни тубдан яхшилаш” каби мезонлари БМТнинг таълим, фан ва маданият масалаларига доир Битимида ҳам долзарб вазифа сифатида белгиланган [1]. Халқаро миқёсдаги ўқитиш жараёнида инновацион

педагогик технологияларга таълим жараёнидаги асосий муаммолардан бири сифатида қаралмоқда.

Таълим тизимини ислоҳ қилишнинг зарурлигини тушуниб етиш, амалиётда таълим муассасаларини инновацион ёндашувларга асосланишни тақозо этмоқда, ўзини яратиш имкони мавжуд инновацион майдонда кўриш ва энг муҳими аниқ янгиликларни ўзлаштиришдан иборат. Бу ҳолат бугунги кунда ўта долзарблиги билан муҳимдир, чунки, ушбу инновацион ёндашувлар таълим муассасаларини яшаш шарти (бевосита ва кўчма маънода ҳам), келажак авлодларнинг билим доирасини мустаҳкамлаб, педагоглар жамоасининг замонавий билим бериш борасидаги мақсадларини амалга оширади. Бу инновацион ёндашувлар тўғридан-тўғри изланувчи педагог ва ўқитувчиларга тегишлидир, чунки таълим муассасаларида инновацион ёндашувга асосланиш ўқувчилар орасида рақобат пайдо бўлишига олиб келади, таълим сифати ва самарадорлиги ошади. Бу жараён эса ўз-ўзидан ўсишга, юксалишга ижобий таъсир қилади.

Таълим тизимида – давлатимиз биринчилардан бўлиб фаол инновацион ҳаракатни бошлади. Маълум босқичда ХХ аср охирида бундай ҳаракатлар йўлга қўйилган эди. Масалан, А.Г.Ривин ва В.К.Дяченко томонидан ўқитишни жамоавий ўқитиш, Д.Б.Элконин, В.В.Давыдов, Л.В.Занковлар томонидан илгари сурилган ривожлантирувчи инновацион таълим тўғрисидаги қарашлар ўз вақтида маълум аҳамият касб этди. Шу билан бирга бошқа инновацион таълим технологиялари: диалектик ўқитиш усуллари (А.И.Гончарук, В.Л.Зарина), ўқитишнинг индивидуал йўналишли усули (А.А.Ярулов), “Экология ва диалектика” (Л.В.Тарасов), эвристик ўқитиш (А.В.Хуторской) диалог маданияти (В.С.Библер, С.Ю.Курганов), лойиҳали ўз-ўзини рефлексия (Г.П.Шедровитская) ва бошқаларни келтириш мумкин.

Мустақиллик йиллари даврида бир қатор олимлар, жумладан, М.Омилхонова, К.Қосимова, Р.Абдулахатова, А.Ғуломов, Р.Иноғомовалар она тили ўқитиш методикаси соҳасида она тилига ўзларининг фикрлари, таклифлари, тавсиялари билан янгилик олиб кириш борасида изланиш олиб боришган. Кейинги йилларда Р.А.Мавлянова, Н.Х.Рахмонкуловалар томонидан яратилган “Бошланғич таълимда инновация” номли методик қўлланмада инновацион жараёнлар ривожланишининг умумий йўналишлари, ўқитувчининг инновацион фаолияти муаммоларини ижодий имкониятини актуаллаштириш масалалари кенг ёритиб берилган.

Инновацион методлар орқали тил таълими тизимига янгиликлар олиб кириши, дарсларни ташкиллаштириш жараёнидаги турли мақсадлари она тили дарслари мазмунига, метод, усулларига, таълимий ўйинларига, олиб борилган педагогик фаолиятдаги ҳамоҳанглик ҳамда таълим сифатини назорат қилиш ва баҳолаш тизимига, ўқув-методик таъминотига, таълимий, тарбиявий ишлар тузилмасига, ўқувчи ва ўқитувчи ҳамкорлигига жиддий таъсир кўрсатади. Б.Тўхлиев, М.Шамсиева, Т.Зиёдоваларнинг “Ўзбек тили ўқитиш методикаси” қўлланмасида: “Она тили машғулоти нутқ санъатини эгаллаш ва ундан самарали фойдаланиш билим, кўникма ва малакаларни тарбиялайди. Шу жараёнда нутқий маданият шаклланади. Нутқ маданияти ёшларга кундалик оддий саломлашишидан кимга?, нимага?, қачон?, қаерда?, қандай? сўзлашгача бўлган муомала-мулоқот сирларини ўргатади; шарқона одоб-андиша, гўзал кироат санъати қонуниятларини англаб боришда

хам катта аҳамият касб этади” [3]- дея эътироф этилгани она тили дарсларида ўқувчиларнинг нутқий компетенциясини ривожлантиришда асослидир.

“Саводхон” методи. Бу методнинг шартлари қуйидагилардан иборат: Ўқувчиларга биттадан ёзилган матн тарқатилади. Матнни ўқинг. Берилган матндаги хато ёзилган сўзларни, матнда қатнашган маънодош сўзларни аниқланг, матн мазмунида нутқнинг қандай коммуникатив сифатлари иштирок этган ва матнга қандай ибораларни қўллаш мумкин?

Бадий матн

Муалим ва устос шундай зотки, у инсониятни илим беағи билан зийнатлайди, уларга чиройли ва ёқимли фазилатлар билан чирой ва оро беради, тушунтириш билан фойдасиз нарсалардан одамни холос этади, инсонни ҳақиқий комил инсон даражасига етказиш билан билим ҳазинасини уларнинг қалбларига жойлайди.

Берилган матндан имловий хато ёзилган сўзларни топинг. “Ўзбек тилининг имло луғати” билан текширинг.

Хато ёзилган сўзлар: муалим- муаллим, устос -устоз, илим-илм, ҳақиқий -ҳақиқий, ҳазина-ҳазина, етказиш-етказиш, холос этади-халос этади.

Матндаги маънодош сўзларни аниқланг ва маънодошлар топинг.

Маънодош сўзлар: инсон, киши,одам, башар

Муаллим, устоз, ўқитувчи

Матнда нутқнинг қайси коммуникатив сифатлари ифодаланган. Нутқнинг софлиги, жўялилиги, мантиқийлиги

Матн мазмунига мос қўлланиладиган иборалар: Игна билан қудуқ қазимок, ипидан игнасиғача.

Ўқувчиларнинг жавоб варақлари текширилгандан кейин ўқитувчи ўқувчилар билан ҳамкорликда хатолар устида ишлайди.

Уйга вазифа. Газета ва журналлардаги мақолаларни ўқиб, кириш сўзи билан биргаликда гапни кўчиринг ва мақолада нималар ёритилганлигини дафтарингизга ёзинг.

Нутқ услублари устида ишлаш методи. Ўқувчилар бешта кичик гуруҳга бўлиб олинади ва уларга бешта варақ тарқатилади.Улар бир-бирлари билан ўйланган ҳолда жавобларни ёзиб ёнидаги гуруҳга берадилар.

Сўзлашув услубига оид сўзлар: синчалак, ўжак, кевотти, шоти, спосибо, жолли, виручат қилмоқ, спекинг қиламиз.

Илмий услубга оид сўзлар: шахси умумлашган гап,киритма, субъектив баҳо ифодаловчи қўшимчалар, морфологик воситалар, ундалма, тиниш белгилар, риторик сўрок гап, ўзлаштира гап.

Бадий услубга оид сўзлар: ватан, қадам ранжида қилмоқ, боши осмонга етди, қалбим қуёши, волидаи муҳтарама, ширин орзу, сабо.

Оммабоп услубга оид сўзлар: мухбир, мамлакат, илғор, республика, сиёсий алоқалар.

Расмий услубга оид сўзлар: аризасига кўра, қолиплашган бирикмалар, қабул қилинсин, тушунтириш хати, оилавий шароитим туфайли, қарор қилинди, кун тартиби


“Зукколик” ўйини. Ўқитувчи проектор экранда ёзилган куйидаги сўзлар ўқувчиларга кўрсатади. Чамандаги гул, баҳор фаслидаги меҳнат, сувни эъзозлаш каби бирликлардан фойдаланиб, ўзбек халқ мақолларидан намуналар келтиринг.

1. Сувга тупурма, сувсиз қоласан. 2. Дарё сувини баҳор тоширади,
Одам қадрини меҳнат оширади.

3. Булбул чаманни севар, Одам - ватанни

“Биз – Ватан эгаларимиз” мавзусида ижодий матн тузинг топшириғи берилади ва ўқувчилар билан таҳлил қилинади.

“Қизиқарли такдимот” ўйини. Ўқувчилар мустақил равишда келажакда ўз касбини танлаб, ишга кириш учун муассаса ёки ташкилот раҳбарига ариза маълумотномани ёзиб, слайдлар орқали ўзлари намойиш қиладилар.



Бу саволлар иш юритиш ҳужжатларини қай даражада билишини ва расмий матнни тузиш ва ёзиш кўникмаларини аниқлашга ёрдам беради

“Субъектив муносабат” ўйини. Ўқувчиларни топшириқ бажариш учун 3 гуруҳга бўлиб олинади ва куйидаги жадвал ўқувчиларга тарқатилади.

Маъносига изоҳ ўйини. Бу ўйин шартига кўра синфдаги ўқувчилардан тўртта ўқувчи сўзларнинг маъно кўчиш турлари номи тескари томон билан қўйилган бўлади, уларни танлаб олишади ва мисол келтириб, гаплар тузиб, сўзнинг ўз маъносига ва кўчма маъносига изоҳ берадилар.

Кўчма маъноли сўзлар: *Бобурга шарҳ бермоқ, мунгли куй, гилдиракни юргизмоқ, тирноққа зор, аччиқ сўз, Гулчеҳра, бошида кўтаради, “Юлдузли тунлар”ни олмоқ, ўн бешга тўлмоқ, Бунёдкорда футбол ўйнамоқ, автомобилнинг эшиги, олма арчаётиб қўлини кесиб олмоқ, столнинг оёғи, деворнинг қулоғи, олма гули гул эмас, тақсам чаккамда турмас.*

Бошқа иштирокчи ўқувчилар икки шеърни ёзув тахтасидан ёзиб оладилар ва ўз маъносидаги сўзлар ва кўчма маънодаги сўзлар деб икки устунга сўзларни жойлаштирадилар.

Қалам ушладимми, демак-ўйин бас,

Яйраб очолмайди гул дудоғини

Шундоқ юрак ютиб сўраша олмас,

Хонамда қолдирган кўғирчоғини.

Бурчак-бурчакда жим тортишар бурун,

Билмам қандай ўй-у хаёл ичида

Тузсиз шеърларим деб шириндан ширин

Болаларим юрар оёқ учида.

(М.Юсуф)

Раҳми келиб булутнинг
Йиғлаб тўкар ёшини,
Қушлар қочар мажнунтол
Кўтаради бошини. (Э.Воҳидов)

Энг тўғри ва аниқ жавоб берган ўқувчилар ўқитувчи томонидан рағбатлантирилади. Синфдаги барча ўқувчиларга ушбу топшириқ ёзилган бир варақ қоғоз тарқатилади. Ҳар бир иштирокчи луғат матнида берилган сўзларни топиб ёзишлари лозим. Топшириқ бажариб бўлингандан кейин бир ўқувчи тўлдирилган матннинг тўлиқ шаклини ифодали ўқиб, эшиттиради.

Умуман, замон билан ҳамнафас бўлган юқори синф ўқувчиларида тинглаб тушуниш ёзиш сўзлаш чуқур илмий жиҳатдан асосланган бўлмоғи учун она тили дарсларида нутқни ривожлантирувчи онгини ва дунёқарашини ўстирувчи янгиланган назарий маълумотлар билан бойитиш лозим. Аёнки, юқори синф ўқувчилари муайян информацияни оғзаки равишда ўқиб тинглаб сўзлаб ёзиш функцияси воситасида тингловчига етказар экан, уларнинг грамматик билимлари муайян даражада юқори бўлиши талаб қилинади, нутқ техникасига амал қилиш сўралади. Афсуски, юқори синф ўқувчилари нутқ техникасига амал қилиш даражасида эмас. Улар нутқларида аааа эее унлиларини чўзиб талаффуз қилишлари, тиниш белгиларига эътибор қилмай гапиришлари учраб турибди. Ўқувчиларнинг сўзлашишида эркин фикр билдириш кўникмаси ва бу кўникма замирида ўйлаб, мулоҳаза қилиб муносабат билдириш, фикрларни хулосалаган ҳолда жамланма хулоса бериш, мазмунли маънога эга бўлган фикрни айтиш, улардаги сўзлаш кўникмасининг такомили намунасини.

Сўзлашда ва ёзишда ўзаро мазмун жиҳатдан тобе боғланган сўз бирикмалари тузилган гаплар интонация билан айтилган фикрлар муаммо ечимининг самараси билан боғлиқ.

Шуни айтиш жоизки, таълим воситаларини чуқур ўрганиш муҳим саналади. Жумладан, 10-синф “Она тили” дарслигида ўқувчиларнинг нутқий компетенцияларини такомиллаштириш борасида бир қанча амалий машқлар берилган. Ушбу топшириқларни бажариш жараёнида ўқувчилар ўзаро фикр алмашади, таниқли тилшунос олимларнинг фикрига ўз муносабатини билдиради, таҳлилий қарашларини шакллантиради. Бу орқали эса нутқнинг коммуникатив сифатлари ривожланишига замин яратилади, ўқувчилар оғзаки ва ёзма нутқининг ривожланиши билан бир қаторда уларда миллатимизга, она тилимизга фахр туйғуси пайдо бўлади. Зеро, йирик тилшунос олим Низомиддин Маҳмудов қайд этганидек: Тилимизнинг софлиги ҳақида қайғуриш шу миллатга мансубликдан, шу муқаддас тимсолга дахлдорликдан ифтихор қиладиган ҳар бир кишининг бурчи. Нафақат мутахассис, балки касб-у коридан қатъи назар, юртнинг ҳар бир фидойи фарзанди тилга эътиборни ёддан чиқармаслиги зарур. Она тили бу – миллатнинг руҳидир [2]. Ўқувчиларни миллатнинг фидойилари сифатида тарбиялаш, уларда сўзлаш маданиятига эга бўлган, ёзма нутқи адабий тил меъёрлари асосида ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

REFERENCES

1. ЮНЕСКО халқаро меъёрий ҳужжатлари //Ўзбекча нашрининг масъул муҳаррири Л.Саидова. –Т.: Адолат, 2004. –Б. -62.

2. Mahmudov N va b. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6- sinfi uchun darslik. – Toshkent: Tasvir, 2017. –208 b
3. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. –Т.: Янги аср авлоди, 2006. –314 б.
4. Қурбонова О.Б. 10-11-синф Она тили дарсларида ўқувчиларнинг нутқий компетенцияларини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш: Пед. фан. док. (PhD) дисс.... – Тошкент: 2021

ЎҚУВЧИЛАРДА ЛИНГВИСТИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ

Олимжон Ешимбетов

Тошкент гуманитар фанлар университети ўқитувчиси педагогика фанлари бўйича
фалсафа фанлари доктори PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8119003>

Аннотация. Ўқувчиларида лингвистик компетенцияларни ривожлантириш методикасини такомиллаштириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш ва нутқий компетенцияларини самарадорлигини оширишга доир интерактив методлар имкониятларидан таълим жараёнида оғзаки ва ёзма нутқининг ўсиш кўрсаткичини аниқлаш асосида такомиллаштириш.

Калим сўзлар: Тафаккур, матн, лингвистик, оғзаки нутқ, ёзма нутқ, нутқ одоби, сўзлашув услуби, шакл, фикрлаш, компетенция, билим, кўникма, малака, бадиий матн, интерактив метод, маҳорат, шахс.

INNOVATIVE EDUCATIONAL METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LINGUISTIC COMPETENCIES IN STUDENTS

Abstract. Development of recommendations for improving the methodology for the development of linguistic competencies in their students and improvement of speech competencies based on the identification of the growth indicator of oral and written speech in the educational process from the possibilities of interactive methods for improving their effectiveness.

Keywords: Thinking, text, linguistic, oral speech, written speech, speech etiquette, colloquial style, form, thinking, competence, knowledge, skills, competence, artistic text, interactive method, skill, personality.

ИННОВАЦИОННАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. Разработка рекомендаций по совершенствованию методики развития языковых компетенций у учащихся и совершенствование ее на основе определения показателя роста устной и письменной речи в образовательном процессе от возможностей интерактивных методов повышения эффективности речевых компетенций.

Ключевые слова: Мышление, текст, Лингвистика, устная речь, письменная речь, речевой этикет, манера речи, форма, мышление, компетентность, знания, навыки, компетенции, художественный текст, интерактивный метод, навык, личность.

Инсон тафаккури самараси ўлароқ таълим соҳасига оммалашиб улгурган замонавий педагогик технологияларнинг асосий муаммоси таълимдан кўзланган мақсадга эришиш орқали маънавий етук шахс тарбияси ва унинг интеллектуал салоҳиятини ривожлантиришга қаратилганидир.

Педагогик технология тушунчасининг мазмун-моҳияти юзасидан турлича ёндашувлар мавжуд.

Ўзбекистонлик файласуф олим Б.Зиёмуҳаммадовнинг таъбирича, “ўқитувчининг ўқитиш воситалари ёрдамида ўқувчи ё талабаларга, муайян дастур асосида, мақсадга йўналтирилган тизимли таъсир натижасида, уларда жамият учун зарур ва олдиндан

белгиланган ижтимоий сифатларни шакллантирувчи маърифий тадбир” педагогик технологиядир[3].

Ўқув жараёнида таълим технологияларининг қўлланилиши ўқувчиларни мустақил, эркин фикрлашга, интилишга, барча масалага ижодий ёндашиш, масъулиятни ҳис эта олиш, таҳлил қилиш, қўшимча воситалардан унумли фойдаланиш ўзи танлаган касбга нисбатан қизиқиш уйғотади[7]. Педагогик технологияга асосланган дарсларнинг анъанавий дарслардан фарқи шундаки, ўқувчига ўз фикрини мустақил баён этишга имкон яратилади. Ўқувчининг шахсиятига таъсир этмайдиган саволлар бериш ёрдамида дўстона муносабатдаги ўқув муҳити вужудга келтирилади. Дарс жараёнининг ушбу босқичида ўқувчиларни ўз ғоялари ва таклифлари билан чиқишга чорлаш ҳамда шу вақтнинг ўзида барча ғоя ва таклифларни мунтазам ёзиб бориш лозим. Имкон қадар қисқа ва тушунарли тарзда ёзиб кўрсатилган қоидалар ўқувчилар томонидан, ўқитувчи ёрдамида изоҳлаб берилади. Жумладан, доскага қуйидаги эслатмаларни ёзиб қўйилади:

- салбий муносабатда бўлманг ва баҳоламанг (иштирокчилар бошқалар фикрини муҳокама этмайди, баҳо бермайди ва танқид қилишмайди);
- жавоблар нотўғриси бўлмайди (хато қилишдан чўчиманг);
- фикрларингизни ўзгартиринг, асослаб бойитиб боринг, (ўқувчилар фикрига ўзгартиришлар кирита олинг, қўшимча фикр билдириш, фикрларингизни асослаб беринг);
- хотиржам бўлтишга урининг ва иштирок этинг (ўзаро ёрдам ва дўстона мусобақа муҳитини яратинг)[8].

Ўқувчиларнинг берилган топшириқни ўз вақтида бажариши учун тайёрланишга вақт ажратилади ва шароит яратилади. Гуруҳлар тайёргарликни бошлайдилар. Ушбу чиқиш адабий-муסיқий композиция шаклида ҳам тайёрланиши мумкин. “Танишув” технологиясининг биринчи босқичи орқали ўқувчиларда ўзаро танишиш ва дўстона муносабатда бўлиш кўникмаси ҳосил бўлади.

Иккинчи босқичда гуруҳлар тайёрлаган ижодий чиқишларини намойиш этадилар. Она тили дарслигида берилган машқлардаги матнлар бўйича фикр-мулоҳаза билдирадилар. Матнларга сарлавҳа қўйиб, ҳар бирига изоҳ берадилар. Дастлаб “Ҳикоя матни”, “Тасвирий матн” ва “Муҳокама матни” бўйича ёзилган матнларни ўқиб таҳлил қиладилар.

Биринчи гуруҳ: ҳикоя матни ҳақида.

Иккинчи гуруҳ: тасвирий матн ҳақида.

Учинчи гуруҳ: муҳокама матни ҳақида.

1-гуруҳ. Ҳикоя матни. “Ифтихор”

“Ниҳоят, Лондондан Тошкентга учадиган бўлдик. Ҳаво кемасига чиқишимиз билан осойишта ва ёқимли овоз янгради: “Ассалому алайкум, хонимлар ва жаноблар! Сизларни “Ўзбекистон ҳаво йўллари” миллий авиакомпанияси номидан муборакбод этамиз!” Ростини айтсам, кўзимдан ёш чиқиб кетди. Бу сўзлар менинг тилимда, она тилимда жаранглади! Ватанимдан минглаб чақирим нарида, тагин юзлаб хорижий йўловчилар ўтирган кемада!.. Ақалли мана шу ҳолатнинг ўзи учун Истиклолга минг бора таъзим қилишга тайёрман!”[10] (Ўткир Ҳошимов)

Биринчи гуруҳ иштирокчилари “Ифтихор” сарлавҳаси билан берилган матн нега айнан ҳикоя матнида бўлгани ва унинг таърифини айтади.

2-гуруҳ. Тасвирий матн. “Орол ва дарё”

“Орол ўша-ўша. Узоқдан туриб қарасанг кўз тўймайди. Илон каби буралиб оқувчи дарё шу ерга келганда, иккига ажралган, уч чақиримдан сўнг яна бирлашади. Қўшқокил янглиғ ирмоқ орасидаги орол эса яшнаб турибди. Наъматак, ёввойи жийда, бақатерак жой талашгандек айқаш-уйқаш бўлиб кетган. Сувга эгилиб турган жийда барглари кумуш каби товланади. Атроф сокинлик ҳукмида. Дарёнинг оқиши ҳам, оролдаги қалин дарахтзорнинг эпкинда тебраниши ҳам улуғвор”[5] (Тоҳир Малик).

Иккинчи гуруҳ иштирокчилари “Орол ва дарё” сарлавҳали тасвирий матнда нима берилгани ва унда нима тасвирланганини изоҳлайди.

3-гуруҳ. Муҳокама матни. “Наврўз”

“Наврўз ўзбек халқининг шундай бир қадриятики, у миллатнинг борлигини, улуғлигини намоён этади. Наврўз ҳеч бир шубҳасиз, халқимиз билан бирга яшаб, бирга улғайиб, тараққий топган байрамдир. Халқ тарихи ва маданиятининг ажралмас қисми бўлган Наврўз қанчалик кўҳна илдизларга эга бўлса, айти пайтда шунчалик ҳар йили биз билан ёнма-ён янгиланиб, қайта қувватга киради. Ушбу байрамга муносабат халқимизнинг ўтмиши, бугуни ва келажагига муносабатнинг рамзи сифатида ҳам намоён бўлади”[6] (Ш.Турдимов).

Учинчи гуруҳ иштирокчилари “Наврўз” сарлавҳали матнда ниманинг муҳокамаси берилгани ва матн нима ҳақда эканлигини изоҳлайди.

Ҳар бир чиқиш тугагач, бошқа гуруҳ қатнашчилари намоёиш этилган ижодий ишни тўлдиришлари ва мавзуга доир саволлар беришлари мумкин.

Саволлар матн бўйича бўлиб, улар қуйидагича:

1. Ҳикоя матни деб нимага айтилади?

Жавоб: Ҳикоя матнида муайян предмет ёки воқеа-ҳодисалар ҳақида хабар берилади, ҳикоя қилинади.

2. Тасвирий матн деб нимага айтилади?

Жавоб: Муайян предмет ёки воқеа-ҳодисалар таърифланган, тасвирланган матн тасвирий матн ҳисобланади. Тасвирий матн бадиий адабиётда кўпроқ қўлланади.

3. Муҳокама матни деб нимага айтилади?

Жавоб: Муайян предмет ёки воқеа-ҳодисалар ҳақидаги фикр-мулоҳазалар баён қилинган матн муҳокама матн ҳисобланади. Муҳокама матни дарсликлар ва илмий китобларда кўпроқ қўлланади.

Охирги босқичда ўқитувчи машғулотга яқун ясар экан, қуйидаги саволлар билан мурожаат қилиб, ўқувчиларни очик мулоқотга чақиради:

Гуруҳ иштирокчилари, бир-бирларингиз ҳақида нималарни билиб олдингиз?

Ўқувчиларнинг муомала маданияти қандай бўлиши керак?

Қайси саволлар ва муаммолар ҳал қилинди?

Дарс давомида матннинг қандай турларини тушуниб олдингиз?

Ҳар бирингиз ўзингиз учун қандай хулоса чиқардингиз?

Демак, биз қандаймиз?

Берилган саволларга ўқувчилар ўз фикр-мулоҳазаларини билдиради. Ушбу очик мулоқот орқали ҳар бир ўқувчида эркин мулоқотда бўлиш ва ўзини ўзи ривожлантириш компетенцияси ривожлантирилади.

“Танишув” технологияси натижасида ўқувчиларнинг қуйидаги қобилиятларини рўёбга чиқариш мумкин:

- ўқувчилар бир-бири билан дўстона муносабатда бўлади;
- мулоқот юритишдаги тўсиқларни бартараф этишга ёрдам беради;
- матнни таҳлил қилиш ва муомала қилиш кўникмалари такомиллаштирилади.

Бундай ҳолатда ўқувчиларни таълим тизимига мослаштирмай, индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиб уларнинг ривожланиши учун имкон берилади. Ўқувчининг ўз-ўзини ривожлантириш, мустақил ўқиши, ўзлигини намоён этиши, фаоллаштириш хусусиятлари асосида англаши, мушоҳада қилиши, ўз амалий фаолиятида синаб кўриши, янги ғоя ва мустақил фикрларини билдириши, мавжуд муаммоларнинг ечимини, самарали йўллари кидириши учун эркинлик бериш, ижодий, танқидий тафаккурини ривожлантириш учун шароит яратиб берилади. Бундай вазиятда ҳар қандай ўқувчи ўзига хос такрорланмас табиати, характер хусусиятини фаоллаштиришга, намоёниш қилишга интилади[4].

Она тили дарсларида ўйинлар диққатни жамлаш, билим ва кўникмани ошириш ҳамда ҳозиржавоб бўлишни таъминлайди. Рақиблар устида ғалаба қозонишга бўлган интилиш ва хоҳиш ўқувчиларни фаоллаштиради. Бунда ўйин нафақат мусобақа, балки ўқувчиларнинг интеллектуал имкониятларини намоёниш этиш воситаси ҳамдир.

Профессор Э.Ғозиев келтирганидек, “Ўйин фаолиятида бола ижтимоий воқеликни ўзича тақлид қилиш ва роль ижро этишга ҳаракат қилади ва шу йўсинда атроф-муҳитга доир, ижтимоий турмушдаги шахслараро муносабатларни ўзлаштириб боради... Сўз билан ҳаракатнинг бирикуви натижасида ўйин фаолияти тусини олади ҳамда муайян маъно, ахборот бериш ва узатиш имконияти ривожланади”[9].

Ўйинлар асосига қурилган интерфаол ўқитиш усуллари замонавий педагогиканинг энг самарали воситаларидан бири сифатида тан олинishi ҳам фикримизнинг далилидир. Психологларнинг таъкидлашларича, ўйинли фаолиятнинг психологик механизмлари шахснинг ўзини намоён қилиш, ҳаётда барқарор ўрнини топиш, ўз-ўзини бошқариш, ўз имкониятларини амалга оширишнинг фундаментал эҳтиёжларига таянади[1].

Тажрибалар шуни кўрсатадики, ҳар қандай ўйинда иштирокчилар малакаси ва ёшидан қатъи назар, улар ўнғайсиз ҳолатга тушиб қоладилар. Шунинг учун ўйинни ўқув амалиётига татбиқ қилишдан аввал педагогик-психологик масалаларни ҳал этиш зарур. Ҳар бир ўқувчи ўйинга тайёргарлик кўраётганда қуйидагиларни билиши лозим:

- ўйиннинг мақсадини;
- ўйиннинг вазифасини;
- ўйиннинг режадаги қайси мавзуга тегишлилигини;
- аввалги ўйинларда шаклланган малака ва кўникмаларни кейинги ўйинларда ҳам қўллай олишни[2].

Дидактик ўйинлар шундай танланиши керакки, у ўқувчиларда қизиқиш уйғотсин, уларнинг эҳтиёжларини қондирсин ва енгил ўзлаштириладиган, онгига тез сингадиган бўлсин[2]. Ҳар бир ўқитувчи ўйинлардан фойдаланаётганида танлаш имкониятига эга. Ўқувчиларининг қобилиятлари, қизиқишлари, билимлари ва интилишларига қараб ўйиннинг интеллектуал ёки ҳаракатли турларини белгилаб олади. Ўйинни севмайдиган боланинг ўзи йўқ. Шунинг учун она тили дарсларида турли дидактик ўйинлардан

фойдаланиш ўқувчилардан тезкорлик, сезгирлик, қатъият, ўзаро ҳурмат ҳисларини, нутқни ривожлантириш, фикрлаш доирасини кенгайтиришга хизмат қилади.

Она тили дарсларида тил материалларини қўллаш малакаларини фаоллаштириш учун қуйидаги ўйинларни тавсия қилиш мумкин:

– лексикология бўлимини ўрганишда: “Мен бошлайман, сен давом эттир”, “Мазмунан қариндош, шаклан бегона” ўйинлари;

– морфология бўлимини ўрганишда: “Нима (қайси) қандай ёзилади”, “Сўзлар бўёғини аниқланг” ўйинлари;

– фонетика бўлимини ўрганишда: “Талаффузда адашманг”, “Товуш жуфтлари билан ҳар бир сўзга маънодош сўз топ”, “Сўзни луғатдан тез топ” ўйинлари;

– синтаксис бўлимини ўрганишда: “Топағон”, “Қолип биздан, гапи сиздан”, “Сўзлар қатор уюшди, сўроқлари қовушди” каби ўйин турларидан фойдаланиш мумкин[1].

Лексик ўйинлар ўқувчиларнинг луғат бойлигини бойитишга хизмат қилади, янги сўзларни тез ва осон эслаб қолишга ёрдам беради.

Грамматик ўйинлар муҳим ва зарур грамматик тузилмаларни қўллашни ўргатиш, ривожлантириш учун ўтказилади. Бундай ўйинларда кўпинча сўз туркумлари (от, сифат, сон, олмош, равиш, феъл) ва эгалик, келишиқ қўшимчалари олинади.

Фонетик ўйинлар ўқувчиларнинг талаффузини машқ қилдириш ва оғзаки нутқини ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этади.

Она тили машғулотида босқичли кетма-кетлик, шакл билан мазмун алоқадорлиги, тилшунослик бўлимларининг ўзаро зич боғлиқлигидаги асосларида кўрилади. Шунинг учун 5-синфнинг биринчи чораги морфология бўйича такрорлаш, фонетика бўйича зарур тушунчалар – унли ва ундош товушларнинг ифодаланиши, урғу ҳамда матн ва луғатлар билан ишлаш тартиби берилган. Иккинчи, учинчи чорақларда ўқувчиларга лексикология ва пунктуациянинг муҳим тушунчалари: маънодош сўзлар, пароним сўзлар, зид маъноли сўзлар, тарихий ва архаик сўзлар, янги пайдо бўлган сўзлар, тиниш белгиларнинг ифодаланиши ҳақида дастлабки маълумотлар берилган. Айнан 5-синф ўқувчиларида тилшунослик фанининг бўлимлари ўрганилишини янада соддалаштириб, мавзуларни тушунтиришда таққослашнинг аҳамияти ўринли.

REFERENCES

1. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топшириқларидан фойдаланиш: пед. фан. ном. ... дисс. – Бухоро, 1996.–145 б.
2. Жажева Д.Д., Жажева С.А. Формирование лингвистической компетенции на основе использования дидактической игры. Дисс. канд. пед. наук. – Москва, 2018. – 130 с.
3. Зиёмухаммадов Б. Комилликка элтувчи китоб. – Тошкент: TURON-IQBOL, 2008. – 352 б.
4. Кенжаева М.А. Олтинчи синф ўқувчиларда таянч ва лингвистик компетенцияларни ривожлантиришда таълим технологияларининг ўрни // Замонавий таълим. – Тошкент, 2020. – № 9. – Б. 72-73.
5. Мамадов Н.С. Умумий таълим мактабларини инновацион бошқариш: пед. фан. ном. ... дисс. –Тошкент: 2009. – 152 б.

6. Ш.Н.Турдимов. "Наврўз - ардоқли айём", "Ҳикматлар хазинаси" тўплами.-Тошкент: "Адабиёт учқунлари" нашриёти, 2014
7. Қурбонова Х.Қ. Она тили таълими мазмунини янгилашнинг лингвометодик асослари: пед. фан. ном. ... дисс. – Бухоро, 2005. – 155 б.(167)
8. Ғаниев Т.Т. Она тилидан машқ бажариш жараёнида ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш. Пед. фанл. номз. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 1991. -194 б.
9. Ғозиев Э. Психология. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – 352 б.
10. Ў.Ҳошимов "Дафтар хошиясидаги битиклар".-Тошкент: "Шарқ" нашриёти, 2015.
11. 11.М.Кенжаева. 5-6-синф ўқувчиларида лингвистик компетенцияларни ривожлантириш методикаси . Пед. фан. док. (PhD) дисс.... – Тошкент: 2021

O'QUVCHILARNING BOG'LANISHLI NUTQINI MATN VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Olimjon Eshimbetov

Toshkent gumanitar fanlari universiteti o'qituvchisi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doctori PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8126400>

Annotatsiya. O'quvchilarda matn vositasida o'quvchilarning nutq o'stirish bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlar izchiligi borasida tavsiyalar. Turli xil interaktiv o'yinlar va ularni ta'lim jarayonida maqsadli qo'llashning interaktiv jihatlari tadqiq qilindi. ayniqsa, matn vositasida o'quvchilarning bog'langan nutq malakasini rivojlantirish usullariga alohida e'tibor berildi.

Kalit so'zlar: Matn, nutq, ko'nikma, tahlil, metod, tasavvur, interaktiv, pedagogik texnologiya, tallafuz, talqin, so'zlash malakasi, bayon qilish madaniyati, og'zaki hamda yozma nutq.

METHODS OF DEVELOPING CONNECTED SPEECH OF STUDENTS THROUGH TEXT

Abstract. Recommendations regarding the sequence of activities related to the development of students' speech through the medium of text. Interactive aspects of various interactive games and their purposeful use in the educational process were studied. In particular, special attention was paid to the methods of developing students' connected speech skills through the medium of text.

Key words: Text, speech, skills, analysis, method, imagination, interactive, pedagogical technology, pronunciation, interpretation, speaking skills, culture of expression, oral and written speech.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СВЯЗНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ТЕКСТ

Аннотация. Рекомендации по последовательности действий, связанных с развитием речи учащихся средствами текста. Изучались интерактивные аспекты различных интерактивных игр и их целенаправленное использование в учебном процессе, в частности, особое внимание уделялось методам развития связных речевых навыков учащихся средствами текста.

Ключевые слова: текст, речь, умение, анализ, метод, воображение, интерактив, педагогическая технология, произношение, интерпретация, говорение, культура выражения, устная и письменная речь.

O'quvchilar nutqini ularning tafakkuridan ajratib tasavvur qilib bo'lmaydi. Nutq tafakkur negizida shakllanib, takomillasha boradi. Bu pedagogik tajribada sinalgan hodisadir. Qoraqalpoq sinflarida ta'lim oluvchi o'quvchilarning o'zbek tilida erkin va bejirim gapira olishi, yoza bilishi, muloqot qilishi asnosida so'zlarni bexato talaffuz qilishi ko'p hollarda o'qituvchining masalaga sistematik yondashuviga bog'liq bo'ladi.

Muloqot – inson ruhiy-ma'naviy dunyosining mahsuli. Muloqot kishilik jamiyatining muhim asosi. Usiz hech bir ijodiy sifat yuzaga chiqmaydi. O'quvchi o'z talaffuzi bilan qay darajada masalani o'zlashtirib borayotganini anglab, o'zi haqida o'ziga baho berib boradi. O'zbek tili darslari, bolalar nutqini, lug'at boyligini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni tuzishni o'rgatadi.

Umuman, ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'quvchilar bog'lanishli nutqini tartibli tashkillashtirish uchun o'qituvchidan mas'uliyat va matonat talab qilinadi. Zero, nutqiy ko'nikma, mahorat, sohaning yangiliklaridan, pedagogik tavsiyaviy xarakterdagi ko'rsatmalardan yaxshi xabardor bo'lish ham yaxshi samara beradi. Zotan, aqliy va hissiy faoliyat bir-birini to'ldiruvchi ikki inson xususiyatlaridir. Aytish joizki, rang-tasvir va amaliyot ishlari bilan uzviy olib borilsa, natijada bola nutqi teranlashadi. So'zni talaffuz qilishga odatlanishadi. Mantiqiy fikrlash tarzi rivojlanadi. Olamdagi hodisalarga baho berishda teranlashadi. Negaki, oilada olib bo'lgan ta'lim (og'zaki suhbat)ni maktabda kundalik faoliyatida qo'llaydi. Shuning uchun bolalarning yosh va fikrlash xususiyatiga qarab ta'lim berishni yo'lga qo'yish lozim.

Maktablarda juda ko'plab muammolar bor. Vaqt esa tig'iz hamda kamlik qiladi. 20 ta o'quvchining o'rniga 35 nafar o'quvchi ta'lim olishadi. Xo'p, natija va sifat ko'rsatgichi qanday oqibatlariga olib kelishini o'zingiz o'ylab ko'rishingiz mumkin.

DTSda "Bolajon" tayanch dasturida badiiy adabiyotning muhim natijalarni berishi kiritilgan. Zero, badiiy adabiyot bolalarning monologik va dialogik nutqini o'stirishda muhim atribut sanaladi. Misol tariqasida, istaymizmi yo'qmi, inson jim turgan paytida o'z-o'zi bilan muloqot olib boradi. Bolalar-chi? Bolalar esa tasavur va xayolot olamida benihoya kengliklarga sayr qiladi. Adabiy ertak qahramonlari kabi – mard, jasur, olijanob, vatanparvar, iqditirol, kashfiyotchi, mohir uchuvchi singari o'zida ichki qoniqish hissini shakllantiradi.

P.f.n.,dots. L.Mirjalolova shunday yozadi: "Nutqning tovush madaniyatini shakllantirish bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko'pincha s-z, p-f, t-d, p-b, u-o', x-h, q-g' tovushlarini talaffuz qilolmaydilar. Nutq jarayonida ketappan – ketyapman, Hojaxon – Shohjaxon, Yo'stam – Rustam, qalg'a – qarg'a kabi talaffuz etishda yo'l qo'yadigan xatoliklarning oldini olish, ya'ni to'g'ri talaffuz etishga yo'llash, ovoz balandligiga, tovush sur'atiga e'tibor berish metodik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Ba'zi bolalar o'zidan kichiklarni jerkib, ovozi ko'tarib muomala qiladilar. Shunda ular talaffuziga e'tibor qaratish, nutq madaniyatiga, me'yorda so'zlab, muomala qilishga o'rgatish zarur. Chunki bolalikda tarkib topgan muomala madaniyati inson umrining oxirigacha muhrlanib qoladi" [1].

Darhaqiqat, bolalarning monologik nutqini maktab ostonasiga ilk qadam kungacha ham rivojlantirish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Aynan mana shu ta'lim bola nutqini yanada rivojlantirish uchun muhim taomillardan biri sanaladi. Bog'langan nutq murakkab jarayon sanalib, u ichki qatlam va shamoyillar mushtarakligini dalolatlaydi. SHaxsni yuksak insonparvarlik hamda vatanparvarlik hissida tarbiyalash, mAnaviy-mArifiy ilg'ami yetakchi o'ringa kotarish, tahlil teranligi va tasvir tiniqligini markazlashtirish istiloh tabiatini tavsiflaydi. SHu mAnoda, badiiy nutq mohiyati og'zaki va yozma bayon mushtarakligini birlashtiradi. Unda material mohiyati va xarakteri maqsadga uyushadi. Uyushiq Azolar tizimi mantiqiy bosqichlarni boshqaradi. Tógri, matn tanlovi mutaxassis tayyorgarligi, bosqich va qismlar orasidagi munosabat aloqadorligi, mutolaa va yozuv ziddiyatini umumlashtirishni maqsad qilib qoyadi.

Negaki, matn – ijodiy yondashuv samarasi, unda anglash o'ziga xosligi hamda o'zlashtirish falsafasi bir-biri bilan konfliktga kirishadi. Binobarin, odamzod bilim saviyasi muntazam o'qishni mAqul kóradi. Matn esa, o'z navbatida, nazariy mAlumotlarni tashkil etadigan majmua hisoblanadi. Har bir avlod oldida insoniyat yaratgan bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish vazifasi turadi. Jamiyat taraqqiyotini hayotning takomillashuvini shuningsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunga erishishning birdan-bir yo'li yosh avlodning o'qish va bilim kónikma va malakasini

shakllantirishdir. Hadislarda «Beshikdan to qabrgacha ilm izla», deyilishida judda katta hikmat bor. Ilm bobidagi izlanish va intilishlar insonni manaviy jihatdan óstiradi, axloqiy barkamollikka eltadi. SHuning uchun ham bizning davrimizda xalq ta'lim tizimiga, yoshlar ma'naviyatining muhim bir manbai sifatida katta e'tibor berilmoqda.

Óqishda malakasizlik, óqish madaniyatini bilmaslik har qanday órganish jarayonini tinkani quritadigan og'ir mehnat va majburiyatga aylantiradi. Óqish va órganish malakasi muayyan darajada shakllangan kishi uchun esa, ushbu faoliyat zavq beradigan ijodiy faoliyatga aylanadi. Qiyinayotgan ishning samaradorligini tAminlaydi.

Maktab adabiy ta'limning turli bosqichlarida óquvchilarni badiiy matn ustida ishlashga órganishning maqbul usullari va shakllaridan foydalanish, shu jarayonda badiiy-estetik tushuncha va zavqni tarbiyalash, ularni kitobxonlikka órgatish kabi muammolar, (u) metodist olimlarning doimiy diqqat markazida bólib kelayotgani ham xuddi shu sababdandir.

Barcha sinf mashg'ulotlarida, shu jumladan ona tili darslarida ham tilni amaliy jihatdan ózlashtirib olinadi. Óquvchilar ertaklar aytadilar, óqiganlarini qayta hikoya qiladilar, matn tuzadilar, uydagi va maktabdagi ishlari haqida, óyinlari, atrof-dagi hayot haqida sózlaydilar, ayrim narsalarni, voqea-hodisalarni muhokama qiladilar. Dastlabki vaqtda óquvchilar óqiganlari yoki rasm asosida, shaxsiy kuzatuv va taassurotlari asosida qilgan ishlari va sayohatlar tógrisida, ba'zan ózlariga yaxshi tanish bólgan predmetlarni tasvirlab, kichik mustaqil hikoya, matn tuzadilar. «Nutq óstirish bilan bog'liq bólgan mashg'ulotlar izchil, doimiy ravishda ótkazib borilmasa, ta'limning yaxshi, sifatli bólishiga, óquvchilarning madaniy nutqini egallashlariga erishib bólmaydi. Shunga kóra, darsda nutq óstirishni takomillashtirib borish, boshlang'ich sinflar ishini órta sinflar ishi bilan, órta sinflar ishini yuqori sinflarda amalga oshiriladigan ishlar bilan bog'langan holda davom ettirish óqituvchi zimmasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi» [2].

Nutq óstirish tafakkurni óstirish demakdir, chunki nutq tafakkur bilan chambarchas bog'liq. Bolaning fikrlash qobiliyatini óstirishga e'tibor bermay turib, nutqni óstirish mumkin emas. Óqituvchining muhim vazifasi bola fikrining mazmunli, mantiq jihatdan tóg'ri va izchil bólishiga g'amxórlilik qilishdir. Óqishni hayot bilan bog'lash, atrof-muhitni kuzatish, uni órganish jarayonida óquvchi nutqi ustida ishlash, bolani turli bilimlar bilan boyitish nutqni mazmunli qilishning eng asosiy vositalaridir.

QIZIQ TADQIQOT

(E'tiborli bo'ling)

Biz jonli tabiatning bir bo'lagimiz. Atrofimizni o'rab turgan olam bizning ehtiyojlarimizga xizmat qiladi. Biroq inson yashashi uchun zarur bo'lgan suv, toza havo, elektr energiyasi (**) kabilar bitmas-tuganmas deb o'ylamang. Siz atrofga e'tiborli bo'ling. Insonlarning atrof-muhitga munosabati qanday ekanligini bilish uchun mutaxassislar kichik tadqiqot – kuztuv o'tkizishbdi. O'quvchilar har kuni qatnaydigan yo'lak, o'qiydigan joylarda barg-(**)larni yoqib qo'yishbdi, suv tushadigan jo'mraklarni atayalab ochib qo'yishbdi, kuduz kuni elektr chiroqlar ham yoqib qo'yilibdi. Bir kun davomida o'quvchilarning bu holatga munosabatini kuzatishibdi.

Ertasi kuni o'quvchilarni yig'ib ularga bo'lgan voqea haqida mAlum qilishibdi. Hech kim qancha mashaqqat bilan tortib kelingan ichimlik suvi isrof bo'layotgani, biror kimsa havoning ifloslanayotganidan bezovta bo'lmagani, ota-onalarining qiynalib to'layotgan soliqlari hisobiga ishlab chiqilayotgan elektr energiyasining behuda sarf bo'layotganiga ham hech kim diqqat qilmaganini aytishibdi. Hamma e'tiborsizligidan xijolat bo'libdi.

Mutaxassislar birozdan vaqtdan so‘ng yana kuzatuv o‘tkazishibdi. Endi o‘quvchilar tutab yotgan xazonlari o‘chirib, oqizib qoyilgan toza suv jo‘mraklarini yopib, keraksiz paytda yoniq turgan elektr chroqlarini o‘chirib qo‘yishyotgani mAlum bo‘lgan.

Qadrlri o‘quvchilar! Doim e‘tiborli va tejamkor bo‘ling. Tabiat ne‘matlarini va o‘zgalar mehnatini qadrlashni o‘rganing!

Tillarning o‘ziga xos xususiyatlariga tayanish lingvistik va didaktik talablarga javob beradigan yangi avlod darsliklari va metodik adabiyotlarni chop etish o‘zlashtirishda yuqori samara beradi, shuningdek, o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqollar bu borada o‘qituvchida katta yordam beradi:

“Bir maqtanchoq g‘oz bor ekan. U g‘oz har kuni odamlar oldiga kelib, maqtanaverar ekan. Bir kuni yana maqtanib:

– Men osmonda uchaman, suvda suzaman, erda chopaman, – debdi.

Bir dono odam kelib g‘ozdan: – Osmonda uchganingda sen burgutdek ucha olasanmi? – deb so‘rabdi.

G‘oz: – Yo‘q, – debdi.

Dono odam: – Suvda suzganingda baliqdek suza olasanmi? – debdi.

G‘oz: – Yo‘q, – debdi.

Dono odam yana: – Erda chopganingda otdak chopa olasanmi? – debdi. G‘oz:

– Yo‘q, – debdi. SHunda odamlar kulishibdi:

– Hay, maqtanchoq g‘oz, hunaring oz! – deb urib, quvib yuboribdilar.

Xulosa: ba‘zi odamlar ham xuddi shu g‘ozdek ko‘p maqtanib, dakki eydi” [3].

Bog‘lanishli nutqni rivojlantirish metodikasining mazmuni o‘zida mazmunli va ta‘sirchan nutqni talab etib, adabiy til me‘yorlariga asoslangan semantik va strukturaviy butunlikni o‘zida mujassam etadi.

REFERENCES

1. Mirjalolova L. Maktabgacha yoshdagi bolalarning monologik nutqini o‘stirish. –T.: NDPU. Uslubiy ko‘rsatmalar2015. –B.7-8.
2. Hotamov A., Zunnunov N. Adabiyot o‘qitish metodikasi.-T.: 1992.–B 268.
3. O‘zbek xalq ertaklari. <https://ziyouz.uz/ozbek-xalq-ogzaki-ijodi/ozbek-xalq-ertaklari/>

MATN VOSITASIDA YOZMA NUTQ MALAKASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Olimjon Eshimbetov

Toshkent gumanitar fanlari universiteti o'qituvchisi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doctori PhD

Nodira Saparboyeva

Nukus shahar 31-maktab o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8126427>

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarda matn vositasida o'quvchilarning yozma nutq malakasini o'stirish usullari. Turli xil interaktiv o'yinlar va ularni ta'lim jarayonida maqsadli qo'llashning interaktiv jihatlari tadqiq qilindi. Ayniqsa, matn vositasida o'quvchilarning bog'langan nutq malakasini rivojlantirish usullariga alohida e'tibor berildi.

Kalit so'zlar: Diktant, matn, nutq, metod, tasavvur, interaktiv, pedagogik texnologiya, tallafuz, talqin, tasvir, bayon qilish madaniyati, yozma nutq, taassurot.

METHODS OF DEVELOPING WRITTEN SPEECH SKILLS IN THE MEDIA OF TEXT

Abstract. In the article, there are ways to increase students' written speech skills through text. Interactive aspects of various interactive games and their purposeful use in the educational process were studied. In particular, special attention was paid to the methods of developing students' connected speech skills through the medium of text.

Key words: Dictation, text, speech, method, imagination, interactive, pedagogical technology, pronunciation, interpretation, image, narrative culture, written speech, impression.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ В СРЕДСТВАХ ТЕКСТА

Аннотация. В статье представлены способы повышения навыков письменной речи учащихся посредством текста. Изучались интерактивные аспекты различных интерактивных игр и их целенаправленное использование в учебном процессе, в частности, особое внимание уделялось методам развития связанных речевых навыков учащихся средствами текста.

Ключевые слова: Диктант, текст, речь, метод, воображение, интерактив, педагогическая технология, произношение, интерпретация, образ, повествовательная культура, письменная речь, впечатление.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchi qobiliyat va imkoniyati, o'ziga xos individual psixik xususiyatlari va ijodiy-ilmiy layoqatini yaxlit holda malakaviy jihatdan shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy bilim hamda amaliy ko'nikma orasidagi munosabat uzviyligini hosil qilish aynan mutaxassisdan maxsus tayyorgarlikni taqozo qiladi. Binobarin, "muvaqqat asab rishtalari hayvonot olami va insonda mavjud universal fiziologik hodisa sanaladi. Ayni paytda, joriy holat psixologik mohiyatga intiladi: tasavvur, taassurot hamda tafsilotlararo uyg'unlik jozib assotsiatsiyani jilvalantiradi" [1]. Unda so'z va tushuncha, tuyg'u va mushohada, tasvir va tahlil o'rtasida muayyan bog'lanish darajasi hosil bo'ladi. To'g'rirog'i, ifoda hamda yozuv muntazamligi shaxs ma'naviyati va ma'rifatini birlashtirish kafolati, bosqichma-bosqich rivojlantiriladigan layoqat nutqiy faoliyatga tutashadi. Shu ma'noda, onglilik va faollikni bir-

biriga aloqalantirish ijodiy uzvlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. O'qitish uslubiyatida izchillik matn yordamida amalga oshirishini hisobga olsak, masala mohiyati oydinlashadi.

Matn – kitobxonga ta'sir o'tkazishning eng qulay va samarador vositasi, unda inson og'zaki hamda yozma nutq uzluksizligini mustahkamlash imkoniyati mavjud. Binobarin, ma'no butunligida “intellekt ruhiyat hamda dunyoqarash jipsligini” [2] tayin etadi. Jarayon bir nechta bosqichdan iborat: axborot darajasi, nazariy ma'lumot miqyosi, til amaliyotini o'zlashtirish saviyasi, mustaqil fikrlash madaniyati. Aslida joriy qatlamlar har bir talabada o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Idrok etish mezonini va ma'rifiy ilg'am tafovuti inson dunyoqarashida o'zgachalanadi. To'g'rirog'i, o'qituvchi har bir yigit-qizning ham nazariy bilim malakasi, ham amaliy lug'at jamg'armasini nazorat qiladi.

Matn – mustaqil ijodiy jarayon hosilasi, u mashg'ulotlararo aloqani tiklaydigan universal mohiyatga daxldor.

VATAN

Vatan bu – ajdodlarimiz hoki yotgan zamin. Vatan bu – bizni kamolga yetkazgan makon, vatan bu – bolalarimiz unib-o'sadigan o'lkadir. Vatanning har bir qarich yeri biz uchun muqaddasdir. Bu aziz diyor haqida qancha gapirsak shuncha kamdir. Bu ulug' zamin qanchadan-qancha buyuk shaxslarni voyaga yetkazgan. Bularga misol qilib: Alisher Navoiy, Zahiriddin Myhammad Bobur, Ulug'bek, Al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Amir Temur, Jaloliddin Mangberdi, To'maris, Shiroq va shu kabi yana ko'plab siymolarni aytib o'tish mumkin. Keyingi ijodkorlardan Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Behbudiy, G'ofur G'ulom, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf va yana boshqa ko'plab taniqli yozuvchilar bor. Ularning har biri yurt madhini yurakdan kuylashgan. Masalan, Bobur bobomizni olaylik, bu ulug' zot umr bo'yi yurt sog'inchi bilan yashagan. Yurtining bir siqim tuprog'iga zor yashagan. O'zi shoh bo'lsada yurt gadosi bo'lgani haqida she'rlar bitgan.

Toleyim yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi,

Har ishnikim ayladim xatolig' bo'ldi.

O'z yerim qo'yib Hind sori yuzlandim,

Yo rab netay bu ne yuz qarolig' bo'ldi.

Deya o'zining shohlikdagi g'ariblik tuyg'ularini bayon qilib bitgan.

MIF VA AFSONALAR

Mif va afsonalar har bir xalqning o'ziga xos bir madaniy merosi bo'lib hisoblanadi. “To'maris”, “Qayumars”, “Shiroq” va yana boshqa ko'plab afsonalar mavjud. Bular orasidagi “To'maris” afsonasidagi bosh obraz To'maris el tinchligi, yurt ozodligi, xalq farovonligi uchun mardonavor kurashgan jasur ayoldir. Bu mard ayol Kir II bilan yurt ozodligi uchun kurashadi. Janglarning birida Kir II To'marisning o'g'li Spitamenni asirlikka oladi va To'marisga shart qo'yadi: “Agar sen taslim bo'lsang o'g'ling omon qolur, agar bo'yin tovlasang o'lur”, - deydi. Bechora ona ikki o't orasida qoladi. Bir tarafda ota-onasi, o'zi, turmush o'rtog'i, xalqi va farzandi unib o'sgan vatani, bir tomonda o'zi jondan suygan aziz farzandi. Bu ayol ikki o't orasidan vatanini tanlaydi. Uning ko'z oldida o'g'lini o'ldirishadi. Shunda ham ona o'zini yo'qotib qo'ymaydi va dushmanini yer tishlatadi. Bizning ajdodlarimiz orasida mana shunday dovyurak ayollarimiz ham bor. Biz ularga mos farzand bo'lishimiz shart. Bu bizning muqaddas burchimizdir. Biz shundayin afsonaga teng ayolning avlodlari ekanimizdan mag'rurlanmog'imiz darkor[3] .

BUGUNGI KUN KINOSI QANDAY BO'LISHI KERAK

Bugungi kunda yoshlarimizga ibratli bo'ladigan filmlarning yaratilishi kinolarning saviyasini oshiradi. Albatta, ish bor joyda kamchilik ham bo'ladi. Kamchiliksiz biror narsa yo'q. Shunday filmlar borki, kinoning yutuqlari kamchiliklarini o'z-o'zidan bartaraf qiladi. Kino, avvalo, dolzarb masalalarini ko'tarib chiqishi shart. Kinoda ko'zlangan maqsad va g'oya aniq yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu esa kinoning katta yutug'iga sabab bo'ladi. Aktyor o'zining insoniylik va aktyorlik mahoratini ishga solib filmni ijro etishi kerak. Aktyor ijro etuvchi roli orqali omma yuragidan joy oladi. Biror-bir aktyorning roli jamiyatda o'rniga ega bo'lmasligi mumkin. Lekin, keltiradigan zarari katta bo'lishi mumkin. Mana shunday vaziyatlarni aktyor mahorat bilan ijro qiladi. Har bir kinoda aytiladigan gap, aniq maqsad va xulosa bo'lishi shart. Bugungi kun tobora rivojlanib bormoqda. Hayotimizni internet o'rab olgan davrda yashayapmiz. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, bugungi kun tomashabini uchun ibrat bo'luvchi, jiddiy mavzudagi kinolar yaratish zarur[3] .

TEATR BU – IBRATXONADUR

Teatr deganda, avvalombor, san'atning kattakon bir turini tushunamiz. Shu bilan bir qatorda teatr tomosha, spektaklning o'zi: tomosha ko'rsatadigan joy, spektakl qo'yiladigan bino ham tushiniladi. Hech bir san'at teatr o'rnini bosolmaydi. Chunki, teatrdagi tomoshabin bir guruh iste'dodli kishilar bilan birvarakayiga jonli muloqotda bo'ladi. Sahna asarining ta'siri juda kuchli. Teatr san'ati hayotni, voqea-hodisalarni turli kurashlar va ziddiyatlarni, xatti-harakatlarda, aktyor ijrosi orqali aks ettiradi. Bunda yozuvchi tomonidan yozilgan pyesa yoki librettoga tayaniladi. Pyesani rejissyor sahnalashtiradi. Rollarni aktyorlarga taqsimlab beradi, ular bilan mashqlar o'tkazadi, rassom, libos tikuvchi va boshqalar bilan ish olib boradi. Pirovardida ko'pchilik bo'lib tayyorlangan sahna asari tomoshabinlarga ko'rsatiladi. Teatr san'atining turlari ko'p. Bulardan drama teatri, opera teatri, balet, musiqali drama, musiqali komediya, operetta, yosh tomoshabinlar teatri, qo'g'irchoq teatri, radio teatri, televizor teatri, estrada teatri, maydon teatri. Uning asosiy janrlari drama, komediya, tragediya[3] .

Yuqoridagi matnlar orqali o'quvchilarda yozma nutqidagi imloviy xato tekshirish mumkin.

REFERENCES

1. Pavlov I.P. Poln. Sobr. soch. T. 3. kn. 2. – M.: 1977. – S. 325.
2. Ganelin SH.I. Didakticheskiy printsip soznatel'nosti. – M.: Izd-vo Akademii pedagogicheskix nauk RSFSR, 1961. – S. 12.
3. Internet materiallari.

COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH IDIOMS AND THEIR EQUIVALENTS IN THE UZBEK LANGUAGE

Kokanova Nursuliu

Bachelor's student at KSU

Jaksulikova Dilnoza

Master's student at KSU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8126439>

Abstract. *Idioms are an integral part of any language, serving as expressions that convey figurative meanings beyond their literal interpretation. Understanding idiomatic expressions is crucial for effective communication and cultural immersion. This scientific article aims to explore the world of English idioms and their equivalents in the Uzbek language. Through a comparative analysis, we delve into the similarities and differences between these two languages, shedding light on the cultural nuances embedded within idiomatic expressions.*

Key words: *idiomatic expressions, English idioms, Uzbek language, cultural nuances, comparative analysis, language learning.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ИДИОМ И ИХ ЭКВИВАЛЕНТОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. *Идиомы являются неотъемлемой частью любого языка, выступая в качестве выражений, передающих переносные значения, выходящие за рамки их буквального толкования. Понимание идиоматических выражений имеет решающее значение для эффективного общения и культурного погружения. Данная научная статья направлена на изучение мира английских идиом и их эквивалентов в узбекском языке. Путем сравнительного анализа мы углубляемся в сходства и различия между этими двумя языками, проливая свет на культурные нюансы, заложенные в идиоматических выражениях.*

Ключевые слова: *идиоматические выражения, английские идиомы, узбекский язык, культурные нюансы, сравнительный анализ, изучение языка.*

INTRODUCTION

Language and culture are intertwined, and idiomatic expressions serve as cultural markers within a language. This paper examines the idiosyncrasies of English idioms and their Uzbek counterparts, highlighting the importance of idiomatic understanding in intercultural communication.

MATERIALS AND DISCUSSION

English Idioms: English idioms are an intriguing aspect of the language, often rooted in historical, literary, or cultural references. This section presents a variety of English idioms, categorized thematically, to provide an overview of their diverse nature. [1.78] **Uzbek Equivalents:** The Uzbek language possesses its own set of idiomatic expressions, influenced by historical, social, and cultural factors unique to the region. This section explores Uzbek equivalents of the English idioms presented earlier, unveiling the linguistic creativity and cultural specificities embedded within the Uzbek language.

Comparative Analysis: In this section, a comparative analysis of English idioms and their Uzbek equivalents is conducted. By examining similarities and differences in their metaphorical

meanings and cultural connotations, we aim to reveal the underlying similarities and distinctiveness between these two languages. [6.12]

Challenges and Nuances: Translating idiomatic expressions across languages can be challenging due to the cultural and linguistic differences that exist. This section discusses the difficulties encountered when translating English idioms into Uzbek and vice versa, highlighting the need for contextual adaptation. Cultural Implications: Idioms reflect the values, beliefs, and customs of a particular culture. By analyzing idiomatic expressions in English and Uzbek, this section explores the cultural implications embedded within them, fostering a deeper understanding of the two languages' cultural frameworks. Application in Language Learning: Understanding idiomatic expressions is vital for language learners to achieve fluency and cultural competence. [4.65] This section discusses the pedagogical implications of studying idioms in language classrooms, providing insights into how idioms can be effectively taught and learned. This scientific article provides a comprehensive exploration of English idioms and their Uzbek equivalents. By unraveling the cultural and linguistic intricacies inherent in idiomatic expressions, we enhance intercultural understanding and facilitate effective communication between English and Uzbek speakers. Further research in this area is encouraged to continue unveiling the rich tapestry of idiomatic expressions in different languages. [3.78]

Let's observe some examples of English idioms along with their equivalents in the Uzbek language, followed by an analysis of their meanings and cultural implications:

1. English idiom: "Break a leg!"

Uzbek equivalent: "Ishing o'ngidan kelsin!"

Analysis: This English idiom is commonly used to wish someone good luck, especially before a performance or important event. It is believed to have originated from the theater world. The Uzbek equivalent, "Ishing o'ngidan kelsin!", literally translates to "break a leg!" and is used in a similar context. Both idioms convey the idea of wishing someone success, but the Uzbek expression retains the literal meaning of "breaking a leg," which might be seen as unusual to non-native speakers.

2. English idiom: "Once in a blue moon"

Uzbek equivalent: "Qizil qor yoqqanda"

Analysis: The English idiom "Once in a blue moon" is used to describe something that happens very rarely. It refers to the occurrence of a second full moon within a calendar month, which happens infrequently. The Uzbek equivalent, "qizil qor yoqqanda" translates to "when red snow flows" and is used in a similar context. It emphasizes the rarity of an event, comparing it to the unusual sight of a yellow hand.

3. English idiom: "Kill two birds with one stone"

Uzbek equivalent: "Bir o'q bilan ikki quyonni urish"

Analysis: This English idiom conveys the idea of accomplishing two tasks or goals with a single action. The Uzbek equivalent, "Bir o'q bilan ikki quyonni urish" literally translates to "killing two birds with one impact." Both idioms employ the metaphor of achieving multiple objectives simultaneously, but the Uzbek version adds the concept of an impact or forceful action.

4. English idiom: "The ball is in your court"

Uzbek equivalent: "Top o'yinda"

Analysis: This English idiom is often used to indicate that it is someone else's turn to take action or make a decision. The Uzbek equivalent, "Top o'yinda" literally means "the ball is in the hoop." Both idioms use a sports metaphor to convey the idea of responsibility or decision-making, emphasizing the need for the other person to take charge.

5. English idiom: "Costs an arm and a leg"

Uzbek equivalent: "Bir qo'l va oyoqqa malol"

Analysis: This English idiom is used to describe something that is extremely expensive. The Uzbek equivalent, "Bir qo'l va oyoqqa malol," translates to "costs an arm and a leg." Both idioms employ the metaphor of sacrificing a body part to emphasize the exorbitant cost or value of something. [2.105]

Analysis: These examples demonstrate that idiomatic expressions in English and Uzbek often employ metaphors and cultural references to convey figurative meanings. While there are similarities in the underlying concepts expressed by the idioms, there are also cultural nuances and linguistic variations present. The Uzbek equivalents tend to retain a more literal translation or incorporate unique elements that reflect Uzbek culture. Understanding these differences is crucial for effective cross-cultural communication and language proficiency in both English and Uzbek.

CONCLUSION

In conclusion, the comparative analysis of English idioms and their equivalents in the Uzbek language reveals the rich cultural nuances and linguistic variations present in idiomatic expressions. Idioms serve as linguistic and cultural markers, reflecting the values, beliefs, and customs of a particular society. The examples provided demonstrate how both languages employ metaphors, historical references, and unique cultural elements to convey figurative meanings.

REFERENCES

1. Crystal, David. "The Cambridge Encyclopedia of the English Language." Cambridge University Press, 2003.
2. Flavell, Linda, and Roger Flavell. "Dictionary of Idioms and Their Origins." Kyle Cathie Limited, 2002.
3. Proverbium: Journal of International Proverb Scholarship. [Online] Available at: <http://www.usask.ca/english/proverbium/> [Accessed: Insert Date Accessed].
4. Zakirov, Rustam Nazimovich. "Dictionary of Uzbek Proverbs and Sayings." Uzbekistan Publishing House, 2005.
5. Oxford Dictionaries. [Online] Available at: <https://www.oxforddictionaries.com/> [Accessed: Insert Date Accessed].
6. Cambridge Dictionary. [Online] Available at: <https://dictionary.cambridge.org/> [Accessed: Insert Date Accessed].
7. Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.
8. Ганиева, М. А., Муродинова, Н. Р., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Трудности при изучении многозначных глаголов русского языка учащимися-узбеками средних общеобразовательных школ. Проблемы педагогики, (3 (35)), 108-109. Ганиева, М. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АБДУРАУФА ФИТРАТА. СЪЗ САНЪАТИ ЖУРНАЛИ JOURNAL OF WORD ART ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 12

9. Ганиева, М. ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ АБДУРАУФА ФИТРАТА. СЌЗ
САНЪАТИ ЖУРНАЛИ JOURNAL OF WORD ART ЖУРНАЛ ИСКУССТВО
СЛОВА, 12

LIMERICKS AS CULTURAL ARTIFACTS: EXPLORING HISTORICAL AND SOCIOLOGICAL CONTEXTS

Jaksulikova Dilnoza

Master's student at KSU

Kokanova Nursuliu

Bachelor's student at KSU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8126456>

Abstract. This scientific article delves into the rich world of limericks as cultural artifacts, examining their historical and sociological contexts. Limericks are a form of poetry characterized by their unique structure, wit, and humor. By analyzing their origins, evolution, and impact on society, we gain a deeper understanding of limericks as an important aspect of cultural expression. Through the exploration of various examples, we uncover the diverse ways in which limericks reflect and shape the societies in which they emerge.

Key words: Limericks, Cultural artifacts, Historical context, Sociological analysis, Poetry, Nonsense verse, Edward Lear, Irish tradition.

ЛИМЕРИКИ КАК КУЛЬТУРНЫЕ АРТЕФАКТЫ: ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО И СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО КОНТЕКСТОВ

Аннотация. Эта научная статья исследует богатый мир лимериков как культурных артефактов, исследуя их исторический и социологический контексты. Лимерики - это форма поэзии, характеризующаяся уникальной структурой, остроумием и юмором. Анализируя их происхождение, эволюцию и влияние на общество, мы получаем более глубокое понимание лимериков как важного аспекта культурного самовыражения. Изучая различные примеры, мы раскрываем различные способы, которыми лимерики отражают и формируют общества, в которых они возникают.

Ключевые слова: лимерики, культурные артефакты, исторический контекст, социологический анализ, поэзия, бессмыслица, Эдвард Лир, ирландская традиция.

INTRODUCTION

Limericks, often associated with humor and whimsy, have been a beloved form of poetry for centuries. Originating in the early 18th century, these five-line rhyming poems gained popularity across different cultures and have become embedded in the fabric of our society. In this article, we aim to explore the historical and sociological contexts surrounding limericks, shedding light on their significance as cultural artifacts.

MATERIALS AND DISCUSSION

Limericks can be traced back to the Irish tradition of nonsense verse and songs. The term "limerick" itself may have derived from the chorus of an Irish soldier's song in the 18th century. However, the precise origins of limericks remain elusive. They gained widespread recognition with Edward Lear's publication of "A Book of Nonsense" in 1846, which popularized the form and established the familiar AABBA rhyme scheme. Since then, limericks have continued to evolve, adapting to different cultural and linguistic contexts.

Sociological Significance: Limericks serve as mirrors of their respective societies, offering insights into their values, attitudes, and social dynamics. By examining the themes and subjects present in limericks throughout history, we can identify societal concerns, taboos, and changes in

cultural norms. Limericks have provided an outlet for social commentary, political satire, and cultural critique, allowing individuals to express their opinions in a humorous and often subversive manner. [118]

Sociological Analysis of Limericks: To analyze limericks in their sociological context, we consider two key aspects: content and reception. **Content Analysis:** Limericks cover a wide range of topics, from politics and religion to love and everyday life. By analyzing their subject matter, we can discern societal preoccupations and cultural shifts. [2.27] For example, limericks from the Victorian era often incorporated moral lessons and social etiquette, reflecting the values and conservative attitudes prevalent during that time.

In contrast, contemporary limericks may tackle issues such as technology, social media, and globalization, reflecting the concerns of the modern age. **Reception Analysis:** The reception of limericks also plays a crucial role in their sociological analysis. The popularity and dissemination of limericks through oral tradition, newspapers, books, and now the internet have shaped their impact on society.

The reaction to limericks can reveal attitudes towards humor, censorship, and societal boundaries. The study of limerick reception provides valuable insights into how societies engage with and interpret these cultural artifacts.

Examples and Analysis: To illustrate the diverse range of limericks and their sociological significance, we present a selection of examples from different eras. These examples will demonstrate the ways in which limericks reflect and comment on historical events, societal norms, and cultural nuances. Each limerick will be analyzed, highlighting its underlying themes and its impact on the broader cultural landscape. Limericks, as cultural artifacts, offer a fascinating lens through which we can examine historical and sociological contexts. By exploring their origins, evolution, and the themes they embody, we gain a deeper understanding of the societies that produced them. Limericks not only entertain us with their clever wordplay and humorous twists but also provide valuable insights into the human experience, social dynamics, and cultural evolution.

Through our analysis, we have observed that limericks have the power to challenge societal norms and provoke thought by employing satire, irony, and wordplay. They often tackle sensitive topics such as politics, religion, and social hierarchies, using humor as a means of social commentary and criticism. Limericks can serve as a form of catharsis, allowing individuals to express dissent or frustration in a lighthearted and non-threatening manner. [3.58]

For instance, during times of political unrest or upheaval, limericks have acted as vehicles for dissent, allowing people to voice their opinions without fear of reprisal. The political limericks of the 19th century in Ireland, for example, provided a means for expressing discontent with British rule and advocating for Irish independence. [4.71]

Furthermore, limericks often reflect cultural attitudes towards gender, sexuality, and relationships. Historical limericks often perpetuated gender stereotypes or employed bawdy humor, mirroring the prevailing social norms of their time. However, contemporary limericks have seen a shift towards more inclusive and progressive themes, challenging traditional gender roles and embracing diversity.

Тактика - ўйинчиларнинг рақиб устидан ғалаба қозонишга қаратилган индивидуал ва жамоавий ҳаракат-ларини ташкил қилиши, яъни команда футболчиларининг муайян режага биноан айнан шу муайян рақиб билан муваффақиятли кураш олиб боришига имкон берадиган биргаликдаги ҳаракатларини тушуниш керак.

Тактикадаги асосий вазифа ҳужум ва ҳимоя ҳаракат-ларининг мақсадга эриштира оладиган энг қулай восита, усул ва шаклларини белгилашдан иборатдир.


Қандай тактикани танлаш ҳар бир алоҳида ҳолда команда олдида турган вазифаларга, кучлар нисбати ва ўйинчиларнинг ўзаро курашувчи гуруҳларига, майдоннинг аҳволига, иқлим шароити ва ҳоказоларга боғлиқ. Футбол тактикасининг таснифи расмда берилган.

Футбол матчи кўп марталаб ҳужумдан ҳимояга ва ҳимоядан ҳужумга ўтишдан иборат бўлгани учун ҳам, табиийки, ҳар қайси команданинг ҳужум ва ҳимоя ҳаракатлари уюшган бўлиши керак.

Тактика учрашув вақтида бутун ўйин фаолиятининг асосий мазмуни ҳисобланади. Конкрет рақибга қарши тўғри танланган кураш тактикаси муваффақият қозонишга ёрдам беради, нотўғри танланган ёки учрашув мобайнида асқотмаган тактика эса одатда мағлубиятга олиб келади.

Рақибларни нейтраллаш вазифаларини тўғри ҳал қила билиш ва ҳужумдаги ўз имкониятларидан муваффақиятли фойдалана олиш умуман команданинг ҳам, унинг алоҳида ўйинчиларининг ҳам тактик етуқлигини кўрсатади. Ҳужум ва ҳимояда ҳамма

футболчиларнинг ҳаракатлари яхши уюштирилган ҳамда, албатта, фаол бўлгандагина команда муваффақиятга эриша олади.



Тренер ўйиннинг тактик режасини қандай қилиб тўзган булмасин, бу режа алоҳида футболчиларнинг ҳаракатлари билан амалга оширилади. Ана шунинг учун ҳам индивидуал тактик камолотга эришмай туриб, команданинг ўйинини чиройли ва рисоладагидек қиладиган аниқ тактик ҳара-катларни оширишни хаёлга ҳам келтириб бўлмайди.

Футбол ўйинида тактика билан техника бир-бирига чирмашиб кетган бўлади. Тўпни кимга ва қандай узатиш лозим, рақибни доғда қолдириш учун айланиб ўтишни ишлатиш керакми ёки тўпни шерикка оширган маъқулми, дарвозага қайси пайтда зарб бериш зарур эканлигини ҳал қиладиган ўйинчи тактик тафаккурдан фойдаланади, аҳд қилган ҳаракатини амалга ошираётганда эса у техник маҳоратини намойиш этади.

Демак, техника ўйинчининг техник режаларини амалга ошириш воситаси бўлиб хизмат қилади. Техник тайёргарлик аъло даражада бўлсагина хилма-хил тактик ҳаракатларни бажариш мумкин. Тенг кучли командалар учрашувида улардан бирининг ғалабасига кўпинча мағлуб бўлганларда ироданинг камлик қилгани ёки жисмоний ва техник тайёргарлик бўш бўлгани сабаб қилиб кўрсатилади. Бироқ футбол ўйинидаги ғалаба аксарият ҳолларда тактик режалар кураши билан белги-ланади.

Тактика икки команданинг жисмоний, техник ва маънавий-иродавий тайёргарликдаги даражалари тенг бўлганда, улардан бирининг ғалаба қилишини таъминлаб берадиган муҳим омилдир. Йирик мусобақалардаги кўплаб мисоллар шундан далолат беради. Усталик билан ишлатилган тактикагина муваффақият келтира олади. Баъзан командалар ҳар қандай рақибга қарши ўйнаганда ҳам бир хил тактика ишлатаверадилар.

Тактик жиҳатдан бундай қашшоклик, бир хиллик маҳо-ратнинг ўсиб боришига тўсқинлик қилади. Ҳар бир команда, айниқса, юқори даражали команда хилма-хил тактик планда ўйнай билиши керак, бўлмаса у, айрим ютуқлари бўлишига қарамай, мусобақаларда катта ғалабага эриша олмайди.

REFERENCES

1. Абидов Ш. У. Ёш футболчиларни техник-тактик ҳаракатларини мусобақа шароитида баҳолаш ва самаладорлигини аниқлаш //Fan-Sportga. – 2020. – №. 6. – С. 17-19.
2. Абидов Ш. У. Корпоративная социальная ответственность в спортивной промышленности //Научный альманах. – 2017. – №. 4-3. – С. 398-400.
3. Abidov S. U., Igamberdiev O. R., Bozorov S. R. Yosh futbolchilar mashg'ulotlaridagi yuklamalari hajmini yoshga qarab o'zgarishining maxsus harakat sifatlariga ta'sir etishi //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 229-236.
4. Абидов Ш. Футбол ўргатишда дастлабки тайёрлов гуруҳларида техник-тактик кўникмаларни ривожлантириш //О 'zbekiston milliy universiteti xabarлари. – 2022. – Т. 1. – №. 7.
5. Abidov Sh.U. Issues of modern sports and effective training of footballers //актуальныевопросыпедагогика. – 2021. – с. 107-109.
6. Abidov Sh.U. Using of "customer department" the football clubs' marketing management system //инновационное развитие. – 2017. – №. 4. – с. 43-44.
7. Артиқов А. А. Футбол спорт турида дарвозага зарба бериш аниқлигини баҳолаш услубияти //Fan-Sportga. – 2022. – №. 1. – С. 48-51.
8. Артиқов А. А. Тўп узатишлар ва дарвозага зарбалар аниқлигининг таҳлили //Fan-Sportga. – 2020. – №. 4. – С. 35-37.
9. Артиқов А. А. Ёш футболчиларни дарвозага зарба бериш аниқлигини ўрганиш //Fan-Sportga. – 2021. – №. 3. – С. 79-81.
10. Артиқов а. А. Осиё кубоги-2019 ўйинларидаги ўзбекистон терма жамоасининг дарвозага йўлланган зарбалар аниқлиги бўйича таҳлил //Фан-Спортга. – 2020. – №. 7. – С. 16-17.
11. Артиқов а. А. Офк кубоги ўйинларида ўзбекистон терма жамоаси футболчиларининг техник усуллари аниқлигини таҳлил қилиш натижалари //Фан-Спортга. – 2019. – №. 3. – С. 42-45.
12. Артиқов А.А. Мусобақа шароитида малакали футболчилар томонидан бажариладиган техник усулларнинг максадли аниқлигини таҳлил қилиш //Фан-Спортга. – 2018. – №. 3. – С. 49-53.
13. Artikov A. Effect of fatigue on the target accuracy of techniques in sports games //Журналиностранныхязыковилингвистики. – 2022. – Т. 6. – №. 6. – С. 21-30.
14. Артықов А. А. Анализ целевой точности игровых приемов футболистов в зависимости от уровня специальной физической подготовленности //Физическое воспитание и студенческий спорт глазами студентов. – 2020. – С. 654-657.
15. Игамбердиев О. Р. Футбол тўғарақларида шуғулланувчи 4-5 синф ўқувчиларини жисмоний тайёргарлигини ошириш //Fan-Sportga. – 2021. – №. 6. – С. 54-56.

16. Игамбердиев О. Р. Умумтаълим мактабларида футбол тўғарақларини ташкил этиш тизими //Фан-Спортга. – 2020. – №. 3. – С. 56-58.
17. Igamberdiyev O. R. Important issues of increasing the physical fitness of students in grades 4-5 in secondary schools //актуальныевопросыпедагогики. – 2021. – С. 101-103.
18. Igamberdiev O. R. O. Organization of football clubs in schools and improving the physical fitness of those involved in them (on the example of 4-5 graders) //Eurasian Journal of Sport Science. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 177-184.
19. Игамбердиев О.Р. Анализ охвата учащихся 4-5 классов кружками по футболу организованными в средних общеобразовательных школах //ББК 1 Р76. – 2020. – С. 224.
20. Igamberdiyev, O. R., and Dilmurod Kenjayev. "Educating the quality of quickness of players of the training group." *Modern Science and Research* 2.5 (2023): 71-74.
21. Igamberdiyev, O. R., and Abbos Toshpulatov. "The effect of technical training of young players on competition activity." *Modern Science and Research* 2.5 (2023): 63-63.
22. Игамбердиев, О. Р. "Умумтаълим мактабларидаги 11-12 ёшли ўқувчиларни футбол билан шуғуллантириш орқали жисмоний тайёргарлигини ошириш." Автореф. Дисс. П. Ф. Б. Ф. Д (PhD)–Чирчиқ 58 (2022).
23. Игамбердиев, О. Р. "Кўп йиллик тайёргарликнинг дастлабки босқичларида футболчиларни саралаб олишнинг илмий–назарий асослари." *Fan-Sportga.*–2022 8 (2022): 31-34.
24. Igamberdiyev, Obidjon. "Yosh futbolchilarni tanlab olish va seleksiyalashda yangi tadqiq qilish uslubiyatlari." *Академические исследования в современной науке* 1.17 (2022): 159-165.
25. Igamberdiyev O. The effectiveness of using tests for assessing their motor skills in the selection of young football players //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 451-456.
26. Кўп йиллик тайёргарликнинг юқори босқичларида футболчиларни саралаб олиш тизимлари. *Sportda ilmiy tadqiqotlar.* – 2023/2. 12-16-b.
27. Igamberdiyev O.R. Yosh futbolchilarni saralab olishda tibbiy nazorat//Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolar, yechimlar va istiqbollar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. – 2023. Chirchiq. 350-353-b.

ОБУЧЕНИЕ ИГРОВОЙ ТАКТИКЕ ВРАТАРЯ

Базаров Ф.Р.

Студент 53-21 группы

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8128740>

Аннотация. В данной статье проанализированы данные по обучению тактике игры вратаря.

Ключевые слова: футбол, позиция вратаря, действия в обороне, наступательные действия, управление движением партнеров.

TEACHING GOALKEEPER GAME TACTICS

Abstract. This article analyzes the data on teaching the tactics of the goalkeeper's game.

Keywords: football, goalkeeper position, defensive actions, offensive actions, partner movement control.

Современный футбол требует от вратаря не только умело защищать ворота, но и активно перемещаться в штрафной площади, а также контролировать всех защитников. Он координирует все защитные действия своей команды. Позиция вратаря (позади всех) позволяет ему видеть, как выстраиваются нападающие и к чему они стремятся. Однако это иногда упускается из виду игроками на определенных участках поля. Поэтому своевременный «свист» партнерам по обороне может оказать существенное влияние на силу защитных действий. Кроме того, вратарь - это игрок, который инициирует большинство атак своей команды (когда он выигрывает мяч или пробивает мяч через ворота), поэтому его навыки необходимы для поддержания инициативы и последовательности в атакующих линиях.

Общая игра команды в защите и нападении во многом зависит от индивидуальной тактической подготовки вратаря. На технические навыки и физическую подготовку вратаря больше влияют его тактические знания. Именно поэтому необходимо уделять чрезвычайно серьезное внимание вопросу тактической подготовки вратарей.

Тактику вратаря можно разделить на:

- а) действия в обороне;
- б) наступательные действия;
- в) управление движением партнеров;

Действия вратаря в защите.

Основная задача вратаря – непосредственная защита своих ворот. Можно различать «движения у ворот» и «движения при выходе из ворот».

Действия у ворот.

При непосредственной защите ворот от добивающих ударов соперника вратарь должен соблюдать следующее:

1. Выбор позиции (места). Правильно выбранная позиция позволяет вратарю с наименьшими усилиями надежно принимать мячи, отправленные в ворота соперниками. При этом необходимо учитывать положение игрока атакующей команды, контролирующего мяч, т.е. угол, под которым будет произведен бросок. Чем острее угол (например, когда игрок противоположной команды выходит на линию ворот по флангу), тем ближе вратарь будет к штанге на стороне игрока, владеющего мячом. При атаке из

центра вратарь должен немного выдвинуться вперед, чтобы сузить угол мишени и облегчить прием мяча, направленного в любой угол ворот. Вратарь, который хорошо выбирает свою позицию, редко попадает на мяч. Это создает впечатление, что нападающий подстерегает мяч у вратаря. Именно поэтому наивысшее значение придается умению выбирать позицию.

2. Знает, какой нападающий любит бить в каком направлении. Опытные вратари внимательно изучают движения соперника и иногда составляют что-то вроде картотеки на каждого ведущего нападающего. Это значительно упрощает выбор позиции, исходя не только из общих правил, но и из особенностей данного конкретного противника. Вот почему вратарь иногда больше смещается из «правильной позиции» то в одну, то в другую сторону.

3. Знание сильных и слабых сторон своих действий. В некоторых случаях вратарь падал и оставлял большую часть ворот на той стороне, откуда легче достать мяч. Это позволяет выбрать наиболее удобное положение для блокировки большей части ворот. Улучшение подбора места требует регулярных тренировок, концентрации во время каждого матча, игры с предельным вниманием, спокойствием и неторопливостью. Выбор метода движения позволяет вратарю правильно выполнить технический прием ответного броска. При этом вратарь: его положение в воротах, траектория полета мяча (мяч летит сверху, снизу, ближе к борту, дальше и т. д.); сила удара, т.е. скорость мяча (зависит от того, нужно ли вам толкнуть мяч в сторону крюка или поймать его, пока он падает); как расположены их собственные игроки и игроки соперника (в зависимости от того, следует ли мяч вешать, отправлять назад или терять сознание); учитывает состояние поля и мяча (влажная или сухая поверхность мяча и земли и т. д.).

REFERENCES

1. Абидов Ш. У. Ёш футболчиларни техник-тактик ҳаракатларини мусобақа шароитида баҳолаш ва самаладорлигини аниқлаш //Fan-Sportga. – 2020. – №. 6. – С. 17-19.
2. Абидов Ш. У. Корпоративная социальная ответственность в спортивной промышленности //Научный альманах. – 2017. – №. 4-3. – С. 398-400.
3. Abidov S. U., Igamberdiev O. R., Bozorov S. R. Yosh futbolchilar mashg'ulotlaridagi yuklamalari hajmini yoshga qarab o'zgarishining maxsus harakat sifatlariga ta'sir etishi //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 229-236.
4. Абидов Ш. Футбол ўргатишда дастлабки тайёрлов гуруҳларида техник-тактик кўникмаларни ривожлантириш //О 'zbekiston milliy universiteti xabarлари. – 2022. – Т. 1. – №. 7.
5. Abidov Sh.U. Issues of modern sports and effective training of footballers //актуальныевопросыпедагогикки. – 2021. – с. 107-109.
6. Abidov Sh.U. Using of “customer department” the football clubs'marketing management system //инновационноеразвитие. – 2017. – №. 4. – с. 43-44.
7. Артиқов А. А. Футбол спорт турида дарвозага зарба бериш аниқлигини баҳолаш услубияти //Fan-Sportga. – 2022. – №. 1. – С. 48-51.
8. Артиқов А. А. Тўп узатишлар ва дарвозага зарбалар аниқлигининг таҳлили //Fan-Sportga. – 2020. – №. 4. – С. 35-37.

9. Артиқов А. А. Ёш футболчиларни дарвозага зарба бериш аниқлигини ўрганиш //Fan-Sportga. – 2021. – №. 3. – С. 79-81.
10. Артиқов а. А. Осиё кубоги-2019 ўйинларидаги ўзбекистон терма жамоасининг дарвозага йўлланган зарбалар аниқлиги бўйича таҳлил //Фан-Спортга. – 2020. – №. 7. – С. 16-17.
11. Артиқов а. А. Офк кубоги ўйинларида ўзбекистон терма жамоаси футболчиларининг техник усуллари аниқлигини таҳлил қилиш натижалари //Фан-Спортга. – 2019. – №. 3. – С. 42-45.
12. Артиқов А.А. Мусобака шароитида малакали футболчилар томонидан бажариладиган техник усулларнинг мақсадли аниқлигини таҳлил қилиш //Фан-Спортга. – 2018. – №. 3. – С. 49-53.
13. Artikov A. Effect of fatigue on the target accuracy of techniques in sports games //Журналиностранныхязыковилингвистики. – 2022. – Т. 6. – №. 6. – С. 21-30.
14. Артыков А. А. Анализ целевой точности игровых приемов футболистов в зависимости от уровня специальной физической подготовленности //Физическое воспитание и студенческий спорт глазами студентов. – 2020. – С. 654-657.
15. Игамбердиев О. Р. Футбол тўғаракларида шуғулланувчи 4-5 синф ўқувчиларини жисмоний тайёргарлигини ошириш //Fan-Sportga. – 2021. – №. 6. – С. 54-56.
16. Игамбердиев О. Р. Умумтаълим мактабларида футбол тўғаракларини ташкил этиш тизими //Фан-Спортга. – 2020. – №. 3. – С. 56-58.
17. Igamberdiyev O. R. Important issues of increasing the physical fitness of students in grades 4-5 in secondary schools //актуальныевопросыпедагогтики. – 2021. – С. 101-103.
18. Igamberdiev O. R. O. Organization of football clubs in schools and improving the physical fitness of those involved in them (on the example of 4-5 graders) //Eurasian Journal of Sport Science. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 177-184.
19. Игамбердиев О.Р. Анализ охвата учащихся 4-5 классов кружками по футболу организованными в средних общеобразовательных школах //ББК 1 Р76. – 2020. – С. 224.
20. Igamberdiyev, O. R., and Dilmurod Kenjayev. "Educating the quality of quickness of players of the training group." Modern Science and Research 2.5 (2023): 71-74.
21. Igamberdiyev, O. R., and Abbos Toshpulatov. "The effect of technical training of young players on competition activity." Modern Science and Research 2.5 (2023): 63-63.
22. Игамбердиев, О. Р. "Умумтаълим мактабларидаги 11-12 ёшли ўқувчиларни футбол билан шуғуллантириш орқали жисмоний тайёргарлигини ошириш." Автореф. Дисс. П. Ф. Б. Ф. Д (PhD)–Чирчиқ 58 (2022).
23. Игамбердиев, О. Р. "Кўп йиллик тайёргарликнинг дастлабки босқичларида футболчиларни саралаб олишнинг илмий–назарий асослари." Fan-Sportga.–2022 8 (2022): 31-34.
24. Igamberdiyev, Obidjon. "Yosh futbolchilarni tanlab olish va seleksiyalashda yangi tadqiq qilish uslubiyatlari." Академические исследования в современной науке 1.17 (2022): 159-165.

25. Igamberdiyev O. The effectiveness of using tests for assessing their motor skills in the selection of young football players //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 451-456.
26. Кўп йиллик тайёргарликнинг юқори босқичларида футболчиларни саралаб олиш тизимлари. Sportda ilmiy tadqiqotlar. – 2023/2. 12-16-b.
27. Igamberdiyev O.R. Yosh futbolchilarni saralab olishda tibbiy nazorat//Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolar, yechimlar va istiqbollar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. – 2023. Chirchiq. 350-353-b.

ФУТБОЛДА ТАДРИЖИЙ ХУЖУМГА ҚАРШИ ҲИМОЯГА ЎРГАТИШ

Бозоров Фахриддин Рустам ўғли

53-21 гуруҳ талабаси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8128749>

Аннотация. Ушбу мақолада футболда тадрижий ҳужумга қарши ҳимояга ўргатиш ҳаракатлари бўйича маълумотлар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Тадрижий ҳужумга қарши кураш, мудофаа ўйинчилари, бутун команда билан мудофааланиш, Марказий ҳужумчиларнинг асосий вазифалари.

TRAINING IN DEFENSE AGAINST EVOLUTIONARY ATTACK IN FOOTBALL

Abstract. This article analyzes data on efforts to train defense against evolutionary attack in football.

Key words: the fight against the evolutionary attack, defensive players, defense with the entire team, the main tasks of the central attackers.

ТРЕНИРОВКА ТАКТИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ ОТ НАПАДЕНИЯ В ФУТБОЛЕ

Аннотация. В этой статье анализируются данные о тренировочных действиях по защите от тактического нападения в футболе.

Ключевые слова: тактическое противодействие атаке, защитники, защита всей командой, основные задачи центральных нападающих.

Тадрижий ҳужумга қарши кураш команда мудофаа ҳаракатларини уюштиришнинг жуда кенг тарқалган тури ҳисобланади. Мазкур ҳимоя команда ҳаракатларини амалга ошираётганда, бундай ўйин рақиблар учун фойдалироқдай туюлиши мумкин. Чунки ташаббус улар қўлида бўлади, вақтдан улар ҳам танқислик сезмайдилар. Бирок, ҳимоядагилар бир-бирига мос ҳаракат қилиб, рақибни муҳим омил – дарвозага ўтадиган йўлдан маҳрум қилиб қўядилар.

Агар рақиб томон ҳужумга ўтаётганда тактик восита сифатида қисқа ва ўртача узатишлардан фойдаланиб, асосан тадрижий ҳужумга зўр берадиган бўлса, ҳимояланаётган команда ҳужумнинг биринчи босқичида фаол кураш қилмай орқага чекинишни маъқул топади. Бунда рақиблар тўпни олға суриб боришни қийинлаштиришни мақсад қилиб қўйган бўладилар.

Тадрижий ҳужумнинг иккинчи босқичида мудофаа ўйинчилари ҳужум йўналишида кўпайишади ёки жабҳа бўйлаб тарқалиб, жой ва тўп учун курашда қатнашадилар. Бунда страховка уюштирилиши шарт.

Ҳужумнинг учинчи босқичида дарвозага яқинлашган сари рақибларнинг тўпи борлари ҳам, тўпи йўқлари ҳам ҳаракат тезлигини, айтиш чоғда ҳужумдаги ўйинчилар сонини ҳам ошира бораётган бир пайтда ҳимоячилар зич тўсиқ ҳосил қилишлари ва рақибларнинг зарба бериш пози-циясига чиқишларини қийинлаштириб қўйишлари керак.

Тадрижий ҳужумга қарши ҳимояга бўлган асосий талаблар:

1. Ўйинчиларнинг орқага чекиниши. Бу манёвр қулай позиция ишғол қилиб, рақибларни кўндаланг узатишларга ўтишга мажбур қилиш мақсадида қўлланилади. Айтиш чоғда мудофаадаги ўйинчилар рақибларнинг ҳам, тўпнинг ҳам ҳаракатланишини эътибор билан кузатиб борадилар.

2. Ҳимоячиларнинг тўп ва жой учун бевосита курашда иштирок этиши. Одатда, бундай кураш рақиблар майдон-нинг ҳимояланаётган команда томонига ўтиб, ҳаракат тезлиги ва ҳужумда қатнашаётган ўйинчилар сонини оширгандан кейин бошланади.

3. Страховка ва ўзаро алмашиниш вақтида мудофаа қаторлари батартиблигини сақлаб қолиш, шунингдек, ўйинчиларнинг рақиблар ҳужуми йўналишида ҳаракат-ланиши.

Мудофаада ўйнашнинг асосий принциплари:

1. Бутун команда билан мудофааланиш. Команданинг ҳамма ўйинчилари ўйиннинг турли босқичларида мудофаа-ада иштирок этадилар. Ҳужумчилар бериб қўйилган тўпни қайтариб олишга ёрдам берадиган фаол мудофаа ҳара-катлари қилишлари кеарк.

2. Хавfli зонада ҳужум қилаётган команданинг ҳамма ўйинчилари йўлини тўсиб олиш. Агар ҳужум қилаётган команданинг ўйинчилари тўпни бошқараётган шерикла-ридан қисқа ёки ўртача узатиш етиб борадиган масофада бўлса ва тўпни тўппа-тўғри улар оёғига тушириб бериши ёки очик жойга чиқариб бериши мумкин бўлса, бу ўйинчилар йўли шахсан тўсилган бўлиши керак.

3. Страховка ва ўзаро страховка принципларига қатъиян риоя қилиш. Страховка қилаётган ўйинчи шеригининг хатосини вақтида тузата оладиган позицияда бўлиши керак. Бундай позиция қарийб ҳамма вақт страховка қилинаётган шерикнинг ортида, ўз дарвозасига яқинроқ жойда бўлади.

4. Айтиб туришдан фойдаланиш. Одатда, ўз дарво-засига яқинроқ бўлган ўйинчи шерикларининг ҳаракатини бошқариб туради. Шу маънода дарвозабоннинг ўрни алоҳидадир. Унинг позицияси рақиблар ҳужуми ривож ва шерикларининг мудофаадаги ҳаракатларини эътибор билан кузатиш, ўйин вазиятини тўғрироқ баҳолаб, вақтида айтиб туриш билан шериклари хатосининг олдини олиш ва уни тузатиш имконини беради.

Тўртта ҳужумчи билан бўладиган ҳужумда қанотлардан фойдаланган маъкул. Тезкорлик хислатлари юксак бўлган қанот ҳужумчилари якка курашда ёки энг яқин турган шериги ёрдамида уни кўриқлаётган ўйинчини доғда қолдириб, илгарилаб кета бошлайди. Бунда қўйидагича ҳаракатларни амалга ошириш мумкин:

а) дарвоза чизиги яқинига чиқиш ва тўпни калла қўйиб ҳужумни яқунлаш учун мумкин қадар узокдаги устун яқинига тепалатиб узатиш;

б) дарвоза чизиги яқинига чиқиб, кейин шериги зарба беришини ёки рақиб оёғидан рикошет бўлишини мўлжал-лаб тўпни дарвозанинг узунасига ёки сал орқароққа пастдан физиллатиб бериш;

в) қанот ҳужумчисининг дарвоза рўпарасига зарба бериш позициясига, яъни «бурчак кесиб» чиқиши.

Марказий ҳужумчиларнинг асосий вазибалари – марказдан ёриб ўтишни уюштириш. Дарвозани забт этишга қулай позиция эгаллай туриб, улар айланиб ўтиш ва шерик билан ҳамкорлик қилишини бирга қўшиб олиб боришдан кенг фойдаланган ҳолда дадил, кескин ҳаракат қилишлари керак. Бу ихтисосдаги ўйинчилар дарвозабондан ёки штангадан қайтган тўпларни қайта уриб киритишга, дарвозани мўлжаллаб зарба бериш учун пайдо бўлиб қолган озгина имкониятдан ҳам фойдаланиб қолишга ҳамма вақт тайёр турадилар. Агар ҳужум марказдан бўлаётган бўлса, унда марказий ҳужумчилар сохта манёврлардан ва жой алмашинишлардан фойдаланиб, ўзгарувчан тезликда ўйнаб, зарба берадиган позицияга очилиб чиқишга ҳаракат қиладилар. Марказий ҳимоячилардан

бирининг орқасидан очилиб чиқиш энг фойдали очилиш ҳисобланади. Ўрта қатор ўйинчисини ҳужумга қўшиб комбинация қилишда марказий ҳужумчи сохта манёвр қилиб, шериги кириб келадиган зонадан марказий ҳимоячини олиб кетиши керак.

Ўрта қатор ўйинчилари олдинги марраларга чиқиши мумкин. Бунда улардан бири ҳужумда фаол иштирок этади, иккинчиси эса қанот ҳимоячилари билан биргаликда ҳужумни қувватлаб, сал орқароқда ҳаракат қилади. Бироқ ўрта қатор ўйинчилари эпизодик тарздагина ҳужумнинг биринчи эшелонига қўшилишлари керак. Ўрта қатор ўйинчиларининг ҳадеб илгарилаб кетавериши тўртта ҳужумчининг ҳаракатларини қисиб, уларни оператив ўйин жойидан маҳрум қилиб қўяди.

Қанот ҳимоячилари ҳам ҳужумга эпизодик тарзда қўшилиб турадилар. Мудофаадагилар тўп олганларидан кейин жавоб ҳужуми вақтида асосан шундай қилганлари маъқул. Марказий ҳимоячилар эса камдан-кам ҳужумга ташланадилар, чунки майдон марказида рақибларнинг ҳамкорлик қилаётган ўйинчилари борлигини, бунинг оқибатида ўз дарвозалари хавфда қолиши мумкинлигини ҳамма вақт ёдда тутадилар.

Агар рақиблар фақат зона ҳимояси тизимини қўл-ласалар, унда ҳужумчилар ҳаракатига қуйидагилар хос бўлади:

а) ўрта қатор ўйинчилари ва қанот ҳимоячиларининг ҳужумга қўшилиб, жамоавий манёвр қилиши ҳисобига ҳужумнинг айрим участкасида сон жиҳатдан устунлик ҳосил бўлиши;

б) дарвоза олдидаги маълум зонада рақиблардан бирини яқка курашда шахсан ютиб чиқиб, кейин қўшни зонада сон жиҳатдан устунлик ҳосил қилиш ёки ҳужумни зарба бериб тугатиш.

REFERENCES

1. Абидов Ш. У. Ёш футболчиларни техник-тактик ҳаракатларини мусобақа шароитида баҳолаш ва самалдорлигини аниқлаш //Fan-Sportga. – 2020. – №. 6. – С. 17-19.
2. Абидов Ш. У. Корпоративная социальная ответственность в спортивной промышленности //Научный альманах. – 2017. – №. 4-3. – С. 398-400.
3. Abidov S. U., Igamberdiev O. R., Bozorov S. R. Yosh futbolchilar mashg'ulotlaridagi yuklamalari hajmini yoshga qarab o'zgarishining maxsus harakat sifatlariga ta'sir etishi //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 229-236.
4. Абидов Ш. Футбол ўргатишда дастлабки тайёрлов гуруҳларида техник-тактик кўникмаларни ривожлантириш //О 'zbekiston milliy universiteti xabarлари. – 2022. – Т. 1. – №. 7.
5. Abidov Sh.U. Issues of modern sports and effective training of footballers //актуальныевопросыпедагогикки. – 2021. – с. 107-109.
6. Abidov Sh.U. Using of "customer department" the football clubs'marketing management system //инновационноеразвитие. – 2017. – №. 4. – с. 43-44.
7. Артиқов А. А. Футбол спорт турида дарвозага зарба бериш аниқлигини баҳолаш услубияти //Fan-Sportga. – 2022. – №. 1. – С. 48-51.
8. Артиқов А. А. Тўп узатишлар ва дарвозага зарбалар аниқлигининг таҳлили //Fan-Sportga. – 2020. – №. 4. – С. 35-37.

9. Артиқов А. А. Ёш футболчиларни дарвозага зарба бериш аниқлигини ўрганиш //Fan-Sportga. – 2021. – №. 3. – С. 79-81.
10. Артиқов а. А. Осиё кубоги-2019 ўйинларидаги ўзбекистон терма жамоасининг дарвозага йўлланган зарбалар аниқлиги бўйича таҳлил //Фан-Спортга. – 2020. – №. 7. – С. 16-17.
11. Артиқов а. А. Офк кубоги ўйинларида ўзбекистон терма жамоаси футболчиларининг техник усуллари аниқлигини таҳлил қилиш натижалари //Фан-Спортга. – 2019. – №. 3. – С. 42-45.
12. Артиқов А.А. Мусобака шароитида малакали футболчилар томонидан бажариладиган техник усулларнинг мақсадли аниқлигини таҳлил қилиш //Фан-Спортга. – 2018. – №. 3. – С. 49-53.
13. Artikov A. Effect of fatigue on the target accuracy of techniques in sports games //Журналиностранныхязыковилингвистики. – 2022. – Т. 6. – №. 6. – С. 21-30.
14. Артыков А. А. Анализ целевой точности игровых приемов футболистов в зависимости от уровня специальной физической подготовленности //Физическое воспитание и студенческий спорт глазами студентов. – 2020. – С. 654-657.
15. Игамбердиев О. Р. Футбол тўғаракларида шуғулланувчи 4-5 синф ўқувчиларини жисмоний тайёргарлигини ошириш //Fan-Sportga. – 2021. – №. 6. – С. 54-56.
16. Игамбердиев О. Р. Умумтаълим мактабларида футбол тўғаракларини ташкил этиш тизими //Фан-Спортга. – 2020. – №. 3. – С. 56-58.
17. Igamberdiyev O. R. Important issues of increasing the physical fitness of students in grades 4-5 in secondary schools //актуальныевопросыпедагогтики. – 2021. – С. 101-103.
18. Igamberdiev O. R. O. Organization of football clubs in schools and improving the physical fitness of those involved in them (on the example of 4-5 graders) //Eurasian Journal of Sport Science. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 177-184.
19. Игамбердиев О.Р. Анализ охвата учащихся 4-5 классов кружками по футболу организованными в средних общеобразовательных школах //ББК 1 Р76. – 2020. – С. 224.
20. Igamberdiyev, O. R., and Dilmurod Kenjayev. "Educating the quality of quickness of players of the training group." Modern Science and Research 2.5 (2023): 71-74.
21. Igamberdiyev, O. R., and Abbos Toshpulatov. "The effect of technical training of young players on competition activity." Modern Science and Research 2.5 (2023): 63-63.
22. Игамбердиев, О. Р. "Умумтаълим мактабларидаги 11-12 ёшли ўқувчиларни футбол билан шуғуллантириш орқали жисмоний тайёргарлигини ошириш." Автореф. Дисс. П. Ф. Б. Ф. Д (PhD)–Чирчиқ 58 (2022).
23. Игамбердиев, О. Р. "Кўп йиллик тайёргарликнинг дастлабки босқичларида футболчиларни саралаб олишнинг илмий–назарий асослари." Fan-Sportga.–2022 8 (2022): 31-34.
24. Igamberdiyev, Obidjon. "Yosh futbolchilarni tanlab olish va seleksiyalashda yangi tadqiq qilish uslubiyatlari." Академические исследования в современной науке 1.17 (2022): 159-165.

25. Igamberdiyev O. The effectiveness of using tests for assessing their motor skills in the selection of young football players //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 451-456.
26. Кўп йиллик тайёргарликнинг юқори босқичларида футболчиларни саралаб олиш тизимлари. Sportda ilmiy tadqiqotlar. – 2023/2. 12-16-b.
27. Igamberdiyev O.R. Yosh futbolchilarni saralab olishda tibbiy nazorat//Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi muammolar, yechimlar va istiqbollar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. – 2023. Chirchiq. 350-353-b.

ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИЯ ХИМИИ И ХИМИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИИ

А.Т.Каипбергенов

д.т.н. профессор

М.А.Нурғалиева

стажер-преподаватель

Нукусский горный институт при Навоийском государственном горном и
технологическом университете

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8132401>

***Аннотация.** В статье в основном рассказывается об исследованиях, проводимых при решении задач с использованием новых информационных технологий при изучении химии и химической технологии. В данной работе ученику и учителю описывается способ работы с компьютером. Предыдущие традиционные методы обучения сравниваются с методами решения задач с использованием информационных технологий. Можно с уверенностью сказать, что компьютерные технологии приведут к изменению образовательной модели.*

***Ключевые слова:** химия, химических технологии, задача, ИКТ, электронные учебники, компьютер, урок учитель, ученик.*

THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING CHEMISTRY AND CHEMICAL TECHNOLOGY

***Abstract.** This article talks about the state mainly talks about research carried out in solving problems using new information technologies in the study of chemistry and chemical technology. In this work, the student and teacher describe how to work with a computer. Previous traditional teaching methods are compared with problem solving methods using information technology. Mono confidently says that computer technology will lead to a change in the educational model.*

***Key words:** chemistry, chemical technology, tasks, information Texnology, electronic textbooks, computer, lessons, teachers, students.*

Совершенствование системы подготовки кадров в области информационных технологий является одним из важных условий обеспечения успешной реализации Стратегии «Цифровой Узбекистан - 2030», развития и широкого внедрения цифровых технологий в повседневную жизнь населения [1].

Качество современного урока зависит от применения новых педагогических технологий, в том числе и информационно – коммуникационных технологий.

Использования современных информационных технологии в учебном процессе, позволяет моделировать объекты, процессы и явления, способствуют формированию умений обработки информации при работе с компьютерными каталогами и справочниками, обеспечивает самоподготовку студентов и оценку их знаний, формирует культуру учебной деятельности, повышает эффективность обучения и интерес студентов к изучению предмета, помогает совершенствовать различные формы и методы обучения [2].

Информационные технологии играют все более заметную роль в организации обучения химии и химических технологии. Применение информационных технологий для

обучения решению химических задач представляет собой один из возможных вариантов выхода из сложившейся ситуации, позволяет расширить кругозор учащихся, предоставляет новые возможности передачи информации, более широкого применения средств наглядности, диалогового режима обучения в сочетании с индивидуализацией обучения и активностью учащихся.

Идея использования компьютеров при обучении учащихся решению химии и химических технологий задач не нова. Она получила отражение даже в названиях некоторых задачников. В последнее время принципиально изменились масштабы использования информационных технологий в образовательном процессе. К принципиально новому функциональному назначению: во главу угла ставится задача массового использования компьютерных технологий на всех уровнях образовательного процесса [3].

Урок с использованием ИКТ – это наглядно, красочно, информативно, интерактивно, экономит время учителя и ученика, позволяет работать ученику в своем темпе, учителю работать с учеником дифференцированно и индивидуально, дает возможность оперативно проконтролировать и оценить результаты обучения.

А традиционные подходы в обучении решению задач на уроке предусматривают сходную последовательность действий: подготовка к усвоению нового материала, знакомство со способом решения, закрепление через упражнения, промежуточная проверка качества усвоения, решение содержательных задач на применение новых знаний и итоговая проверка с оцениванием. Такая стратегия обучения нацелена на усвоение учащимися знаний и требует большого напряжения памяти. Такое обучение может привести лишь к поверхностному усвоению фактов, но не к глубокому усвоению ценностей".

1. При исследовании процесса показали, что применение информационных технологий для обучения решению задач, на первый взгляд, делает роль учителя менее заметной. Кажется, что учитель и не учит уже, а консультирует учащихся и направляет их деятельность, в основном, он наблюдает за процессом обучения и опрашивает при необходимости отдельных учащихся. Учитель, конечно, продолжает учить, но учит он опосредованно, применяя информационные технологии, практически индивидуально каждого учащегося при помощи самого продуктивного метода - самостоятельной работы. Каждый учащийся при этом проявляет максимальную активность. Деятельность учителя теперь связана с подбором задач для занятия и продумыванием последовательности их выполнения на уроке, с выбором видео-фрагментов и фотографий, которые самостоятельно или под его руководством должны рассмотреть учащиеся. Конечно, такая деятельность не является для учителя абсолютно новой. Учитель, применяющий в работе информационные технологии, расширяет свои возможности, предоставляет учащимся новые средства для самостоятельного формирования умений совершать умственные действия.

Далее давайте рассмотрим возможности использования ИКТ на уроках химии и химических технологий:

1. ИКТ как средство наглядности (презентации, демонстрации т.п.)
2. ИКТ как дидактический инструмент: средство контроля (среды тестирования); средство организации фронтальной работы (например, ресурсы интерактивных досок)
3. ИКТ как инструмент образовательной технологии: включение ИКТ в проектную, исследовательскую, поисковую, проблемную деятельность

4. ИКТ как средство развития: формирование индивидуальной образовательной траектории, личностного образовательного пространства

5. ИКТ как инструмент единой образовательной среды: сетевые группы как технология обучения [4].

Можно с уверенностью утверждать, что компьютерные технологии приведут, в конечном счете, к смене доминирующей сегодня модели образования. И эти изменения, скорее всего, будут происходить значительно быстрее, чем в настоящее время. Можно представить новую образовательную модель как сочетание четырех компонентов в учебном процессе.

Компьютер (источник информации, обучение, практика, контроль) - *учитель* (отбор материала для обучения, организация групповой и индивидуальной работы, управление процессом самостоятельной учебной деятельности учащихся, организация объективных форм контроля) - *учебные информационные материалы* (традиционные, электронные) - *учащийся/студент* (восприятие и усвоение учебного материала, самостоятельная работа, самоконтроль) (Рис.).

Из приведенной схемы понятно, что применение обучающих ЭИ не уменьшает значимость учителя в образовательном процессе, а только изменяет его функции. С появлением компьютера грань между аудиторной и самостоятельной работой стала исчезать, самооценке, все компоненты обучения объединяются обратными связями. Возможности учителя, использующего информационные технологии для обучения, значительно расширяются. Это положение можно обосновать уже тем, что значительно расширяется его аудитория, она больше не ограничивается только классом из 25-30 человек. Расширяются и возможности учащихся, они могут неограниченное число раз анализировать решение задачи, сравнивая его с самостоятельно полученным. Работа с персональным компьютером подразумевает самостоятельность обучения. Однако это не исключает проведение занятий в компьютерном классе под управлением и с содержательным участием преподавателя. С другой стороны, компьютер - интеллектуальное устройство, способное выполнять функции, ранее присущие только преподавателю: подсказывать, задавать вопросы и отвечать на них, раскрывать те или иные темы предметной области, в том числе – вариативно формируется новая форма учебной деятельности, основанная на самооценке, все компоненты обучения объединяются обратными связями [5].



Рис. 6. Схема взаимодействия между учителем, учеником, компьютером и электронными учебными материалами

Подводя итог, использование информационных технологий позволяет насытить и разбогатеть короткий промежуток времени занятия достаточно большим объёмом информации на уроках химии и химические технологии облегчает обработку материала, способствует повышению познавательного интереса к химии, развитию желания и умения учиться, даёт возможность осуществлять индивидуальный подход в обучении и позволяет объективно оценить знания учащихся.

REFERENCES

1. Постановление Президента Республики Узбекистан, от 06.10.2020 г. № ПП-4851 О мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования в области информационных технологий, развитию и интеграции научных исследований с it-индустрией.
2. Каипбергенов А.Т, Нургалиева М.А., Каипбергенова Ф.Т. Использование информационно-коммуникационных технологий при обучении химии. (II международная научно-теоретическая конференции «Актуальные вопросы естественных наук» 19 мая, 2021 г. Часть II, с.360-361
3. Чайков С. Г. Ахлебенин А. К. Интерактивная компьютерная программа для обучения решению задач по органической химии студентов заочников // Проблемы подготовки и переподготовки специалистов пищевой промышленности в современных условиях. Материалы научно-методической конференции филиала МГТА в г. Калуге. Выпуск 1 - Калуга: ИД "Эйдос", 2003. -С. 40-43.
4. Алейникова И.И., Савенков А.А., СШ №23 «Использование компьютерных технологий на уроках химии», [http:// www. gmcit. murmansk. ru /text/information_science](http://www.gmcit.murmansk.ru/text/information_science)
5. Левкин А. Н. Технология проектирования и применения компьютерных обучающих программ по химии для средней школы на основе имитационного моделирования: Автореф. дис. канд. пед. наук: - Санкт-Петербург, 2002.-26 с.

БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРНИНГ ЎЗБЕК ТИЛИ ДАРСЛАРИДА СЎЗ МАЪНОЛАРИ УСТИДА ИШЛАШ

Олимжон Ешимбетов

Тошкент гуманитар фанлар университети ўқитувчиси педагогика фанлари бўйича фалсафа
фанлари доктори PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8132456>

Аннотация. Бошланғич синфларнинг ўзбек тили дарсларида сўз маънолари устида ишлаш негаки, бола таълим-тарбиясида бевосита ўқитувчининг ўрни ва роли аҳамиятли бўлгани боис уларнинг нутқини мунатазам равишда ўстириб бориш тақозо қилинади.

Калим сўзлар: Миллий тил, нутқ, талаффуз, нутқ ўстириши, таълим, муҳит, фикр.

WORKING ON WORD MEANINGS IN THE LESSONS OF THE UZBEK LANGUAGE OF ELEMENTARY GRADES

Abstract. Because of the importance of the role and role of a direct teacher in the education of a child in the lessons of the Uzbek language of the primary classes, it is assumed to grow their speech in a munatazam manner.

Key words: National language, speech, pronunciation, speech cultivation, education, environment, thought.

РАБОТА НАД ЗНАЧЕНИЯМИ СЛОВ НА УРОКАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. Работа над значениями слов на уроках узбекского языка начальных классов так как роль и роль непосредственного учителя в воспитании и образовании ребенка значительны, то требуется систематическое развитие их речи.

Ключевые слова: национальный язык, речь, произношение, развитие речи, образование, среда, мысль.

Ҳар қандай жамиятнинг ривожланиши миллий тилни ислоҳ қилиш билан ҳам белгиланади. Миллий тилнинг ижтимоий-руҳий жараён билан узвий боғлиқ ҳолда тараққий этиши кўп ҳолларда ўзлашган сўзлар эвазига ҳам юз беради. Негаки, бола таълим-тарбиясида бевосита ўқитувчининг ўрни ва роли аҳамиятли бўлгани боис уларнинг нутқини мунатазам равишда ўстириб бориш тақозо қилинади. Қорақалпоқ синфларида “Ўзбек тили” (Давлат тили) фани ўқувчиларга фақат нутқ ўстириш учунгина ўтилмайди, балки уларнинг тўғри талаффузини шакллантириш билан биргаликда ёзма нутқини ўстиришга ҳам қаратилади.

Х.Муҳитдинованинг таъкидлашича, мамлакатимизда таълим қозоқ, қирғиз, туркман ва қорақалпоқ тилларида олиб борилиши кўзда тутилса, уларга нисбатан ўзбек тилини хорижий тил сифатида ўқитиш тушунчасини қўллаш ўринли эмасдек туюлади. Олиманинг таълим рус тилида олиб бориладиган гуруҳларда турли миллат вакиллари, ҳатто ўзбеклар ҳам таълим олиши ўзбек тилини давлат тили сифатида ўқитиш ҳақидаги хулосалари ҳақиқатга яқиндир [4].

Шу ўринда методист Н.Умарованинг куйидаги фикрларига қўшилишни зарур деб биламиз: “...Русийзабон талабаларга ўзбек тилининг чет тили сифатида ўқитилишини, бизнингча, оқлаб бўлмайди. Албатта, ўзбек тилини ўқитиш жараёнида чет тилини ўқитишдаги илғор метод ва технологиялардан оқилона фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Лекин талабалар ўзбек тилини нутқий муҳит шароитида ўзлаштиришлари мумкинлигини, давлат тилини мактабда ўргана бошлаганликларини (айримлари ҳатто мактабгача тарбия муассасаларидан бошлаб ўрганаётганликларини) инobatга олиш керак” [5; 133-б.].

Таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган бошланғич синфларда одатда, ўзбек тили 2-синфдан ўтилишини инobatга олсак, муаммога аниқ ечим топилгандек бўлади. Айнан ўқувчилар ўша даврда атрофидаги оламдан жуда кўплаб янгиликларни қабул қилишга мойил бўлади. Бу вақтда ўқувчи мустақил фикрлаш тарзига одатланса, нарсабуюмларнинг номларини тўғри талаффуз қилса, матнни беҳато ёзса, эшитган сўзларини мулоқот давомида эркин қўллашга ўзида куч топади.

Қорақалпоғистон таълим тизимида белгиланган расмий тил қорақалпоқ ва ўзбек тилидир. Қорақалпоқ синфларида ўзбек тилига, ундаги сўзларнинг маъноларини ўзлаштиришга эътибор берилса, шундагина мақсадга тўғри мўлжал олинган бўлади. Бунда ўқитувчидан фаоллик талаб этилади. Чунки, ўқитувчи ҳар бир машғулотга тайёрланган вақтида ёш хусусияти ва синфнинг ўзлаштириш даражасидан келиб чиққан ҳолда дастур асосида иш олиб бориши лозим. Масалан, булар қайси шаклда амалга оширилади: биринчидан, ўқитувчи мавзунини аниқ ва пухта режа асосида ташкил қилиши; иккинчидан, мавзуга оид манбаларнинг ишончилигини қайта текшириши; учинчидан, мавзуга оид талаффузи қийин сўзларни ўйин ва кўргазмалилик тарзида юзага чиқариши; тўртинчидан, мавзуга оид луғатлар тузиб ва улар ёрдамида бола хотирасига сингдириб бориши керак бўлади.

Нутқий фаолият билан боғлиқ тадқиқотлар, хусусан, М.Аҳмаджонованинг илмий ишида нутқнинг яхши ривожланиши киши фаолиятининг зарур воситаларидан бири эканлиги таъкидланади. Шунинг учун нутқ муваффақиятли таълим омили эканлиги, болани кичиклигиданоқ тўғри талаффузга ўргатиш муҳимлиги, бу жиҳатлар луғат иши, синтактик қурилиш ва боғланишли нутқни ўзлаштиришга хизмат қилиши ўз ифодасини топади [1; 124–129-б.].

Дарҳақиқат, келтирилган маълумотда икки жиҳат эътиборимизни жалб қилади, биринчидан, боғланишли нутқ табиатан бола тасаввурларининг ўсиб-улғайиб боришида аҳамият касб этса, иккинчидан, уни тарбия қилаётган муҳит ва оила ўртасидаги алоқа, муносабат амалга ошади. Айниқса, бола уйда ёлғиз қолган пайтлари, ўзининг истаклари кетидан эргашади, телевизор томоша қилади, ўйинчоқ ўйнайди, расм чизади. Демак, нутқий кўникмани ҳосил қилиш жараёнида ота-она болага мунтазам ва оптимал даражада эътибор қаратиб, унинг нима билан машғул бўлаётганига қизиқиши шарт. Зеро, мулоқот, оиладаги муҳит, жонли парвариш, эътибор биринчи галда бола дуёнқарашига тез таъсир қиладиган, таъсирчан воситаларни жалб этишни талаб қилади.

Х.Мухитдинова нутқий кўникмалар ўқиш, тинглаб тушуниш, гапириш ва ёзувни эгаллаш асосида юзага келиши, ўқувчилар иккинчи тилни ўрганиш даврида ўзлаштирган билимларини нутқий фаолиятда мустақил қўллай олиши нутқий компетенцияни шакллантиришга хизмат қилишини алоҳида таъкидлайди [3; 167-б.].

И.А.Зимняя тўғри ёзгандек, малака – бу машқлар орқали ҳаракатларнинг мукамалликка эришуви бўлиб, у нутқий жараёнларнинг автоматлашуви ҳисобланади [2; 268-б.].

Ҳозирги кунда мактабларда ўқитувчининг жонли мулоқоти нутқига техник воситаларни жалб қилиш орқали кўзланган мақсадга эришувга ёрдам беради. Ўқитувчининг синф билан мунтазам мулоқот қилиши ҳам уларнинг оғзаки нутқини ўстиришда катта аҳамиятга эга. Бу ўринда сўзловчи кўпинча сўзларнинг содда турини қўллайди, шу орқали бола дунёқарашини чархлаб боради. Оғзаки нутқда такрорланган градация, муболага ва киноявийлик, қиёслаш методлари, турли маъно кўчимларини ҳам кенг ифода қилиш заруратини юзага келтиради.

Қорақалпоқ ўқувчиларда ўзбекча нутқий кўникмаларни ҳосил қилишда ўзбек тили грамматикасини ўргатиш ва кўникмаларни шакллантириш ҳам асосий мақсад ҳисобланади. Бунинг учун турли гап қурилмаларининг тузилишини ўргатиш тегишли грамматик тушунчалар, сўз ва сўз бирикмаларининг ўзаро боғланиш кетма-кетлигини ўзлаштириш, фикрни баён этиш ва нутқий эҳтиёжлар мақсадига кўра танланади.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, Е.И.Пассовнинг тилни она тили сифатида ўқитиш билан иккинчи тил сифатида ўқитиш ўртасида фарқ мавжудлиги ва алоҳида тамойилларга таянилган ҳолда ўқитилиши борасидаги фикрлари ўринлидир. Иккинчи тилга ўргатишда муҳим жиҳат тилнинг нутққа боғлиқ томони бўлганлиги сабабли муаммоли масалалар учрайди. Бу педагог, методист ва психологлар томнидан махсус тадқиқотларни талаб этади [4; 277-б.].

Шунингдек, қорақалпоқ мактабларининг 5–6-синфларида шеърый матнларни ёдлатиш ҳам муҳим роль ўйнайди. Катта ёшга қадам қўйган ўқувчи ўз она тилини ўрганганидек, бошқа тилни ўргатишда ҳам қиёсий тасаввурлардан фойдаланади. Булар куйидаги шаклда олиб борилса натижали бўлади:

- биринчидан, шеърый матн ҳиссий-эмоционал тасаввурларни ифода қилади;
- иккинчидан, сўз ва унинг маъно қатламларини қайта идрок этишга замин яратади;
- учинчидан, жамоавий мулоқот кўпинча англо-майдиган саволларга хос жавоб топишга етаклайди;
- тўртинчидан, нутқий кўникмалар шаклланиши ўқитувчининг режали мулоқоти натижаларидан дарак беради.

Демак, ўқитувчи шеърый матнни ўзи ифодали ўқиб бериши зарур. У ўқувчига оғзаки етиб боради. Қабул қилиш жараёнида ўқувчининг маълум сўзларни билиб олиши баробарида, унга ўз шахсий муносабатини билдиришга, эркин мулоқот қилиш малакасини эгаллашга ёрдам беради.

REFERENCES

1. Аҳмаджанова М., Маматкулова Д. Бошланғич синф ўқувчиларининг оғзаки ва ёзма нутқини ўстириш тизими // Молодой учёный. Международная конференция. – М., 2019. – С. 124-129.
2. Зимняя И.А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. – М.: МГУ, 1998. – 268 с.
3. Мухиддинова Х. Таълим босқичларида ўзбек тили ўқитилиши узлуксизлигини таъминлашнинг илмий-методик асосларини такомиллаштириш. Пед. фан. док. дисс. – Тошкент, 2011. – 270 б.

4. Пассов Е.И. Основы коммуникативной методики обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1989. – 277 с.
5. Umarova M., Hakimova Sh. O‘qish kitobi. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2019. – 240 b.
6. 6.О.Ешимбетов. бошланғич синф ўқувчиларининг ўзбек тилидан боғланишли нутқини ривожлантириш методикаси. (таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида) Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дисс. Тошкент, 2022. – 119 б.

БОҒЛАНИШЛИ НУТҚНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТИЛ ВА ТАФАККУР УЙҒУНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТЕХНОЛОГИК КОМПОНЕНТЛАРИ

Олимжон Ешимбетов

Тошкент гуманитар фанлар университети ўқитувчиси педагогика фанлари бўйича фалсафа
фанлари доктори PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8132475>

Аннотация. Боғланишли нутқни ривожлантиришида тил ва тафаккур уйғунлигини таъминлашнинг технологик компонентлари бошланғич синф ўқитувчилари ўз иш фаолиятида янги усул ва методларни танлаб, ўқувчиларнинг нутқи, ҳиссий идрок қилиши ва интеллектуал ривожланиши.

Калим сўзлар: Усул, метод, идрок, нутқ, эртак, фразеология, этимология, мақсад.

TECHNOLOGICAL COMPONENTS OF ENSURING THE HARMONY OF LANGUAGE AND THINKING IN THE DEVELOPMENT OF CONNECTED SPEECH

Abstract. The technological components of ensuring the harmony of language and thinking in the development of connected speech are the speech, emotional perception and intellectual development of students by primary school teachers, choosing new methods and techniques in their work activities.

Key words: method, method, perception, speech, fairy tale, phraseology, etymology, purpose.

ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ СОСТАВЛЯЮЩИЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГАРМОНИИ МЫШЛЕНИЯ ЯЗЫКОВОЙ БА В РАЗВИТИИ СВЯЗНОЙ РЕЧИ

Аннотация. Технологические составляющие обеспечения гармонии языка и мышления в развитии связной речи учителя начальных классов развивают речь, эмоциональное восприятие и интеллектуальное развитие учащихся, выбирая в своей трудовой деятельности новые методы и приемы.

Ключевые слова: метод, метод, восприятие, речь, сказка, фразеология, этимология, цель.

Бошланғич мактабда ўқув жараёни марказида индивидуаллаштириш ва интеграциялаш тамойилларига амал қилиниб, нутқни ривожлантириш бўйича иш олиб борилади. Бошланғич синф ўқитувчилари ўз иш фаолиятида янги усул ва методларни танлаб, ўқувчиларнинг нутқи, ҳиссий идрок қилиши ва интеллектуал ривожланиши учун дарсларни диверсификация қилишга уринадилар. Бунинг учун ўзбек халқ эртакларида фразеологик иборалар билан учрашганлиги сабабли ўқувчиларнинг фразеологик бирикмаларга мурожаат қилиш фойдалидир. Масалан, *огзи қулогиди, бурни кўтарилган каби*. Бу ибораларнинг маъносини тўлиқ англаш учун улар бадий асарга мурожаат этишлари лозим. Баъзи ҳолларда фразеологик бирикмалар этимологияси ва улар англатадиган маъно ўқувчилар нутқини бойитиши қатори улардаги қизиқувчанлик ва кузатиш сифатларининг ҳам ривожланишига туртки бўлади.

Бундай дарслардан сўнг болаларда янги сўз ва ибораларни ўрганишга рағбат пайдо бўлади ва мустақамланади. Тавсия этилган дарс парчалари аниқ мақсадга эга: ўқувчиларнинг сўз бойлигини ривожлантириш ва кенгайтириш зарурлиги назарда тутилади.

М.Саидовнинг ёзишича, она тили дарсларининг асосий мақсади ўқувчиларни мустақил ва ижодий тафаккур қилишга, фикрни нутқ шароитига мувофиқ ҳолда оғзаки ва ёзма шаклда ифодалашга ўргатишдир. Муаллиф ўқув топшириқлари амалий мақсадларга, яъни ўқувчиларнинг нутқий кўникмаларини шакллантиришга қаратилиши зарурлигини таъкидлар экан, луғат бойлигини кенгайтириш, сўзни ўрнида қўллаш, гапларни кенгайтириш ва торайтириш, мазмунини сақлаган ҳолда шаклини ўзгартиришдан иборатлигига урғу қаратади. Нутқий фаолиятни ривожлантиришга доир вазифалар ишлаб чиқариш жараёнининг содда ва илмий тасвирини бера олиш, кузатган, ўқиган ёки эшитган воқеа-ҳодисаларини таҳлил қилишга оид ўқув топшириқлари сирасига киради [2; 122-б.].

Бошланғич синф ўқувчиларининг боғланишли нутқини ривожлантириш таълим-тарбия ишларининг ажралмас қисми ҳисобланади. Шу боис барча турдаги ишлар ўқувчиларнинг фаол иштирокида амалга оширилади. Ўқитувчи ўқувчиларнинг мулоқотга жалб этилишини таъминлаши, ўзбек тилида сўзлашишдан чўчимаслигини уқтириши керак. Масалан, сифатларни ўрганишда вазифалар фойдали ва қизиқарли бўлиши керак: от сўз туркумига қуйидаги белгиларни билдирувчи сифатларни қўллаш: *бўй, белги, миллат, ақл* ва бошқалар. (Болалар *баланд, паст, меҳрибон* ва ҳоказо сўзларни доскага ва дафтарларга танлаб ёзадилар).

Ушбу сифатларнинг луғавий маъноси тушунтирилади. Болаларга матнлар танлаш таклиф этилади: *Дераза ойнасидан новдалар синфхонага қарайди. Улар ям-яшил рангда. Ёзинг, сифатларни топинг, атрибутни белгиланг.*

Шунингдек, қуйидаги мазмундаги машқлар ёзма нутқ ривожига ижобий таъсир кўрсатиши тажрибалардан ҳам яхши маълум:

1-mashq. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

1. Shahrizmida yangi binolar quril... (-moqda, -ni).
2. Poytaxtimiz go‘zal bo‘l... (-gan, -moqda).
3. Yurtimizda meva va sabzavotlardan mo‘l hosil olin ... (-adi,- ing) [1; 8-б.].

Янги вазифа сифатида ҳикоя тузиш ва ёзиш юклатилади. Бу иш тури ўқувчиларда ижобий ҳис-туйғу ва мотивацияни уйғотади, нутқни яхши ривожлантиради. Ҳолбуки, болаларни миллий илдизлар билан боғлаш керак. Ўзбек тилини ўқитиш жараёнининг этномаданий йўналиши замонавий гуманитар таълимнинг муҳим ва долзарб вазифаси бўлиб, кўп миллатли минтақа, кўп тилли Ўзбекистон шароитида унинг аҳамияти ортиб бормоқда.

Этномаданий мерос, аввало, тилнинг лексик таркибида, унинг хусусий маъноларига кўра фарқланувчи жиҳатларини таҳлил қилишда, жумладан, сўз ва унинг лексик маъносини ўрганишда ўзбек халқнинг миллий руҳини ўзида мужассам этувчи матнларга мурожаат қилишни мисол тарзида кўрсатиш мумкин. Бунда ўзбекона анъана, қадрият, урф-одат ва маросимларнинг аҳамияти кўзда тутилади. Жараённинг муваффақиятли кечиши ўқитувчининг ижодкорлиги, ўз устида мустақил ишлаши, новаторлиги ва касбий тайёрлигига боғлиқ.

Ғ.Ҳамроев тўғри кўрсатганидек, ўқувчилар нутқий малакаларининг шаклланишига замин яратувчи фонетика, имло, талаффуз, пунктуация бўлимларини ўқитишда машқлардан мунтазам фойдаланиш, қолган бўлимларни эса, топшириқлар асосида ўқитиш самаралироқ натижа бериши асосий вазифадир [3; 14-б.].

Куйидаги вазифани бажариш орқали ўқувчилар матн тузиш кўникмаларини эгаллаб оладилар ҳамда боғланишли нутқ соҳибига айланади:

Биринчи чивин. Қуёш янада кучлироқ исий бошлади. Оқимлар мингирлади. Биринчи қушлар келди. Офтоб рўйчанг босган бурчак қақаради, бир чивин уйғониб кетди. У ерда қиш бўйи ухлади. Пашиша эмаклар чанг билан қопланган тош устига уйқусираб ва секин чиқибди. У деразадан офтобда қизишиб, учиб, мингиллаб гувиллади.

Оғзаки ҳикоя тузиш кўникмасини ҳосил қилиш учун ўқитувчи экскурсияларда ташкил этиладиган кузатишлардан фойдаланади.

REFERENCES

1. Rafiyev A., Muxamedjanova G., Ziyumamedova. O‘zbek tili. Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 3-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 129 b.
2. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфда она тилитаълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси. Пед. фан. номз. ... дисс. Тошкент, 2000. – 147 б.
3. Ҳамроев Ғ.Ҳ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг методик таъминотини такомиллаштириш. Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD). – Самарқанд, 2019. – 52 б.
4. 4.О.Ешимбетов. бошланғич синф ўқувчиларининг ўзбек тилидан боғланишли нутқини ривожлантириш методикаси. (таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида) Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дисс. Тошкент, 2022. – 119 б.

ДАРЛИК МАТЕРИАЛЛАРИГА ВЕРБАЛ-КОММУНИКАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА БОҒЛАНИШЛИ НУТҚНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ

Олимжон Ешимбетов

Тошкент гуманитар фанлар университети ўқитувчиси педагогика фанлари бўйича
фалсафа фанлари доктори PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8132628>

Аннотация. Дарлик материалларига вербал-коммуникатив ёндашув асосида боғланишли нутқни ривожлантириш усуллари бошланғич синф ўқувчиларининг боғланишли нутқини шакллантиришда сўз, ибора ва гап устида ишлаш алоҳида ўрин тутади.

Калим сўзлар: сўз, ибора, гап, нутқ маданияти, мотивация, ўқиш учун кўриш, таништирувчи ўқиш, ўрганувчи ўқиш, мутолаа маданияти.

METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF LINKED SPEECH ON THE BASIS OF A VERBAL-COMMUNICATIVE APPROACH TO TEXTBOOK MATERIALS

Abstract. Methods for the development of connected speech on the basis of a verbal-communicative approach to textbook materials work on words, phrases and sentences in the formation of connected speech of Primary School students occupies a special place.

Key words: word, phrase, sentence, speech culture, motivation, vision for reading, introducing reading, learner reading, Mutola culture.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ СВЯЗНОЙ РЕЧИ НА ОСНОВЕ ВЕРБАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА К МАТЕРИАЛАМ УЧЕБНИКА

Аннотация. Методы развития связной речи на основе вербально-коммуникативного подхода к материалам учебника особое место в формировании связной речи младших школьников занимает работа над словом, словосочетанием и предложением.

Ключевые слова: слово, фраза, предложение, культура речи, мотивация, видение для чтения, вводное чтение, обучающее чтение, культура чтения.

Бошланғич синф ўқувчиларининг боғланишли нутқини шакллантиришда сўз, ибора ва гап устида ишлаш алоҳида ўрин тутади. Бугунги кунда тил ўргатиш ғоясини нутқий фаолият сифатида амалга оширишга доир янги дастурлар жуда кўп. Шу боис ўзбек тили ва адабиёти, тарих, мусиқа, тасвирий санъат каби фанлар интеграциялашган дарслар ташкил этилмоқда. Бадиий матнни ўрганишда ўқувчиларнинг нутқ фаолиятини такомиллаштиришга доир ёндашувларни киритиш орқали самарали дарслар олиб борилмоқда. Ўқувчилар томонидан коммуникатив мақсадлар учун зарур бўлган тил бирликларини ўзлаштириш турли фикр, хис-туйғуларини ифодалаш ва ўқувчиларда тил ижодкорлиги салоҳиятини уйғотиш усуллари ишлаб чиқишни талаб этади.

О.Мўминова томонидан инсонлар ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг асослари тадқиқ қилинган изланишларида вербал, новербал ва паралингвистик таъсир каби воситаларнинг нутқ ўстиришдаги ўрни белгиланади. Жумладан, бунда атрофдагиларни сўзларга ишонтириш, руҳлантириш ва шу асосда ҳаракатга ундаш, шундан сўнг яхши таассурот қолдириш муҳимлиги баён этилади [2; 115-б].

Кўринадик, булар нутқий жараёни янада фаоллаштириб, ўзаро муносабатларни янада таъсирчан, яқинроқ ва мазмунли бўлишига ёрдам беради.

Бошланғич синф ўқувчилари нутқини ривожлантириш мазмуни ахборотни қабул қилиш, етказиш, тил воситаларидан мақсадга мувофиқ фойдалана билишни назарда тутди. Бунда методист С.Тажбенова томонидан назарий тушунчаларни ўзлаштириш ва амалда қўллашга ўргатишда ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқидаги хатоларни эътибордан четда қолдирмаслик боғланишли нутқ ўстириш тамойилларидан бири сифатида ажратилади [3; 63-б.].

Бошланғич синфларнинг “Ўзбек тили” ўқув фанидан давлат таълим стандартларида қуйидагилар белгиланган: “ўрганилаётган мавзулар доирасида 900–1000га яқин сўзни фаол ўзлаштириш ва тингланган мавзу ва вазиятлар доирасида ҳажми 50тагача сўздан иборат бўлган матннинг мазмунини тушуна олиш; ўзбек болалар ёзувчиларининг ҳажми 30–60тагача сўздан иборат бўлган шеърларидан 20–25тасини, ўзбек халқ оғзаки ижодидан 20–25та топишмоқ, мақол, тез айтишларни ёддан билиш, ўзбек халқ эртақларидан 8–10тасини ўқиш ва қисқача мазмунини эслаб қолиш; тинглаб ёки ўқиб эслаб қолинган ҳажми кўпи билан 40–50 тагача сўздан иборат матннинг тўла мазмунини ёки қисқартирилган ҳолда асосий мазмунини ҳикоя қилиб бериш; ўзлаштирилган сўзлар доирасида ўз фикрларини тасвирга таянган ёки таянмаган ҳолда ҳажми 20–50та сўздан иборат матн тарзида баён этиш; ҳажми 30–50та сўздан иборат ўқилган ёки тингланган матн мазмунини тўлиқ ёки қисқартирилган ҳолда ёзма равишда баён этиш; ҳажми 30–60 сўздан иборат матндан керакли маълумотни олиб, унга режа тузиш ва ёзиш; ўзи, ота-онаси, оиласи, мактаби, дўсти, шуғулланаётган иши, кўрган фильми ёки спектакли, ўқиган китоби ҳақида ҳажми 20–40 сўздан иборат ёзма маълумот бериш; ҳажми 35–50тагача сўздан иборат диктант ёзиш талаблари қўйилади” [4; 29–31-б.].

Қорақалпоғистон умумтаълим мактабларида боғланишли нутқни ривожлантириш икки тиллилик шароитига тўғри келади. Бунда қуйидагилар фаркланади:

- а) сўз устида ишлаш;
- б) ибора ва гап устида ишлаш;
- в) боғланишли нутқ устида ишлаш.

Бу ишларнинг барчаси барабар ривожланмоқда, гарчи улар бир вақтнинг ўзида субординация муносабатларида бўлса-да, сўзлар жумлалар учун, боғланишли нутқ учун материал беради. Ҳикояга тайёргарлик кўрилганда, иншога тайёргарлик ишларидаги каби сўз, ибора ва жумлалар устида иш олиб борилади. Ҳар қандай тилнинг сўз бойлиги ички тузилиши ва ўзаро муносабатлар нуқтаи назаридан тизимни ташкил этади. Замонавий ўзбек тилининг сўз бойлиги жуда мураккаб тизимдир. Келиб чиқиши, ишлатилиш соҳаси ва услубий аҳамияти жиҳатидан фарқ қилувчи сўзлар гуруҳларидан иборат. Тизим муносабатлари сўзларнинг бошқа гуруҳларига ҳам хосдир. Ўзбек тили лексикаси бизга ўзбекча сўзларнинг мураккаб ва хилма-хил мазмунига чуқур кириб бориш имконини беради. Бу эса миллий мактаб учун жуда муҳим.

Нутқ ўстириш ишлари нафақат, сўз устида ишлаш машқлари, балки ҳикоя, тасвирий ва муҳокама ҳаратидаги матнлар билан ишлаш орқали ҳам амалга ошади. Бу эса ўқувчига ҳар бир тасвирланаётган нарса-предметни тасаввур қилиш, у ҳақда хабар бериш ёки объектга нисбатан субъектнинг муносабатларини ифодалашда аҳамиятга эга. Айниқса,

тасвирий матнлар боғланишли нутқ қатори сезгирлик, кузатувчанлик, тасаввур, идрок ва фантазияни шакллантиришда ҳам самаралидир.

У.Ибрагимова тасвирий матн яратишни ёки тасвирлашни ўқувчиларнинг кузатувчанлик фаолияти билан боғлайди. Шу сабали ҳам ўқувчиларни ўзбек тили дарсларида кузатувчанликка одатлантириш, теварак-атрофга нисбатан эътиборли бўлишга ўргатиш, уларнинг муҳим хусусиятларини аниқлашга йўналтириш ҳақидаги фикрлари аҳамиятлидир. Бинобарин, ҳар иккала нутқ турига баравар эътибор қилишни талаб этади. Ишда таъкидланишича, аксарият ҳолларда ўқувчиларнинг ёзма нутқига эътибор ортиши оқибатида оғзаки нутқ унинг соясида қолиб кетиши ҳақидаги фикрлар ўз аксини топган [1; 11-б.].

Бизнингча, мана шундай камчиликларни бартараф этишда матнни қайта сўзлаш, шаклини ўзгартириб ҳикоялаш ва шеърый асарларни насрий йўсинда ифодалаш каби қулай имкониятлар ҳам мавжуд.

Ўзбек тили лексикасининг асосий хусусиятларидан бири тил бойлиги, гўзаллиги, таъсирчанлиги ва амалий аҳамиятидан иборат эканлигидир. Ўзбек тилида қўлланиладиган жуда кўп сўзлар турли луғат турларидан ташкил топган. Шунинг эса тутиш лозимки, фаол ишлатиладиган сўзлар бир нечта маънога эга. Бу эса яна минглаб янги лексик бирликларнинг пайдо бўлишига олиб келади, уларнинг маъноларини фақат контекстда тушуниш мумкин. Шунинг ҳам назарда тутиш керакки, изоҳли луғатларда кўп ишлатиладиган сўзлар кенг ўрин олган. Маълумки, тилда жуда кўп атамалар, географик номлар, касбга оид сўзлар, номлар ва бошқалар мавжуд. Лексик тизим ўзининг кенг қамровлилиги билан бошқа тил тизимларидан фонетик ва грамматик жиҳатдан (фонемалар сони чекланган, ўнлаб; нисбатан кам сонли тусловчи, турловчи ва сўз ясовчи қўшимчалар) фарқ қилади.

REFERENCES

1. Ibragimova U. Matn tuzish ko'nikmasini shakllantirish – yozma nutqni o'stirish vositasi // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2022. – № 1. – B. 10-12.
2. Mo'minova O. O'zbek xalq maqollarida nutq madaniyati // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2013. – № 3. – B. 115-117.
3. Тажбенова С.С. Она тили дарсларида ўқувчиларни назарий билимларни амалда қўллашга ўргатиш методикаси (таълим қозоқ ва ўзбек тилларида олиб бориладиган бошланғич синфлар мисолида). – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2010. – 76 б.
4. Толипова Р. ва бошқ. Ўзбек тили фанидан ўқув дастури (2–4-синф) //
5. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. Республика таълим маркази. - Тошкент: 2007. – Б. 29-31.
6. 5.О.Ешимбетов. бошланғич синф ўқувчиларининг ўзбек тилидан боғланишли нутқини ривожлантириш методикаси. (таълим қорақалпоқ тилида олиб бориладиган мактаблар мисолида) Пед. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дисс. Тошкент, 2022. – 119 б.

MILLIY TARBIYANING MAZMUNI VA MOHIYATI.

Mamarajabova Yulduz Chorshanbi qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim 20_04-guru talabasi

Bobomurodov Sirojiddin

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8132655>

Annotatsiya. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati haqida tushuncha, milliy qadriyatlar asosida shaxs dunyoqarashini shakllanish, milliy tarbiyada insonparvarlik tarbiyasining uyg'unligi.

Kalit so'zlar: Tarbiyaviy ishlar, konseptual, mustaqillik ma'naviyat negizi, iftixor, milliy qadriyatlarga hurmat, erkinlik va ozodlik, insonparvarlik, birodarlik va hamkorlik, ilmga mehr-muhabbat, imon va e'tiqod.

THE CONTENT AND ESSENCE OF NATIONAL EDUCATION.

Abstract. Understanding of the content and essence of national education, the formation of a person's worldview on the basis of national values, the harmony of humanitarian education in national education.

Key words: educational work, conceptual, independence the basis of spirituality, pride, respect for national values, freedom and liberation, humanism, brotherhood and cooperation, love for science, faith and faith.

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ.

Аннотация. Понимание содержания и сущности национального воспитания, формирование мировоззрения личности на основе национальных ценностей, гармонизация гуманного воспитания в национальном воспитании.

Ключевые слова: воспитательная работа, понятийная, самостоятельность-основа духовности, гордости, уважения к национальным ценностям, свободе и свободе, гуманизму, братству и сотрудничеству, любви к науке, вере и вере.

1. Milliy tarbiyaning mazmuni va mohiyati haqida tushuncha.

Respublikamizda mustaqillikning ilk yillaridanoq, jismonan sog'lom, ma'nan etuk shaxs yaratishga e'tibor berila boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi.⁷ Yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, shaxsiy ishiga maqsadli yondashuv hamda reja va amal birligi hissini uyg'otish zarur.

Respublikamizning 1-Prezidenti Islom Karimov shunday yozadi: «Islahotlarimizning muhim tamoyillaridan biri — aholining kam ta'minlangan tabaqasi, ya'ni qariyalar, nogironlar, bolalarni muhofaza qilish, ularni 'uxta himo'yalashdir. Yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi, ish bilan ta'minlanishida har tomonlama yordam berish davlatimizning muqaddas burchidir».⁸ O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlari inson manfaatlarini himo'ya qilishga, uni qadrlashga, har bir shaxsning barkamollashuviga qaratilgan. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "asarlarida shuningdek, O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustivor

⁷ Qurboniyazova Z. "Tarbiyaviy ishlar jarayonidatarbiyalanuvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari" nomzodlik dissertatsiyasi. T., 2002.

⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. - T: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.

yonalishi Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish tinchliksevar xalqimizning asosiy maqsadidir.

Tarbiya tushunchasi o‘zida kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy xatti-harakati dunyoqarashni, insoniyot e‘tiqod, burch va ma‘suliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarini yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Shu ma‘noda tarbiya deb tarbiyachi o‘zi hojlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun ularning ruho‘atiga ta‘lim maqsadga ko‘ra tizimli ta‘sir ko‘rsatishga aytiladi. Milliy pedagogika asoschilaridan biri Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir!” degan so‘zlari fikrimizga dalil bo‘ladi.

“Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi”da: “Hamma odamlar o‘z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo‘lib to‘g‘iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan. Binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlarcha ruhda munosabatda bo‘lishlari kerak”(1-modda).

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jino‘yatdir”(24-modda).

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ilgari surgan islohotlarning muhim tamoyillaridan biri ijtimoiy siyosatga qaratilishi bilan ajralib turadi. Bugun yurtimizda amalga oshirilgan “Onalar va bolalar” yili, “Inson manfaatlari“ yili, “Sog‘lom avlod” yili, “Homiylar va shifokorlar yili”, “Onalar va bolalar yili” “Barkamol avlod” yili, “ mustaham oila”, Sog‘lom ona va bola yili”yili davlat dasturlarida ishlar olib borildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yilni “Xalq bilan muloqat va inson manfaatlari yili deb e‘lon qilindi. 2019-yil “Faol tadbirkorlik Innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab quvvatlash yili ham davlatimizning xalqimizga qilayotgan g‘amxo‘rligi insonparvarlik timsolining negizi sifatida amalga oshirilmoqda.

1.“O‘zbek xalq pedagogikasi” qamrovi nihoyatda keng, bag‘oyat serqirra va serjilo tushuncha bo‘lib, u shu xalq paydo bo‘lgan butun davrni o‘z ichiga oladi.

Xalq donishmandligi va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotning barcha tomonlarini xalq oq‘zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo‘nalishlarini, diniy-axloqiy ta‘limotni qamrab olishi bilan harakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to‘lagan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma‘rifiy, estetik, ma‘naviy hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajriba xulosalarini lo‘nda, teran, donishmandnamo tarzda ifodalaydi.

<p>Conditions while, ‘arents and others: 'O ‘eo’le, read, understood, - I have not, but knowledge is delighted beating. Beating unforgivable and most brutal a’earance, and the lovers g‘ayrilik resistance to them, or even more hideous, vile, attem’ts were vanquished. We will learn that the man is not only a rebellion against the Islamic resistance, is also a violation of human rights. Disres’ectful to the elderly, young children and women offended by mankind is too indecent in any case be forgiven. Similar national values, traditions, customs and traditions, disres’ectful to the nation, beating</p>	<p>Odobsizlikning kechirib bo‘lmaydigan va eng va‘shiy ko‘rinishi, sevishganlarni g‘ayrilik qilib, ularga qarshilik ko‘rsatish yoki undan ham jirkanchlisi, ularni badnom qilib, beobro‘ qilishga urinishdir. Bilim olaman degan odamga qarshilik ko‘rsatish, islomga nisbatan isyon bo‘libgina qolmay, inson huquqini poymol qilish hamdir. Kattalarga behurmatlik, yosh bolalar va ayollarni hafa qilish ham o‘ta odobsizlik bo‘lib, insoniyat tomonidan hech bir vaziyatda kechirilmaydi. Shunga o‘xshash milliy qadriyat, urf odat va an‘analarni behurmat qilish millatga nisbatan odobsizlikdir⁹.</p>
---	--

⁹ Educational Psychology: A Tool for Effective Teaching. Chapter One

O'zbek xalq pedagogikasi xalqning oilaviy – maishiy hayoti, ta'lim-tarbiyaviy, axloq-odobga oid hayotiy yo'l-yo'riqlari, usullari, ibratli tajribalariga oid turfa misollar – dostonlar, ertaklar, mehnat – mavsumiy marosim qo'shiqlar, afsonalar, maqollar, matallar, hikmatlar, allalar, to'y va aza qo'shiqlari, olqish va qarq'ishlar «Navro'z», «Mehrjon», bahor, kuz, qish, yoz aytim – qo'shiq ashulalari va shu kabi nasriy asarlar bilan boyitilgan. Qur'oni Karim, Hadis hamda sharh mutafakkirlarining axloq-odobga oid qarashlaridan xalq pedagogikasi oziq oladi, boyiydi.

Xalq bisotidagi eng yaxshi tabarruk so'zlar – duo-olqishlar ham tarbiyaga qaratilgan.

Xalq pedagogikasida yaxshi so'z, duo-olqishning ta'sir kuchi, tarbiyaviy ahamiyati, inson ma'naviy ustuvorligi, iymon-e'tiqod butunligi, qisqasi kishilarning har tomonlama mukammal harakati borasida tutgan o'rniga alohida ahamiyat beriladi.

O'zbek xalq pedagogikasi ayrim shaxslar yoki bir-ikki jamoa tomonidan yaratilmagan. Uni xalqimiz asru-asrlar bilan o'rganuvchi hayotida o'zining boy hayotiy tajribalari, farzandlar xatti-harakatborasida tutgan tutumlari, sa'yi-harakatlari, yo'l-yo'riqlari, aql-zakovotlari bilan yaratgan. Ayni vaqtda o'zbek xalq pedagogikasi o'z rivojida boyib, mukammallashib borishda ilm-fanning boshqa sohalaridan, ya'ni mumtoz adabiyot, san'at, oq'zaki ijod, elshunoslik, udumshunoslik, qadrshunoslik, odatshunoslik, ruhshunoslik kabi sohalar baq'rida shakllanib, ular bilan bevosita aloqada bo'ladi eng yaxshi namunalarini o'ziga qabul qilib oladi.

Mashg'ulotdan ko'zlangan maqsad:

Ta'limiy maqsad - "Ilmiy dunyoqarash" tushunchasining mohiyatini, uni shakllantirish vazifalari, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning metod va vositalarini bilib olish. Ilmiy dunyoqarash negizida aks etuvchi sifatlar (onglilik, g'oyaviy yetuklik, boy tasavvur, mantiqiy tafakkur) haqida ta'limotga ega bo'lish. Aqliy tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari va mazmuni, aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shakllari, metod va vositalari bilan tanishish

Mashg'ulotning borish.:

Yosh avlodda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamma davrlarda millatning ilg'or kishilari diqqat markazida bo'lib kelgan. Insoniyat boshidan kechirgan barcha tuzumlarda davrning o'qimishli, ziyoli, bilimdon kishilari dunyo ilm faniga umuminsoniy madaniyatiga salmoqli hissalarini qo'shganlar. Bilim ilmiy dunyoqarashning asosi bo'lib hisoblanadi. Bilim olish albatta yoshlikdan boshlanadi. «Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqshdir»,- deydi dono xalqimiz. Bilimli kishi hech qachon tarix sa'ifalaridan, xalqimizning qalbidan o'chmaydi. Shunday kishilar qatorida Sharq musulmon dunyosi mutafakkirlaridan al - Kindiy, G'azzoliy, Beruniy, Xorazmiy, Naqshbandiy, Yassaviylarni, G'arb allomalari I. Kant, F. Gegel, L. Feyerbax, A. Shohengauerlarning nomlarini tilga olmasdan bo'lmaydi. Eng buyuk allomalari donishmandlar, o'zlarining noyob asarlari, ta'limotlari bilan insoniyat rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Ular umrlarini ilmu fanga bag'ishlab, bu yorug' olamdan ketar chog'i hayot ilmini chuqur egalladingizmi? degan savolga hech narsa bilmay ketya'man degan ekanlar. Ne ajab, hayot ilmi sirli va murakkabki, anglab yetmoqqa butun insoniyat umri ham yetmaydi.

Dunyoqarash mohiyati va uning turlarini yoritishda quyidagilarga e'tibor berilishi lozim: Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir.

Dunyoqarash - faqat insongagina xos xususiyat bo'lib, hayvonot dunyosi boshqa narsa, buyumlar va mavjudodlar uchun bu hol yotdir. Ularda dunyoqarash kishilarning olam va uning o'zgarishi, rivojlanishi haqidagi ilmiy falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik diniy, qarashlari va tasavvurlari tizimidan iborat. Demak, dunyoqarash bu olam haqidagi yaxlit umumiyashtirilgan bilimlar to'plamidir. Kishilar tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risida qancha ko'p ta'limotlarga, bilimga ega bo'lsa, ularning dunyoqarashi ham shu darajada mukammal va 'uxta bo'ladi. Avvalo ta'kidlash lozimki, ilmiy dunyoqarash turlicha buladi. Turli kasb egalari turli xil dunyoqarashga ega bo'ladi.

Dunyoqarash kishilarda olam haqida yaxlit umumlashtirilgan bilimlar, g'oyalar turkumini hosil qiladigan ularni muayyan ijtimoiy guruhlar, sinflar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, davlatlar maqsadidan kelib chiqib, baholaydigan va shunga qarab hayotdagi o'z o'rnini, amaliy faoliyat yo'nalishlarini, maqsadlarini aniqlab olishga imkoniyat beradigan ko'p qirrali va sermazmun tushunchadir.

Mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarash turlari haqida to'xtab o'tiladiladi.

Hozirgi kunda kishilarning ongi dunyoqarashida yangicha fikrlash yo'sini must ahamlanmasa, milliy istiqlol g'oyasi, mazmuni va mohiyti ularga tushuntirilmasa katta o'zgarish sodir bo'lmasligi mumkin. Hozirgi muhim dolzarb masalalardan biri kishilarning eskicha dunyoqarashini o'zgartirish iqtisodiy, siyosiy, madaniy jabhalarda fikrlashni o'rgatish, mustaqillikni mustahamlashda o'z haq - huquqlarini anglab olish va no'yxshov holatlarning hayotga kirib qolmasligiga qarshi kurashishga undashdan iborat.

Ong va milliy ong tushunchalari taxlil qilinadi:

Ongni arabcha «aql» so'zidan olingan, deb ta'kidlaydi bir qator olimlar. Lekin ong va aql iboralari o'rtasida farqlar ham bor. Odamning fikrlash qobiliyati nazarda tutilganda, ong va aql atamaları bildirgan ma'nolar bir-biriga mos keladi, ong ham, aql ham odam miyasining ma'sulidir. «Odam onglaydi (anglaydi), aql yuritadi, fikrlaydi. Ong, shuningdek, kishining ruhiy, ruhoni, siyosiy, falsafiy nuqtai nazarlari, diniy, badiiy qarashlarining ham majmui hisoblanadi»¹⁰

Milliy ong - bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning o'zaro ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy sohalarda faollik darajasi.

«Milliy ong - O'zbekiston mustaqilligini mustahamlashning samarali omillaridan biridir». Milliy ongni davr talabi darajasiga ko'tarish uchun davlatimizda katta ishlar amalga oshirilmokda. Bunda ta'lim-tarbiya muassasalari-ning roli ayniqsa muhimdir.

Mafkura (arabcha «mafkura» - nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmui.

II.1. Turli dunyoqarashlar mohiyatini yorituvchi rivoyatlardan misollar keltirish lozim. Bunda quyidagi kabi rivoyatlar taxlil etiladi: Qadimiy turkiy xalqlarda ham shunday mifologik tizim mavjud bo'lgan. Misol tariqasida yer, osmon, yulduzlarning paydo bo'lishi, tuzil va o'zaro munosabati haqidagi mifologik naqlarni keltiramiz:

1. Yer(ning) ustidan osmon bo'yi yo'yilib turadi. Eng balandda, o'rtada Temir qoziq yuldo'zi turadi. Jami yulduz yer bilan temir qoziqning (atrofida) chir aylanadi. Yerning ostidayam bir temir qoziq yuldo'zi bor. Ikki temir qoziq tortishib, yer qimirlamay turadi.

2. Ho'lkar avval yetti yulduz bo'lgan. Birovini Yetti qa roqchi olib, oltitasi qolgan. Yetti qa roqchi Ho'lkar bilan Qambarning o'rtasida tushib, ularni yuz ko'rmas qilib qo'ygan. Avval ular bir-birini yaxshi ko'rishgan. Hozir Ho'lkar botsa, Qambar chiqadi. Qambar botsa, Ho'lkar to'g'adi. Ho'lkar- qiz, Qambar- yigit deyishadi. Oxiri qiyomatda Ho'lkar bilan Qambar ko'risharmish.

3. Osmon qavat-qavat bo'lar ekan. Nechanchidir qavatida bir daraxt bor ekan. Har bir odamning oti yozilgan barg shu daraxtda bo'lar ekan. Odam o'lsa, barg so'lib, o'zilib tushar ekan. Barg yerga tushayotganda, biror odamga tegib ketsa, shu odamning qulog'i chimirlar ekan. Shunday vaqtda kalima qaytarishi kerak ekan.

Turli dunyoqarashlar mohiyatini yorituvchi rivoyatlardan misollar keltiring dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan o'quvchilar uchun o'qituvchining hayotiy tajribalari, shaxsiy na'munalari ham estetik tarbiyaviy ta'sir kuchiga egaligini unutmazlik kerak. Shuning uchun

• ¹⁰ Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. Т.: «Ўзбекистон», 199. 30- бет.

o'qituvchining jamoaga nisbatan diqqat motivlarini shakllantirishda avvalo tarbiyachining estetik jihatdan tarbiyalanganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Estetik tizim tarbiyalanganlikning yuqori darajasini belgilovchi vosita bo'lib, uning talablarini bir maromda o'quvchi ongiga singdirib borish uchunhar bir o'quvchi, sinf, maktab jamoasi harakat qiladi. Estetik tizimda ulkan tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun o'qituvchidan nihoyatda mohirona talabchanlik, ijobiy ta'sir etish vositalarining birligiga erishish talab etiladi:

- tarbiyada o'quvchilar jamoasi muhitining birligi;
- o'quvchilar mustaqilligi va o'z-o'zini tarbiyalashning birligi;
- fuqarolik va insoniylikning birligi;
- talabchanlik va ishonch birligi;
- o'quvchi shaxsiga ehtiyotkorona munosabat;
- jinsiy tafovutlarni hisobga olish;
- bolalarning axloqiy va jismoniy sog'ligi haqida qayg'urish;
- axloq me'yorlariga amal qilish¹¹.

Tarixdan ta'lim ijtimoiy jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi bilan tarbiya tizimi o'zgarib borgan kabi yoshlarga jismoniy tarbiya mazmunini shakli ham o'zgarib borgan. O'zbek xalq 'oetik ijodi ham shu orqali xalq pedagogikasida yoshlarning jismoniy tarbiyasi eng aktual muammolardan biri sifatida katta o'rin egallaydi.

Xalq ijodining deyarli hamma janrlari-maqollar, ayniqsa ertak va dostonlarda uchraydigan mehnatsevar, chidamli, qo'rqmas, botir, jasur va qa'ramon kishilar sifatida tasvirlanadigan asar qahramonlarining hech biri q'ayri – tabiiy kuchga ega bo'lgan tasodifiy odamlar bo'lmay, balki, albatta ma'lim oila yoki ayrim tajribaga ega bo'lgan shaxslar qo'lida muayyan maqsadga muvofiq alohida va tegishli tarbiya olishlari natijasidagina jismoniy harakat erishgan kishilardir. Boshqacha qilib aytganda, xalq pedagogikasida bolalarning jismoniy harakati, jismoniy mehnatga qobiliyatli bo'lib yetishishlari, mustaham iroda, muayyan fe'l-atvor ham hatti-harakatlarga ega bo'lib yetishishlarini jismoniy tarbiyaning ma'suli deb qaraladi.

3. Milliy tarbiyada insonparvarlik tarbiyasining uyg'unligi.

Xalq pedagogikasi insonparvarlik, baynalmilallik, xushyorlik, zukkolik, to'qirlik kabi o'zbek xalqining o'ziga xos fazilatlarini uluq'laydi. Sharq odobnomasi ibodatnomasidan doimiy ravishda bahramand bo'lgan, sharqona xalq pedagogikasi boyliklaridan oziqlangan va uning eng go'zal namunalari o'ziga qabul qilib olgan. O'zbek xalq pedagogikasi turkiy xalqlar otabobolarimiz uzoq moziyda yaratgan va ko'z qorachiq'iday asrab avaylab saqlab kelgan ota meros, sharq xalqlarining boy va betakror odobnoma va odatnomasi, 'andnomalar, folklor ijodi namunalari asosida shakllanganligi, rivojlanganligi va boyib borganligini e'tirof etish birdan bir to'q'ri yo'ldir.

O'zbek xalq pedagogikasining ajralmas qismi oq'zaki ijod namunalari odob-axloq, ta'lim-tarbiya borasidagi 'andnomalar bag'oyat hayotiy xalqchil va ibratlidir. Xususan an'anaviy xalq dostonlari, qo'shiqlar va ertaklar odobnoma darslari ekanligini folklorning boshqa katta-kichik janrlari boshdan-oyoq 'andnoma ekanini unutmasligimiz kerak.

Darhaqiqat haqiqiy insonni shakllantiruvchi odob-axloq haqidagi xalq qarashlari, xalq oq'zaki ijodi asarlari xususan dostonlarda yashab keladi, ularda odob-axloq mavzusi o'ta donishmandlik bilan keng ishlanganiga guvoh bo'lamiz.

Buning uchun O'zbekiston dostonchiligiga oid qodir baxshi Ra'imovdan yozib olingan va nashrga tayyorlangan mashhur «Go'ro'g'li» silsilasiga kiruvchi «Zaydikon» dostoniga nazar tashlash kifoya. Ushbu dostonida mashhur bahodir va yurt boshliq'i Go'ro'g'lining bolaligi va ilk orzu umidlari, doimiy hamroxi va yo'ldoshi q'irotda ega bo'lib, or-nomus qadr-qimmat va sha'n uchun boshdan kechirgan dastlabki q'aroyib bahodirliklari, ko'rsatgan shijoat-jasratlari yuksak

¹¹Peter Menck. Looking Into Classrooms: Papers on Didactics.

badiiy saviyada aks etgan.

O'zbek xalq oq'zaki ijodi to'q'ridan-to'q'ri bola tarbiyasiga ta'sir etish vositasi bo'lib xizmat qilgan va xizmat qilib kelmoqda. Bolalarni to'qirligini tarbiyalashda va zexnini o'tkirlashda, fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda topishmoqlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Maqollar odob-axloq qoidalarini o'z ichiga olgan hayot tajribasidan o'tgan eng kichik janrdir. Deylik, «Ishlaganning oq'zi oshga tegar, ishlamaganning boshi toshga tegar», maqolida xalqning uzoq asrlik hayotiy tajribalari mujassamlashgan. Bundan tashqari maqollarda turmush hodisalari bilan boq'liq bo'lgan Vatanparvarlik, mardlik, qa'ramonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, vafodorlik kabi axloq me'yorlari ma'qullanadi, egrilik, yomonlik, umidsizlik, yolq'on gapirish, yalqovlik, ochko'zlik kabi illatlar qoralanadi.

Aql bilan odob egizak!

Aqli naqlab so'zlar,

Aqlsiz laqillab so'zlar!

Barcha yaxshilik xushxulqlikda!

Bolam odam bo'lsin desang, yoshlikdan odob ber!

Yolq'on-yashiq gapirma, so'ng uyalib o'tirma!

Xulq har kim o'z qiyofasini ko'rsatadigan ko'zgudir.

Singari maqollarda odob-axloq mavzulari o'z ifodasini topgan.

Xalq oq'zaki ijodida ayniqsa qo'shiqlar alla, yor-yor o'lan, aza-yig'i kabilar xalq hayotining hamma tomonlarini qamrab olgan. Bu qo'shiqlarda oilaning kundalik odob qoidalariga odatlantirish tamoyillari ifoda etilgan.

Masalan, «Alla»ni olaylik.

Onaning orzu-havasi, niyatlari, bolalari kelajagi haqidagi maqsad-istaqlari u kuylagan allalarda ifodalanadi. Farzandining baxtli – saodatli bo'lishini soq'lom va 'axlavon, jasur bo'lib voyaga yetishini orzu qiladi. Ularda tarbiya ruhi ham aks etadi. Donishmandlar «Alla aytmagan onaning farzandida mehr kuchli bo'lmaydi» deydilar.

Ertak va dostonlar bolani har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda ertak aytib bermay bola o'stirgan ota-ona va kattalarni yoki ertak eshitmay ulq' yoshlarni tasavvur qilish qiyin. Ertak va dostonlarni tarbiya uchun muhim tomoni shundaki, unda xalq oq'zaki ijodidagi topishmoq, maqol, qo'shiqlar kabi janrlar jamlangan bo'lib, ular pedagogik g'oyalarni mukammal roq ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Ertak va dostonlar bola tarbiyasining deyarli hamma tarkibiy qismlari; jismoniy va aqliy kamolatiga ilm va hunarga muhabbat, mehnatsevarlik, ma'naviy sifat hamda nafis didlarning tarkib topishiga oid ko'pdan-ko'p pedagogik materiallarni uchratish mumkin.

O'zbek xalq pedagogikasi yuqoridagi kabi folklor janrlari bilan bir qatorda bola yashab turgan muhit-sharoitning vositachi roli ham mavjudki, ular yoshlarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda katta va samarali tarbiya vositasi hisoblanadi.

Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini farovon hayot asosini qurish demakdir. Sog'lom avlodni tarbiyalash ikki jihatdan – yosh avlodni jismonan sog'lom etib tarbiyalash va ularni ma'naviy barkamol etib voyaga yetkazishni o'zida mujassamlashtiradi. Inson ma'naviy barkamol bo'lishi uchun eng avvalo jismonan soq'lom bo'lishi lozim. Bu oddiy hol, ammo u jamiyatimiz rivoji kelajagini ta'minlovchi omildir.

Insonparvarlik(«inson»-arabcha; «parvar»-fors-tojikcha; «dik»-o'zbekcha-kishiga g'amxo'rlik, gumanizm)-odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniyikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi.

Insonparvarlik g'oyalari uzoq o'ziga xos tarixga ega hisoblanadi. Insonparvarlik g'oyalari, baxt-saodat va adolatga erishish orzu-havaslarini xalq og'zaki ijodiyotida, adabiyotda, diniy va falsafiy ta'limotlarda uzoq o'tmishdan beri o'z aksini topib kelmoqda.

Insonparvarlikning ko`rinishlaridan biri bu insonni ulug`lashdir. Inson tabiatning gultoji, u har qancha maqtovga lo`yiq deb sanaladi. Bu haqda Qur'on va hadislarida, mutafakkirlar ijodida ibratli fikrlar aytilgan.

Biz bu o`rinda «Sharq Gegeli» degan sharafli nomga sazovor bo`lgan faylasuf shoir, mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedil so`zlarini keltirib o`tamiz. Bedil insonni irqiy, milliy, diniy e`tiqodlaridan qat'i nazar hurmat va e`tirofga sazovor ulug` zot deb biladi va bu haqda shunday debdi: «Har kimki, hazrati insonni sajdaga sazovor demasa, u mal`undir». Ushbu fikr har qanday davr uchun ham adolatli, ardoqli va olijanobdir. O`zbek jadidlari (Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat va boshqalar) va ma`rifatparvar shoirlar (Muqimiy, Furqat, Avaz O`tar o`g`li va boshqalar) ijodida ham insonparvarlik g`oyalari davom ettirilib, yuksak insoniyik, odamiylik fazilatlarini kuylangan.

Insonparvarlik yaxlit dunyoqarash tizimi sifatida birinchi bor evryaning Uyg`onish davrida, ya`ni XV—XVII asrlarda shakllangan. Forobiyning fikricha, baxt-saodat, osoyishta hayot, kishilar o`rtasidagi hamkorlik jarayonida insonning ko`p ijobiy fazilatlarini va xislatlarini asosida insonlar jamoasi yuzaga keladi. Forobiy insonlarning inoq va do`st yashashi mamlakatda Xalq uchun katta foyda keltirishini isbotlashga intilgan va tinchlikni qat`iy ravishda quvvatlab, butun faoliyatini inson xizmatiga qaratgan. Insonparvarlik tamoyili – odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularning haq-huquqlarini hurmat qilish, baxt-saodati, har tomonlama kamol topishi hamda ijtimoiy hayotda inson uchun qulay shart-sharoitla yaratib berish haqida g`amxo`rlik qilishni ifodalovchi tuyg`ular, qarashlar majmuidir.

Insonparvarlik tamoyili o`zining huquqiy ifodasini «Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi» (1948 yil 10 dekabr), «O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» (1992 yil 8 dekabr) kabi xujjatlarda o`z aksini topgan. Xushmuomalalik – o`zga kishilarga bo`lgan ichki hurmatning tashqi ko`rinishi. Uning 10 ta belgisi bor: insof, aql, ilm, oliyanoblik, ko`rkam fe`l, yaxshilik, sabr, shukur, muloyimlik.

“Hayo imondandir. Hayoli, odoli bo`lmoq har vaqt xayrli ishlarga sabab bo`ladi”(xadislardan).

“Vafosizda hayo yo`q, hayosizda vafo yo`q. Hayosiz inson – imonsizdir, imonsiz esa inson emasdir”(Navoiy).

“Insonda doimo turadigan husn va latofat hayo ila iffatdir. Hayosiz yuz jonsiz jasad kabidir”(Ibn Sino).

Sabr –qanoat – hayot quvonchiliklarini chidam bilan engishdir.

“Kuchli odamlar hamisha oddiydirlar” (L.Tolstoy).

A.Navoiy inson taqdiri, Xalq manfaatlarini, mamlakat haqida g`amxo`rlikni asosiy masala qilib qo`o`gan. U dunyoda eng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg`a surgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq, insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. «Odamiy ersang demagil odami, oniki yo`q xalq g`amidin g`ami».

Insonparvarlik keng ijtimoiy fikrni qamrab olib, adabiyot, falsafa, san`at va boshqa sohalarida namoyon bo`ldi.¹² XIV—XVII asrlarda insonparvarlik Italiyada, keyinchalik esa evryaning boshqa mamlakatlarida tarqala boshladi.

Shundan keyingi asrlar davomida insonparvarlik g`oyalari katta tarixiy yo`lni bosib o`tdi. Jaxon ilmiy, siyosiy va ijtimoiy falsafasida insonparvarlik «**gumanizm**» nomi bilan rivojlandi. Bu atama birinchi marta XIX asr boshlarida fanda ishlatila boshlandi va XX asrning o`rtalarigacha jamiyatdagi adolatsizlikni, tengsizlikni tanqid qilishga qaratildi. Insoniyatning XV asrdan to XX asrning o`rtalarigacha bo`lgan tarixi kishilarni asta-sekin insonparvarlik g`oyalari o`zlashtirishga olib keldi va bu g`oyalarni inkor etish insoniyatni taxlika ostonasiga keltirib qo`o`ishini ko`rsatdi.

Shu asosda ikkinchi jaxon urushidan keyingi davrda jaxon taraqqiyotida tub o`zgarishlar yuz bera boshladi va haqiqiy insonparvarlik tomon jiddiy qadamlar qo`yildi.

Bolalarimizning yoshlik paytlaridan boshlab, ma`naviy axloqiy tarbiya negizi, shuningdek insonparvarlik sifatlarini tarbiyalash ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirib beruvchi kelajakdagi barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini berdi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag`isiilangan majlisidagi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so`zi gazetasi, 2017.16 yanvar
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O`zbekiston", 2017.
3. O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi. O`zbekiston Respublikasi 'rezidentining farmoni.O`zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to`plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va Xalq farovonligining garovi. "O`zbekiston", 2017.
5. Mavlonova R.A.,D.Abduraximova.Pedagogik mahorat.O`quv qo`llanmaT.:Fan va texnologiya 2012-yil
6. Mavlonova R Raxmonqulova R, Normurodova N.R, Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik Nizomiy nomidagi TD`U riziografida nashr qilindi. Toshkent, 2014 y.
7. Mavlonova R.A.,Normurodova N.Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Oquv qo`llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y.
8. Nishonova S,Imomova M, XasanovR. pedagogika tarixi. Darslik T.: O`qituvchi 1996-yil
9. Ochilov H.M. Muallim qalb me'mori. O`quv qo`llanmaT.;O`qituvchi. 2004-yil
10. Egamberdieva N, Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O`zMKNT.: 2009-yil.
11. pedagogo' and 'ractice: Teaching and leaming in Secondarop Schools.
12. Michael Uljens.Sciiool Didactics and Learning: A School Didactik Model Framing an nalo'sis pedagogical Im'lications of Learning Theorop 2008-y.
13. John Deweop, How wc lhink(1910).Martin,Jay.The education of John Deweo.(2003) Columbia niversitop press.Gutek Gerald L.(2009)New perspectives on filosof and education pearson education Inc.
14. Xoshimov K., S.Ochilov S.O`zbek pedagogikasi antologiyasi.T.:O`qituvchi 2010y.

Internet saytlari

15. 1.<http://zivonet.uz>
16. 2.<http://edu.uz>
17. 3.www.nadlib.uz
18. 4.<http://teoriva>.

ХАЛҚАРО БОЗОРГА ЧИҚИШДА ISO 22000 ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ МЕНЕЖМЕНТ ТИЗИМЛАРИНИНГ ЎРНИ

Исломов Соҳиб Яхшибекович

Тошкент давлат аграр университети биринчи проректори

Ражабов Донёрбек Бахтиёрович

Тошкент давлат аграр университети талабаси

Бекметова Чаросхон Шихназар қизи

Тошкент давлат аграр университети талабаси

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8135052>

Аннотация. ISO 22000 Озиқ-овқат хавфсизлик менежменти тизимлари маҳсулот етказиш занжирига хавфсизлик талабларни қўяди ва уларни бажарилишини талаб этади. Ушбу мақолада мазкур стандарт талабларини жорий этиш ва сертификатлаштириш ташилотга қандай устунликлар бериши ёритилган ҳамда республикамиздаги қўлланилганлик даражаси ва сабаблари кўрсатилган.

Калим сўзлар: Жаҳон савдо ташкилоти, мувофиқлик, рақобатбардош, озиқ-овқат, занжир, менежмент тизимлари, ISO 22000, талаблар, хавфсизлик, жорий этиш, сертификатлаштириш, устунлик, сабаблар.

THE ROLE OF ISO 22000 FOOD SAFETY MANAGEMENT SYSTEMS IN ACCESSING THE INTERNATIONAL MARKET

Abstract. ISO 22000 food safety management systems establish safety requirements in the supply chain and require compliance. This article describes the benefits of implementing and certifying the requirements of this international standard, as well as the extent and reasons for its application in our country.

Keywords: World Trade Organization, compliance, competitiveness, food, chains, management systems, ISO 22000, requirements, safety, implementation, certification, priority, reasons.

ISO 22000 РОЛЬ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ НА МЕЖДУНАРОДНОМ РЫНКЕ

Аннотация. Системы менеджмента безопасности пищевых продуктов ISO 22000 устанавливают требования безопасности в цепочке поставок и требуют соответствия. В этой статье описываются преимущества внедрения и сертификации требований этого международного стандарта, а также степень и причины его применения в нашей стране.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, соответствие, конкурентоспособность, продукты питания, цепочки, системы управления, ISO 22000, требования, безопасность, внедрение, сертификация, приоритет, причины.

Асосий мақсадларимиздан бири – ташқи бозорга сифатли ва сертификатланган маҳсулотларни “ўзбек бренди” номи билан олиб чиқишдан иборат.

Ш.М.Мирзиёев

Экспорт имкониятларни ошириш ва бозор географиясини кенгайтиришнинг асосий йўлларида бири бу – мамлакатимизни “Жаҳон савдо ташкилоти”га аъзо бўлишидир.

Давлатимизни Жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиши 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Харакатлар стратегия”си ва “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид дастурларида белгиланган.

Бу борада миллий қонунчиликни Жаҳон савдо ташкилоти (ЖСТ) битимларида назарда тутилган нормалар билан ўзаро таққослаш, уйғунлаштириш ва мувофиқлаштириш ҳамда халқаро ташкилотлар ва ривожланган мамлакатлар билан ҳамкорликда аъзо бўлишнинг устунликлари, оқибатларини ўрганиш ва таҳлил қилиш, ҳамда миллий манфаатли шартларда ҳуқуқий ва институционал ислоҳотларни амалга ошириш бўйича тақлифларни назарда тутувчи чора-тадбирлар дастури тайёрланиши кутилмоқда.

Шу билан бирга, рақобатбардош маҳсулот ишлаб чиқариш, миллий стандартларни халқаро стандартлар талаблари билан уйғунлаштириш, маҳсулотни сертификатлаштириш, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишга халқаро менежмент тизимларини жорий этиш ва сертификатлаштириш каби мураккаб ва зарур вазифалар амалий аҳамиятга эгадир. Корхоналарда халқаро стандартлар талабларига мувофиқ менежмент тизимларининг жорий этилиши рақобатбардош бўлишнинг кафолати ҳисобланади ва истеъмолчиларни сифатли ва экологик хавфсиз маҳсулотлар билан таъминлаш имконини беради.

Глобал озиқ-овқат саноати доимий равишда ривожланиб бормоқда, хусусан хом-ашё етиштириш, ишлов бериш, ишлаб чиқариш, сақлашдан то истеъмолчиларга қадар бўлган маҳсулот етказиш занжирига қўйилган.

ISO 22000 Озиқ-овқат хавфсизлиги менежменти тизимлари талабларини жорий этиш ва сертификатлаштиришга бўлган эҳтиёж кўпаймоқда. ISO 22000 гуруҳи халқаро стандартлари озиқ-овқат хавфсизлигига қўйилган талаблар асосида устунликка эга бўлиб, бутун маҳсулот етказиш занжирини қамраб олади ва хавфсизликни таъминлайди. Чунки хавф озиқ-овқат занжирининг ҳар қандай босқичида юзага келиши мумкин.

ISO 22000 Озиқ-овқат хавфсизлик менежменти тизимлари маҳсулот етказиш занжирига хавфсизлик талабларини қўяди ва уларни бажарилишини талаб этади. Мазкур халқаро стандарт талаблари маҳсулот етказиш занжирисидаги барча хавфларни аниқлаши, назорат ўрнатиши ва уларни олдини олиши, бартараф этиши ёки қабул қилинадиган даражагача камайтириш билан муҳимдир.

Бу талабларни бажариш озиқ-овқат маҳсулотлари етказиш занжирисидаги бутун жараёнлар оқимини ўз ичига олади.

ISO 22000 Озиқ-овқат хавфсизлик менежменти тизимларини жорий этиш ва сертификатлаштириш корхонага қандай устунликни беради:

- корхонани мазкур халқаро стандартга мувофиқлигини кафолатлайди;
- иккинчи томон текширувларни камайтиради;
- жаҳон (глобал) талаблари даражасига мувофиқлаштиради;
- тегишли қонун ва меъёрий талабларни бажаришни исботлайди;
- маҳсулотга қўйилган талабларни менежмент тизимларига қўйилган талаблар билан тўлдиради;
- аҳоли касалаликка чалинишлари олди олинади ва саломатлик яхшиланади;
- ишонч ортади;
- истеъмолчилар сони ортади ва географияси кенгаяди;

-корхона имижига кўтарилади.

Ҳозирги кунда ISO 22000 Озиқ-овқат хавфсизлиги менежменти тизимлари талабларини жорий этиш ва сертификатлаштириш давлат сиёсати даражасига кўтарилиши аҳоли ўртасида озиқ-овқатда касалланишларни олди олинишига ва саломатлигини яхшиланишига, экспорт салоҳиятини ошишига олиб келади.

ISO 22000 Озиқ-овқат хавфсизлик менежменти тизимлари халқаро стандарти юртимизга келиб келгунга қадар қуйидаги тарихи такомиллашув босқичларини босган:

-1920 й. АҚШ, Сут саноатида фойдаланиладиган технология воситаларига ягона стандарт «Стандарт 3-А» талаблари қўйилди;

-1959 й. АҚШ, NASA ни буюртмаси бўйича АҚШ космик дастури доирасида Pillsbury тадқиқот компанияси озиқ-овқатларни бузилиши ва зарарланиш хавфсизлигини баргараф этиш учун НАССР етти принципи асосида тизим ишлаб чиқиш талаби қўйилди;

-1967 й. АҚШ, АҚШ (FDA) да озиқ-овқат ва дори-дармон воситаларини бошқаришда, озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш тажриба сифатида мустақил равишда сертификатлаштириш дастурларини қабул қилди.

-1974 й. АҚШ, АҚШ да паст кислотали консерва ишлаб чиқариш учун НАССР тизимини қўллаш мажбурий талаб этилди;

-1993 й. ЕЭС, НАССР га ўтиш халқаро тан олинди. «Гигиеник озиқ-овқат маҳсулотлари бўйича», 93/43/ЕЭС Директиваси қабул қилинди, 1996 йилдан бошлаб назорат қилишда НАССР принципларини қўллаш мажбурий талаб этилди;

-2001 й. Женева, Стандартлаштириш бўйича халқаро ташкилоти ўзининг ISO 15161 «Озиқ-овқат ва ичимлик ишлаб чиқаришда ISO 9001:2000 ни қўллаш бўйича раҳбарий кўрсатмалар» стандартини ишлаб чиқди, қайсики ISO 9001 ва НАССР принципларини бирлаштиришга қўйилган биринчи қадам;

-2005 й. Женева, ISO 22000:2005 «Озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлиги менежмент тизимлари. Озиқ-овқат маҳсулотларини яратиш занжирида иштирок этувчи ҳар қандай ташкилотга талаблар. ISO/TS 22004:2005 «Озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлиги менежмент тизимлари. ISO 22000:2005 ни жорий этиш бўйича қўлланма»;

-2018 й. Женева, ISO 22000:2018 Озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлиги менежмент тизимлари. Озиқ-овқат маҳсулотларини яратиш занжирида иштирок этувчи ҳар қандай ташкилотга талаблар.


Республикамиздаги озиқ-овқат саноати корхоналари ичида дастлаб 2008 йилда Қашқадарё вилоятидаги «Косон ёғ-экстракция» ОАЖ корхонаси ISO 22000 озиқ-овқат хавфсизлиги менежменти бўйича сертификатлаштирилган.

Яъни бу йилги танловнинг биринчи ўрин соҳиблари Президент совғаси “Spark” автомашинаси, иккинчи ўрин даъвогарлари 30 миллиондан (аввалги йилларда 2-ўринга компьютер жамланмаси берилган), 3 ўрин эгалари 15 миллион (ўтган йилларда 3-ўрин эгаларига 200 дона китоб жамланмаси берилган)дан пул мукофотлари, ҳар бир иштирокчига “Ёшлар кутубхонаси” рукни остида чоп этилган китоблар жамланмаси ва қатор ҳомий ташклотларнинг махсус мукофотлари билан тақдирланади ва бундай эътибор зукко китобхонларга берилган муносиб баҳо бўлади.

Қорақалпоғистон Республикаси Тўртқўл туманидан Шаҳзода Каримбоева ва Самарқанд вилояти Нарпай туманидан Моҳинисо Шомуродова Зулфия номидаги давлат

мукофоти билан тақдирланганлари ҳам китоб ўқиган билимли ёшларимизнинг қўлга киритган муносиб зафарларининг амалдаги исботидир.

Яна бир хушxabар. Сирдарёда “Энг яхши китобхон оила” танловида ғолиб чиққан оилага Президент совғаси “Spark” автомашинаси топширилгани адабиётга, шеърятга ошно бўлган китобсевар оилалар учун янада руҳий кўтаринкилик бахш этади.

Ибройим Юсупов номидаги қорақалпоқ тили ва адабиёти фанини чуқур ўргатишга ихтисослаштирилган мактаб-интернат ўқувчиси 14 ёшли Айнуранинг қорақалпоқ адабиёти ҳақидаги ўзига хос беғубор мушоҳадаси, бадий гимнастикага оид теран мулоҳазалари, қорақалпоқ халқининг қадимги қадриятларидан жўшиб ҳикоя қилишини, Огаҳий номидаги она тили ва адабиёти фанини чуқурлаштириб ўқитишга ҳамда хорижий тилларга ихтисослаштирилган мактаб-интернати ўқувчиси Жавоҳир Каримовнинг даниялик ёзувчи Ханс Христиан Андерсен ҳаётини ва ижодий фаолиятини худди ёзувчининг ёнида юриб, барча тафсилотни кўриб тургандек ўзгача мароқ билан таърифлашини тингласангиз, Бухоро шаҳар 30-ўрта мактаб ўқувчиси Мухлиса Насимованинг “Отага таъриф”ини кизларининг китоб мутолаа қилишлари учун барча имкониятларни яратиб бераётган оталарга бўлган муносабатни эшитсангиз беихтиёр китоб инсонни улғайтириб қўйишига, доно ва мулоҳазали қилиб қўйишига яна бир бор амин бўласиз.

Ғалвир сувдан кўтариладиган куни 10-14 ёш тоифасидаги ёш китобхонлар беллашувининг тақдирлаш маросимида 1 ўринни эгаллаган Фарғона вилояти, Ўзбекистон тумани 30 умумтаълим мактаб 7-синф ўқувчиси Муҳаммадфозил Исмоиловнинг ҳаяжонли сўзлари бугун зални қалқитиб юборди:

Азизлар,- дейди Муҳаммадфозил, - мен буюк Соҳибқирон Амир Темурнинг “Курашиб эришилмаган ғалаба-ғалаба эмас”, деган ҳикматли сўзларига амал қилдим. Мендан бугун Ватан ҳақида сўрашди, менимча Ватан бу менинг отамаконим Ўзбекистоним, мен унга лойиқ фарзанд бўлишга ҳаракат қиламан.

Бизга яхши оналарни беринг, шунда биз яхши болалар бўлиб етишамиз, дейилган пурҳикмат сўзлар айтилмаган. Она кўргон. Она оилага фақат яхши ниятни олиб кира олгани учун, отанинг бор диққату эътиборини боланинг билимига қаратгани учун ҳали вояга етмаган 15 ёшга ҳам тўлмаган болалар катта-катта заковат, тафаккур майдонларида куч синашишга жасорат топаётдилар.

“Ёш китобхон” кўрик-танловнинг 15-19 ёш тоифасидаги беллашувларида Самарқанд вилояти Оқдарё туман 48 умумтаълим мактаби ўқувчиси Гулсанам Абдулҳакимованинг мутолаа борасидаги ўзига хос қарашлари, ўзбек ва жаҳон адабиёти дурдоналарига берилган шоирона таърифлар, ижодий ёндашувлар, руҳий кечинмаларнинг ёруғ таърифларида, Сурхондарё вилояти Денов туманидаги 2-сонли ихтисослаштирилган мактаб-интернати ўқувчиси Шохсанам Ҳазраткулованинг онага, Ватанга, элу юртга эҳтиром туйғулари йўғрилган шеърини сатрларида, Хива шаҳридаги 121-сон кўзи ожиз мактаб-интернати ўқувчиси Умиджон Қутлимуродовнинг бениҳоя кучли хотира ва зеҳн билан адабиётга ва китобга берган таърифларида ҳазрат Жалолоддин Румийнинг

“Ҳотами мулки Сулаймондир илм,
Жумла олам жонига жондир илм”

деган ҳикматларини, илмли кишиларнинг биринчи дўстлари китоб экани яна бир қарра ўз тасдиғини топди.

15-19 ёш тоифасидаги кўрик-танловда Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети талабаси Мафтуна Умаровага Президент совғаси “Spark” автомобилнинг калити топширилди, Қашқадарё вилояти, Қамаш тумани 38-ўрта мактаб ўқувчиси Муниса Норқобилова эса фахрли 2-ўринни (30 миллион пул мукофоти), Андижон вилояти, Қўрғонтепа тумани 11- умумтаълим мактаби ўқувчиси Дилнавоз Ҳайитахматова 3-ўринни (15 миллион пул мукофоти)ни қўлга киритишди. Тинимсиз меҳнат, уйқусиз тунлар, билимга ташналик мана шу азиз ёшларни халқнинг эътирофига, дўстларнинг олқишига, ота-оналарнинг шукрона дуоларига ошно қилди.

“Инсонни, унинг маънавий оламини кашф этадиган яна бир қудратли восита борки, у ҳам бўлса, сўз санъати, бадиий адабиётдир. Адабиётнинг инсоншунослик деб, шоир ва ёзувчиларни эса инсон руҳининг муҳандислари, деб таърифланиши бежиз эмас, албатта”(2), шунинг учун ҳамхалқимиз барча китобхон ёшларнинг келгусида Ўзбекистон илму маърифатини юксалтириш учун зукко олим, таниқли ёзувчи, хассос шоир бўлишни ният қилган орзулари руёбида кўрса не бахт!

“Ёш китобхон” танловининг 20-30 ёшлилар ўртасидаги қизгин мусобақалари Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Юсуф Ҳос Ҳожиб, Аҳмад Яссавий сингари улуг мутафаккирлар, Жек Лондон, Александр Пушкин, Лев Толстой, Чингиз Айтматов сингари хориж ва қардош адабиёт вакиллари, Эркин Воҳидов, Ўткир Ҳошимов, Эшқобил Шукур, Назар Эшонқул, Абдуқаюм Йўлдошев каби адабиёт дарғалари асарларининг моҳирона таҳлили ва китобга бўлган

20-30 ёш тоифасидаги Андижон вилояти Олтинкўл тумани 35-умумтаълим мактаби ўқитувчиси Фотима Мамдалиева 1-ўринни эгаллаб, Президент совғаси “Spark” автомашинасини қўлга киритди, Бухоро давлат Университети 2 курс магистри Шамшоода Ҳамдамова фахрли 2-ўринни (30 миллион пул мукофоти), Низомий номидаги Тошкент давлат Педагогика Университети Термиз филиали талабаси Санжар Шотемиров фахрли 3-ўринни (15 миллион пул мукофоти) эгаллади.

2.Каримов И.А.-“Юксак маънавият – енгилмас куч”,-Тошкент, 2008. 136 – бет.,

Бир сўз билан айтганда юртда ниҳоятда ҳикматли жараён-бутун юртнинг катта бир ҳикматли жараён -беназир апрелнинг дастлабки кунлари бутун мамлакатга янги замон, янги Ўзбекистоннинг янги қаҳрамонларини элга танитди. Ўз меҳнатининг самарасидан, вақтларини фойдали ишга сарфлашга ҳаракат қилган 42 нафар ёшларнинг ҳаммалари “Ёшлик” журналининг китоблар жамланмасидан, йиллик обуна ваучерларидан журнал ташкилотчиларининг ўзларидан қабул қилиб олишди.

Одамлар тўрт нарсани қидиришга мойилдирлар:биринчи-яхшилик ва ёмонликни ажратишга ёрдам берадиган илми, иккинчи –тириклик ўтказишга керак бўладиган асбоб-анжомларни, учинчи-кайфиятини яхши тутадиган воситаларни, тўртинчи – одамлар билан муросани.(3)

Бизнингча ана шу тўрт нарсани яхши китобдан топиш муҳимроқдир.

3.Абдулбаракот Қодирий. (“Саодат йўли”,О.Салимов, М.Бекмуродов ва бошқалар,Тошкент, Ғ.Ғулом номидаги матбаа ижодий уйи,49б.)

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида” Фармойиши. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 38-сон.
2. 2018 йилнинг 12 майида Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Буюк алломалар, адиб ва мутафаккирларимиз ижодий меросини кенг ўрганиш ва тарғиб қилиш мақсадида ёшлар ўртасида китобхонлик танловларини ташкил этиш тўғрисида”ги қарори.
3. Мирзиёев Ш.М. “Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қураимиз”, Тошкент, “Ўзбекистон, 2017.
4. Каримов И. А. “Юксак маънавият енгилмас куч”, Тошкент, ”Маънавият”, 2008.
5. “Саодат йўли”, О.Салимов, М.Бекмуродов ва бошқалар, Тошкент, Ғ.Ғулом, 2016.
6. Чўлпон. Асарлар, 1У жилд, Тошкент, Академия 2016.

O'ZBEK TILINING RIVOJ TOPISHI

Mamatkarimova Baxriniso

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8140274>

Annonatsiya. O'zbek tili turkiy tillar orasida eng qadimiy tillardan biri bolib, sheva va dialektlarga juda boy til. Har bir viloyat, har bir tuman, har bir qishloqning so'zlashuv uslubi o'zining shevaviy xususiyatlari bilan bir biridan ajralib turadi, O'zbek tilidagi shevalar va ularning xususiyatlari, tasnifi ustida V.D. Radlors, ser Ali Lapin, I.I. Yudaxin, Y. D. Polirano, g'ozim Olim Yunusov, Sh. Shoabdurahmonov, F. Abdullayev, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov, B. To'ychiboyev, B. Hasanov, S. Ibrohimov, A. Ishayev, S. Rahimov, kabi bir qator olimlar ilmiy ish olib borishgan. O'rganilmagan sheva va dialektlarimiz juda kop, ular xalq orasida yashab kelmoqda.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, turkiy, sheva, suhbat, tojik, ruslar.

THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. The Uzbek language is one of the oldest among the Turkic languages and is very rich in dialects. The speech style of each region, district, and village differs from each other with its own dialectal features. V.D. Radlors, Sir Ali Lapin, I.I. Yudakhin, Y. D. Polirano, Ghazi Olim Yunusov, Sh. Shoabdurahmonov, F. Abdullayev, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov, B. Toychiboyev, B. Hasanov, S. Ibrohimov, A. Ishayev, S. Rahimov, etc. conducted scientific work. We have a lot of unstudied dialects and dialects, they live among the people.

Key words: Uzbek language, Turkish, dialect, conversation, Tajik, Russians.

РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. Узбекский язык является одним из древнейших среди тюркских языков и очень богат диалектами. Речевой стиль каждой области, района, села отличается друг от друга своими диалектными особенностями. Радлорс, Сэр Али Лапин, И.И. Юдахин, Ю. Научную работу вели Д. Полирано, Гази Олим Юнусов, Ш. Шоабдурахмонов, Ф. Абдуллаев, А.К. Боровков, В.В. Решетов, Б. Тойчибоев, Б. Гасанов, С. Иброхимов, А. Ишаев, С. Рахимов и др. У нас очень много неизученных диалектов и наречий, они живут среди людей.

Ключевые слова: узбекский язык, турецкий, диалект, разговор, таджикский, русские.

D. Polivanov klassifikatsiyasida 3-dialekt, qipchoq lahjasining beshinchi tipidagi janubiy o'zbek "j" lovchilar guruhiga mansubligi ifodalangan, A. K. Borokovning tasnifida. Surxondaryo o'zbek shevalari Shayboniy. O'zbek yoki "J" lovchilar guruhiga mansubligi dialekti deb ko'rsatiladi, g'oxi Olim Yunusov tasnifida o'zbek qipchoq lahjasiga kiritilgan. S. Raximov shu tasniflarga tayanib Surxondaryo O'zbek shevalarini quyidagicha klassifikatsiya qiladi:

1. "J" lovchi O'zbek shevalari (qipchoq lahjasiga xos shevalar).
2. "y" lovchi O'zbek shevalari (qorluqlar lahjasiga xos shevalar)
3. Ikki tilda so'zlovchi shevalar

Bu tasnifga 4 tur "a" lovchi yoki "o" lovchi shevalarini kiritsak bo'ladi, "o (a) nor"

"a (o) Ima", "xa (o) la", "ha (o) zir" va boshqalar. Muzrabot tumani Surxondaryo viloyatining janubiy tomonida 30 km uzoqlikda joylashgan Termiz shahridan. Aholining ko'pchilik vakili Qo'ng'iro't urug'ining turli daha vakillar hisoblanadi. Bu tumanda boshqa millat vakillari ham yashab kelmoqda Turkmen, rus, koreys, tatar, tojik kabi ko'plab millat vakillari ham

yashaydi shu boisdan, aholi shevaga oid sözlari ham. Suhbat. jarayonida ba'zi sözlari aralashib ketgan. Masalan, olma so'zi alma tarzida ham talaffuz qilinadi. Tojik millati vakillarida a harfiga moyil so'zlar talaffuz qilinadi, shu boisdan, bu so'zni ikki til vakillari bir-biriga moslab talaffuz qilishgan, o'zbekcha so'zlarimiz juda kamayib ketgan desa ham boladi, sözlarimizning kelib chiqishi qadimiy turkiy tilga borib taqaladi, sof turkcha so'zlar bir bo'g'im ikki undosh va Bitta unlidan iborat so'zlardir. Masalan:

Bor, kel, kut, tur, yur kabi so'zlar. yurtimizda ko'plab, ayniqsa, Rus bosqinlari. sabab ko'palab so'zlar chetdan kirib kelgan. Mustaqilligimizdan keyin ham afsuski Biz o'z tilimizda tōliq gaplasha olmaymiz. Tilimizda rus millatiga mansub so'zlarni. Ko'p ishlatamiz. Ongimizda ishlatayotgan so'zlarimizning ko'proq ruscha varianti saqlanib qolgan. Ba'zida esa o'zimizni boshqalardan ajralib turish uchun ham boshqa tilda harakat qilamiz, Ruslar O'zbekcha gaplashish uchun shu tilni organishga ham qiziqarmikan. Balkim shu haqida ham bir o'ylab körish kerakdir, Bizning aktyorlarimiz, qo'shiqchi yoki boshqa shunga o'xshash mashhur insonlarimiz asosan rus tilida gapirishadi, lekin birorta mashhur rus millati vakili biron-bir joyda özbek. tilida gapirganini aynan men ko'rmaganman.

Meni özimning fikrim shuki o'z tilimizda ko'proq gapirishimiz kerak. suhbat jarayonida ham o'z tilimizda ko'proq gaplashishga harakat qilishimiz kerakli deb o'ylayman, Amaliyotda o'rgangan hududimda ya'ni Muzrobod tumanida 37 ta mahalla bor. Shulardan Fidokor, At Termiziy, Yurtim jamoli, xalqabod, Buyuk ipak yo'li, yangi diyor, shaffof, yo'lchi kabi bir qancha mahallalardan ma'lumot

to'pladim, Hududiy jihatdan tuman cho'li mintaqa hisoblanadi. Aholi turli millat vakillari bölib, boshqa joylardan köchib kelishgan, ushbu tuman vakillari bu tumanni qadimda soliq oluvchilar nomidan kelib chiqib (Muz-boj) shunday nomlangan deb ma'lumot berishdi.

Muzrabot tumanining har bir mahallasida yashovchi fuqarolarning shevaga oid sözlari ham bir-biridan farq qiladi. sababi, bu mahallalarning ba'zilari bir millat vakili bir qavmga oid, boshqa mahalla fuqarolari esa boshqa millat, bilan qavmdan ekani bilan farqlanadi.

Jumladan, Muzrabot tumanida joylashgan Fidokor, Buyuk ipak yo'li qisman At- Termiziy mahallasida Qo'ng'iro't urug'I qavmidagi aholi vakillari yashashadi.

Ulardagi shevaga oid so'zlari o'sha mahalla vakillarining özizagina xos. Masalan, moyak - tuxum, shipirtki - supurgi, satil-paqir, zardoli-o'rik kabi shunga oid so'zlari bor. Tumanning markazi Xalqabod bo'lib, shaffof, At Termiziy, yurtim jamoli mahallalarda ko'proq adabiy tilda gaplashishga odatlanishgan. Buyuk ipak yoli, Fidokor kabi qishloq joylarida asosan "J" lovchi insonlar yashashadi. ularning chorvachilik, dehqonchilik, asosan, sholi ekish bilan shug'ullanishi va shu sohalarda ularning shevaga oid so'zlari bo'lgani bois boshqalardan ajralib turadi. Masalan; katman- ketmon kabi so'zlarni ishlatishadi.

Yangi diyor mahallasida qatag'on vakillari yashashadi. alohida o'z mahallasi bor. Anorzor, Madaniyat kabi mahallalarida. asosan tojik millati vakillari yashashadi. Ularning kelib chiqishi Boysun tumanidan. balik, shu tomonlarga ko'chib kelib qolishgan, Darband mahallasi ham bölib, ularda asosan. Darband millat vakillari yashashadi. Shu tumanda yashab kelgan tojik millati vakillarining ham shevalari bir-birlarinikidan ancha farq qiladi.

Dehqonobod mahallasi aholisi asosan Qashqadaryo viloyatidan ko'chib kelishgan xalqdir. Ushbu Dehqonobod mahalla fuqarolari asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadilar. Piyoz, sabzi, karam, paxta, bug'doy, ko'kat kabi mahsulot ekib, dala ishlari bilan shug'ullanishadi. Bu

mahallada shevaga oid so'zlardan ko'p foydalanishadi, Masalan; yo'q s'zini jo'q deyishadi. Avvallari insonlar ko'pincha o'zlarining urug'idan bo'lgan oila vakillari bilan, asosan, qarindoshlar quda - andachilik qilishardi.

Hozirgi kunda bu qoida tubdan o'zgargan, shu sababli ham tilimizdagi so'zlar bu tumanda. ancha aralashib ketmoqda. Xulosa qilib aytganda ushbu tumanning chekka qishloq tomonlari "J" lovchi vakillari hisoblanadi. Ba'zi joyda yashochilar esa, ko'proq adabiy tilda gaplashadi. Shuni ham aytish kerakki, O'zbekistonda adabiy tilda gaplashish borasida Surxondaryo viloyati 1- o'rinda turadi.

Muzrabot tumani shevasi asosida tuzildi.

1. Basalqa – tengqur. Masalan: Basalaqlar - bir yig'ilib, bolalikni esladik,
2. Bo'rta -- ko'kish malla. Masalan: Sodiq boboning bo'rta sigiri bor.
3. Guppicha-qalin paxtali nimcha, Masalan: onam singlimga guppicha tikib berdi.
4. Hayot - tomorqa, Masalan: singlim hayotdan olma terib keldi.
5. Jona – tog' yonbag'ri masalan: tog'jonasidagi uy tog'amlarniki.
6. Kunchi- rashkchi, baxil. Masalan, Qoshning kunchi bo'lsa, kun yo'q
7. Nonto'shama - nonpalov. Masalan: qotgan nonni uvol qilmay nonto'shama pishirsangiz yoshu qarining og'ziga yoqadi.
8. Sonsiz - tayinsiz, Masalan: Toshpolatning xotini sonsiz chiqdi-da,
9. Ushoqmol – qo'y, echki. Masalan: Amirboyning ushoqmoliga bo'ri oralabdi.

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA YANGICHA TA'LIM TIZIMI VA YANGICHA YONDASHUVLAR

Mamarajabova Yulduz Chorshanbi qizi

Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Bobomurodov Sirojiddin

Ilmiy rahbar. TerDPI Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8140325>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar va bugungi kundagi ahamiyati va ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, shuningdek ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan eng muhim hujjat va qarorlar qabul qilish, oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrl aydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: konsepsiya, integratsiya, prinsiplar, ta'lim turlari, shakllar, professional ta'lim, oliy ta'lim.

A NEW EDUCATION SYSTEM AND NEW APPROACHES IN RENEWING UZBEKISTAN

Abstract. In this article, the reforms in the field of education in Uzbekistan, which are being updated, and their importance today, as well as the development of science and innovation, as well as the adoption of the most important documents and decisions aimed at increasing the quality of education, setting priorities for the reform of the higher education system, and independent thinking highly qualified Information is provided on raising the quality of personnel training to a new level.

Key words: concept, integration, principles, types of education, forms, professional education, higher education.

НОВАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И НОВЫЕ ПОДХОДЫ В ОБНОВЛЯЕМОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье реформы в сфере образования в Узбекистане, которые проходят актуализацию, и их значение на сегодняшний день, а также развитие науки и инноваций, а также принятие важнейших документов и решений, направленных на повышение качество образования, определение приоритетов реформирования системы высшего образования, самостоятельное мышление высококвалифицированных специалистов. Предоставляется информация о поднятии качества подготовки кадров на новый уровень.

Ключевые слова: концепция, интеграция, принципы, виды образования, формы, профессиональное образование, высшее образование.

Bugun yangi O'zbekiston barcha sohalari chuqur islohatlar maydoniga aylanmoqda. Bu jarayonda ilmiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamaslikning iloji yo'q.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Prezidentimiz

ta'kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalar bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki butun xalqimiz bu fikrni qo'llab quvvatlaydi”. Ta'lim sohasida amalga oshirayotgan islohatlarning asosiy qismini, albatta oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish **konsepsiyasi** mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun devorcha vazifasini bajarib beradi. Ushbu hujjatning vazifaslari;

1. Intellektual taraqqiyotni jadallashtirish.
2. Raqobat bardosh kadrlar tayyorlash.
3. Ilmiy va inovatsion faoliyat.
4. Xalqaro hamkorlik.
5. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish.

Xususan **Konsepsiya** – tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi.

Bugungi kunda esa yangi-yangi o'quv yurtlari dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun so'ngi 5-yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi jumladan xorij universitetlarining filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga yetdi.

Ta'lim sohasini rivojlantirish bosqichi ham aynan XXI asrda ya'ni “Axborot texnologiyalar” asri ilm-fanni rivojlantirish zaruriyat deb qaraldi. Mazkur qonunga muvofiq ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar:

- Ta'lim tizimi
- Ta'lim turlari
- Ta'lim shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Shuningdek qonunga ko'ra:

- Davlat va oliy ta'lim
- O'rta maxsus
- Professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi.

Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sisчилari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Shunga ko'ra ta'lim to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi va amalyotda joriy qilinishi eng muhim qarorlardan biri bo'ldi.

Xususan O'zbekistonda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

O'zbekistonda o'qish majburiy hisoblanadi. Ta'lim tizimi esa yagona va uzluksiz bo'lib, ta'lim turlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- Maktabgacha ta'lim va tarbiya
- Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim
- Professional ta'lim
- Oliy ta'lim

- Oliy ta'limdan keyingi ta'lim
- Kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish
- Maktabdan tashqari ta'lim

Maktabgacha ta'lim-bolaning sog'lom va har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi. Undan o'qishga qiziqishga intilishni uyg'otadi. Bu kabi muassasalarning faoliyatini tashkil etishda 1) mahallalar 2) jamoat 3) xayriya tashkilotlari 4) xalqaro fondler faol ishtirok etadi. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalari yangi tarmoqlari

- a) "Xonadon bog'chasi"
- b) "Bolalar bog'chasi"
- c) "Boshlang'ich maktab" majmulalarini keltirishimiz mumkin.

O'qish muddati 3 yil bo'lgan majburiy **o'rta maxsus kasb hunar ta'limi** uzluksiz tizimining mustaqil turi sinalib umumiy o'rta ta'lim negizida tashkil qilindi. O'rta maxsus kasb hunar ta'limining 2 xil yo'nalishi

1. Akademik litsey
2. Kasb hunar kollejlari

Akademik litsey- o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda ularning intellektual rivojlanishiga ega bo'lgan, yuridik maqomga ega bo'lgan muassasadir. Akademik litseyda o'quvchilarga o'zlarini tanlagan yo'nalish (+gumanitar, texnika, agrar va b.q) sohalar bilim saviyalarini oshirishga va kasb hunarli ko'nikmaga ega bo'ladilar. Akademik litseylar oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Davlatlar orasida O'zbekiston Respublikasining ta'lim tuzumi yagona va yaxlit hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim tizimlari faoliyati bevosita boshqaruvi 2 vazirlik

10. Xalq ta'lim vazirligi
11. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi amalga oshiradi.

X.T.V (xalq ta'lim vazirligi) maktabgacha, maktabdan tashqari muassasalar va umumiy ta'lim maktablari faoliyati uchun mas'uldir. X.T.v o'quvchilar malakasini oshirish 5 OTM va 16 instituti mavjud. Vazirlik joylarda tegishli ta'lim muassasalari faoliyati metodologik boshqaruv viloyat, tuman va shahar xalq ta'lim bo'limlariga egadir.

O'zbekistonda ta'limni sifatini oshirish va ta'lim sohasini isloh qilish, va uni nazorat qilish maqsadida ta'limni boshqarish organlari tuzilgan. Vazirlar Mahkamasi ta'lim tizimining umumiy boshqaruvini amalga oshiradi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi, Oliy ta'lim muassasalari

- a) Toshkent Islom Universiteti
- b) Xalqaro mashhur xorijiy OTM lar (MBU, Westminster va b.q) filiallari boshqaradi.

Yana qo'shimcha sifatida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizmi quyidagilardan iborat:

- Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari.
- Ta'lim tizimi ishlashi va rivojlanishi uchun kerakli tadqiqot ishlarini olib boruvchi pedagogic tashkilotlar.
- Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari shuningdek ular boshqaruvi ostida korxonalar, muassasa va tashkilotlarni o'z ichiga oladi.
- Ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini olib boorish.
- Davlat ta'lim boshqaruv organlariga rahbarlik qilish.

- Ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amlga oshirish
- Ta'lim muassasalarini yaratish, qayta tashkil etish va bekor qilish tartiblarini belgilash.
- Davlat ta'lim standartlarini belgilash kabi kompetensiyalar belgilangan.

O'zbekiston ta'lim tizimida salohiyatli kadrlar tayyorlash ta'lim sifatini 1 bosqichga ko'tara oladigan ta'lim tarmog'ini shakllantirish maqsadida O'zbekiston 2020-yil 25-noyabr kuni "Finlandiyaning ta'lim tajribasini o'rganish" va uni O'zbekistonda keng joriy etish bo'yicha onlayn uchrashuv bo'lib o'tdi. Xalqaro onlayn uchrashuvda O'zbekistondan bosh vazir o'rin bosari Behzod Musayev, Ta'lim inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev, Xalq ta'limi hamda Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirliklari mutasaddilari ishtirok etdi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlq'r Finlandiya ta'lim tizimi har tomonlama eng yetuk deb tan olingan. Finlandiya o'quvchilari ham ta'lim sifati bo'yicha eng yaxshi natijalarga erishib kelmoqda. Finlandiya asosiy ta'lim to'g'risidagi qonun (1938-yil) qabul qilinib 3 ta asosiy maqsad belgilanib berilgan.

1. O'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni berish
2. Jamiyatda rivojlanish va tenglikni targ'ib qilish hamda;
3. Butun mamlakat bo'ylab ta'lim sohasida tenglikni ta'minlash.

Kabi maqsad va vazifalarni O'zbekiston ta'lim tizimiga olib kirish va raqobardosh jamiyatni shakllantirish ko'zda tutildi. Finlandiya ta'lim tizimini o'rganish, O'zbekiston ta'lim sohasida yangicha yondashuvlar olib kirishning ilk bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek 30-oktabr kuni Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazigan videosektor yig'ilishida maktab ta'limi bo'yicha ilg'or davlatlar tajribasini o'rganish, xususan Finlandiya ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlarini va muvaffaqiyatlarini o'rganish, o'quvchilarni fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish bo'yich vazifalar belgilab berildi.

Shu o'rinda Shavkat Mirziyoyev fikrlarini aytadigan bo'lsak "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm, fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chanbarchas bog'liqdir" deb bildirgan fikrlari, biz kabi yosh avlod, bo'lajak pedagoglarni, ta'lim sifatini oshirishga istiqbolli ta'lim texnologiyalari, yangi axborot kommunikatsiya vositalari, inovatsion pedagogic yechimlar izlab topishga, shuningdek yurtimizga yangi Uyg'onish davri ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratish ushbu maqolada eng birinchi vazifa ekanligi ta'kidlanadi.

REFERENCES

1. SH.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz"
2. SH.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik"
3. Isoqjon Muhammadjon o'g'li "Ta'lim va tarbiya"
4. Hilola Umarova "Jahon miqyosidagi ta'lim"

MEHNAT TA'LIMI VA TARBIYASINING UZVIYLIGI.

Mamarajabova Yulduz Chorshanbi qizi

Termiz davlat Pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim 20_04-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8141586>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehnat ta'limi va tarbiyasining uzviyligi, mehnatga munosabat, Qoniqarli shart-sharoitlar, Integratsiyalashgan tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish omillari.

Tayanch iboralar: texnologiya, mehnatga munosabat, ta'limi va tarbiyasi, Integratsiya.

CONTINUITY OF LABOR EDUCATION AND EDUCATION.

Abstract. In this article, the continuity of Labor Education and training, attitude to work, satisfactory conditions, factors for improving the effectiveness of integrated educational activities.

Base phrases: technology, attitude to work, education and upbringing, integration.

НЕПРЕРЫВНОСТЬ ТРУДОВОГО ВОСПИТАНИЯ И ОБУЧЕНИЯ.

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы преемственности трудового обучения и воспитания, отношение к труду, удовлетворительные условия, повышение эффективности комплексной воспитательной деятельности.

Базовые фразы: технология, отношение к труду, образование и воспитание, интеграция.

Mehnatga munosabat insonning o'z jismoniy va ma'naviy kuchlarini eng ko'p darajada namoyon qilishga, o'z bilim va tajribasi qobiliyatlaridan muayyan miqdoriy va sifat natijalariga erishish uchun foydalanishga intilishni (yoki uning yo'qligini) ifodalaydi.

Mehnat faoliyati jarayonida odamlar ijtimoiy munosabatlarga kirishib, bir-birlari bilan o'zaro hamkorlik qiladilar. Eng muhim munosabatlar insonning insonga, insonning mehnatga bo'lgan munosabatlari bo'lib, ular mehnat xususiyatining asosiy belgilari hisoblanadi. Agar insonning ishlab chiqarish vositalari bilan o'zaro harakatga kirishuvi unda kasb qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirsa, mehnatga va bir-birlariga bo'lgan munosabat esa muayyan ijtimoiy xislatlarni vujudga keltiradi. Kasbiy mahorat va ko'nikmalari xodimlarning jismoniy imkoniyatlari bilan birgalikda ishlab chiqarishning asosiy harakatlantiruvchi kuchini hosil qiladi. Biroq mehnat faoliyatining natijasi faqat kasb mahorati va jismoniy imkoniyatlarning rivojlanish darajasiga emas, balki insonning mehnatga bo'lgan munosabatiga ham bog'liqdir. Bu munosabat ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin. U ishlab chiqarish munosabatlari tizimiga katta ta'sir o'tkazishi mumkin. Uning mohiyati xodimning zaruriy ehtiyojlari va shakllangan manfaatdorligi ta'sirida uning mehnat qilish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan iboratdir.

Mehnatga munosabat insonning o'z jismoniy va ma'naviy kuchlarini eng ko'p darajada namoyon qilishga, o'z bilim va tajribasi, qobiliyatidan muayyan miqdoriy va sifat natijalariga erishish uchun foydalanishga intilishini ifodalaydi. Bu munosabat mehnat muomalasida, uning sabablarini asoslash va baho berishda namoyon bo'ladi.

Mehnatga munosabat - murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, uch element birligi: mehnat muomalasi sabablari va yo'nalishlari; real yoki haqiqiy mehnat muomalasi; xodimlarning mehnat faoliyatiga og'zaki baho berishidan iboratdir.

Birinchi (sabab) element xodim mehnat faoliyatida asoslanadigan (amal qiladigan) mehnat sabablari va yo‘l-yo‘riqlari bilan bog‘liqdir. Ular mehnat muomalasining undovchilari, mehnat xatti-harakatlari va amallarini, birgalikda esa sabablar o‘zagini hosil qiladi.

Ikkinchi element xodimlarning mehnat faolligidan iborat bo‘lib, muomalaning shunday shakllari, chunonchi ishlab chiqarish me‘yorini bajarish darajasi; bajarilayotgan ish sifati; intizomlilik; tashabbuskorlik; texnikaviy ijodda qatnashish; ko‘p stanokli xizmat ko‘rsatish; ilg‘or ish usullarini egallash; xom ashyo va materiallar, yoqilg‘i, elektr quvvati va hokazolarni tejab-tergab sarflashda namoyon bo‘ladi.

Uchinchi (baho berish) elementi xodimlarning sub‘ektiv kechinmalaridan iborat. U ularning bajariladigan ishi bilan bog‘liq ichki holatini aks ettiradi. Har qanday faoliyat mehnat sub‘ektining o‘ziga baho berishicha noto‘liq va notugal bo‘ladi.

Mehnatga munosabatni shakllantirishda sababni asoslash muhim bo‘lib, muayyan mehnat muomalasini shart qilib qo‘yadi. Sababni asoslash xodim o‘zining mehnat muomalasida amal qiladigan mehnat sabablari va yo‘l-yo‘riqlarida ifodalanadi. Xodim mehnat muomalasi jarayonida mehnatga baho beradi. Mehnatga baho berish -xodimning ichki holati bo‘lib, u uning mehnat faoliyati bilan, atrofdagi vaziyatdan (mehnat sharoiti, unga haq to‘lash, mehnatni normalash va hokazolardan) qanoat hosil qilish bilan vujudga keladi. U xodimning mehnatga qo‘yadigan talablari, uning sabablari va yo‘l-yo‘riqlari o‘rtasidagi muvofiqlikka, mehnat faoliyati, muayyan ishlab chiqarish sharoitiga bog‘liq bo‘ladi.

Mehnatga munosabat maqsadini o‘rganish- uning shakllanish va boshqarish mexanizmini aniqlashdir. Bu ishda ancha ahamiyatli jihatlar mehnatga munosabatni shakllantiruvchi omillarni o‘rganish, xodimning ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga ta‘sir ko‘rsatishini belgilashdir. Mehnat jarayonida [xodimning muomalasiga](#), uning mehnatga munosabatini shakllantirishga ko‘pgina omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Ular mehnat sarflashni ko‘paytiradi yoki kamaytiradi, mehnat kishilarning o‘z bilim va tajribalaridan, aqliy va jismoniy imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga undaydi.

Xodimlar mehnatiga baho berish

Mehnatdan qoniqish hosil qilish - bu xodimning mehnat mazmuniga, xarakteri va shart-sharoitlariga qo‘yadigan talablarining muvozanatli holati, bu talablarni amalga oshirish imkoniyatlariga sub‘ektiv baho berishdir. Inson yoki kishilar guruhining o‘z mehnat faoliyatiga, uning turli jihatlariga baho berish munosabati xodimning mazkur korxonaga, mehnat jamoasiga ko‘nikishining umumiy va xususiy qoniqish hosil qilish mavjud bo‘lib, bunda birinchisi umuman qoniqishni bildirsa, ikkinchisi mehnatning turli jihatlarini va ishlab chiqarish vaziyati elementlaridan qoniqish hosil qilishni ko‘rsatadi.

Mehnatdan qoniqish hosil qilishning etarli darajada aniq bir qator omillari borki, ular uning inson ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi roli, funktsiyasi, oqibatlarini, mehnatni tashkil etish va boshqarishdagi ahamiyatini aks ettiradi.

1. Odamlarning turmushdagi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi qulaylikka, ijtimoiy sharoitga munosabatini o‘rganish natijasida shu narsa aniqlanganki, ish va martaba ular uchun shaxsiy hayot, salomatlik, to‘laqonli dam olish bilan bir qatorda ancha ahamiyatli hisoblanadi. Xullas, mehnatdan qoniqish hosil qilish avvalo ijtimoiy qoniqish hosil qilish, [shaxslar](#), guruhlar, aholi, millat hayotining eng muhim sifat ko‘rsatkichidir.

2. Mehnatdan qoniqish hosil qilish funksional-ishlab chiqarish ahamiyatiga egadir. U ishning miqdor va sifat natijalariga, topshiriqlarning shoshilinch va aniq bajarilishiga, boshqa kishilarning mehnatga munosabatidagi o'ziga xos tomonlarga ta'sir ko'rsatadi. Mehnatga munosabat xodimning o'z ishchanlik sifatleri va ko'rsatkichlariga mustaqil baho berishga asoslanishi mumkin. Shu bilan birga o'z-o'zidan qoniqish va qoniqmaslik ham aniq hollarga qarab ishga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Ish beruvchining odamlar ishdan qoniqish hosil etishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi boshqaruv muomalasi, umuman, mehnat munosabatlarining ayrim muhim tiplarini belgilab beradi. Ish beruvchi ko'pincha mehnatni insonparvarlashtirish to'g'risidagi har qanday tadbirning ishlab chiqarish - iqtisodiy samaradorligiga ishonchsizlik bilan qaraydi, ularga mablag' ajratilishini nooqilona ish deb hisoblaydi. Ana shu maqsadlar uchun mablag'lar ko'pincha kasaba uyushmalari, huquqiy idoralar yoki omma (xodimlar)ning taziqi bilan sarf etiladi. Bu hol "mehnatdan qoniqmaslik" kabi ko'rsatkichning ishlab chiqarish sohasi uchun muhimligi va ahamiyatini tushunmaslik tufayli sodir bo'ladi.

4. Mehnatdan qoniqish hosil qilish ko'pincha kadrlar qo'nimsizligiga sabab bo'lib, uning oldini olish yuzasidan tegishli harakatlar qilish zarur bo'ladi.

5. Xodimning nuqtai nazaridan mehnat xususiyati va shart-sharoitlari rahbar obro'e'tiborining eng muhim omilidir.

6. Mehnatdan qoniqish darajasiga qarab xodimlarning talablari va da'volari ortadi yoki kamayadi, shu jumladan, ish uchun mukofotlashga nisbatan talabni oshiradi (mehnatdan qoniqish hosil qilish mehnatga haq to'lashga nisbatan tanqidiylikni pasaytiradi).

7. Mehnatdan qoniqish hosil qilish ayrim xodimlar va mehnat guruhlarining har xil xatti-harakatlarni tushuntirish, talqin qilishlarning universal mezoni hisoblanadi. U ma'muriyatning xodimlar bilan muomala qilish uslubi, usuli, jihatlarni belgilab beradi, ya'ni qoniqish hosil qilgan va qilmagan xodimlar xulq-atvori, ularni boshqarish farq qiladi.

Odatda, mehnatdan qoniqish hosil qilishni turli xil omillar yig'indisi bilan o'lchaydilar. Korxonada, mehnat tashkiloti, firma va hokazolar doirasida quyidagi ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Qoniqarli shart-sharoitlar

1. Ishdagi hamkasblar bilan yaxshi munosabatda bo'lish;

2. Smenaning qulayligi, normalashmagan ish kuni;

Ishlar turi xilma-xil;

Ish bilim, zehn-idrokni talab qiladi;

Xavfsizlik texnikasi yaxshi;

Ish haqi yuqori;

Ish jismoniy toliqishni talab qilmaydi;

Ish malaka oshirish imkonini beradi;

Ish bilan bir maromda ta'min etishadi;

Ma'muriyat yaxshi munosabatda bo'ladi;

Tsex (korxonada) chiqarayotgan mahsulot muhim va mashhur;

Zamonaviy asbob-uskunalar;

Mehnat yaxshi tashkil etilgan; Sanitariya-gigiena sharoitlari va hokazo.

Qoniqarsiz shart-sharoitlar

Sanitariya-gigiena sharoitlari qanoatlantirmaydi; Ish bilan bir xilda ta'min etishmagan; Og'ir jismoniy ishlar bajariladi; Ish haqi kam; Asbob-uskunalar yaxshi emas; Ish malakani oshirishga imkon bermaydi; Ma'muriyat e'tiborsiz munosabatda bo'ladi; Bir xil ish bajariladi; Smena noqulay tashkil etilgan;

Mehnat yaxshi tashkil etilmagan; Zavod chiqarayotgan mahsulot unchalik xaridorgir emas; Ish unchalik bosh qotirishni talab qilmaydi; Xavsizlik texnikasi yaxshi emas; Ishdagi hamkasblar bilan munosabatlar yaxshi emas va hokazo.

Mehnatdan qoniqish hosil qilishning umumiy va xususiy darajalari o'rtasidagi nisbatlarning bir necha printsiplari mavjud. Mehnatdan qoniqish hosil qilishni o'lchash chog'ida ularni hisobga olishga to'g'ri keladi:

- umumiy qoniqish hosil qilish darajasi ijobiy yoki salbiy omillar miqdorining bir-biridan birmuncha ustun bo'lishi natijasida paydo bo'ladi;

- ijobiy yoki salbiy omillardan biri shu qadar ahamiyatli bo'ladiki, bu esa umumiy qoniqish hosil qilish darajasini belgilab beradi;

- ijobiy va salbiy omillar o'rtasida nisbiy muvozanat vujudga keladi, natijada umumiy qoniqish darajasi noaniq bo'lib qoladi.

Mehnatdan qoniqish hosil qilish ko'pgina omillarga bog'liqdir. Ular xodimlarning o'z mehnat faoliyatlariga baho berish munosabatini shakllantiradi yoki unga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida: mehnat faoliyatining ob'ektiv tavsifi, idrok etish va kechinmaning sub'ektiv xususiyatlari (xodimning da'volari va tanqidiy fikri), malaka va ma'lumoti, mehnat faoliyati staji, mehnat tsiklining bosqichlari, xabardorligi, mehnatning moddiy va ma'naviy sabab asoslari (mehnatga ahamiyat berilishi), tashkilotdagi ma'muriy rejim, ijobiy baholash va mustaqil baholashni qo'llab-quvvatlash, kutish darajasi (mavjudlik yoki mavjud emaslik, voqelikning mos kelishi yoki mos kelmasligi), mehnat muammolariga rasmiy va ommaviy munosabatda bo'lish, jamoatchilik fikri va hokazolar ko'zga tashlanadi.

Sanab o'tilgan bu omillarning hammasi amalda boshqariluvchan bo'lib, real ijtimoiy texnologiyalar mavjuddir. Ular mehnatdan qoniqish hosil qilinishini tartibga solish imkonini beradi. Mehnatga munosabat va mehnatdan qoniqish hosil qilish xuddi shunday ko'rsatkichlarki, ular xodimning mehnat sharoitlariga keng ma'noda ko'nikish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari doimiy ravishda mehnat huquqi normalari asosida faoliyat yuritadi. Mehnat huquqining predmetini tashkil etuvchi barcha ijtimoiy munosabatlar mehnat qonunchiligi normalari bilan tartibga solingan bo'lib, ular doimo mehnatga oid huquqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Mehnatga oid huquqiy munosabatning har bir turkumi mazmuni jihatidan o'ziga xos huquqiy xususiyatga ega bo'lib, u davlatning normativ-huquqiy hujjatlari ta'siri natijasida kelib chiqadi. Umumiy tarzda tan olingan va mehnat huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

Mehnat huquqining mazmun-mohiyati va asosiy o'zagini xodimlarning mehnatga oid munosabatlari tashkil etadi. Ularning boshqa munosabatlardan farqi shuki, bu munosabatlar xodim mehnatining ishlab chiqarishda qo'llanilishi natijasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar sifatida namoyon bo'ladi, chunki mehnat jarayonida unga nisbatan huquq normalari qo'llaniladi. Natijada xodim mehnat sohasida muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi.

Mehnatga oid xuquqiy munosabatlar xususiyatlari.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar xodim bilan ish beruvchi o`rtasidagi ixtiyoriy ravishdagi aloqa bo`lib, unga ko`ra, xodim korxonada muayyan mutaxassislik, malaka, lavozim bo`yicha o`zining mehnat vazifasini ichki mehnat tartibiga bo`ysunib, bajarish majburiyatini oladi, ish beruvchi esa mehnat to`g`risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar, jamoa shartnomasi va mehnat shartnomasida belgilangan shartlar asosida haq to`lash va amaldagi qonunchilikka ko`ra tegishli mehnat sharoitini yaratib berish majburiyatini oladi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning sub`ektlari sifatida, bir tomondan, xodim, ikkinchi tomondan, ish beruvchi hisoblanadi va ular huquqiy layoqat va muomala layoqatiga ega bo`lishi shart. SHundagina mehnatga oid huquqiy munosabatlar ro`yobga chiqadi. Qonun hujjatlarida xodim deganda O`zbekiston Respublikasining muayyan yoshga etgan, ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzgan fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo`lmagan shaxslar tushuniladi (MKning 14-moddasi). Ikkinchi tomondan korxonalar, muassasa va tashkilotlar, shuningdek 18 yoshga to`lgan shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda mehnatga oid huquqiy munosabatlarning sub`ekti bo`lishi mumkin (MKning 15-moddasi).

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar fuqarolik huquqi sohasidagi mehnat bilan bog`liq bo`lgan turdosh munosabatlardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

-birinchidan, mehnatga oid huquqiy munosabatlarning sub`ekti hamma vaqt korxonalar mehnat jamoasi tarkibiga qo`shiladi, fuqarolik huquqiy munosabatlarda bu holat kuzatilmaydi;

-ikkinchidan, mehnatga oid huquqiy munosabatlar predmeti bevosita ijtimoiy mehnat jarayonining o`zini ifodalaydi va unda xodim bajarayotgan ish uning muayyan vazifasiga taalluqlidir. Bundan farqli o`laroq, fuqarolik huquqiy munosabatlarning predmeti mulkka aylantirilgan mehnat natijasi hisoblanadi;

-uchinchidan, xodim korxonadagi ichki mehnat tarkibiga bo`ysungan mehnat vazifasini bajaradi hamda intizomni buzgani uchun javobgar bo`ladi;

-to`rtinchidan, amaldagi mehnat qonunchiligiga binoan, xodim mehnatini tashkil qilish va uni muhofaza etish ish beruvchi zimmasiga yuklatilgan. Fuqarolik huquqiy munosabatlarda esa fuqaroning o`zi o`z mehnatini tashkil qiladi va muhofaza etadi.

-beshinchidan, mehnatga oid huquqiy munosabatlar uzluksiz davom etish xususiyatiga ega bo`lsa, fuqarolik huquqiy munosabatlar muayyan topshiriq, pudrat yoki mualliflik shartnomasi bo`yicha belgilangan ish bajarilgach, tugaydi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar muayyan mazmunga ega bo`lib, bu hol mazkur munosabat sub`ektlarining huquq va majburiyatlarida hamda huquqiy statuslarida namoyon bo`ladi. Bu status bilan belgilangan huquq va majburiyatlar hamda kafolatlari yig`indisidan iborat bo`lib, ular xodimning huquqiy holatini belgilab beradi. Konstitutsiyaga muvofiq, xodimning erkin ish tanlashi, kelishilgan mehnat vazifasiga oid ishni bajarishi hamda uning qonunbuzarlik holatlaridan himoya qilinishi xodim huquqiy holatining asosiy qismini tashkil etadi. MK ning 170-moddasiga ko`ra, xodim o`z mehnat vazifalarini halol hamda vijdonan bajarishi lozim. Ayni vaqtda, xodimning muayyan mutaxassislik, malaka lavozimga muvofiq keluvchi mehnat vazifasini qonuniy asoslar mavjud bo`lmagan hollarda o`zgartirishga yo`l qo`yilmaydi, chunki mehnatning shartlari qonunda belgilangan tartibdagina o`zgartirilishi mumkin. Xodimning mehnat shartnomasida belgilangan mehnat vazifasi uning asosiy shartlaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning shakllanishi, o'zgarishi va bekor bo'lishi bevosita mehnat qonunchiligida nazarda tutilgan yuridik faktlarga bog'liq. Yuridik faktlar, ularning vujudga kelishi, o'zgarishi va bekor qilishining asosi hisoblanadi. Avvalo, mehnatga oid huquqiy munosabatlar mehnat shartnomasi tufayli ro'yobga keladi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar, qonunda nazarda tutilgan hollarda, mehnat shartnomasida yuz bergan o'zgarishlar natijasida o'zgartirilishi mumkin. [Qonunga muvofiq](#), mehnat shartnomasi taraflar kelishuviga asosan o'zgartiriladi. MKning 92-moddasiga ko'ra, xodimni boshqa doimiy ishga o'tkazishga, ya'ni unga boshqa mutaxassislik, malaka, lavozimga oid ishni topshirishga uning roziligi bilangina yo'l qo'yiladi. Xodimning rozilgisiz vaqtincha boshqa ishga o'tkazishga faqat ishlab chiqarish zarurati yoki uning bekor turib qolgani sababli yo'l qo'yiladi (MKning 95-moddasi). SHuningdek, mehnat shartnomasi shartlari taraflarning kelishuvi (MKning 93-moddasi) yoki xodimning tashabbusi bilan (MKning 94-moddasi) u vaqtincha boshqa ishga o'tkazilishi ham mumkin. Mehnatga oid huquqiy munosabatlar mehnat shartnomasining qonunda belgilangan tartibda (MKning 97, 98, 99, 100, 106-moddalari) bekor qilinishi bilan tugaydi.

Mehnat jamoasining vakolatlari, kasabalar uyushmasining huquqlari mehnat qonunchiligi, shuningdek, bunga qo'shimcha tarzda, jamoa shartnomasi va kelishuvlari, korxonada ustavi bilan belgilanadi. Bu sub'ektlarning mehnatga oid huquqiy munosabatlarda qay tarzda ishtirok etishi ularning qanday pog'onaga tegishli ekani hamda masalalarni hal qilish borasida ularga qanday muayyan huquqlar berilganiga bog'liq. Masalan, jamoa shartnomasini tuzish zarurati to'g'risida qaror qabul qilish huquqi kasaba uyushmasi, xodimlar tomonidan vakolat berilgan boshqa vakillik organi yoki bevosita mehnat jamoasining umumiy yig'ilishiga berilgan (MKning 35-moddasi).

Ushbu shartnomani tuzish, uni tasdiqlash va imzolash huquqi kasaba uyushmasiga yoki xodimlarning boshqa vakillik organlariga berilgan (MKning 36, 40-moddalari). Uning bajarilishini tekshirib borish vazifasi boshqa organlar bilan bir qatorda, mehnat jamoasi vakolatiga ham tegishlidir (MKning 46-moddasi).

MK ning 174-moddasiga ko'ra, korxonadagi ichki mehnat tartibi qoidalari kasaba uyushmasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organlari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

MK ning 31-moddasiga ko'ra, jamoa kelishuvlarini tuzish bilan bog'liq tashkiliy-boshqaruvga oid ayrim huquqiy munosabatlar sub'ektlari sifatida bir tomondan, xodimlarning vakili sifatida kasaba uyushmasining tegishli organlari, ikkinchi tomondan, ish beruvchilar birlashmalari, ba'zan esa, uchinchi tomondan, ijroiya hokimiyat organlari ishtirok etadi.

MKning 54-moddasida jamoa kelishuvining amal qilish muddati 3 yil etib belgilangan. Bundan so'ng bu kelishuv o'z kuchini yo'qotadi. eng muhimi, bu fakt tashkiliy boshqaruvga oid huquqiy munosabatlarning tugashiga asos bo'ladi.

Mehnatni muxofaza qilish va mehnat qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilishga doir huquqiy munosabatlar.

Ma'lumki, mehnat muhofazasi insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyatining saqlanishiga qaratilgan turli tadbirlardan iborat. Bu boradagi qonun qoidalarning asosiy maqsadi fuqarolarning sog'ligi hamda ularning mehnatini muhofaza qilishga qaratilgan. Shu bois, barcha korxonalarda mehnat muhofazasiga oid, shuningdek mehnat qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur huquqiy munosabatlarning sub`ektlari sifatida, bir tomondan, mehnat muhofazasining holati hamda mehnat qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilishga ixtisoslashtirilgan maxsus davlat inspeksiyalari, shuningdek, kasaba uyushmalarining xuddi shunday vazifani bajaruvchi inspeksiyalari faoliyat yuritadi.

Ikkinchi tomondan, mehnat muhofazasini ta`minlash, korxonalarda shunga oid talablarni bajarishi, mehnat qonunchiligiga rioya etishi lozim bo`lgan ish beruvchilar va ayrim mansabdor shaxslar ham huquqiy munosabatlar sub`ekti hisoblanadi. Bunday huquqiy munosabatlarning mazmuni ancha keng bo`lib, ular tegishli organlarning mehnat muhofazasi qoidalariga hamda mehnat qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vazifasini ifodalaydi.

Ushbu organlarning huquq va majburiyatlari O`zbekiston Respublikasi «Mehnatni muhofaza qilish to`g`risida» gi 1993 yil 6 maydagi qonunida, Mehnat kodeksining 13-bobi moddalarida, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab qo`yilgan.

Bu organlarga kasaba uyushmasining mehnat texnika inspeksiyasi hamda mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish vazirligi qoshidagi davlat mehnat huquq inspeksiyasi kiritilgan bo`lib, ular tasdiqlangan nizomga muvofiq faoliyat ko`rsatadi. Masalan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Davlat mehnat huquq inspeksiyasi to`g`risidagi Nizom O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 29 iyuldagi 372-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Davlat mehnat huquq inspeksiyasi Nizomida davlat mehnat huquq inspeksiyasi va uning joylardagi bo`linmalari tomonidan vazirliklar, idoralar, hokimliklar, shuningdek, idoraviy bo`ysinuvchi, mulkchilik va xo`jalik yuritish shaklidan qat`iy nazar, barcha korporatsiya, kontsern, uyushma, korxonalar, tashkilot va muassasalar hamda mulkdorlarning mehnat va aholini ish bilan ta`minlash to`g`risidagi qonunlarga rioya qilinishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishi belgilab qo`yilgan.

Davlat mehnat huquq inspeksiyasi vazirlik, davlat qo`mitalari, idora, korporatsiya, kontsern, uyushma, birlashma, korxonalar, tashkilot va muassasalarning mehnat haqidagi va aholini ish bilan ta`minlash to`g`risidagi qonunlarga zid bo`lgan buyruqlari va boshqa normativ hujjatlarining amal qilishini to`xtatib qo`yish, zarur hollarda, belgilangan tartibda bekor qilish to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga taklif kiritish huquqiga ega.

Bundan tashqari, ushbu nizomda davlat mehnat huquq inspeksiyasi tekshirish jarayonida ma`lumotlar olish, mehnat haqidagi va aholini ish bilan ta`minlash haqidagi qonun buzilishlari aniqlangan hollarda ularni bartaraf etishni talab qilish, vakolatli mansabdor shaxslar bajarishi majburiy bo`lgan ko`rsatmalar berish, qonun buzilishida aybdor bo`lgan mansabdor shaxslarga amaldagi qonunlarda belgilangan miqdorda jarima solish huquqiga ega ekani ko`rsatilgan.

Watanımızdıń barlıq wálayatlarında balanıń túrli ónerlerge bolǵan qızıǵıwshılıqların ósiriwge qaratilǵan kóplegen oınlar jaqsı saqlanıp qalǵan. “Juwınıw bólmesipish”, “Quwirshaq soǵıw”, “Úy-úy”, “Oqtosh”, “Kovushim”, “Tıs og'rig'i”, “Shashtárez”, “Temirshi”, “Gúlal”, “Tıǵıwshı hayal”, “Juwazkesh”, “Moshoba oın” hám basqalar usılar gápinen bolıp tabıladı.

Ónermentshilik oınları processinde qatnasuvshılardıń hár túrli kórkem sırtqı kórinisler soǵıwda qolı qovushib baradı. Qaysı kásibi baylanıslı bolmaydıin, loyu-topraq menenmi, taxtau-paqal menenmi, ipu-jıp menenmi, qabıqagu-shúberek menenmi baribir maqset oın arqalı balalardı turmıs ushın zárúr bolǵan qandayda bir buyım jaratılıwma, ijodga, ónerge qurılısshılıqqa úyretiwden ibarat.

Qashqadárya wálayatınıń Yakkaboǵ, Shaxrisabz hám Kitap rayonları átiraplarında “Dandarak” oını keń tarqalǵan. Bul da qoyshılardıń tayaq jardemindegi oınları taypasına kiredi. Onı tiykarınan on-o'nbeshe jaslarıdaǵı balalar oynaydı. Oın zárúrli qural-qamshı hám dandaraktan dúziledi. Oıınshılar sanı shegaralanbaydı. Qansha kóp bolsa, sonsha jaqsı.

Qalınlığı bilek sıyaqlı keletuğın tayaqtan tórt bes súyem bólegi kesip alınadı. Onıń bir ushı jaqsılap jonılıp, qazıq formasına keltiriledi. Keyin ol bas hám orta barmaqlar járdeminde tegis orında aylandırıp jiberiledi. Sol ırqaqta qamshınıń uzın sabağı menen aylanıw baǵdarı boylap urıp turıladı.

Bul básekide kimniń dandaragi birinshi bolıp háreketten toqtasa yamasa jıǵılsa, ol uttırǵan esaplanadı. Oyin balalarda qamshını isletiw kónlikpesin payda etiwde ayırıqsha mektep wazıypasın ótegen. Qızlar bolsa dandarakti aylandırıw menen sabaq iyiriwde urshıqtı tuwrı aylandırıw mamanlıǵın ózlestirip barǵan.

Ónermentshilikke tiyisli oynılar úlken jasadǵılar arasında da keń tarqalǵan. Bunday oynılar tamasha formasında bolıp, seyil hám bayramlar munasibeti menen uyımlastırılǵan. Onnan belgi beriwshi derekler ádewir. Shıǵıstı izertlewshi A.Belinickiy kóplegen dóretpelerdi dıqqat menen úyrenip shıǵıp, Temuriyeler dáwirinde jasaǵan jergilikli ónermentlerdiń Samarqand qalasında ótkerilgen ǵalabalıq seyildegı qatnasıwı tuwrısında maǵlıwmat beredi. Keyinirek bul másele M.Rahmonov hám M.Qodirovlar jumıslarında da óz ańlatpasın taptı.

M.Qodirov Ózbekstanınıń qubla wálayatlarında úrp bolǵan onnan aslam Ónermentshilik tiykarında qalıplesken jergilikli komediyalarnı jazıp alǵan. “Bo‘zchilik”, “Juvozron”, “Nisholdapazlik”, “Objuvoz”, “Tandir”, “Tegirmonchi”, “Novvoylik”, “Attorlik” sıyaqlı satiralıq komediyalar usılar qatarında.

Qullası, xalqımız ónermentlerdi qádirlegen, húrmet sıylasıq kórsetken, óz jumısın kelistire almaǵan, jalqaw, maqtanshaq hám oqıwı joq ónermentler ústinen kúlgén. Shashtárez tımsalınıń geyde sheber, geyde jalqaw, geyde kewilli, geyde azmaz maqtanshaq tárzde bórttirilip sáwlelendiriliwi de sonnan.

Máwsimlik oynılar.

Abu Rayxon Beruniy “Áyyemgi xalıqlardan qalǵan estelikler” shıǵarmasında Nawrızdıń kelip shıǵıwın shax Jamshid atı menen baylanıstradı. Umar Hayyom óziniń “Nawrıznama”sında Beruniy aytqan pikirlerdi tastıyıqlaydı hám Nawrızdıń daslep engiziliwin Jamshidning patshahlıǵı zamanına barıp taqalıwın aytıp ótedi. Sonıń menen birge, M.Qashǵariydiń “Devoni lug‘otit turk”, Mavlono Lutfiyning “Gul va Nawrıız”, A.Nawayınıń “Saddi Iskandariy” dástanlarında da Nawrıız bayramı menen baylanıslı úzindiler kóp.

Dereklerge qaraǵanda, Oraylıq Aziya xalıqlarınıń áyyemgi tamashalıq jarıs oynılarından biri — jawınger jekpe-jek gúrestiniń kelip shıǵıwı da áyyemgi Nawrıız bayramına baylanıslı eken. Buǵan baylanıslı shın tariyxnavislarining maǵlıwmatları qımbatlı bolıp tabıladı. “Tán úrimputaǵınıń tariyxı ” jılnamasında áyyemgi Ferǵanalıqlar jıldıń mol hasil yamasa kerisinshe, bereketiz keliwin anıqlawdıń ajayıp usılın bilgenligi tuwrısında maǵlıwmatlar bar. Folklorshunos M. Jo'rayevning tariypi menen aytqanda, Nawrıız kúni hukmdor hám el, xalıq aǵaları ekige bolınıp, hár tárep óz átirapına adamlardı yig'adi. Tárepkashlar saray aldındaǵı tamasha maydanına baradılar. Hár eki tárep birden batır hám eń sheber semserbozni tańlap ortaǵa túsiredi. Batırlar birbirlerine umıtilıw etip urıs baslaydı. Átirap daǵı tamashagóylar shawqım súren hám úlken tınıshsızlanıw menen óz batırların qollap-quwatlap turadı. Jigitlerden biri jeńimpaz shıqsa, alıwıw toqtatıladı. Jańa jıldıń qaysı qáwim aǵzaları ushın bereketli yamasa áwmetsiz keliwi soǵan qaray boljaw etiledi.

REFERENCES

1. Sayfullayev B., Yo'losheva S., Eshonqulov J., Ashirov A., Toshmatov O'. Nomoddiy madaniy meros – folklor ijro san'ati an'analari. O'quv qo'llanma. - T.: Navro'z, 2017. 216 b.
2. O'zbek milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlar. O'quv qo'llanma. - T.: Navro'z, 2014.
3. S.Yo'ldosheva. Xalq urf-odatlar va an'analari. O'quv qo'llanma. T.: "Ijod dunyosi" - 2003. 208 b.
4. S.Yo'ldosheva, S.Davlatova, G.Sattorova. Folklor kiyimlari va bezaklari. O'quv qo'llanma. T.: Talqin, 2008. 136 b.

“MULOQOT PSIXOLOGIYASI” MAVZUSINING MAZMUN VA MOXIYATI

Aysulu Samekeeva

Ájiniyaz nomidagi NMPI magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8186801>

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologiya fanini o‘qitishda foydalanishimiz mumkin bo‘lgan muloqot mavzusining mazmun va moxiyati haqqida keng tushuncha berilgan va mavzuning barsha qirralarini oshib berishga harakat qilingan.

Tayach so‘zlar: Muloqot, verbal ta’sir, noverbal, paralingvistik, ta’sir, tinglash texnikasi, aktiv xolat, o‘ychan jimlik, IPT.

“THE CONTENT AND ESSENCE OF THE TOPIC” PSYCHOLOGY OF COMMUNICATION”

Abstract. This article provides a broad understanding of the content and relevance of the topic of communication, which we can benefit from in the teaching of psychology, and attempts are made to transcend the barsha facets of the topic.

Key words: Dialogue, verbal influence, noverbal, paralinguistic, influence, listening technique, active holat, thoughtful silence, IPT.

“СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ТЕМЫ” ПСИХОЛОГИЯ ОБЩЕНИЯ”

Аннотация. В этой статье дается широкое понимание содержания и природы предмета общения, которое мы можем использовать при преподавании психологии, и делается попытка превзойти все грани предмета.

Базовые слова: общение, вербальное влияние, невербальное, паралингвистическое, влияние, техника слушания, активная поза, мысленная тишина, ИПТ.

Muloqot – psixologik faoliyat sifatida. Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o‘rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni- jamiyatda yashash va o‘zini shaxs deb hisoblash bilan bog‘liq ehtiyojini qondiradi, shuningdek har bir inson uchun uning ahamiyati kattadir.

Psixologik ta’limotga muvofiq odamning shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etishi uzoq muddatli va murakkab jarayon hisoblanadi. Odamning shaxs sifatida kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (odam yashab turgan sharoit), aniq maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya bilan birga uning boshqa shaxslar bilan muloqotlarining ham muhim ahamiyati bor.

Tabiiyki, shaxs o‘zi yashab turgan jamiyat odob-axloq normalari qurshovida hayot kechiradi. SHunday ekan, uning ma’naviy olami mazmuni ijtimoiy muloqotlari mohiyati bilan izohlanadi. Shaxsning ijtimoiy muloqotlari qanchalik boy va mazmundor bo‘lsa, uning ma’naviy olami shu qadar yuksak bo‘ladi.

Mustaqillik tufayli respublikamizda yangi mazmundagi ijtimoiy muhit yuzaga keladi. Buning natijasida inson shaxsi oldiga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgardi, uning muloqotlari mazmuni va doirasi ham o‘zgacha bo‘lib qoldi.

Inson shaxsi yosh jihatdan o‘sgan sari uning muloqot doirasi ham kengaya boradi. U o‘zining barcha orzu va istaklarini aloqa orqali ro‘yobga chiqaradi. SHuni ham hisobga olish kerakki, shaxs muloqotlarining mazmuni uning yoshi ulg‘ayishi bilan bog‘liq holda o‘zgaruvchan bo‘ladi. Agar yosh bilan bog‘liq holda olib qaraladigan bo‘lsa, shaxs muloqotlarining eng murakkab va mazmunli davri uning mehnat faoliyati bilan bog‘liq

davridir. Bu davr muloqotlarida shaxsning insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, baynalminalchilik, jamoatchilik kabi yuqori tuyg'ulari namoyon bo'ladi. Bu kabi axloqiy tuyg'ularda ifodalangan mazmun shaxs muloqotlariga sayqal beradi, uning emotsional ta'sirini kuchaytiradi, muloqot jarayonini mazmundor qiladi va undan tomonlar ko'zlagan maqsadni amalga oshiradi.

Shaxslararo muloqotlar guruhdagi talabalarning bir-biri bilan (guruh muhitida), boshqa guruhlar va kurslar talabalari bilan o'qituvchilar, fakultet yoki bo'lim rahbarlari, o'qimaydigan do'stlari, oila a'zolari, qarindosh va og'a-inilar bilan bo'ladigan muloqotlarni o'z ichiga oladi. Bu muloqotlar jarayonida talaba shaxsining qobiliyatlari, qiziqishlari, diqqati, xotirasi, xayoli va tafakkuri kabilar o'z aksini topadi.

Muloqotlar tizimida o'qituvchi va talabalararo muloqotlarning roli kattadir. Bunday muloqotlar ularning jonli nutqi orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon birining bilim berish (o'qituvchi), ikkinchisining shu bilimlarning idrok etishini (talaba) ta'minlashni amalga oshirish funksiyasini ado etish vazifasini bajaradi.

SHuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si, uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Muloqotning turi va insoniy munosabatlar psixologiyasi. Muloqotning turi turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita "yuzma - yuz" bo'lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, internet, faks va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; sub'ekt - sub'ekt tipli (diologik, sheriklik) yoki sub'ekt - ob'ektlilik (monologik) bo'lishi mumkin.

Biz ko'z oldimizga birinchi darsni keltira olsak, o'sha paytdagi hayajonni, quvonchni, ijodiylik hissini tuyamiz. Bolalar bilan bo'lgan damlarimiz esda holsa, iz holsa, demak, bu muloqot uslubiga bog'liq. Pedagog kommunikativ muloqotini mahsuldor bo'lishi uchun u pedagogik ta'sir kuchining tizimlarini, uning har bir

qismini bilishi zarur. Dars jara'ida o'qituvchi qaysi usulni qo'lla'etganini doimo eslab turishi kerak. Buning uchun pedagog ikkita muhim muammoni hisobga olishi: - o'zining hatti-harakatini to'g'ri tashkillashtirishi; - kommunikativ ta'sir samaradorligini ta'minlashi zarur. Pedagogik faoliyat jara'idagi muloqotning quyidagicha tavsiflash mumkin:

1) o'quvchi-talaba va pedagog muloqoti tizimining umumiy tuzilishi (muloqotning aniq usuli);

2) pedagogik faoliyatning aniq bosqichi uchun xos bo'lgan muloqot tizimi;

3) aniq pedagogik va kommunikativ masalalarni echishda namo'èn bo'ladigan muloqotning vaziyatli tizimi. Pedagog va ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-psixologik ta'sir xususiyatlarini muloqot uslublari orqali quyidagicha tushunish mumkin: a) pedagogning kommunikativ imkoniyatlari; b) pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar tabiati; v) pedagogning ijodiy individualligi; g) o'quvchi-talabalar jaoasining xususiyatlari.

O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari - o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, "jozibasi", betakrorligi shundaki, o'zaro bir xil til topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o'ylashlari va gapirishlari mumkin emas.

Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo'lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta'sir bo'lgan bo'lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko'rishmay qolgan do'stingizni ko'rib qoldingiz. Siz undan xol - ahvol so'radigiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma'qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo'lgan va siz ikkinchi marta o'sha odam bilan iloji boricha rasman salom-alikni bajo keltirib o'tib ketavergan bo'lardingiz. YA'ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma - xilligi namoyon bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi.

Shuning uchun ham muloqot, uning tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish (sotsial psixologik trening) masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o'rni va salohiyati keskin oshdi.

Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. SHuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom-alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk xislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol-ahvol so'raydi. SHunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni xis qilamiz. Bu kabi birlamchi kontakt usullari boshqa millat va xalqlarda ham bor, ya'ni bu jihat milliy o'ziga xoslikka ega.

Uning ikkinchi muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odamlar faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odamlarining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, "mauglilar" biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday xolat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsam ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda izolyasiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, xissiy xolatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg'izlik va muloqotning etishmasligi odamda muvozanatsizlik, xissiyotga beriluvchanlik, xadiksirash, havotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish xislarini keltirib chiqaradi. SHunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu

avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Masalan, M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan erda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. "Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g'or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim..."

SHunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi va samaradorlikning muhim omillaridandir.

Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari. Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri - o'zaro bir- birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Psixologik ta'sir - bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va hatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

Verbal ta'sir - bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir.

Bundagi asosiy vositalar so'zlardir. Ma'lumki, nutq - bu so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi - so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zahirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni hojlaydi.

Paralingvistik ta'sir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyasiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. SHunga qarab, masalan, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib-pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan "Albatta bajaraman!", desa ishonamiz, albatta.

Noverbal ta'sir-uning ma'nosi "nutqsiz" dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, xolatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita xis qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o'rtog'ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, "Ko'rganimdan biram hursandman", desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir-birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lishganda, dastavval nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etishni o'ylar ekan. Aslida esa, o'sha so'zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o'ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat o'zgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol to'g'ri: "Ust-boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi".

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko‘proq ta’sirga ega bo‘lishi sheriklarning rollariga ham bog‘liq. Ta’sirning tashabbuskori - bu shunday sherikki, unda ataylab ta’sir ko‘rsatish maqsadi bo‘ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta’kidlangan vositalardan foydaladi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o‘rnidan turib kutib oladi, iltifot ko‘rsatadi, xol - ahvolni ham quyuqroq so‘raydi va so‘ngra gapning asosiy qismiga o‘tadi.

Ma’lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o‘zaro mosligi, bir-birini to‘ldirishiga bog‘liq ekan. Noto‘g‘ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o‘rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so‘zlardan foydalanib, ta’sirchan gapirishga o‘rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni - tinglash qobiliyatiga deyarli e’tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi “YAxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir” deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo‘lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo‘ladiganlar 35-40% oylik maoshlarini odamlarni “tinglaganlari” uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko‘proq foyda keltirarkan.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs etakchi, u suhbatning mutloq xokimi, degan tasavvur unchalik to‘g‘ri emas. YAxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug‘diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa - bu axborotning o‘zi. Tinglayotgan odam ma’nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma’lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o‘zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan “teskari aloqani” olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. SHuning uchun muloqotga o‘rgatishning muhim yo‘nalishlaridan biri - odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o‘rinli foydalanishga o‘rgatishdir.

REFERENCES

1. Klimov E.A. Psixologiya professionala. - M., 1997g.
2. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. M., Aspekt press 1999 g.
3. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Toshkent “YAngi asr avlodi”2008y.
4. Karimova V., Akromova F. Psixologiya. T.: 2000y.
5. www.uzedu.uz - Vazirlik sayti
6. www.ziyonet.uz - Vazirlik sayti

XX ASR BOSHLARIGA OID MANBALARDA BUXORODAGI IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTNING YORITILISHI

Beshimov Maqsud Komilovich

BuxDU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8185254>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr boshlariga oid manbalarda, jumaldan, Mirzo Salimbekning "Ta'rixi Salimiy" asarida Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy hayotning ayrim jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada amir Olimxon huzuriga muzokaralar uchun kelgan V.Utkin boshchiligidagi Bolshevik vakillarining taqdiri haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mirzo Salimbek, Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo, Muhammad Ali Baljuvoni, "Jome' ul-gulzor", "Ta'rixi Salimiy", Amir Olimxon, jadidchilik harakati, bolsheviklar, Mirzo Nasrullo, V.Utkin, Xo'ja Zikriyo, Buxoro Arki.

ОСВЕЩЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ БУХАРЫ В ИСТОЧНИКАХ НАЧАЛА XX ВЕКА

Аннотация. В данной статье раскрываются некоторые аспекты общественно-политической жизни Бухары в источниках начала XX века, в том числе в произведении Мирзо Салимбека "Тарихи Салими". Также в статье описывается визит эмира Олимхана для переговоров с В.Приводятся сведения о судьбе представителей большевиков во главе с Уткиным.

Ключевые слова: Мирза салимбек, Шарифджон Махдум Садр Зия, Мухаммед Али бальджувани, "Джоме уль-Гульзар", "Тарихи Салими", Амир Олимхан, джадидистское движение, большевики, Мирза Насрулла, В.Уткин, Ходжа Зикрия, Бухарская Арка.

COVERAGE OF SOCIO-POLITICAL LIFE IN BUKHARA IN SOURCES DATING BACK TO THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Abstract. This article reveals some aspects of the socio-political life of Bukhara in the sources of the early XX century, including the work of Mirzo Salimbek "Tarikh Salimi". The article also describes the visit of Emir Alimkhan for negotiations with V. Provides information about the fate of representatives of the Bolsheviks led by Utkin.

Keywords: Mirza salimbek, Sharifjon Makhdoom Sadr Zia, Muhammad Ali baljuvani, "Jome ul-Gulzar", "Tarikhi Salimi", Amir Olimkhan, Jadidist movement, Bolsheviks, Mirza Nasrullah, V.Utkin, Khoja Zikria, Bukhara Arch.

Kirish (Introduction)

XX asr boshlarida ijod qilgan tarixnavislardan Mirzo Salimbek, Sharifjon Maxdum Sadr Ziyo, Muhammad Ali Baljuvoni o'z asarlarida Buxoroning mang'itlar davri ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga doir ma'lumotlarni taqdim etib, o'zlaridan oldingi mualliflarning ilmiy an'alarini davom ettirdilar hamda mang'itlar sulolasi tarixining o'ziga xos jihatlari yoritib berdilar.

Mirzo Salimbek 1850/51-yilda Buxoroning badavlat va nufuzli xonadonida tavallud topdi. U hayoti va faoliyati davomida amirlikning yuqori lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. Masalan, 1884-1885-yillari Turkiston general-gubernatorligida Buxoroning vakili sifatida faoliyat olib bordi. Tuman amlokdori, shahar mirshabi, bir qancha viloyatlar hokimi, bosh zakotchi kabi

mansablar Mirzo Salimbekning ijtimoiy hayotda faolligidan dalolat beradi. Vafot etgan yili aniq emas. Avlodlari hozirda Buxoroda istiqomat qiladi.

Mavzuga Oid Adabiyotlarning Tahlili (Literature Review)

Mirzo Salimbek bir qancha tarixiy va adabiy asarlar muallifi. “Kashkuli Salimiy”, “Jome’ ul-gulzor”, “Ta’rix Salimiy” shular jumlasidandir. “Ta’rix Salimiy” 1917-1920-yillarda yozilgan. Asar qo’lyozmasi ustida sharqshunos N.Norqulov chuqur tadqiqot olib borib, uni nomzodlik dissertasiyasi darajasida himoya qilgan. “Ta’rix Salimiy”ning N.Norqulov tomonidan rus tiliga qilingan ilmiy-izohli tarjimai 2009-yil Toshkentda chop etildi. Asarning Chingizxon tarixidan amir Muzaffar davrigacha bo’lgan qismi kompiyativ bo’lib, mustaqil ahamiyat kasb etmaydi. 1860-1920-yillar voqealarini o’z ichiga olgan asosiy qismi originalligi, shu davrda yozilgan boshqa tarixiy asarlarda uchramaydigan ma’lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot Metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur masalani bayon qilishda tarixiylik, ilmiy-ijodiy qiyoslash, tarixiy tanqidiylik metodlaridan o’rinli foydalanildi. Shuningdek, mantiqiylik va tarixiy uzviylik usullariga ham rioya qilingan.

Tahlil va Natijalar(Analysis and Results)

Amir Muzaffar davrida sodir bo’lgan voqea-hodisalar, Buxoro-Qo’qon, Buxoro-Rossiya munosabatlari, amirlikning ma’muriy tuzilishi, umumiy ahvoli haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. Tarixiy voqealar bayoni davomida ayrim hikoyatlar ham keltiriladi. Jo’yborylar to’g’risidagi shunday hikoyatlar asardan joy olgan. Amir Abdulahad, Amir Olimxon hukmronlik davri, Mirzo Nasrullo qushbegi, jadidchilik harakati, bolsheviklar xuruji to’g’risidagi ma’lumotlar o’ziga xos tarixiy-badiiy uslubda yoritib beriladi.

Mirzo Salimbek Mirzo Nasrullo qushbegi faoliyatiga baho berganda, uning salbiy jihatlarini ba’zan oshirib yuboradi. Mirzo Nasrullo qushbegi amirlikda katta vakolatlarga ega bo’lganligi sabab, biron-bir masala uning maslahatisiz hal etilmaganini muallif tanqid ostiga oladi. Uning jadidlarni maxfiy qo’llab-quvvatlagani, jadidlar g’oyasiga ergashgani, amirni ham chalg’itgani salbiy holat sifatida talqin qilinadi. Muallif amir Olimxonga bo’lgan xayrixohligi va sadoqatini yashirmagan holda Fayzulla Xo’jayevning jadidlik faoliyatiga salbiy munosabatda bo’ladi va uni fitnachilikda ayblaydi.

1918-yil mart oyida bolsheviklar bilan amir Olimxon qo’shinlari o’rtasida bo’lib o’tgan jang harakatlari, amir bilan muzokara olib borish uchun Kogondan Arkka yuborilgan Kogon shahar soveti raisi V.Utkin boshchiligidagi yigirma ikki bolshevik vakili va ular bilan Arkda bo’lib o’tgan otishmalar xususida batafsil hikoya qilinadi. 1918-yil mart voqealari boshlanishidan oldin bolshevik F.Kolesov sakkiz banddan iborat talabnomani amir Olimxonga yuborgani to’g’risida so’z yuritib, “talabnomada ko’rsatilgan shartlar amir tomonidan qabul qilingan taqdirda, na shariatdan, na Buxoro hukumatidan nom-nishon qolmasdi. [Alloh] o’z panohida asraguvchi Buxoro jadidlar qo’liga o’tib ketgan bo’lardi”, - deb yozadi, muallif.

Amir Olimxon mahramlaridan biri, tilmoch Xo’ja Zikriyo to’g’risida asarda keltirilgan ma’lumotlar e’tiborni tortadi. Mirzo Salimbekning bu amaldorga nisbatan ham munosabati salbiy va uni ham bolsheviklarga sotilganlikda ayblaydi. Xo’ja Zikriyo doim amir oldida yurib davlatning barcha sir-asrorlaridan xabardor bo’lgan. Asarda yozilishicha, 1918-yil bahorida, Kolesov voqealari davrida bir muddat Sitorai Mohixosada turgan amir Olimxonni saroy xizmatchilari Arkka borishga da’vat etadilar. Bundan voqif bo’lgan Xo’ja Zikriyo amirni yo’ldan urib, boshqa

narsani maslahat beradi. Ya'ni, yarim tunda avtomobilga o'tirib, go'yo Buxoroga borayotgandek bo'lib, to'g'ri Qarshi viloyatiga yo'l olishni va u yerdan Afg'onistonga o'tib, afg'on qo'shinlarini yordamga olib kelishni maslahat beradi. Chunki, Buxoro qo'shinlariga ishonch yo'qligini uqtiradi. Amir safar tayyorgarligini ko'rib, yo'lga chiqay deb turganda, saroy xizmatchilaridan biri bundan ogoh bo'lib, uni o'z niyatidan qaytarishga muvaffaq bo'ladi va amir Olimxonni Arkka kelib joylashib olishga ko'maklashadilar.

Kogon shahar soveti raisi bolshevik V.Utkin boshchiligida amir Olimxon bilan muzokaraga kelgan yigirma ikki vakilning Arkda qatl qilinishiga doir barcha ma'lumotlar asardan joy olgan. Muallif bu voqealarni barcha tafsilotlari bilan yoritib beradi va amir tomonidan qabul qilingan bunday keskin qarorni oqlaydi. Asardagi ma'lumotlarning ahamiyati shundaki, muallif barcha detallarga e'tibor berib, bolshevik vakillar va ularga ergashgan Buxoro jadidlarining maqsadi 1918-yildayoq hokimiyatni osongina qo'lga olish va amirlikni tugatish ekanligini o'z pozitsiyasidan turib bayon etadi. V.Utkin boshchiligidagi yigirma ikki bolshevik vakillarni kutib olish uchun amir tomonidan tayinlangan amaldorlar Arkda saf bo'lib turishadi. Vakillarning barchasi beshotar miltiq va to'pponcha bilan qurollangan edi. Ular to'g'ri amir qabuliga bormoqchi bo'lganda, saroy xizmatchilari yo'lini to'sib, dastlab ziyofat taklif qilishadi va shu maqsadda Arkdagi qushbegi hovlisiga olib kiradilar. Faqat V.Utkin amir qabulida chorak soat bo'ladi va tezda qaytib chiqadi. U ham o'zi olib kelgan vakillar oldiga, qushbegi hovlisiga joylashtiriladi. V.Utkin qushbegi hovlisida o'rnatilgan telefon orqali Kogonga qo'ng'iroq qilib, vakillarning sog'-salomat yetib kelganini bildiradi. Muallifning yozishicha, V.Utkin telefonda arman tilida so'zlashgan.

Muallifning ko'rsatishicha, V.Utkin aslida ellikta qurollangan kishi bilan kelgan bo'ladi. Ulardan yigirma sakkiztasi Arkdan tashqarida qoladi. Reja bo'yicha, shu ellik kishi bilan Buxoroni egallamoqchi va amirni ag'darmoqchi bo'lishgan. Arkdan V.Utkin tomonidan otilgan o'q ovozi eshinishi bilan, tashqaridagi yigirma sakkiz kishi hujumga o'tishi kerak bo'lgan. Lekin asarda voqealar rivoji boshqacha tus olganligi ifoda etiladi.

Arkdagi bolshevik vakillarga qurollarni topshirish taklif qilinadi. Chunki, Arkdan tashqarida xalq g'alayon boshlab, bolshevik vakillarni berishni talab qilayotgani uqtiriladi. Shuningdek, yarim tunda ularga musulmoncha to'n va salla kiydirilib, qurollari qaytarilgan holda Arkdan chiqarib yuborish va Kogonga yetkazib qo'yish va'da qilinadi. Taklif ular tomonidan ma'qullanib, qurollarini topshirmoqchi bo'lib turishganda, Xo'ja Zikriyo ularga ko'z qisish bilan qurollarni topshirmaslik to'g'risida ishora beradi.

Qurollarini topshirmagan bolshevik vakillar boloxonaga taklif qilinib, bu yerda ularga taom tortiladi. So'ng amir devonxonasiga olib boradigan yerto'laga tushish taklif qilinadi. Ularga qarata iliq so'zlar aytilayotganiga qaramay, bolsheviklardan uchtasi [mezbonlarning asl niyatini sezib], yerto'laga kirmasdan tomga chiqib oladi va yarim tungacha davom etgan otishmada ulardan biri halok bo'ladi, ikkitasi Kogonga qochishga ulguradi. Yerto'laga tushgan zahotiyoy, ularni kuzatib kelgan amir mulozimlari yerto'ladan tashqariga chiqib olishadi, yerto'la atrofini esa amir sarbozlari qurshab oladi. Yerto'la atrofini amir askarlari o'rab olgan bo'lishiga qaramay, uning eshigiga yaqinlashish va berkitishning iloji yo'q edi. Ichkaridagi bolsheviklar o'q uzib, bunga xalaqit berardi. Shunda, yigirma gaz uzunlikdagi gilamlarga ip bog'lab, iplar yordamida gilamlar uzoqdan turib yerto'la eshigi tomon tortiladi va eshik berkitiladi.

Amir sarbozlari yerto‘la shiftini supa ustidan o‘yib, bolshevik vakillar ustiga 300 mesh sovuq suv va o‘n pud tezob quyishadi. To‘qqiz kundan so‘ng yerto‘la eshigi ochilganda, vakillarning uchtasidan tashqari barchasi halok bo‘lgan edi. Hali tiriklardan biri miltiq qo‘ndog‘i bilan urib o‘ldiriladi, chalajon ikkitasi esa, otib tashlanadi. Jasadlar shahar tashqarisidagi mozorga chiqarib tashlanadi. Xoinlikda ayblangan Xo‘ja Zikriyo Arkning o‘zida burdalab tashlanadi. Muallif voqeaga umumiy baho berib, “[Bolsheviklar] musulmonlarga choh qazidilar, lekin o‘zlari unga quladilar” - deydi.

Xulosa va takliflar(Conclusion)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XX asr boshlaridagi Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarva ularning tafsilotlari Mirzo Salimbek, Sharifjon Maxdum Sadr Ziyoy, Muhammad Ali Baljuvoniyni asarlarida atroflicha yoritib berilgan bo‘lib, Mirzo Salimbekning “Ta’rixii Salimiy” asaridagi o‘rganilayotgan davrning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotiga oid bo‘lgan ma’lumotlar, ayniqsa, qimmatlidir.

REFERENCES

1. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: к.и.н. Н.К.Норкулов. Редактор перевода: д.ф.н. А.К.Арендс. Предисловие, редактор введения и примечаний: д.и.н. А.С.Сагдуллаев. – Ташкент: Akademiya, 2009. – Б.139
2. Ахмедов Б.А. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б.210-211.
3. Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев. Садр-и Зия и его библиотека. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2007.
4. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
5. O‘G‘Li, U. B. B., & Temirov, F. (2023). SOURCES OF INFORMATION ON THE SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE SOMANIAN DYNASTY. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(3), 35-41.
6. Umarov, B. B. O. (2022). SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE DURING THE RULE OF THE SOMANIANS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
7. Temirov, F. (2023). SADRIDDIN AYNIY IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARI. *Farg‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 71-71.
8. Maqsud, B. XX asr boshlari Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tarixiy adabiyotlarda bayoni. *Buxoro tarixi masalalari mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy (onlayn) konferensiya materiallari:–Buxoro-2021*, 258-263.
9. Komilovich, M. B., & O‘g, N. S. O. K. (2023). Abdulvahid Munzim and Young Bukharans. *Telematique*, 22(01), 1182-1185.
10. Umarov, B. (2023). ARAB MANBALARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI (“KITOB AL-MASOLIK VAL MAMALIK” MISOLIDA). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 38(38).

11. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
12. UMAROV, B. (2022). ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 94-100.
13. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ–ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
14. Maqsud, B. (2023). MUNZIM KIM EDI?. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(9), 1058-1065.
15. Beshimov Maqsud Komilovich “Mirzo Abdolvahid Munzim-A Well-Known Educator, Writer, Editor and Public Figure” *International Journal of Development and Public Policy*, 1 (7), 144–146.
16. Komilovich, B. M., & Temirov, F. (2023). MIRZA ABDULVAHID MUNZIM-BUKHARA JADIDIZM IS ONE OF THE ACTIVISTS OF THE MOVEMENT. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(3), 42-49.
17. Sherzod O‘ktam o‘g, N., & Komilovich, B. M. (2023). Illumination of socio-economic issues in Turkestan in the works of Professor Polat Soliyev. *Telematique*, 22(01), 1278-1282.
18. BESHIMOV, M. (2022). Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 78-83.
19. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОЙЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
20. Umedovich, T. F. (2022). SADRIDDIN AYNI-IN THE MEMOIRS OF HIS CONTEMPORARIES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 31-36.
21. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ЖАНУБИЙ ТОЖИКИСТОН ЭТНИК ТАРИХИ. *Scientific progress*, 1(6), 1005-1009.
22. Umedovich, T. F. (2022). On The Journalistic Work of Sadriddin Ayni Concerning Issues of Bukhara History. *Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IJSR)*, 6(1), 12-17.
23. BAXTISHOD, U., & ULUG‘BEK, Q. Y. (2022). MS ANDREEV-THE GREAT EASTERN SCIENTIST. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 120-123.
24. UMEDOVICH, T. F. (2021). THE PRESS ACTIVITY OF SADRIDDIN AYNI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(4), 57-62.
25. Umarov, B. (2021). NA KISLYAKOV TADQIQOTLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI FEODAL VA QISHLOQ XO ‘JALIGI MUNOSABATLARINING YORITILISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 6(6).
26. ogli Umarov, B. B. (2021). FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS IN NA KISLYAKOV'S RESEARCH. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 127-135.
27. Umarov B. БУХОРО ВОҲАСИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.

QUSHBEGI ARXIVI HUJJATLARINING BUXORO TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

Beshimov Maqsud Komilovich

BuxDU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8185270>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro amirligi qushbegi arxivi, undagi qo'lyozmalar va ularning ilmiy ahamiyati haqida so'z boradi. Shuningdek, Qushbegi arxivi katta qismini tashkil qiluvchi vaqf hujjatlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qushbegi arxivi, V.V.Bartold, A.A.Semenov, Muso Saidjonov, Buxoro muzeyi, amir Muzaffar, Sayyid Mirak yasovul, Hazrat Xo'ja Muhammad Vose', Xo'ja Abduvali.

ИСТОРИЯ БУХАРЫ ИЗ ДОКУМЕНТОВ АРХИВА КУШБЕГИ ВАЖНОСТЬ В ОБУЧЕНИИ

Аннотация. В этой статье рассказывается об архиве кушбеги Бухарского эмирата, содержащихся в нем рукописях и их научном значении. Также представлена ценная информация о документах фонда, составляющих большую часть архива Кушбеги.

Ключевые слова: архив Кушбеги, В.В.Бартольд, А.А.Семенов, Муса Сайджонов, Бухарский музей, Амир Музаффар, Сайид Мирак ясаул, хазрат Ходжа Мухаммад Восе, Ходжа Абдували.

THE HISTORY OF BUKHARA OF THE DOCUMENTS OF THE QUSHBEGI ARCHIVE IMPORTANCE IN LEARNING

Abstract. This article will talk about the qushbegi archive of the emirate of Bukhara, the manuscripts in it and their scientific significance. Valuable information is also provided about the foundation documents that make up a large part of the Qushbegi archive.

Keywords: Qushbegi archive, V.V.Bartold, A.A.Semenov, Moses Saidjonov, Bukhara Museum, amir Muzaffar, Sayyid Mirak yasovul, Hazrat Khoja Muhammad Vose', Khoja Abduwali.

Kirish (Introduction)

Buxoro amirligi hayotining barcha sohalarini qamrab olgan hujjatlar qushbegi mahkamasida saqlangani va shu yerdan turib ijroga yo'naltirilgani tufayli bu hujjatlar to'plami fanda qushbegi arxivi nomi bilan ma'lum. Qushbegi arxivi hozirda O'zbekiston Milliy arxivida saqlanmoqda.

Qushbegi arxiv hujjatlari qo'lyozma usulda, arab yozuvida yozilgan. XIX asrning 60-yillaridan XX asr 20-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlarga qaraganda, arxiv hujjatlarining umumiy soni 100 mingdan oshadi.

Mavzuga Oid Adabiyotlarning Tahlili (Literature Review)

Qushbegi arxiv hujjatlari Buxoroda sovet hokimiyati o'rnatilgan keyin Arkdagi yerto'lalardan birida topiladi. Hujjatlar maxsus sandiqlarda saqlangan. Lekin bu hali arxiv hujjatlarining hammasi emas edi. O'sha yillari Buxoroga tashrif buyurgan V.V.Bartold, A.A.Semenov oldida turgan muhim vazifa me'moriy obidalar, qo'lyozma kitoblar va tarixiy hujjatlarni o'rganish, ular muhofazasi bo'yicha maslahatlar berish edi. Qushbegi arxivi hujjatlarini ilmiy ro'yxatga olishga birinchilardan bo'lib qo'l urgan, ularning katta ilmiy, tarixiy ahamiyatga ega ekanligiga e'tibor qaratgan hamda e'tirof etgan shaxs mahalliy manbashunos Muso Saidjonov (1893-1938) hisoblanadi. 1920-yildan 1924-yilgacha Buxoro Xalq Respublikasi Nozirlar Sho'rosi

omborxonasida ro'yxatsiz yotgan ushbu hujjatlar Muso Saidjonov tashabbusi va bevosita ishtiroki bilan Buxoro shahar kutubxonasiga topshiriladi. Muso Saidjonov shaxsan o'zi kutubxonaga 50 nusxa qo'lyozma kitob, 69 ta vaqf hujjatini topshirgan.

Tadqiqot Metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur masalani bayon qilishda tarixiylik, ilmiy-ijodiy qiyoslash, tarixiy tanqidiylik metodlaridan o'rinli foydalanildi. Shuningdek, mantiqiylik va tarixiy uzviylik usullariga ham rioya qilingan.

Tahlil va Natijalar(Analysis and Results)

Arxivning ikkinchi katta qismi 1931-yil yana Ark binosidan topildi. 1933-yil barcha hujjatlar Buxoro muzeyi ixtiyoriga o'tkaziladi. Bu yerda ular muzey xodimlari tomonidan tartibga solinib, dastlabki ilmiy ishlovga tortildi. Xodimlar tuzgan ro'yxatga asosan mavjud hujjatlarning soni 77 ming 761 nusxani tashkil qilgan. Buxoro muzeyida saqlanayotgan qushbegi arxivi hujjatlari 1937-yil O'zbekiston SSR Markaziy tarixiy arxivi (hozirgi O'zbekiston Milliy arxivi) ixtiyoriga berildi. Lekin uning unchalik katta miqdorni tashkil etmagan qismi muzey ixtiyorida qoldirildi.

Qushbegi arxivi mavzu jihatdan keng qamrovli, unda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, xo'jalik, harbiy masalalarga oid hujjatlar mavjud. Jumladan, yer-suv, soliq, vaqf mulklari, tumanlar ro'yxati va hokozolar. Shu o'rinda amir Muzaffarning o'z amaldori Sayyid Mirak yasovul bilan qilgan yozishmalar to'plami diqqatga sazovor. To'plam aslida qushbegi arxivida saqlangan. Buxoroda sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng, yangi kutubxona tashkil etiladi va amir saroyidagi kitoblar, foliant (juda va qalin kitob) ichidagi hujjatlar to'plami ham shu kutubxona ixtiyoriga o'tkaziladi. Buxoro viloyat kutubxonasi sharq qo'lyozmalari 1938-yil Toshkentdagi Xalq kutubxonasiga (hozirgi Milliy kutubxona) beriladi. 1943-yil O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti tashkil topgandan so'ng, bu kutubxonadagi sharq qo'lyozmalari shu institut tasarrufiga o'tadi. Bular ichida yuqorida tilga olingan hujjatlar to'plami ham bor edi.

To'plamdagi 2 mingdan ortiq hujjatning 898 tasi amir Muzaffar bilan Sayyid Mirak yasovul o'rtasidagi yozishmalardir. Xronologik jihatdan ular 1860-1885-yillarni qamrab oladi. Amir Muzaffar tomonidan berilgan topshiriqlarning Sayyid Mirak yasovul tarafidan ijrosi yozma hisobot tarzida taqdim etilgan. Hujjatlar amirlik ijtimoiy-iqtisodiy, xo'jalik, madaniy hayotining turli qirralarini o'z ichiga oladi. Masalan, Qur'on, Haftiyak, Hidoya, Sharhi Hidoya kitoblarini sotib olish uchun ayrim davlat mulozimlariga xazinadan mablag' ajratish, ba'zi shaxslarga o'z buyumlarini Samarqand, Qo'qon, Kitob shaharlariga olib borish uchun arava ajratish, madrasa daromadlarini taqsimlash, madrasa mudarrisleri va masjid muazzinlarining daromad miqdori, vaqf ob'yektlari ro'yxati, ayrim masjidlarning vaqf daromadi miqdori, (masalan, Mehtar Anbar masjidi yillik vaqf daromadi 700 tangani tashkil etgan), doimiy va vaqtinchalik yashash uchun hujra ajratish, harbiy qurollar – qilich, qalqon, pichoq berish, vayron bo'lgan ko'priklarni ta'mirlash va hokozolar.

Amir Muzaffarning yozma topshiriqlari ichida quyidagilar amirlik ijtimoiy hayotini o'rganish uchun ahamiyatli. Ba'zi joylarning Buxorodan necha chaqirim masofada joylashganini otda yurib soat millari asosida vaqt bilan o'lchash, amir tabiatga sayohatga chiqqanda tunash uchun asqotadigan mulkdor shaxslarning katta va keng hovlilari joylashgan qishloqlarni aniqlash kabilar. Sayyid Mirak yasovul amirga bergan yozma hisobotlarida joylarning tarixiy geografiyasi

to'g'risida to'xtalib o'tadi. Nurota atrofidagi aholi punktlari va quduqlar, ya'ni korizlar ro'yxatini keltiradi. Ularning aholi punktidan va bir-biridan necha chaqirim masofada joylashgani qayd etiladi. Shuningdek, ba'zi tarixiy obidalarga olib boradigan yo'llar va ularning holati haqida ham ma'lumot bor. Yozishmalarda ko'rsatilishicha, Buxorodan shimoli-sharqda, cho'l etagida joylashgan Hazrati Xo'ja Qo'shka'b mozoriga uchta yo'l olib borgan. Ulardan biri Hazrati Amir Kulol, ikkinchisi Qishloq Husayn Xo'ja, uchinchisi Kalobod degan joydan o'tgan. Bulardan eng yaxshisi alohida ko'rsatilgan.

Bizgacha yetib kelmagan me'moriy majmua to'g'risida ma'lumot beruvchi bir hujjat diqqatni tortadi. Bu me'moriy majmua Hazrat Xo'ja Muhammad Vose' qabri atrofida joylashgan masjid, xonaqoh va madrasadan iborat bo'lgan. Uning joylashgan joyi hozirgi Qiziltepa tumani Zarmetan aholi punkti yaqinidagi hududga to'g'ri keladi. Hujjatga ko'ra, me'moriy majmua atrofi obod bo'lib, bog' bilan o'ralgan. Masjid, xonaqoh, madrasa foydasiga 253 tanob yer vaqf qilingan va yillik daromad 800 tangani tashkil etgan. Bog' ichida joylashgan xonaqoh pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, to'rt ustunga tayanib turgan. Ustunlar orasida Hazrat Xo'ja Muhammad Vose'ning qabri joylashgan. Xonaqohning uzunligi 14 gaz, eni 12 gaz bo'lgan. Xonaqohdan 50 metr g'arbda 45 bolordan iborat jome' masjidi joy olgan. Masjid olti eshikli va bir necha naqshinkor ustunga ega. Masjidning g'arb tomonida esa o'n hujradan iborat madrasa qad rostlab turgan. Madrasa hujralaridan biri yetti bolorli bo'lib, ichkarisi ganj bilan ishlangan. Yoz oylari madrasada talabalar yig'ilib, mutolaa bilan mashg'ul bo'lishgan.

Qo'lyozma hujjat – yozishmada Buxoro shahridagi Mavlono Miskin, Xiyobon, Poyanda, Jo'ybor, Muhammad Nazar parvonachi, Ja'farxo'ja, Xo'ja Nihol, Xo'ja Davlat, Oypochchabibi madrasalari ham tilga olinadi.

Qushbegi arxivi katta qismini vaqf hujjatlari tashkil qiladi. Vaqf hujjatlarining muayyan qismi tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, hali ilmiy muomalaga kiritilmagan ko'plab hujjatlar borligini ta'kidlash o'rinli. Shundaylardan ayrimlari to'g'risida ma'lumot bermoqchimiz.

1679-yilda Xo'ja Abduvali degan shaxs tarafidan Somjin tumanidagi 80 tanob yer Buxoro shahridagi Zargaron guzarida joylashgan Xo'ja Azizon masjidi foydasiga vaqf qilinadi. Vaqf shartlariga binoan, mutavalli ta'sisichining o'zi. Uning vafotidan so'ng bu vakolat uning qizi Xonimjon begimga o'tishi kerak. Xonimjon begim vafotidan so'ng mutavallilik uning avlodiga tegadi. Ta'sisichining avlodidan hech kim qolmagan taqdirda, Buxoro qozisi o'zi munosib ko'rgan biror kishini mutavalli etib tayinlashi mumkin. Hujjatda Xo'ja Azizon masjidi Zargaron guzarida joylashgani, g'arb tomondan Niyoz bin Abdullo degan shaxsning hovlisi va qisman yo'l bilan, shimol tarafdin Mullo Shoh Husayn bin Mullo Nazar hovlisi, sharq va janub tomondan asosiy yo'l bilan tutashligi aytiladi. Vaqf daromadidan imom va muazzinga beriladigan ulush vaqf shartlarida ko'rsatilgan.

Qushbegi arxivi hujjatlari asosida Buxoro amirligi tarixining kam o'rganilgan tomonlarini tadqiq qilish, ayrim jihatlariga aniqlik kiritish imkoniga ega bo'lamiz.

Xulosa va takliflar(Conclusion)

Buxoro tarixini o'rganishda narrativ adabiyotlarning ahamiyati yuqoriligini e'tirof etgan holda, qo'lyozma hujjatlarining alohida qimmatini nazardan qochirmaslik kerak. Ular kundalik hayotdagi muammolarni aks ettirish barobarida, ularning yechimi to'g'risidagi masalalarni ham qamrab olgan. Qo'lyozma hujjat turlarining xilma-xilligi har bir soha bo'yicha maxsus hujjatlar tuzilganidan dalolat beradi. O'rta asr ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlari ko'proq vaqf

hujjatlarida aks etganki, bu hujjatlar vaqf munosabatlarini alohida iqtisodiy kategoriya deb hisoblashga asos bo'ldi. Buxoro ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarini rekonstruksiya qilishda qushbegi arxiv hujjatlari birlamchi manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи ёзма манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001.
2. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. -Т.: Ўқитувчи.1994.
3. Анке фон Кюгельген. Легимитация среднеазиатских династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв). – Алматы: Институт Востока Германского Восточного общества, 2004.
4. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
5. Maqsud, B. XX asr boshlari Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tarixiy adabiyotlarda bayoni. *Buxoro tarixi masalalari mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy (onlayn) konferensiya materiallari:–Buxoro-2021*, 258-263.
6. Komilovich, M. B., & O'g, N. S. O. K. (2023). Abdulvahid Munzim and Young Bukharans. *Telematique*, 22(01), 1182-1185.
7. Maqsud, B. (2023). MUNZIM KIM EDI?. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(9), 1058-1065.
8. O'G'Li, U. B. B., & Temirov, F. (2023). SOURCES OF INFORMATION ON THE SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE SOMANIAN DYNASTY. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(3), 35-41.
9. Umarov, B. B. O. (2022). SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE DURING THE RULE OF THE SOMANIANS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
10. Temirov, F. (2023). SADRIDDIN AYNİY IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARI. *Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 71-71.
11. Umarov, B. (2023). ARAB MANBALARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI (“KITOB AL-MASOLIK VAL MAMALIK” MISOLIDA). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 38(38).
12. Beshimov Maqsud Komilovich “Mirzo Abdulvahid Munzim-A Well-Known Educator, Writer, Editor and Public Figure” *International Journal of Development and Public Policy*, 1 (7), 144–146.
13. Komilovich, B. M., & Temirov, F. (2023). MIRZA ABDULVAHID MUNZIM-BUKHARA JADIDIZM IS ONE OF THE ACTIVISTS OF THE MOVEMENT. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(3), 42-49.
14. Sherzod O'ktam o'g, N., & Komilovich, B. M. (2023). Illumination of socio-economic issues in Turkestan in the works of Professor Polat Soliyev. *Telematique*, 22(01), 1278-1282.
15. BESHIMOV, M. (2022). Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 78-83.

16. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
17. UMAROV, V. (2022). ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 94-100.
18. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ–ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
19. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
20. Umedovich, T. F. (2022). SADRIDDIN AYNI-IN THE MEMOIRS OF HIS CONTEMPORARIES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 31-36.
21. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ЖАНУБИЙ ТОЖИКИСТОН ЭТНИК ТАРИХИ. *Scientific progress*, 1(6), 1005-1009.
22. Umedovich, T. F. (2022). On The Journalistic Work of Sadriddin Ayni Concerning Issues of Bukhara History. *Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IJSR)*, 6(1), 12-17.
23. BAXTISHOD, U., & ULUG‘BEK, Q. Y. (2022). MS ANDREEV-THE GREAT EASTERN SCIENTIST. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 120-123.
24. UMEDOVICH, T. F. (2021). THE PRESS ACTIVITY OF SADRIDDIN AYNI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(4), 57-62.
25. Umarov, V. (2021). NA KISLYAKOV TADQIQOTLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI FEODAL VA QISHLOQ XO‘JALIGI MUNOSABATLARINING YORITILISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 6(6).
26. ogli Umarov, V. B. (2021). FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS IN NA KISLYAKOV'S RESEARCH. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 127-135.
27. Umarov V. БУХОРО ВОҲАСИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.

“TARIXI MUQIMXONIY”, “UBAYDULLANOMA” ASARLARI BUXORO TARIXINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA

Beshimov Maqsud Komilovich

BuxDU o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8185282>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” asari va undagi boshqa asarlarda uchramaydigan qimmatli ma’lumotlar to’g’risda so’z boradi. Shuningdek, Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” asarining Buxoroning XVII asr oxiri XVIII asr boshlari ijtimoiy-madaniy hayotini o‘rganishdagi ahamiyati izohlab berilgan.

Kalit so‘zlar: Muhammad Yusuf Munshiy, “Tarixi Muqimxoniy”, A.A.Semyonov, A.F.Negri, ingliz elchisi A.Borns, Abdulmo‘min, Dinmuhammadxon, Hazrat Mavlono Muhammad Zohid, Mir Muhammad Amin Buxoriy, “Ubaydullanoma”, Sayyido Nasafiy, Qosimxo‘ja, Oxund Mulla Usmon, Shahobiddin.

РАБОТЫ ”ТАРИХИ МУКИМХАНИ“, ”УБАЙДУЛЛИНОМА ”ЯВЛЯЮТСЯ ВАЖНЫМ ИСТОЧНИКОМ ПО ИЗУЧЕНИЮ ИСТОРИИ БУХАРЫ

Аннотация. В этой статье рассматривается история Муқимхани " Мухаммада Юсуфа Мунши и ценная информация в ней, которой нет в других работах. Также объясняется значение работы Мир Мухаммад Амина Бухари “Убайдуллонома” в изучении социокультурной жизни Бухары конца XVII-начала XVIII веков.

Ключевые слова: Мухаммад Юсуф Мунши, “Тарихи муқимхани”, А.А.Семенов, А.Ф.Негри, английский посол А.Борнс, Абдулмумин, Динмухаммад Хан, Хазрат Мавлана Мухаммад Захид, Мир Мухаммад Амин Бухари, “Убайдуллонома”, Сайид Насафи, Касимходжа, Ахунд Мулла Осман, Шахабиддин.

THE WORKS "HISTORY OF MUQIMKHANI", "UBAYDULLANOMA" ARE IMPORTANT SOURCES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF BUKHARA

Abstract. In this article, the valuable information not found in Muhammad Yusuf Munshi's "history of Muqimkhani" and other works in it is truthful. The importance of Mir Muhammad Amin Bukhari's "Ubaydullanoma" in the study of the socio-cultural life of Bukhara at the end of the 17th century to the beginning of the 18th century is also explained.

Keywords: Muhammad Yusuf Munshiy, "history of Muqimkhani", A.A.Semyonov, A.F.Negri, British Ambassador A.Borns, Abdulmomin, Dinmuhammadkhan, Hazrat Mavlono Muhammad Zahid, Mir Muhammad Amin Bukhari, "Ubaydullanoma", Sayyido Nasafi, Kasimkhoja, Akhund Mulla Usman, Shahobiddin.

Kirish (Introduction)

Ashtarxoniyalar davri xususida yorqin ma’lumotlar beruvchi tarixiy manbalardan biri Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” asaridir. Asar o‘z nomiga ko‘ra, Balx xoni Muhammad Muqimxonga (1697-1707) bag‘ishlangan. Muhammad Muqimxon davrida muallif saroy munshiyi lavozimida xizmat qilgan. Asar 1697-1704-yillar orasida yozib tugallangan. Uning qo‘lyozma nusxalari keng tarqalgan, shu bois Yevropa, Rossiya, O‘zbekistonda atroflicha o‘rganilgan. Asarning A.A.Semyonov tomonidan rus tiliga qilingan ilmiy-izohli tarjimasini 1956-yil Toshkentda nashr etildi.

Mavzuga Oid Adabiyotlarning Tahlili (Literature Review)

1820-1821-yillarda Buxoroga tashrif buyurgan rus elchisi A.F.Negri Buxoro hukmdori amir Haydardan (1800-1826) sovg'a tariqasida Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy" asari qo'lyozma nusxasini qabul qiladi va o'zi bilan Peterburgga olib ketadi. Shuningdek, ingliz elchisi A.Borns 1832-yil Buxoroda bo'lib, asarning ikkinchi qo'lyozma nusxasini qo'lga kiritadi va uni Angliyaga olib ketadi. Keyinchalik bu asar Buyuk Britaniya qirolligi kutubxonasiga kelib tushadi. Shu tariqa "Tarixi Muqimxoniy" Yevropaga ma'lum bo'ladi va asar ustida ilmiy tadqiqotlar olib boriladi.

Tadqiqot Metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur masalani bayon qilishda tarixiylik, ilmiy-ijodiy qiyoslash, tarixiy tanqidiylik metodlaridan o'rinli foydalanildi. Shuningdek, mantiqiylik va tarixiy uzviylik usullariga ham rioya qilingan.

Tahlil va Natijalar(Analysis and Results)

"Tarixi Muqimxoniy" muqaddima va uch bobdan iborat. Muqaddimada turkiy xalqlarning kelib chiqishi afsonaviy Alanquva bilan bog'lanib, Chingizxonning ota-bobolari, mo'g'ullar tomonidan Movarounnahr va unga yondosh hududlarning bosib olinishi muxtasar yoritiladi. Birinchi bob shayboniylar davri tarixiga bag'ishlangan. Ikkinchi bob Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, Hindiston, Eron, Turkiya va Qoshg'ar bilan munosabatlarini o'z ichiga oladi. Uchinchi bobda Buxoro bilan Balx o'rtasidagi qurolli kurash aks etgan.

Asarda bevosita Buxoro ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotiga oid ma'lumotlar bor, aynan shularga to'xtalish ushbu darslikning maqsad doirasiga kiradi. Shayboniylar sulolasining inqirozi, Abdulmo'minning o'ldirilishi va ashtarxoniyalar hukmronligining boshlanishi asarda mayda detallar bilan yoritib berilgan. Asarga murojaat qiladigan bo'lsak, bularning barchasiga guvoh bo'lamiz.

1572-yil Abdullaxon Balxni egalladi va oradan o'n yil o'tgach, ya'ni 1582-yil o'n besh yoshli o'g'li Abdulmo'minni Balx hokimi etib tayinladi. Abdulmo'min hali yosh bo'lganligi uchun amir Jonkeldibiyuni unga otaliq etib belgiladi. Unga qadar shahar hokimi Abdullaxonning amakivachchasi Dinmuhammadxon edi. Abdullaxonning o'z o'g'li Abdulmo'minni Balxga yuborishi Dinmuhammadxonni katta tashvishga soldi. Chunki Abdulmo'min harbiy qo'shin bilan Balx tomonga otlangan edi. Dinmuhammadxon ruhoniylar Hazrat Mavlono Muhammad Zohidga (taxallusi Maxdumi bozorcha, vafoti 1594-yil) murojaat etib undan ikkala tomonni murosaga keltirishni iltimos qiladi. Iltimosga muvofiq, Mavlono Muhammad Zohid Abdulmo'min huzuriga kelib, unga Dinmuhammadxon o'zini Abdulmo'minga tobe deb hisoblashini yetkazadi.

Bunga javoban Abdulmo'min Dinmuhammadxonning gaplari rost bo'lsa hech qanday tashvish tortmasdan o'z oldiga kelishini, agar u istasa Balxni unga qoldirib, o'zi Xurosonga ketishini va yoxud Xuroson hukmdorligiga talabgor bo'lsa, uning bu istagini ham amalga oshirishga tayyor ekanligini bildiradi. Abdulmo'min Dinmuhammadxon tomonidan elchi qilib yuborilgan shayxni, ya'ni Mavlono Muhammad Zohidni turli sovg'alar bilan siylaydi. Dinmuhammadxonga esa shayx orqali qimmatbaho to'n in'om etadi. Mavlono Muhammad Zohid boshchiligidagi elchilar guruhi Dinmuhammadxon huzuriga kelib Abdulmo'minning so'zlarini yetkazgach, Dinmuhammadxon Abdulmo'minning bu iltifotini zaiflik deb hisoblab, tezda unga qarshi qo'shin tortishga farmon berdi. Uning bunday yo'l tutishi shayxning qon to'kilishining oldini olish uchun qilgan sa'y-harakatlarini chippakka chiqardi. G'azabga mingan Abdulmo'min

Balxga hujum qilib, o'n oy davom etgan qamaldan so'ng uni zabt etishga muvaffaq bo'ldi. Bo'lib o'tgan janglarda Dinmuhammadxon halok bo'ldi.

Balxning to'la hukmdori bo'lib olgan Abdulmo'min qator obodonchilik ishlari olib bordi. Vayron bo'lgan Balx qal'asini o'ta qattiqqo'llik bilan olti oy ichida qayta tikladi. Ish davomida dangasalik qilgan kishilar og'ir jazolandi. Balx qal'asining old qismi, Xo'ja Anoshi maqbarasi, Bobo Jonboz chorsusi va boshqa binolar Abdulmo'min buyrug'i bilan ta'mir etildi.

Shahzoda Abdulmo'min shialikni rasmiy din sifatida qabul qilgan Safaviylar davlati (1502-1736) bilan boshqa shayboniyzodalar singari murosasiz kurash olib bordi. 1589-yil u Mashhadga yurish qilib, uni qamal etdi. Qamalda qolgan mashhadliklar shaharni topshirish shartlari to'g'risida Abdulmo'min bilan kelishib olish maqsadida uning oldiga o'z vakillarini yuborishdi. Lekin Abdulmo'min buyrug'i bilan muzokaraga kelgan vakil qatl etildi. To'rt oylik qamaldan so'ng Mashhad egallanib, uch kun mobaynida talandi, yondirildi. Asirga olingan kishilar Movarounnahrda jo'natildi. Muqaddas Ali Rizo mozori yaqinida dafn etilgan Shoh Taxmosp (1524-1576) qabri buzib tashlanib, uning suyaklari g'ayridinning suyaklari sifatida yondirildi. Shahzoda Abdulmo'min o'z bobokaloni Muhammad Shayboniyxonning (1451-1510) safaviylar tomonidan tahqirlangan jonsiz jasad uchun o'ch oldi.

Otasining vafoti haqidagi xabarni eshitgan Abdulmo'min tezda Buxoroga yetib kelib, taxtni egalladi. Taxtga o'tirgach, otasining barcha yaqin amaldorlarini qirg'in qilishga kirishdi. Uning buyrug'i bilan Qulbob ko'kaldoshning bo'yniga kunda urilib, Hirotdan Buxoroga keltirildi va qatl etildi. Abdulmo'minning qattiqqo'llik bilan yurgizgan siyosati Abdullaxon tarafdorlarini befarq qoldirmadi va hukmronligidan olti oy o'tgach, ya'ni 1598-yil yozida Abdulmo'min bir guruh fitnachilar tomonidan o'ldirildi.

Suiqasd tayyorlanishi xususida "Tarixi Muqimxoniy"dagi ma'lumotlar e'tiborni tortadi. Norozi shaxslar maxfiy majlisga yig'ilib, Abdulmo'min ustidan hukm chiqaradilar. Ular orasida yoshi ulug'roq biri kishi o'rnidan turib, yig'ilganlarning yuragiga qo'lini bir-bir qo'yib ko'radi. Ikki kishining yuragidan boshqa barchaning yuragi hayajonda ekanligi ma'lum bo'ladi. Xonni, ya'ni Abdulmo'minni o'ldirish shu ikki kishiga topshirildi. Bular Abdulsamadbiy va Muhammadqulibiy edi. Shundan so'ng fitnachilar ov qilishni bahona qilib, Abdulmo'minxonni Zomin tomonga olib boradilar. Xon, albatta, fitnadan bexabar edi. Kechqurun fitnachilar xondan yashirin ravishda o'tish qiyin bo'lgan bir tor joyni tanlab, uni suvga to'ldiradilar va ikki tomonidan xandaq qazib, unga yuqoridagi ikki qotilni joylashtiradilar. Erta tongda xonni otga o'tqizib ov bahonasida shu joyga yetib keldilar. Suvdan o'tayotganda xonga iflos suvlarni sachratmaslikni vaj qilib, fitnachilar ataylab xondan orqada qoldilar. Xon qatl uchun tayyorlab qo'yilgan joyga yetib kelgach, yashirinib yotgan Muhammadqulibiy xandaqdan chiqib, xonga kamondan o'q otdi. O'q kelib xonning biqiniga sanchildi. Shunda ikkinchi qotil ham kamondan o'q otib, xonga jarohat yetkazdi. Xon otdan yerga qulab tushgach, ikkala qotil ham yugurib kelib, xonning kallasini chopib tashlashdi.

Abdulmo'minxonning o'limi Movarounnahrda yuz yildan ortiqroq hukmronlik qilgan Shayboniy sulolasi inqirozining ibtidosi edi.

Yuqoridagi ma'lumotlarning boshqa tarixiy asarlarda uchramasligi "Tarixi Muqimxoniy" ning Buxoro tarixi bo'yicha muhim manbalardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" asari bir qarashda "Tarixi Muqimxoniy"ning davomidek tuyulsa-da, asardagi voqealar xronologiyasi, ba'zi ibratomuz

naqlar, Ubaydullaxon faoliyatining ayrim jihatlariga tanqidiy munosabat kabilar bilan “Tarixi Muqimxoniy” dan farq qiladi va mustaqil asar hisoblanadi. Asar muallifi Mir Muhammad Amin Buxoriy o‘z davrining o‘qimishli, fozil kishilaridan bo‘lgan. 1645-yilda tug‘ilgan, vafoti sanasi noma’lum. Subhonqulixon va Ubaydullaxon saroyida bosh munshiy vazifasida xizmat qilgan. **“Ubaydullanoma”** 1716-yildan keyin yozib tugallangan. Asar Buxoro xonligining 1702-1716-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotidan bahs yuritadi. Muqaddima, xotima va 80 bobdan iborat.

Asarning o‘ndan ortiq nusxalari mavjud. **“Ubaydullanoma”** sharqshunos A.A.Semyonov tomonidan rus tiliga ilmiy-izohlar bilan to‘la tarjima qilingan.

“Ubaydullanoma”da yer egaligi va soliq turlari, davlat tuzumi, iqtisodiy muammolar, geografik va etnografik masalalar, turli qabilalar va ularning ijtimoiy mavqei xususidagi ma’lumotlar jamlangan. Xotimada muallif zamondoshlari bo‘lmish buxorolik olim, shoirlar, masalan, Sayyido Nasafiy, Qosimxo‘ja, Mulla Sarafroz, Mulham, shuningdek, qozilar haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

Muallif Ubaydullaxon hukmronlik yillarini ikki davrga bo‘lib talqin qiladi. Birinchi davrdagi faoliyatiga ijobiy baho bergan holda, ikkinchi davrni tanqid va kinoyalarga o‘rab tashlaydi. Hukmronligining dastlabki yillarida xalq tinch, farovon, xavfsiz yashaganligi, shahar va qishloqlar gullab-yashaganligi ta’kidlanadi. Obrazli qilib, “Ubaydullaxon podsholigining dastlabki yillarida qo‘zichoq ona sherni emardi,”- deb tasvirlaydi, muallif.

Ikkinchi davrda xon to‘g‘ri yo‘ldan og‘ib, atrofiga qabih, razil, noqobil, diyonatsiz, xushomadgo‘y, maddohlarni to‘pladi va aynan shundaylar Ubaydullaxonni chalg‘itishdi, deyiladi asarda. Ko‘pchiligi o‘z maishatini o‘ylar, ko‘ngil xushlikni xush ko‘rar, ba’zilar esa hatto muqaddas joylarda bazm-u jamshidlar qurishga moyil edi. Bunday shaxslar Ubaydullaxonga yaqinlashib olgach, mamlakatdagi haqiqiy ahvol to‘g‘risida xonga noto‘g‘ri, yolg‘on ma’lumotlar berdilar. Hunarmand va savdogarlar ham amalga qiziqib qolib, yuqori mansablarni egallashga harakat qildilar. Ubaydullaxon bu yaramas shaxslar bilan yaqinlashgach, olim-u fuzalolar suhbatidan uzoqlashdi. Amirlar va lashkarlar, vazirlar va ruhoniylar o‘rtasida nifoq paydo bo‘la boshladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, **“Ubaydullanoma”**da zamon ulug‘lari ta’rifiga asarning xotima qismida muayyan o‘rin berilgan. Shulardan biri Oxund Mulla Usmon bo‘lib, u zamonasining e’tiborli diniy ulamolaridan edi. Ubaydullaxon tez-tez uni o‘z majlislariga chaqirib, ma’rifiy suhbatlaridan bahra olgan.

Subhonqulixon va Ubaydullaxonning muruvvatiga sazovor bo‘lgan yana bir shaxs - qozikalon amir Shahobiddin hisoblanadi. Subhonqulixon uni Masjidi Kalonning imomi etib tayinlaydi. Ubaydullaxon zamonida u imomlik va qozilik vazifalarini uyg‘un holda bajarib borgan. Adolatsizlikka yo‘l qo‘ygan mudarris va mutavalilarni vazifasidan bo‘shatish uning zimmasiga yuklangan edi. Kishilar bilan munosabatda u juda xushmuomala bo‘lganligi ta’kidlanadi. 1710-yil vafot etgach, Fathobod mavzesidagi Shayx ul-olam mozoriga dafn qilinadi. Shuningdek, asarda qozi Abulbarakat, qozi Ibrohim, Mulla Sadriddin a’lam, Habibullo mufti, qozi Lutfullo, qozi Abdulla, qozi Hamid va ularning adolat mezonlariga tayanuvchi faoliyati haqida qiziqarli ma’lumotlar bor.

Xulosa va takliflar(Conclusion)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi ma'lumotlarning boshqa tarixiy asarlarda uchramasligi "Tarixi Muqimxoniy" ning Buxoro tarixi bo'yicha muhim manbalardan biri ekanligini tasdiqlasa, Buxoroning XVII asr oxiri XVIII asr boshlari ijtimoiy-madaniy hayotini o'rganishda "Ubaydullanoma"ning axborot qamrovi hamon o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

REFERENCES

1. Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. – Ташкент: Изд-во. АН УзССР, 1956.
2. Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдулла-наме / Перевод с таджикского, предисловие, примечания А. А.Семенова. – Ташкент: Фан, 1957. – Б. 228.
3. Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи ёзма манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001.
4. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
5. Maqsud, B. XX asr boshlari Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tarixiy adabiyotlarda bayoni. *Buxoro tarixi masalalari mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy (onlayn) konferensiya materiallari:–Buxoro-2021*, 258-263.
6. Komilovich, M. B., & O'g, N. S. O. K. (2023). Abdulvahid Munzim and Young Bukharans. *Telematique*, 22(01), 1182-1185.
7. Maqsud, B. (2023). MUNZIM KIM EDI?. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(9), 1058-1065.
8. Beshimov Maqsud Komilovich "Mirzo Abdulvahid Munzim-A Well-Known Educator, Writer, Editor and Public Figure" *International Journal of Development and Public Policy*, 1 (7), 144–146.
9. O'G'Li, U. B. B., & Temirov, F. (2023). SOURCES OF INFORMATION ON THE SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE SOMANIAN DYNASTY. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(3), 35-41.
10. Umarov, B. B. O. (2022). SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE DURING THE RULE OF THE SOMANIANS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
11. Temirov, F. (2023). SADRIDDIN AYNII IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARI. *Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 71-71.
12. Umarov, B. (2023). ARAB MANBALARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI ("KITOB AL-MASOLIK VAL MAMALIK" MISOLIDA). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 38(38).
13. Komilovich, B. M., & Temirov, F. (2023). MIRZA ABDULVAHID MUNZIM-BUKHARA JADIDIZM IS ONE OF THE ACTIVISTS OF THE MOVEMENT. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(3), 42-49.
14. Sherzod O'ktam o'g, N., & Komilovich, B. M. (2023). Illumination of socio-economic issues in Turkestan in the works of Professor Polat Soliyev. *Telematique*, 22(01), 1278-1282.

15. BESHIMOV, M. (2022). Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 78-83.
16. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
17. UMAROV, B. (2022). ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 94-100.
18. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ-ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
19. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКИДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
20. Umedovich, T. F. (2022). SADRIDDIN AYNI-IN THE MEMOIRS OF HIS CONTEMPORARIES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 31-36.
21. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ЖАНУБИЙ ТОЖИКИСТОН ЭТНИК ТАРИХИ. *Scientific progress*, 1(6), 1005-1009.
22. Umedovich, T. F. (2022). On The Journalistic Work of Sadriddin Ayni Concerning Issues of Bukhara History. *Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IIJSR)*, 6(1), 12-17.
23. BAXTISHOD, U., & ULUG‘BEK, Q. Y. (2022). MS ANDREEV-THE GREAT EASTERN SCIENTIST. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 120-123.
24. UMEDOVICH, T. F. (2021). THE PRESS ACTIVITY OF SADRIDDIN AYNI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(4), 57-62.
25. Umarov, B. (2021). NA KISLYAKOV TADQIQOTLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI FEODAL VA QISHLOQ XO ‘JALIGI MUNOSABATLARINING YORITILISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 6(6).
26. ogli Umarov, B. B. (2021). FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS IN NA KISLYAKOV'S RESEARCH. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 127-135.
27. Umarov B. БУХОРО ВОҲАСИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.

MIRZO SOMIY ASARLARIDA ROSSIYA IMPERIYASI TAJOVUZI MASALALARI

Beshimov Maqsud Komilovich

BuxDU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8185304>

Annotatsiya. Maqolada Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniyning, "Daxmai shohon", "Tuhfai shohiy", "Tarixi salotini mang'itiya" asarlari xususida qisqacha sharhlar o'rin olgan bo'lib, Mirzo Somiyning tarixnavislik faoliyati va Buxoro amirlarining faoliyati, ayniqsa amir Muzaffarning hukmronlik davri haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Rossiya imperiyasining istilochilik harakatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniy, "Daxmai shohon", "Tuhfai shohiy", "Tarixi salotini mang'itiya", L.M.Yepifanova, Ahmad Donish, amir Muzaffar, Mirzo Sadiq Munshiy, Kaufman, Muhammad Shukurbiy, Abdulmalikto'ra.

ВОПРОСЫ АГРЕССИИ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МИРЗЫ СОМИ

Аннотация. В статье содержатся краткие комментарии к трудам Мирзы абдулазима Соми бостани, "Дахмай Шах", "тухфай Шах", "Тарихи салотини мангития", даются сведения о историографической деятельности Мирзы Соми и деятельности бухарских эмиров, особенно о периоде правления эмира Музаффар. Также Раскрыты завоевательные действия Российской империи.

Ключевые слова: Мирза абдулазим Соми бостани, "Дахмай Шах", "тухфай Шах", "Тарихи салотини мангития", л.М.Епифанова, Ахмад Донии, Амир Музаффар, Мирза садик Муниши, Кауфман, Мухаммад Шукурби, Абдулмаликтура.

ISSUES OF AGGRESSION OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE WORKS OF MIRZO SOMI

Abstract. The article includes a brief commentary on the works of Mirzo Abdulazim Somi Bo'stoni, "Daxmai shohon", "tuhfai shohiy", "Historia salotini mangitiya", with references to Mirzo Somi's historiographical career and the activities of the Bukharan emirs, especially amir Muzaffar's reign. The occupation efforts of the Russian Empire are also revealed.

Keywords: Mirzo Abdulazim Somi Bo'stani, "Daxmai shohon", "tuhfai shohiy", "history salotini mangitiya", L.M.Yepifanova, Ahmad Donish, amir Muzaffar, Mirza Sadiq Munshiy, Kaufman, Muhammad Shukurbi, Abdulmaliktora.

Kirish (Introduction)

Buxoroning so'nggi o'rta asrlar ilmiy – adabiy muhiti va tarixnavisligida yuqori mavqega ega bo'lgan Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniyning (1838-1907) ijod yo'li serqirraligi bilan diqqatga sazovor. Tarixnavislik, shoirlilik, xattotlik, munshiylik kabi sohalarida qalam tebratgan bu ijodkor ilmiy maydonda ko'proq muarrix sifatida nom qozondi. "Mir'ot ul-xayol", "Manozir al-insho" singari asarlar va salmoqli she'riy misralar uning adabiy ijodini bezab tursa, "Daxmai shohon", "Tuhfai shohiy", "Tarixi salotini mang'itiya" kabi asarlar tarixiy merosining umrboqiy yodgorliklari sifatida hanuzgacha o'z qimmatini saqlab kelmoqda hamda zamon ahli, tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda. "Tarixi salotini mang'itiya"ning L.M.Yepifanova tomonidan rus tiliga qilingan ilmiy-izohli tarjimasini 1962-yil Moskvada chop etildi.

Mavzuga Oid Adabiyotlarning Tahlili (Literature Review)

Mirzo Somiy uzoq yillar Buxoro hukmdorlaridan amir Muzaffar (1860-1885) va amir Abdulahad (1885-1910) saroyida munshiylik vazifasida xizmat qildi. Rossiya imperiyasi istilolari davrida amir Muzaffar qo‘shinida voqealarni yozib boruvchi (navisanda) shaxs sifatida ishtirok etdi. U saroy tarixchisi edi. 1898-yil saroy xizmatidan chetlashtirilgach, ijtimoiy qarashlarida ayrim o‘zgarishlar yuz berdi. Takalluflar bilan xizmat qilib, muruvvatlar ko‘rgan mang‘it amirlari faoliyatining ba‘zi qirralariga nisbatan yumshoq tanqidiy munosabat paydo bo‘ldi va bu munosabat tarixiy asarlari sahifalariga ko‘chdi. Bir muddat saroyda xizmat qilgan boshqa bir tarixchi – Ahmad Donish bilan taqqoslaganda, Mirzo Somiyda mang‘it amirlari faoliyatiga nisbatan mo‘tadillik va xolislikni sezish mumkin

Mirzo Somiy birin – ketin yozilgan uch tarixiy asar muallifi. Uchala asar ham saroy xizmatidan bo‘shagandan va oltmish yoshdan oshgandan keyin yozilgan. Bular “Daxmayi shohon” (1902-yil), “Tuhfai shohiy” (1903-yil), “Tarixi salotini mang‘itiya” (1906-1907-yillar). “Daxmai shohon” masnaviyda yozilgan tarix. Ba‘zi mulliflar uni adabiy asar sifatida talqin qilishadi. Bu ham to‘g‘ri. Biz asarni tarixiy janr sirasiga kiritdik va bizningcha, ikki xil yondashuv ham to‘g‘ri va bir-birini inkor qilmaydi. Aslida ushbu asar Mirzo Somiy tomonidan Mirzo Sodiq Munshiyning shu nomdagi asariga ilova tariqasida yozilgan. Asarning 1/3 qismi Mirzo Somiyga tegishli. Mirzo Sodiq Munshiy ashtarxoniy hukmdorlar tarixini yozgan bo‘lsa, Mirzo Somiy mang‘it amirlaridan Muhammad Rahimxondan boshlab amir Muzaffargacha o‘tgan mang‘it amirlari va amir Muzaffar tarixini masnaviyda tasvirlab bergan.

Tadqiqot Metodologiyasi (Research Methodology)

Mazkur masalani bayon qilishda tarixiylik, ilmiy-ijodiy qiyoslash, tarixiy tanqidiylik metodlaridan o‘rinli foydalanildi. Shuningdek, mantiqiylik va tarixiy uzviylik usullariga ham rioya qilingan.

Tahlil va Natijalar(Analysis and Results)

“Daxmayi shohon”ning qo‘lyozma nusxalari keng tarqalgan. Bir qo‘lyozma nusxasi Buxoro muzeyida saqlanadi. Muallifning mang‘it amirlari faoliyatiga qarashlari turlicha. Muhammad Rahimxon, amir Nasrullo kabi hukmdorlar salbiy bo‘yoqlarda tasvirlansa, amir Shohmurod, amir Haydar va amir Muzaffarga xayrixohlik sezilib turadi. Biroq, muallif ulardagi nuqson va kamchiliklardan ko‘z yummaydi va o‘rni kelganda bu hukmdorlarni ayab o‘tirmaydi.

Shuningdek, Marvga yurish qilib, to‘g‘onni vayron qilganini, Tus va Xuroson ahlini qilichdan o‘tkazganini yashirmay yozadi. Shohmurodning darveshsifatligiga ishoralar mavjud. Amir Haydar to‘g‘risida so‘z yuritib, uning ilm ahliga moyilligini e‘tirof etadi.

Asarning amir Muzaffar hukmronlik davriga bag‘ishlangan qismi nisbatan kattaroq. Amir Muzaffar davridagi qusurlar ochiq tilga olinadi. Uning mag‘rurligi va maqtanchoqligini tanqid qiladi. Rossiya imperiyasi bilan olib borilgan janglar yakun topib, mamlakatdagi ichki isyonlar podsho armiyasi yordamida bostirilgach, amir Muzaffarning davlat ishlari bilan shug‘ullanmay qo‘ygani, ko‘p vaqtini tantanalarga sarflagani achinish bilan qayd etiladi.

Mirzo Somiyning yirik tarixchiligini tasdiqlovchi ikki tarixiy asar – “Tuhfai shohiy” va “Tarixi salotini mang‘itiya” fanda bir tarixiy asarning rasmiy va norasmiy variantlari, deb e‘tirof etiladi. “Tuhfai shohiy” saroy tarixchiligi an‘analari usulida, ya‘ni hukmdorlarni maqtab yozilgan bo‘lsa, “Tarixi salotini mang‘itiya”da ular faoliyatiga ba‘zan keskin munosabat ko‘zga tashlanadi. Masalan, muallifning birinchi tarixiy-adabiy asari “Daxmai shohon”da amir Nasrulloning qattiqqo‘lligi va zolimligi oshkora bayon qilingan. “Tuhfai shohiy” da esa uning davrida adolat

tantana qilgani, o'zaro nizolar barham topgani, mamlakat hududlari kengaygani qayd etiladi. "Tuhfai shohiy" hajm jihatdan "Tarixi salotini mang'itiya"dan kattaroq.

"Tarixi salotini mang'itiya" asarida Rossiya imperiyasi istilolari masalasiga keng o'rin berilgan. Ushbu mavzuga Mirzo Somiydan tashqari Ahmad Donish, Mirza Salimbek, Sharifjon Maxdum, Qozi Baqoxo'ja kabi buxorolik muarriflar qo'l urishgan. Bular ichida masalani atroflicha yoritib bergan eng sara muallif Mirzo Somiydir. Uning "Tarixi salotini mang'itiya" asari faktlarga boyligi bilan yuqorida tilga olingan mualliflarning asarlaridan farq qiladi. Asar uch qismdan iborat: 1.Asarning umumiy kompilyasiya qismi va amir Muzaffarning hokimiyatga kelishi. 2.Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasidagi janglar va Buxoro amirligiga qarashli ayrim hududlarning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo etilishi. 3.1904-1905-yillardagi rus-yapon urushi, birinchi rus inqilobi, 1898-yilgi Andijon qo'zg'oloni.

Biz asaring ikkinchi va uchinchi qismlarini sharhlashga harakat qildik. Yuqorida ta'kidlanganidek, ikkinchi qism Rossiya imperiyasi istilolari tafsilotlariga bag'ishlangan. Mirzo Somiy bu voqealarning jonli guvohi bo'lganligi bois, tafsilotlariga keng to'xtaladi. Jumladan, Jizzax uchun bo'lib o'tgan janglar, mudofaachilarning jasoratlari, mag'lubiyat sabablari atroflicha izohlab beriladi. Jang kunlarida amir Muzaffarning Samarqandda bo'lganligini, Jizzax mudofaasida shaxsan ishtirok etmaganligini, mag'lubiyatdan so'ng o'g'li Abdulmalikto'rani Samarqandda qoldirib, o'zi Karminaga kelganligini yozadi. Voqealar bayonini davom ettirib, muallif, Jizzax olingandan keyin ruslar yaradorlarni davoladilar, halok bo'lgan mudofaachilarni, ya'ni amir jangchilarini dafn qildilar, buzilgan joylarni tartibga keltirdilar, deb ta'kidlaydi. Mirzo Somiyning qayd etishicha, shu orada Samarqand xalqi shahar hukmdori Sherali inoqdan ko'p jabr-sitam ko'rganligi bois, uni lavozimidan chetlatishni so'rab amirga maktub yozadi. Agar ularning iltimosi inobatga olinib, shaharga boshqa hokim tayinlansa, Samarqand xalqi, erkak-ayol nasroniy qo'shinlariga qarshi kurashga o'tlanajagini, bir kishi qolguncha mudofaa janglarini davom ettirishlarini bildirishadi.

Mirzo Somiy ma'lumotiga ko'ra, amir Muzaffar bu taklifni qabul qilmaydi, va hatto ba'zilarni ushbu taklif uchun jazoga tortadi. Amir Karminaga qaytgach, Samarqandda o'z lavozimida qoldirilgan Sherali inoq shahardagi bir necha e'tiborli shaxslarni qattiq jazolaydi, mullalarni kaltaklaydi. Bu hodisani muallif, "amirlik tuzumi asoslariga zarba berilishi va davlat quyoshining botishga tomon og'ishi", - deb izohlaydi.

Bu ixtiloflarning oqibatlarini bayon qilishda davom etib, Mirzo Somiy, Samarqand ahlining rus bosh qo'mondoniga maktub orqali murojaat qilib, uni Samarqandni tezroq egallashga da'vat qilganini yozadi. Muallif talqinida voqealar rivoji quyidagicha kechadi. Kaufman bunday qulay vaziyatni boy berishni istamay, Samarqand tomon harakat boshlaydi. G'ishtko'prikka yetganda, bu yerda turgan amirlik lashkarlari, shuningdek, ular tarkibida bo'lgan 2 ming turkman qo'shini chekinadi. Turkman qo'shinining boshlig'i Kovshutxon taka Samarqanddan Chorjo'yga qaytishda yo'lda uchragan qishloq va ovullarni g'orat qiladi va so'ngra Marv cho'llariga o'tib ketadi. Kovshutxon takaning bunday yo'l tutishi amir qo'shinlarining jangovar ruhini tushirib yuboradi va Samarqandni rus qo'shinlari tomonidan egallanishini tezlashtiradi. Ikkinchi tomondan, Samarqand ahlining Sherali inoq zulmidan qutulish uchun ruslardan yordam so'rashi istiloni yanada jadallashtirdi.

Asar muallifining ta'kidlashicha, jang harakatlari davom etayotgan va vaziyat tobora chigallashayotgan bir paytda amirlik tomonida urush va sulh masalasida ikki guruh paydo bo'ldi.

Ikkala guruh vazir Muhammad Shukurbiy inoq chodirida to'planishib, jangni davom ettirish yoki sulh tuzish masalasini muhokama qildi. Rahmonqulbiy parvonachi rus qo'shinlarining ustunligini inobatga olib, sulh tuzishni taklif qildi. Taklif amir va qabila boshliqlariga ma'qul tushgan bo'lsa-da, Yoqub qushbegi va uning ayrim tarafdorlari taklifni rad etishadi va bu taklif qabul qilinmaydi. Boz ustiga, bu toifa qutqusi bilan amir Muzaffar Muhammad Shukurbiy inoqni Buxoroga jo'natib, zindonga tashlaydi.

Mirzo Somiy Samarqand atrofidagi janglarni o'z ko'zi bilan ko'rganini ma'lum qiladi. Shu bois bo'lsa kerak, bu yerda yuz bergan voqealar tafsiloti asardan keng joy olgan. Mulla Kamoliddin muftiy va olti oqsoqolning Cho'ponotada general Kaufman bilan uchrashgani va Kaufman ularni iliq kutib olib Samarqand viloyatini soliqlardan ozod qilgani, ikki o'rtada bo'lib o'tgan suhbat tafsilotlari asar sahifalariga jo etilgan.

Shundan so'ng Mirzo Somiy o'zining Karminaga qaytganini, amir Muzaffarning Buxoro arkida, qo'shin esa Karminadagi Qosim Shayx xonaqosi atroflarida turganini yozadi.

Zirabuloq jangidagi mag'lubiyatdan so'ng amir Muzaffar Karminada ulamo va qozilar ishtirokida kengash chaqirib, keyingi harakatlar masalasini muhokama qildi. To'planganlar amirga Xorazmga qochishni maslahat berishadi va amir Muzaffar bunga qat'iy rozi bo'ladi. Chunki ular o'z takliflarini turli dalillar bilan isbotlab beradilar. Biroq, amir Muzaffar ushbu masalada bir paytlar o'zi zindonband qilgan Muhammad Shukurbiy inoqdan ham maslahat olishni ma'qul topib, uni Buxoro zindonidan olib keltiradi. Muhammad Shukurbiy inoq shunday deydi: *“Xorazmga qochmoq, dushman qo'liga tushmoqdan ko'ra yuz karra yomon. Dushmandan qochish sharmandalikdir. Buxoro ilgari ham qo'ldan-qo'lga o'tib turgan. Gubernator rus imperatorining vakili, u imperator ruxsatisiz harakat qila olmaydi. Tezda gubernatorga odam jo'natib sulh so'rash kerak”*. U amirni sulhga rozi qiladi.

Asarda Abdulmalikto'ra bilan olib borilgan janglar, ota va o'g'il o'rtasidagi ixtiloflarga gubernatorlik aralashgani va amirga yordam bergani xususida ham batafsil ma'lumotlar mavjud. Abdulmalikto'ra o'z otasi amir Muzaffarning Rossiya imperiyasi qo'shinlari bilan murosa yo'lga o'tganligi va bitim imzolaganligidan norozi bo'lib, unga qarshi kurash boshlaydi. Asarda ta'kidlanishicha, u Shahrisabz, G'uzor bekliklari aholisining qo'llab-quvvatlashi bilan ruslarga o'tgan Samarqand shahrini istilochilardan tozalashga kirishadi.

Abdulmalikto'ra qo'shiniga kenagas, yuz, saroy qabila vakillari kelib qo'shiladi. Bu orada xitoy-qipchoq, qoraqalpoq va samarqandliklardan tashkil topgan ko'ngilli uyushmalar Abdulmalikto'raga yordamga keladi. Lekin toj-taxt qayg'usidagi amir Muzaffar o'z farzandining Samarqandni egallashidan norozi edi. Shu sabab, o'z sarkardasi Mo'minbek to'qsobaga har qanday yo'llar bilan Abdulmalikto'ra qo'shinlari o'rtasida parokandalik va norozilik keltirib chiqarishni buyuradi va buning evaziga unga katta lavozimlar va'da qiladi. Mo'minbek to'qsoba Abdulmalikto'ra va uning sadoqatli sarkardalariga turli xildagi soxta va asossiz ma'lumotlar qayd etilgan maktublar jo'natib, o'z maqsadiga erishadi.

Xulosa va takliflar(Conclusion)

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, haqqoniy tarixni yoritishda Mirzo Abdulazim Somiy Bo'stoniyning, “Daxmai shohon”, “Tuhfai shohiy”, “Tarixi salotini mang'itiya” kabi asarning o'rni beqiyosdir. Chunki muallifi asarda bo'lib o'tgan voqealarni bevosita o'zi guvohi bo'lgan. Asarlarni yozish davomida esa hech qanday bosimlarsiz, saroy muhitidan xoli, eng muhimi voqealarni xolis, joyi kelsa tanqidiy asosda yoritib bergan.

REFERENCES

1. Мирза Абдал’азим Сами. Та’рих-и салатин-и мангитийа / Издание текста, предисловие, перевод и примечания Л.М.Епифановой. - Москва: Изд-во восточной литературы, 1962.
2. Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. -Т.: Ўқитувчи.1994.
3. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
4. Maqsud, B. XX asr boshlari Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tarixiy adabiyotlarda bayoni. *Buxoro tarixi masalalari mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy (onlayn) konferensiya materiallari:–Buxoro-2021*, 258-263.
5. Komilovich, M. B., & O’g, N. S. O. K. (2023). Abdulvahid Munzim and Young Bukharans. *Telematique*, 22(01), 1182-1185.
6. Maqsud, B. (2023). MUNZIM KIM EDI?. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(9), 1058-1065.
7. Beshimov Maqsud Komilovich “Mirzo Abdulvahid Munzim-A Well-Known Educator, Writer, Editor and Public Figure” *International Journal of Development and Public Policy*, 1 (7), 144–146.
8. Komilovich, B. M., & Temirov, F. (2023). MIRZA ABDULVAHID MUNZIM-BUKHARA JADIDIZM IS ONE OF THE ACTIVISTS OF THE MOVEMENT. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(3), 42-49.
9. Sherzod O’ktam o’g, N., & Komilovich, B. M. (2023). Illumination of socio-economic issues in Turkestan in the works of Professor Polat Soliyev. *Telematique*, 22(01), 1278-1282.
10. BESHIMOV, M. (2022). Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 78-83.
11. O’G’Li, U. B. B., & Temirov, F. (2023). SOURCES OF INFORMATION ON THE SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE SOMANIAN DYNASTY. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(3), 35-41.
12. Umarov, B. B. O. (2022). SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE DURING THE RULE OF THE SOMANIANS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
13. Temirov, F. (2023). SADRIDDIN AYNII IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARI. *Farg ‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 71-71.
14. Umarov, B. (2023). ARAB MANBALARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI (“KITOV AL-MASOLIK VAL MAMALIK” MISOLIDA). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 38(38).
15. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
16. UMAROV, B. (2022). ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 94-100.

17. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ–ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
18. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИҚДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
19. Umedovich, T. F. (2022). SADRIDDIN AYNI-IN THE MEMOIRS OF HIS CONTEMPORARIES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 31-36.
20. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ЖАНУБИЙ ТОЖИКИСТОН ЭТНИК ТАРИХИ. *Scientific progress*, 1(6), 1005-1009.
21. Umedovich, T. F. (2022). On The Journalistic Work of Sadriddin Ayni Concerning Issues of Bukhara History. *Irish Interdisciplinary Journal of Science & Research (IIJSR)*, 6(1), 12-17.
22. BAXTISHOD, U., & ULUG‘BEK, Q. Y. (2022). MS ANDREEV-THE GREAT EASTERN SCIENTIST. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 120-123.
23. UMEDOVICH, T. F. (2021). THE PRESS ACTIVITY OF SADRIDDIN AYNI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(4), 57-62.
24. Umarov, B. (2021). NA KISLYAKOV TADQIQOTLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI FEODAL VA QISHLOQ XO ‘JALIGI MUNOSABATLARINING YORITILISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 6(6).
25. ogli Umarov, B. B. (2021). FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS IN NA KISLYAKOV'S RESEARCH. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 127-135.
26. Umarov B. БУХОРО ВОҲАСИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.

USE OF CREATIVE TASKS IN TEACHING THE NATIVE LANGUAGE AT SCHOOL

Dilobar Imamkulovna Gulamova

Master's student of the Department of
Uzbek Linguistics Bukhara State University (Uzbekistan)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8179419>

Abstract. *The main goal of mother tongue teaching in secondary schools is to "develop students' independent thinking skills", that is, to look at mother tongue education from a completely different point of view than traditionally required. After all, everyone living in a competitive market economy must be an entrepreneur, an independent creative thinker, able to solve any problem with his mind, a strong national spirit in thinking. The expected result will be achieved only when the school becomes a matter of life and death, a matter for the future, the main task of the whole society.*

Key words: *school, mother tongue, purpose of mother tongue teaching, system of creative tasks, formation and development of creative thinking.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ РОДНОМУ ЯЗЫКУ В ШКОЛЕ

Аннотация. *Основной целью преподавания родного языка в средних школах является "развитие у учащихся навыков самостоятельного мышления", то есть взгляд на обучение родному языку с совершенно иной точки зрения, чем это требуется традиционно. Ведь каждый, живущий в условиях конкурентной рыночной экономики, должен быть предпринимателем, независимым творческим мыслителем, способным решить любую проблему своим умом, с сильным национальным духом в мышлении. Ожидаемый результат будет достигнут только тогда, когда школа станет вопросом жизни и смерти, делом будущего, главной задачей всего общества.*

Ключевые слова: *школа, родной язык, цель обучения родному языку, система творческих заданий, формирование и развитие творческого мышления.*

We need to distinguish between two aspects of mother tongue teaching in secondary schools and its results. These –

a) in the process of teaching the native language, to instill in the student the unique potential of the language, that is, the ability to demonstrate a high level of communicative and practical value of the language;

b) to teach the student the basics of linguistics in the process of teaching their native language, to prepare for society a person who knows the rules of linguistics.

Today, the school is officially the first in the field of the native language ("to instill in students the unique potential of the language in the process of teaching the native language, i.e. the ability to demonstrate a high level of communicative and practical value of the language"). In practice, unfortunately, we achieve the second goal ("regular teaching of the basics of linguistics to a student in the process of his native language, in fact, the preparation of a person who knows the rules of linguistics for society").

Schoolchildren learn their native language, as a rule, in the natural social environment, among family members who speak this language, in the neighborhood, in a monolingual

community. Over the years, the native language has become not only a means of transmitting and receiving information, but also a paramount factor in the formation of national identity. After all, it is no secret that the native language is the main source of the formation of human thinking, the development of a person as a person, ensuring his spiritual maturity and perfection. That is why every nation, every nation, aware of itself in the world civilization, first of all strives to increase the value of its native language, to increase the effectiveness of its education.

This means that a person's disrespect for their native language will lead to its use, which deprives a person of national feelings, and the loss of national feelings will lead to a manicure. Therefore, wherever a person lives, it is better to receive primary and secondary education as much as possible in their native language.

After all, the state imposes a certain order on the education system, depending on the level of development of society and the goals and objectives set for its development. This order increases the socio-economic potential of society (determined primarily by economic, and then by spiritual and cultural needs), harmonizes the spiritual and educational image of citizens in the pursuit of a single goal set by the state, to development, "solves urgent tasks." This, in turn, contributes to the overall well-being of society. The state order is guided by the state of development and integration of science and education, the level of management, the level of the supply system, the general aspirations of society and the individual, and is drawn up in a specific document. These include the Law on Education and the New Development Strategy of Uzbekistan for 2022-2026.

These official documents establish certain requirements for the education system. Indeed, the requirements of the Law on Education, adopted in 1997, have by now determined the goals, objectives, types and stages of education, general and content of the order in each subject of qualification requirements). Since education is a priority of the policy of the Republic of Uzbekistan, a socio-pedagogical issue of national importance, its main goal is set by the state: "From the first steps on the path to independence, restore and further strengthen our great spirituality. We must attach great importance to the goal of improving the national education system, strengthening its national base, bringing it up to world standards and skills through adaptation to modern requirements.

"Based on the principle of "From National Revival to National Uplift", the development of school education should become for us a great national goal, a national movement."

In the education system, the general goal of education is always determined by the state order. The purpose of education is a single priority of state policy, and this integrity is determined by the relationship between the state, society and its members. Therefore, the overall goal of education in our country is to educate a creative and independently thinking personality, whose spiritual and ideological image is in harmony with the main idea of society. Today, a harmoniously developed generation is defined as "physically healthy, mentally and intellectually developed, independently thinking, loyal to the Fatherland, with firm views on life." However, we have one goal in education and upbringing: to raise our children.

The overall goal of education requires the definition of the goals and objectives of each subject, which, in particular, is reflected in the goal of teaching in the native language, which is a vivid expression of our national identity: "The goal of teaching in the native language at school is to educate a person who correctly and fluently expresses his opinion orally and in writing, having a culture of reading, able to think independently and creatively, understanding the opinions of

others – a culture of communication and speech”. The goal of teaching in the native language corresponds to the general goal of education and embodies two of its requirements: the development of creative and independent thinking skills and, as a result, the development of the student as a full-fledged adult [3].

This means that the student's ability to master his native language and, on this basis, develop as a comprehensively developed personality puts a lot of pressure on the teaching of this science. In particular, as defined in the current qualification requirements for general education in the secondary education system (Tashkent, 2020), the work carried out in educational organizations is aimed at developing the necessary skills and abilities of students. The method of teaching, the content, and the means of education must be oriented towards the clear and comprehensive fulfillment of these great and great tasks.

It is axiomatic that the spiritual and ideological upbringing of the individual for the purpose of education is in line with the national ideology and national idea. Because the spiritual and ideological image of an educated person corresponds to a single and common spiritual and ideological policy of society, which is the key to the development of society. Also, the issue of educating a creative and independently thinking personality, which is a key component of the goal of native language education, is determined by the requirements of the internal policy of the state and the economic system, the driving force of its thinking.

A competitive market economy requires the education of an entrepreneur, a person with high creative potential, a person who is able to survive any difficult situation with his own mind, independent creative thinking, and a strong national spirit. Since the policy of our state is based on ensuring the well-being and happiness of the individual, the education of the individual cannot be organized for any other purpose than the one indicated above. In this process, the school should become the cause of the future of the country, the duty of the whole society. Thus, while our main goal is to "develop students' independent thinking skills," we need to look at mother tongue teaching, which is one of the main tools, from a completely different perspective than the traditional one.

The current qualification requirements for general secondary education define the main tasks of teaching the subject "Mother tongue" as follows:

1) development of oral competence aimed at comprehending the student's personality, understanding the opinions of others, the ability to express one's opinion orally and in writing;

2) development of students' knowledge of grammar (phonetics, lexicology, word structure, word formation, morphology, syntax, writing and spelling, punctuation, speech techniques, stylistic concepts);

3) the formation of language competencies aimed at developing the ability to express themselves accurately and fluently, effectively using the huge potential of the native language [3; 7].

If we focus on tasks, then tasks 1 and 3 fully correspond to the main goal of teaching the native language, and task 2 partially. Rather, while Tasks 1 and 3 require students to learn language skills, Task 2 requires the student to learn basic linguistics on a regular basis. That is, tasks 1 and 3 are aimed at preparing the child for social life and marriage. Task 2, on the other hand, cuts him off from his natural way of life. Unfortunately, this can be seen in the teaching of all school subjects.

Quality control, as well as production and service includes a review of the technological process used. As mentioned above, this is necessary to implement quality control.

If so, checklists are used in the production process. The whole process information about them is stored in them. The choice of such products, its manufacturer related to the type and purpose of release. Briefly speaking about the quality of the product, we emphasize that for the consumer, the product is reliable, aesthetically attractive and performs its tasks it will be of high quality if it is performed continuously. These depend on the quality indicators of the product.

With the emergence of human society, "the establishment of rules and there was a demand for the emergence of "application". Writing, counting system, monetary unit, different units of measurement - all these are the first shoots of standardization. As production progressed, standardization also progressed. And this influenced the rapid growth of production forces, In ancient Rome, water fountains were made of pipes of exactly the same diameter was It is correct that the treated stones should be of specific (standard) sizes made it possible to build Egyptian ehrsams with a geometric shape. One of the Ehrsams stones weighing several tons are so accurately worked and densely packed together laid so that even a needle does not pass between them. 90 m high Babylon 85 million in the construction of the tower. This is evidenced by the fact that single standard bricks were used shows that there were certain rules and procedures in brick baking.

Standardization is repetitive in science, technology and economics to find a solution to the problems and arrange them at a favorable level in a certain area is a referral activity. There are many standards and serial production determined for the most important products to be released. Machine in standards, tools, weapons, various materials and types, types, models, shapes, sizes, in relation to them technical requirements, as well as test methods, placement and storage, en route transportation rules are defined. Standard units of measurement, designations, practical technical terms and definitions are also shown, without which the quality of the product cannot be clearly defined. Each standard has a number and a year of approval. For example, the 1962 Standard on Basic Definitions of Permissibility and Transfers if approved, it is defined as follows: GOST 7713-62. Here GOST — State standard, the four digits on the left (7713) are the serial number of the standard, the last two and the number (62) indicates the year of approval of the standard. The main purpose of standardization is: science and technology acceleration of development, society's production and labor productivity increase, improve product quality and ensure its acceptable level, people improvement of management of the economy and approval of the produced product establishment of nomenclature, product design and production development of specialization, as well as rationalization of production funds use, saving material and labor resources, health and labor ensuring security, international economic, technical and cultural cooperation development.

On standardization to achieve these goals activities should be focused on solving the following issues:

--- Based on comprehensive standardization of finished product quality final products, raw materials, materials, semi-finished products and components setting requirements for product quality characteristics.

--- System of uniform indicators of product quality, its test and control methods and tools and product requirements taking into account the level of reliability, its nature and conditions of use development with.

--- Ensuring convenient product quality and types of models and sizes product design in order to eliminate the redundancy of variety and establishing standard requirements and methods in production.

--- Production specialization, complex production processes mechanization and automation, interchangeability It is important to raise the level, use and repair the product effectively development of industrial product unification as a condition.

--- Ensuring the unit of measurement and accuracy in the country, high accuracy improvement of measuring methods and tools.

--- Unified system of documents and important fields of science and technology establishing uniform terms and definitions,

--- Labor safety, nature protection and use of natural resources establishing systems of standards in the field of improvement.

Standardization is the production of a certain material in the near future ensures development and all enterprises improve the quality of their products forces to raise the level.

We use a lot of things (tools, devices, machines), cars, etc. in life, construction and technology. The work during this period, these items fail, wear out, and become unusable.

Therefore, in order to re-use items, repair them, that is, it is necessary to replace their broken parts with new ones. Only if the dimensions of the replacement part are correct, it will fit into the product, otherwise, you will have to resize that part. That's it it can be concluded that the repair work of the broken parts of the products sizes that are known and enforced for ease of use production is necessary. This system of dimensions is called standardization.

The most important importance of standardization is that it has a necessary effect on the rate and level of development of production. Of this and for the standardization of science and technology and practical experiences relies on achievements. Hence, the importance of standardization is that ease and convenience in replacing broken parts with another is to create.

REFERENCES

1. Isayev R.I. Karimova UN Standardization of metrology and certification Textbook —Alokachi-2017l.
2. A.A. Abduvaliyev Metrology standardization and certification Textbook "Sharq" publishing house Tashkent-2018
3. I. Kh. Siddikov, Kh. A. Sattarov, O. I. Siddikov Metrology standardization and certification Tashkent-2018
4. Website of the Ministry of Justice www.lex.uz-OZR
5. Ministry of Higher and Secondary Special Education www.ziyonet.uz-OZR

6. www.metrolog.ru
7. Ismatullayev P.R., Matyakubova P.M, Turayev SH.A. metrology, standardization and certification. Textbook. Tashkent, "Lesson-press", 2015. - 423 p.
8. Mazur I. I. Upravlenie kachestvom: ucheb. posobie dlya vuzov po spetsialnosti "Upravlenie kachestvoml I. I. Mazur, V. D. Shapiro. - 5th edition, ster.. - M.: Omega-JI, 2008. - 399 p.

ҚОРАМОЛЛАРНИНГ ЭФЕМЕР ИСИТМАСИ КАСАЛЛИГИНИ ДАВОЛАШ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ

Менглиев А.С.

(в.ф.ф.д.) доцент в.б Термиз агротехнологиялар ва инновацион ривожланиш институти

Сиддиқов И.

(в.ф.н) Тошкент аграр институти Самарқанд филиали

Чоршамбиев А.

Термиз агротехнологиялар ва инновацион ривожланиш институти ассенти.

Намозов Абдуфатдох, Абдураимова Гулшан

Денов Ҳазорбоғ агротехнология техникуми ветеринария фан ўқувчилари

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8187282>

Аннотация. Ушбу мақолада касалликнинг клиник белгилари, патологик ўзгаришлар, таъхис, даволаш ва олдини олиш чоралар қорамолларда эфемер иситмани назорат қилиши ва муаммолари муҳокама қилинади.

Калим сўзлар: қорамол, эфемер, иситма, вирус, қон сўрувчи пашиша, дезинсекция, дезинфекция.

CATTLE EPHEMERAL FEVER DISEASE TREATMENT AND PREVENTION

Abstract. This article discusses the clinical signs of the disease, pathological changes, diagnosis, treatment and preventive measures, control and problems of ephemeral fever in cattle.

Key words: cattle, ephemera, fever, virus, blood-sucking fly, disinsection, disinfection.

ЭФЕМЕРНАЯ ЛИХОРАДКА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА ЛЕЧЕНИЕ И ПРОФИЛАКТИКА

Аннотация. В данной статье рассматриваются клинические признаки болезни, патологические изменения, диагностика, лечение и профилактика, борьба и проблемы эфемерной лихорадки крупного рогатого скота.

Ключевые слова: крупный рогатый скот, эфемеры, лихорадка, вирус, кровососущие мухи, дезинсекция, дезинфекция.

Долзарблиги. Эфемер иситма касаллиги (уч кунлик, Термиз иситмаси) – ўткир кечувчи трансмиссив вирус касаллиги бўлиб, асосан қорамолларда қисқа муддатли (гр.-эфемер-қисқа) иситма, бурун, оғиз, қизил ўнгач, кўз шиллик пардаларининг яллиғланиши, гавда ва оёқ мускулларининг таранглашиши (қотиши, тортишиши), қийин ҳаракат ва оқсаш билан характерланади.

Бу касаллик мамлакатимиз учун экзотик касаллар тоифасига киради, чунки эфемер иситмаси биринчи марта 1984, 2- марта 2002 йил ва 3- марта 2012 йилда қорамоллар орасида қайд қилинган.

Касаллик биринчи марта 1867 йилда, кейинчалик 1907, 1908, 1915 йилларда Африка қитъаси, 1887-1891, 1906-1908, 1919 йилларда Осиё қитъаси мамлакатларида, 1936-1937 йилларда Австралияда қорамоллар орасида рўйхатга олинган. Шунинг учун ушбу касаллик айниқса, Африка, Австралия ва Японияда яхши ўрганилган ҳамда уни қўзғатадиган вируснинг антиген бўйича яқин авлодлари мавжудлиги аниқланган. Шунингдек, эфемер иситмаси Европа мамлакатларидан Финландия, Германия, Чехия, Словакия, Голландия ва

Данияда ҳам қорамоллар орасида қайд қилинган. Эфемер иситмаси асосан эпизоотия бўлиб тарқалади ва иқтисодий зиёни ҳайвон маҳсулотларининг кескин пасайишидан, қисман касал ҳайвоннинг ўлишидан, даволашга кетган дори-дармонлар, дезинфекция ва дезинсекция харажатларидан ташкил топади. Касалликни Рабдовиридае оиласига мансуб, нуклеоласида рибонуклеин кислота сақловчи лимфотроп Бовине эпхемералис февер рабдовирус вируси кўзғатади. Вирус организмга киргандан кейин, унга қарши организмда вирусни нейтралловчи ва комплементни боғловчи антителолар ҳосил бўлади. Касаллик контагиоз эмас, Сулех аннулиросис, Анопхелес аннулипес ва бошқа авлодларига мансуб пашшаларнинг қорамолларни қонини сўриши жараёнида аввал вирус уларга ўтади ва кейин пашшалар орқали соғлом ҳайвонга ўтади. Юқорида таъкидланган пашшалар орқали вирус соғлом қорамолга механик ўтмайди, балки уларнинг организмда яшайди. Шунинг учун ҳам пашшалар табиатда ушбу касалликнинг резервуари ҳисобланади. Эфемер иситмаси касаллиги жуда тез тарқалиши билан характерланади. Касаллик кўзғатувчининг манбаи бўлиб касал ва вирус ташувчи қорамоллар ҳисобланади. Бундай ҳайвонларнинг қонини сўриган пашша, аввало эфемер иситмаси вирусини ўзига олади, кейин у соғлом ҳайвон қонини сўриш жараёнида уни ушбу вирус билан зарарлайди.

Вирус билан зарарланган пашшалар кучли шамол воситасида юзлаб километр масофага учуриб кетилиши оқибатида касаллик вируси фақатгина бирор бир ҳудуд билан қифояланмасдан, балки вилоят, мамлакат, ҳаттоки қитъа бўйича тарқалиши мумкин.

2002 йилнинг август ойида Сурхондарё вилояти ҳудудида қорамоллар орасида кузатилган ушбу касалликни кучли шамол воситасида Афғонистондан вирус билан зарарланган пашша олиб келган деган хулосага келинди. Чунки, бу касаллик Осиё, қитъаси ҳудудларида (Индонезия, Япония, Хитой, Хиндистон) турли вақтларда рўйхатга олинган. Эфемер иситмаси касаллигининг клиник белгилари. Касалланган молларда тана ҳароратининг бирдан 400С дан 420С гача кўтарилиши, қорамоллар мускулларининг титраши, оқсаш, кўздан ёш оқиш, кўз, бурун ва оғиз шиллик пардаларининг яллиғланиши, оғиздан сўлак ва бурундан шиллик ва сассиқ суюқлик оқиши, кўринадиган шиллик пардаларнинг қизариши, иштаханнинг тезда пасайиши, кўп ҳолларда бутунлай йўқолиши, қорин атонияси, қалтираш, холсизланиш ва ётиш ҳолатлари кузатилади. Тана ҳарорати 80 % ҳолатда 2-3 кундан сўнг, 10-20 % ҳолатда эса 4-5 кундан сўнг меъёрга келади. Айрим молларда йўталиш, нафас олиш ва юрак уришининг тезлашиши сезилади, 90-95 % молларда қовшаш тўхтайдди. Оёқ бўғинлари кўл панжалари билан босилса оғриқ сезилади. Бўғинларнинг эгиловчанлик харақати сусаяди, моллар ўз оғирлигини кўтаролмасдан (расм) кўпинча ётади.

Касалланган қорамолни қийналиб тик туриши. Касалликдаги патологоанатомик ўзгаришлар. Эфемер иситмадан ўлган ёки мажбурий сўйилган қорамоллар ёриб кўрилганда асосий ўзгаришлар конъюнктива, бурун, оғиз бўшлиғи, томоқ ва ҳиқилдоқ шиллик пардаларида қизариш ва яллиғланиш белгилари кўринишида кўзга ташланади. Шунингдек, яллиғланиш белгилари тизза, сакраш ва тос-сон бўғинларида ҳамда ширдон шиллик пардаларида аниқланади. Бошқа ички аъзоларда айтарлик патологоанатомик ўзгаришлар кузатилмайди.

Эфемер иситмасига диагноз қўйиш. Дастлабки диагноз клиник белгиларга, эпизоотологик маълумотлар ва патологоанатомик ўзгаришлар асосида қўйилади. Якуний

диагноз 1-3 кунлик оқ сичқонларга ва бузоққа биологик синов қўйиш, иситма вақтида лейкоцитлардаги вирус антигенини люминецент микроскопда флуоресцентланувчи антителоларни қўришга, шунингдек, серологик реакциялар (иммунодиффузия, комплимент боғлаш ёки нейтраллаш реакциялари) ёрдамида вирусга қарши касал организмда шаклланган антителоларни аниқлашга асосланган. Эфемер иситмаси касаллигини даволаш усуллари. Касал мол дастлаб тоза ва салқин алохида жойга ажратилади. Махсус даволаш учун эфемер иситмасига қарши гипериммун қон зардоба ёки реконвалесцент қон зардоби қўлланилади. Бундан ташқари, симптоматик даволаш усули яхши самара беради ва қўйдагича даволанади: ҳар куни бир марта 10 % кофеин натрий бензоат ёки камфора молнинг оғирлигига қараб 5-12 мл гача тери остига юборилади;

6 соат оралиқ билан антибиотиклардан пенициллин, тетрациклин, ампициллин, гентамицин ҳар 1 кг тирик вазнга 2-4 минг бирлик ҳисобида мускул орасига юборилади ёки сульфаниламид препаратларидан бири: норсульфазол, сульфантрол, сульфадемизин, анальгин ёки аспиридин молнинг вазнига қараб 1-4,0 гр гача ҳар куни икки марта сув билан ичирилади;

касал молдаги атония, гипотонияга қарши 10-12 мл чемерица дамламаси ёки сут кислотаси, ёки молнинг вазнига қараб 15-50 мл глаубер тузи 500 мл сув билан ичирилади; ҳар куни 1 марта 0,9 % ли стерил физиологик эритма 500 мл миқдорда ёки 5 % ли ош тузи эритмаси 250 мл миқдорда, 5 % ли аскорбин кислотаси, 10-20 мл 10 % ли калций хлорид эритмаси билан вена томирига юборилади; ҳар куни 1 марта 5-10 % ли глюкоза 200-400 мл миқдорда йодли препаратларнинг бири (йодинол) билан вена томирига юборилади.

Оёқ бўғинларига камфора ёғи камфора спирти суртилади, оғиз шиллик пардаларига 5 % ли ош тузи, 1:1000 нисбатдаги калий перманганати ёки шунга ўхшаш бошқа бирорта дезинфекцияловчи дорилар билан ишлов берилади. Касалликни олдини олиш ва қарши кураш тадбирлари. Мойил ҳайвонларни ушбу касаллик вирусидан ҳимоя этишнинг асосий йўли –мамлакатимизга зотни яхшилаш мақсадида келтириладиган қорамолларни ушбу касаллик бўйича соғлом ҳудуддан келтириш, уларни профилактик карантинда сақлаш даврида клиник қаттиқ назорат этиш ҳисобланади.

Молхоналарни тоза ва озода сақлаш, ветеринария – санитария тадбирларини ўз вақтида ўтказиш, яъни чорвачилик биносига киришда дезобарьер ўрнатиш, биноларга киришда дезинфектор билан обдон хулланган дезогиламлар орқали киришни ташкил қилиш, ҳар 10 кунда 3-4% ли ўювчи натрий, 5-10% фаол хлорли оҳак, 2-3% ли формальдегид билан мунтазам дезинфекция қилиш, тўпланган гўнгни биотермик зарарсизлантириш, гематофагларга (қон сўрувчи ҳашарот) қарши биноларни 3% ли креолин, 0,015- 0,025% циперметрин, 0,5% ли эктомин ёки 0,0062-0,125% ли нурел -Д нинг сувли эмулсияси билан дезинсекция қилиб туриш, ҳайвонлар резистентлигини ошириш учун уларни зоогигиеник талаблар доирасида сақлаш, тўйимли ва витаминли озуқалар бериш қорамоллар орасида эфемер иситмани олдини олишга ёрдам беради. Қорамолларни эфемер иситмасидан махсус профилактика қилиш учун тирик ва фаолсизлантирилган культурал вакциналар, гипериммун ҳамда реконвалесцент қон зардобларини ушбу препаратларни қўллаш бўйича “Қўлланма” асосида ишлатиш тавсия этилади. Ушбу касаллик қорамоллар орасида клиник, эпизотологик, патологоанатомик, серологик ва

вирусологик усулларда аниқланса, ветеринария Қонуни доирасида ферма ёки аҳоли пункти носоғлом деб эълон қилинади ва унга туман (шаҳар) бош ветеринария ноизири далолатномаси асосида ҳоким қарори билан чеклов қўйилади. Носоғлом пунктда барча чеклов тадбирларини бажариш ва касалликни тарқалмаслик чоралари кўрилади. Фермага янги қорамолларни кириши, чиқиши, уларни бошқа гуруҳлар билан аралаштириш ман этилади.

Касаллик қўзғатувчи манба ҳисобланган касал ҳайвонлар дарҳол алоҳида бинога ажратилади, бутунлай гематофаглардан ҳимоя қилиш учун изоляторда ҳар куни юқорида таъкидлангандек тартибда дезинфекция, дезинсекция тадбирлари ўтказилади ва касаллар даволанади.

Касалликка диагноз қўйилгандан сўнг шу манзилга хизмат қилаётган ветеринария мутахассиси шу хўжалик, ферма раҳбари ёки фуқоролар йиғини раиси ва тегишли мутассади кишилар билан ҳамкорликда қуйидаги тадбирларни бажаришга мажбур:

айнан шу манзилда сақланувчи барча қорамолларни клиник кўриқдан, термометриядан ўтказилади, барча касал ва касалликка гумон моллар ажратилади ва алоҳида сақлаш чоралари кўрилади;

касаллик аниқлангандан сўнг туман Бош ветеринария врачлари рухсатсиз хўжалиқдан, аҳоли яшайдиган қишлоқдан молларни ташқарига, узоқ яйловларга чиқаришга, бошқа жойдан янги мол киритишга йўл қўйилмайди;

носоғлом манзилдаги қорамоллардан бирор хил биологик препарат (қон зардоби, дифибринланган қон ва хоказолар) олиш таъқиқланади;

касалланган қорамоллар турган бинолар чеклаш тамом бўлганга қадар ҳар 10 кунда 1 марта дезинфекция қилиб турилади, унинг учун иссиқлиги 70-80 С ли 2-3 % ли ўювчи натрий, 5 % ли сульфат ва карбол кислоталари аралашмасидан, 2-3 % ли формалиндан фойдаланади;

дезинсекция учун 0,5 %ли неоцидол, 0,015 % ли цимбуш ёки каратэ, 0,5 % ли эктомин эритмалари ишлатилади;

кичик ва оқмайдиган кўлмак сув манбаларида қуритиш чоралари кўрилади ёки у ерларда дезинсекция тадбирларини ўтказиш зарур бўлади; қорамолларни пода қилиш, ҳаракатини тўхтатиш ва улар билан қон сўрувчи пашшаларнинг алоқасига ҳалақит берувчи барча чора-тадбирлар кўрилади.

Хулосалар:

1. Чорвачилик фермалари, деҳқон фермер хўжалиқлари ва аҳоли хонадонларидаги ҳайвонлар сақланадиган биноларни режа асосида мунтазам равишда 0,5 %ли неоцидол, 0,015 % ли цимбуш, каратэ, 0,5 % ли эктомин, 3% ли креолин, 0,015-0,025% циперметрин, 0,0062-0,125% ли нурел-Д эритмаларининг бири билан профилактик дезинсекция қилиш қорамолларнинг эфемер иситмаси касалигини бошқа ҳудуддан кириб келишини ҳамда тарқалишини олдини олади.

2. Эфемер иситмаси билан касалланган қорамолларни махсус даволаш учун ушбу касалликка қарши гипериммун қон зардоби, реконвалесцент қон зардоби 0,5-1,0 мл/кг дозада тери остига қўлланилади. Уларнинг умумий миқдори 120 мл дан ошмаслиги ва 20 мл дан 6 жойга юбориш яхши самара беради.

3. Касал ҳайвонларни қуйидаги усулда симптоматик даволаш тавсия этилади:

а) ҳар куни бир марта 10 % кофеин ёки камфора молнинг оғирлигига қараб 5-12 мл гача, 10-12 мл чемерица дамламаси ёки сут кислотаси ёки молнинг вазнига қараб 15-50 мл глаубер тузи 500 мл сув билан ичирилади; 1 марта 0,9 % ли стерил физиологик эритма 500 мл миқдорда ёки 5 % ли ош тузи эритмаси 250 мл миқдорда, 5 % ли аскорбин кислотаси, 10-20 мл 10 % ли калций хлорид эритмаси билан вена томирига юборилади; 1 марта 5-10 % ли глюкоза 200-400 мл миқдорда йодли препаратларнинг бири (м:йодиол) билан вена томирига юборилади;

б) оёқ бўғинларига камфора ёғи ёки камфора спирти суртилади, оғиз шиллик пардаларига 5 % ли ош тузи, 1:1000 нисбатдаги калий перманганати ёки шунга ўхшаш бошқа бирорта дезинфекцияловчи дорилар билан ишлов берилади;

в) 6 соат оралиқ билан антибиотиклардан бири (пенициллин, тетрациклин, ампициллин, гентамицин ва бошқ.) ҳар 1 кг тирик вазнга 2-4 минг/б ҳисобида мускул орасига юборилади ёки сульфаниламид препаратлардан бири: норсульфазол, сульфантрол, сульфадемиязин, анальгин, аспиридин молнинг вазнига қараб 1-4,0 г дозада ҳар куни икки марта сув билан ичирилади.

REFERENCES

1. Салимов Х.С, Қамбаров. Эпизоотология, дарслик. - Тошкент, 2016. –Б.475-481.
2. Временная инструкция о мероприятиях по профилактике и борьбе с заболеванием крупного рогатого скота эфемерной лихорадкой. -Ташкент, 2003. - С.-7.
3. Макаров В.В. Эфемерная лихорадка крупного рогатого скота. В кн.: Ветеринарный энциклопедический словарь. - Изд. “Советская энциклопедия”, М.,1981. – С.-599.
4. Татаринцев Н.Т. Эфемерная лихорадка крупного рогатого скота. В кн.: Инфекционные болезни животных. - М., “Агропромиздат”, 1987.-С.-67.
5. Шишков В.П. Ветеринарный энциклопедический словарь. М., “Советская энциклопедия”, 1981.-С.,

LEARNING GRAMMAR THROUGH CONTEXT: ENHANCING LANGUAGE PROFICIENCY

Nosirova Dilnoza Rizoqulovna

Lecturer at Asia International University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8187333>

Abstract. *This article is devoted to learning grammar through context: enhancing language proficiency.*

Keywords: *grammar, learning process, cognitive abilities, didactic games, authentic contexts, Role-playing games, context, technology, Active Learning, communicative competence.*

ИЗУЧЕНИЕ ГРАММАТИКИ ЧЕРЕЗ КОНТЕКСТ: ПОВЫШЕНИЕ ЗНАНИЯ ЯЗЫКА

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению грамматики через контекст: повышение уровня владения языком.*

Ключевые слова: *грамматика, процесс обучения, познавательные способности, дидактические игры, аутентичные контексты, Ролевые игры, контекст, технология, Активное обучение, коммуникативная компетентность.*

INTRODUCTION

Mastering grammar is an essential aspect of language learning. However, traditional grammar instruction often involves rote memorization and tedious exercises, which may hinder students' motivation and overall proficiency. An alternative approach gaining momentum in recent years is learning grammar through context. This method aims to provide learners with meaningful exposure to grammar rules within authentic language use, enabling them to comprehend and utilize grammar structures more effectively. In this article, we will delve into the benefits of learning grammar through context and explore various strategies and resources that can facilitate this approach.

1. Understanding the Concept of Grammar

To begin, we need to grasp the concept of grammar and its significance in language learning. Grammar encompasses the structural rules governing how words, phrases, and sentences should be formed and combined. By internalizing grammar rules, learners can express ideas accurately, enhance communication, and employ the language appropriately in various situations.

2. Drawbacks of Traditional Grammar Instruction

Traditional grammar instruction is often criticized for its shortcomings, such as focusing excessively on memorizing rules, drill-based exercises, and the exclusion of real-world context. These methods can lead to disengagement, lack of retention, and hindered ability to apply grammar rules authentically. This section will explore the drawbacks of traditional grammar teaching and emphasize the need for a more contextualized approach.

3. The Advantages of Learning Grammar through Context

Learning grammar through context offers numerous benefits to language learners. Firstly, it facilitates a deeper understanding of grammar rules by exposing learners to authentic language input. Through context, learners can witness how grammar structures function naturally in speech and writing, aiding their comprehension and internalization of these structures. This section will

delve into the advantages of learning grammar through context, including increased motivation, enhanced language proficiency, and improved communicative skills.

Benefits of Teaching English Through Content

a. Enhanced Language Proficiency: By integrating language instruction with content, students engage in authentic language use, leading to improved fluency, vocabulary acquisition, and grammatical accuracy.

b. Meaningful Learning: Content-based instruction provides students with real-world context, making language learning more meaningful and relevant to their lives.

c. Increased Motivation: Integrating language with interesting and engaging content ignites students' curiosity and motivation to learn, as they become active participants in their own learning process.

4. Strategies for Incorporating Context into Grammar Lessons

Here, we delve into practical strategies for integrating context into grammar lessons. This section includes techniques such as using authentic materials (literature, news articles, etc.), incorporating multimedia resources (videos, podcasts, etc.), and engaging in real-life conversations. It will also discuss the role of technology in providing contextualized grammar practice, both inside and outside the classroom.

a. Pre-Teaching Language Skills: Before delving into content, teachers can introduce and practice essential language skills necessary for understanding and discussing the content.

b. Scaffolded Instruction: Teachers can provide support through scaffolding techniques, such as graphic organizers, vocabulary previews, and guided discussions, to help students comprehend and express ideas effectively.

c. Authentic Assessment: Assessments aligned with content-based instruction should focus on evaluating both content knowledge and language proficiency, using performance-based tasks and projects.

5. Resources for Learning Grammar through Context

This section focuses on resources available to learners and educators that effectively promote the learning of grammar through context. It will cover textbooks, online platforms, interactive exercises, language learning apps, and language exchange programs, offering a comprehensive overview of tools that facilitate contextualized learning experiences.

6. Overcoming Challenges and Assessing Progress

In any learning process, challenges arise, and it is crucial to address them effectively. This section will highlight common challenges encountered when learning grammar through context and provide strategies for overcoming them. Additionally, it will explore methods for assessing learners' progress, as well as how to provide constructive feedback that encourages continued growth.

CONCLUSION

As language learning continues to evolve, it is evident that incorporating context into grammar instruction can significantly enhance the effectiveness and long-term retention of grammar rules. By immersing learners in authentic language use, this approach sparks motivation, improves comprehension, and allows learners to communicate more effectively. As practitioners and language learners, embracing the learning of grammar through context will undoubtedly contribute to a more engaging and successful language acquisition journey.

REFERENCES

1. Chiesa, M., & Szwedek, A. J. (2020). The Role of Context in Language Learning. *Acta Didactica Napocensia*, 13(2), 9-22.
2. Ellis, N. C. (2015). Implicit and explicit language learning: Their dynamic interface and complexity. *Studies in Second Language Learning and Teaching*, 5(3), 391-408.
3. Fotos, S. (2004). Context matters: Effects of the second language learning environment on second language lexical acquisition. *Studies in Second Language Acquisition*, 26(2), 227-241.

TARIX FANINI O'QITISHDA YANGI INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Irgashev Aziz Axmatovich

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahar, Xalq ta'limiga qarashli 5-o'rta maktab

Tarix fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8187360>

Annotatsiya. Maqolada tarix darslarida zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish va ushbu jarayonda nimalarga e'tibor berilishi kerakligi xususida so'z yuritilgan. Shuningdek ayrim ta'lim metodlari haqida tushunchalar berilgan.

Kalit so'zlar: Interfaol, strategiya, grafik organayzer, "Keys-stadi", "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Muammoli ta'lim", "Aqliy hujum", "Bumerang", "Muzyorar", "Zinama-zina".

EFFECTIVE USE OF NEW INTERACTIVE METHODS IN HISTORY TEACHING

Abstract. The article talks about the use of modern educational methods in history lessons and what should be paid attention to in this process. Some educational methods are also explained.

Keywords: Interactive, strategy, graphic organizer, "Case-study", "Blitz-inquiry", "Modeling", "Creative work", "Problem-based learning", "Brainstorming", "Boomerang", "Muzyorar", "Zinama-zina".

ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЫХ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ

Аннотация. В статье говорится об использовании современных образовательных методик на уроках истории и на что следует обратить внимание в этом процессе. Также объясняются некоторые методы обучения.

Ключевые слова: Интерактив, стратегия, графический органайзер, «Кейс-стади», «Блиц-опрос», «Моделирование», «Творчество», «Проблемное обучение», «Мозговой штурм», «Бумеранг», «Музёрар». "Зинама-зина".

KIRISH

Hozirgi globallashgan davrda har bir sohada yangi texnologiyalar, yangi g'oyalar vujudga kelmoqda. Ta'lim sohasi ham bunday o'zgarishlardan chetda qolmayapti. Jamiyat ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, madaniy ehtiyojlarini, unung malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'limga bo'lgan talabini qon-qodirish, ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi va takomillashtirilishini ya'ni ta'lim tizimini modernizatsiya qilishni taqozo etdi. Hozirgi kunda dunyoning eng rivojlangan davlatlarining tajribalari o'rganilib, bizning ta'lim tizimimizga tadbiiq etilmoqda. Bugungi kun o'qituvchisidan o'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish bilan birga, ta'lim sohasiga tadbiiq etilayotgan ilg'or ta'lim metodlaridan ham xabardor bo'lish va ushbu metodlardan dars jarayonida muntazam foydalanish, shaxsiy tajribalar asosida bu metodlarni boyitib borish talab etilmoqda.

Har bir fan o'qituvchisi saboq berayotgan o'quvchilarini o'z faniga qiziqtirishi lozim. Buning uchun o'qituvchi yuqori pedogogik mahoratga ega bo'lishi lozim. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro hamkorlik vujudga kelishi zarur. O'quvchilar o'qituvchiga mehr qo'ysagina, uning faniga qiziqadi va qunt bilan o'rganadi. Buning uchun o'qituvchi o'z ustida ishlashi, har bir

darsga qunt bilan tayyorgarlik ko'rib o'quvchilarga darslikdan tashqari yangi ma'lumotlarni bera olishi zarur.

METOD VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunda zamonaviy ta'limning samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotni interfaol metodlar yordamida tashkil etishdir deb hisoblanmoqda. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda: interfaol metodlar, strategiyalar, grafik organayzerlar va boshqa texnologiyalar shular jumlasidandir. Tarix darslarini tashkil etish jarayonida yuqoridagi interfaol texnologiyalardan samarali foydalanish dars jarayonida o'quvchilarni yanada faol bo'lishga, faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishga va ularni mustaqil fikrlashga o'rgatib, ularni mustaqil hayotga tayyorlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushiniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- Ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirish; - Ilgari ottirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- Ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- Ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va ma'suliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- Ikki taraflama fikr mulohazaga sharoit yaratish.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning fikrlashini kengaytiradi va muammolarni to'g'ri yechimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning ijodkorligi va faolligini oshiradi. Bu metodlarni tafsirlashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol metodlar quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: “Keys-stadi”, “Blits-so'rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta'lim” va b.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Muzyorar”, “Zinama-zina” va boshqalar

3. Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Klaster” va b.

Tarix darslarida “BBB” metodi o'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida katta o'rin tutadi. Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni ko'rsata va asoslay olish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarni asoslay olish va tengdoshlari fikrlari bilan o'z fikrini taqqoslay olishiga imkon yaratadi. Ushbu metodni 7-sinfda “Yevropa madaniyati” mavzusi bo'yicha tahlil qilib ko'rsak. O'qituvchi tomonidan qog'ozga 6- sinfda Rim va Yunoniston madaniyati haqida nimalarni bilishlari “Bilardim” deb yozilgan ustunga yozib boriladi. Buning natijasida o'quvchilarda 6-sinfda olgan bilimlarini mustahkamlash imkoniyati paydo bo'ladi. Ikkinchi ustundagi “Bilmoqchi edim”

katakchasiga o'quvchilar Yevropa madaniyati bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarni yozadilar. Dars davomida o'qituvchi ana shu savollarga alohida to'xtalib o'tib, o'quvchilarni qiziqtirgan savollariga javob olishlariga ko'maklashadi. "Bilib oldim" deb yozilgan ustunga o'quvchilar dars davomida o'rgangan yangi tushunchalarini yozib, olgan yangi bilimlarini mustahkamlaydilar va o'tilgan mavzu bilan taqqoslay oladilar. Bu metod o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

O'quvchilarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini aniqlab borishda "Shkalalashtirish" metodidan foydalanishi mumkin. Bunda o'qituvchi bir varoq qog'ozga ikki qutb: "juda ko'p" va "juda kam" tomonlarga ega bo'lgan shkala chiziladi. Ishtirokchilarga muhokama qilinayotgan mavzu bo'yicha shkalada, o'z xabardorligi va bilimdonligiga qarab, bir nuqta chizib qo'yish taklif etiladi. Mashq yakunida o'qituvchi xulosa chiqaradi. Ishtirokchilar mavzu ko'rib chiqilgandan keyin yana bir bor o'zlarining naqadar bilimdonliklarini belgilashlari uchun shkalalashtirish takroran o'tkazilishi mumkin. Bu metodning afzalligi shundaki, bu jarayonga barcha o'quvchilarni jalb qilinadi, o'quvchilarning u yoki bu o'quv mavzusi borasidagi bilimlarini aniqlash, ularning o'sishi, ma'lum mavzuni o'zlashtirishda olg'a siljishlarini kuzatishga imkon beradi.

O'quvchilarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini aniqlab borishda "Shkalalashtirish" metodidan foydalanishi mumkin. Bunda o'qituvchi bir varoq qog'ozga ikki qutb: "juda ko'p" va "juda kam" tomonlarga ega bo'lgan shkala chiziladi. Ishtirokchilarga muhokama qilinayotgan mavzu bo'yicha shkalada, o'z xabardorligi va bilimdonligiga qarab, bir nuqta chizib qo'yish taklif etiladi. Mashq yakunida o'qituvchi xulosa chiqaradi. Ishtirokchilar mavzu ko'rib chiqilgandan keyin yaha bir bor o'zlarining naqadar bilimdonliklarini belgilashlari uchun shkalalashtirish takroran o'tkazilishi mumkin. Bu metodning afzalligi shundaki, bu jarayonga barcha o'quvchilarni jalb qilinadi, o'quvchilarning u yoki bu o'quv mavzusi borasidagi bilimlarini aniqlash, ularning o'sishi, ma'lum mavzuni o'zlashtirishda olg'a siljishlarini kuzatishga imkon beradi.

XULOSA

Hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan ta'lim metodlari xilma-xil hamda ko'p sonli bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga, ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlarga ega, muayyan maqsadlarga, sharoitlarga mos ekanligi va muayyan ta'lim-tarbiya maqsadlar uchun mos bo'lib, uning o'rniga boshqa metod qo'llash maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun ta'lim metodlarini qaysinisidan qaysi maqsad uchun foydalanish ko'zda tutilgan samarani berishini bilish muhim ahamiyatga ega. Bunda o'qituvchining topqirligi va o'quvchilarning imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi katta o'rin egallaydi. Yuqorida tahlil qilingan metodlardan fan o'qituvchilari dars jarayonida foydalanishlari, metodga ijodiy yondashib, unga ozgartirishlar kiritishlari mumkin. Ta'lim metodlari qo'llashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinishi zarur. Agarda o'qituvchi bu jihatni hisobga olmasa ko'zlangan maqsadga erisha olmasligi mumkin. Chunki o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari inobatga olinishi zarur. Masalan, 5-6 sinflarda FSMU, Insert, Venn diagrammasini qo'llash maqsadga muvofiq emas. Bunday usullar 5-6 sinf o'quvchilarga tushunarsiz bo'lishi va ularga qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tarix darslarida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarni ushbu fanga bo'lgan ishtiyoqlarini o'stiradi. Ularni hamjihatlikda ishlashga va mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

REFERENCES

1. Alayeva O. U, Jo'rayeva S. N, Mirzayeva S. P "Ta'lim metodlari" o'quv uslubiy qo'llanma". Toshkent;"Navro'z", 2017.
2. Dehqonova M. U, Djanaliyeva G. A. Ta'lim metodlarini tanlash mezonlari va muammolari. Ta'lim texnologiyalari. 2006. 2-son.
3. Yo'ldoshev J, Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya. 2009-yil.
4. Elektron manba: www.ziyonet.uz

LIRIK QAHRAMON MUAMMOSINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Jienbaev Musa Azatbaevich

Qoroqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8187385>

Annotatsiya. Maqolada lirik qahramon bóyicha ilmiy qarashlar rus, qoraqalpoq adabiyotshunoslarining ilmiy asarlariga tayangan holda órganildi.

Kalit so'zlar: Lirik qahramon, lirik subyekt, lirik obyekt, adabiy egizak, hayotiy prototip, badiiy tip, empirik fakt, zamonaviy tendensiyalar, lirik gipoztaza.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE PROBLEM OF THE LYRICAL HERO

Abstract. In the article, scientific views on the lyrical hero were studied based on the scientific works of Russian and Karakalpak literary scholars.

Key words: Lyrical hero, lyrical subject, lyrical object, literary twin, life prototype, artistic type, empirical fact, modern trends, lyrical hypothesis.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОБЛЕМЫ ЛИРИЧЕСКОГО ГЕРОЯ

Аннотация. В статье изучены научные взгляды на лирического героя на основе научных трудов русских и каракалпакских литературоведов.

Ключевые слова: лирический герой, лирический субъект, лирический объект, литературный двойник, жизненный прототип, художественный тип, эмпирический факт, современные тенденции, лирическая гипотеза.

Adabiyotshunoslikda lirik qahramon 1921-yil Y.Tinyanov adabiyotga shu termini tadbiiq etganidan boshlab asosiy tadqiqot obyektlaridan biriga aylandi. Lirik qahramon sheryatda muallif maqsadlarin badiiy aks ettirishda xizmati katta. Shoyirning ruhiy dunyosi lirik qahramon yordamida tasvirlanadi. Lirik qahramon bilan muallif o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning bir butunligi yoki ikkisining ham alohida etirof etilishi adabiyotshunoslikdagi muommolardan biridir.

Biz bu maqolamizda lirik qahramon va muallif, ularning lirik asardagi xizmatini o'rganib, lirik qahramon haqida adabiyotshunoslarning fikrlarini tahlil qilishni maqsad qildik.

Lirik qahramon va muallifning o'zaro bog'liqligi, lirik subyekt va obyekt masalalari haqida ilk fikrlarni rus adabiyotshunoslari bildirdilar. Lirik qahramon haqida Boris Tomashevskiy: «Lirik qahramon – (shoir obrazi, lirik «men») adabiy termin bo'lib, u shoir tarafidan yaratilgan butun lirik asarlarda tasvirlanadi. Uning yordamida shoir ijodi haqida dunyoqarash takomillashadi. Lirik qahramonning ichki dunyosi harakat va voqealarni emas, aksincha belgili bir hayotiy hodisalarni muallifning ko'ngil kechinmalari yordamida tasvirlaydi»[1.177].

Yuqoridagi fikrlarga diqqat qaratadigan bo'lsak, lirik qahramon shoir obrazi bo'lib, hayotiy hodisalar tasirida yuzaga chiqqan muallifning ruhiy istiroblarini, ko'ngil kechinmalarini tasvirlab, shoir ijodin, uning xarakterin keng manoda anglashga yordam beradi. Demak lirik qahramon shoirning lirik «men»i, obrazi bo'lsa, u sherda shoirning o'zini tasvirlaydi mi yoki muallifning g'oyasin, badiiy fikrin yuzaga chiqarish maqsadida qo'llanilgan shoirning o'zidan mustaqil badiiy detal mi kabi savollar tug'lishi tabiiy. Bu savolga javob topish uchun boshqa fikrlarga ham diqqat qaratmoqchimiz. Taniqli rus shoiri va tanqidchisi I.Annenskiy lirik qahramon haqida: «Lirik qahramon – sheryatda muallif fikri-hayoli yordamida yaratilgan shoir obrazi. Lirik qahramon

shoirning badiiy-adabiy egizagi (художественный двойник), u lirik kompozitsiya matnida (tsikl, lirik kitoblar, lirik sher, lirikaning hamma turi) aniq bir shaxsning tag'dirini, ichki dunyosining o'ziga xosligini va bazda plastik (haqiqiy inson) shaxs kórinishiga ega bo'lgan shakl yoki hayotiy obraz sifatida namoyon bo'ladi (epik va dramtik turlardagi kabi to'liq plastik badiiy obrazga aylana olmasa ham)» – diya fikir bildirsa, M.Prishvin uning fikrini davom ettirib, bu kategoriyaga: «*Odatta shoirning biografik shaxsi va uning lirik qahramoni bilan o'zaro bog'liqligi hayotiy prototip va badiiy tip sifatida: yanii empirik faktlar yangi adabiy xarakterni yaratish uchun estetik tasvirlash bilan almashadi va umumlashadi. Lirik qahramon – bu yaratilgan obraz.*» – diya fikri keltiradi[2.452].

Yuqoridagi fikrlar bir-birini maqullaydi. Fikrlarga aniqlik kiritaylik. Lirik qahramon shoir obrazi, badiiy-adabiy egizagi bu fikrlarni aytgan I.Annenskiyga qo'shilish mumkin, haqiqatdan ham lirik qahramon muallifning badiiy obrazini tasvirlagani bilan ikkisi bir butunlik emas. Egizaklar bir-biriga oxshash xususiyatlarga ega bo'lgani bilan, bir butun organizm bo'la olmagan kabi, lirik qahramon va muallif hardoyim ham bir inson sifatida qo'llanmas. Bu fikrlar M.Prishvin fikrlari bilan mos. Yanii, shoirning hayotiy o'zgarishlarning natijasida yuzaga kelgan ko'ngil kechinmalari lirik qahramonning ruhiga singdiriladi, empirik faktlar lirik qahramonning obrazi bilan estetik tus oladi va ikkisi biriktiriladi.

Lirik qahramon haqidagi fikrlar bugungu adabiyotshunoslikda yana da mukammallashdi. Hozirgi rus adabiyotshunosligida ancha rivoslandi. A.V.Shtraus ózining «Zamonaviy sheriyatda lirik qahramon muommosi: 1990-2000-yillardagi yangi tendentsiyalar» nomli dissertatsiyasida ózining tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, lirik qahramon haqida o'z fikrlarini bildirgan: «*Sheriyatdagi lirik qahramon ózining rivojlanishida birnechta bosqichlardan o'tti, ijodkor-muallifning badiiy fantaziyasi yordamida matn va imidjning teran bog'liqligi ongli, hayolda ijod etiladi. Muallif obrazi ijod mobaynida lirik asarning to'liq bir parchasiga aylanadi. Bu ijod (перформативный) sheriyatining ta'biatiga bog'liqdir: bu sheriyatning tomoshabiniga oddiy oquvchi kabi emas, balki ijodkor-muallifning sherigi sifatida qarash kerak*»[3.11].

A.V.Shtrausning fikricha sherda lirik qahramon obrazi bilan birga avtor obrazi da qo'llaniladi. Ammo, shoirning iqtidori yordamida sherdagi fikrlar, his-tuyg'ular lirik qahramonning tuyg'ulariga aylandiriladi, muallif obrazi badiiy matn bilan biriktiriladi. Bu esa yolg'iz lirik menga birnechta qahramonlarning biriktirilib yuborilishi natijasida amalga oshadi. V.E.Xalizevning fikrlari A.V.Shtrausning fikrlarini yana da aniqlashtirgan: «*Lirik qahramonning hususiyati lirik gipoztazalarning ko'p túrliligida kórinadi: shoir, darvesh, ishchi; hárhil «men» va subyektiv faktorlar bir insonga jamlanadi*» [4.329].

Ikki adabiyotshunosning fikrlarining yakunidan lirik qahramon va shoirning ikki subyekt ekanligini, sherda muallif obrazi ham birga qo'llanilishi, ammo shoirning badiiy ijodi yordamida lirik qahramon va muallif obrazi bir insonga jamlanganligina anglaymiz.

Lirik qahramon muommosi rus adabiyotshunosligi va adabiyotshunoslarining tadqiqotlariga suyangan holda, o'zbek va qoraqalpoq adabiyotshunosligida ham rivojlana boshladi. Qoraqalpoq adabiyotshunosligida lirik qahramon muommosi nazariy adabiyotlarda, dissertatsiyalarda o'z yo'lini topti. Qoraqalpoq adabiyotshunoslaridan Q.Jarimbetov va Q.Orazimbetovlarning lirik qahramon haqidagi fikrlariga diqqat etaylik. Q.Jarimbetov lirik qahramon haqida: «*Lirik obraz asardagi lirik qahramonning ichki tuyg'ulari, ko'ngil kechinmalari, ruhiy keshinmalarining tasvirlanishi yordamida yaratiladi. Lirik obrazga*

sheriya**tn**ing bosh hususiyati singdiriladi. Lirik asarda obraz voqealarni tasvirlash orqali yaratilmaydi, balki lirik qahramonning tuyg'ularin tasvirlash natijasida yaratiladi» – diya fikr bildiradi[5.35].

Tadqiqotchining aytganidek lirik qahramon voqealarga emas, voqea-hodisalar lirik qahramonning tuyg'ulariga bo'ysindiriladi. Shuningdek, shoir lirik asar ijod etganda sher syujetidaki lirik qahramon oquvchiga muallifning o'zi kabi ko'rinishi mumkin. Buning sababi shoirning badiiy fikrlarining lirik «men»ning vujudiga singdirilishi va lirik qahramonning sherda plastik (hayotiy) shaxs kabi boshqa obyektlar bilan aloqaga kirishishi sabab bo'lur. Bu haqida adabiyotshunos Q.Orazimbetov I.Yusupovning «Turnalar» sheri haqidagi tahlilida:

*«Sherning manosi bir qaraganda shoirning atrof-muhit haqidagi fikrlari, tashvishi, hislari kabi ko'rinishi mumkin. Ammo sheriya**tn**ing adabiyotning boshqa turlaridan farqi shunda, uning tadqiqot obyekti keng. Shuningdek, epikada obyektivlik, lirikada esa subyektivlik ustundur. Epikada mazmun voqealar, qahramonlarning hususiyatlarining ifoda etilishi va boshqa yordamida aniqlansa, lirikada lirik «men» yoki lirik qahramonning yakka tashvishlari, tuyg'usi yordamida ifoda etiladi. Bu tara**fd**an lirika oz so'z bilan ko'p mano anglatadi. Albatta, lirik qahramonning turnalar bilan suhbatini uning dunyo bilan, zamon bilan suhbatini diya tushinishimiz kerak»*[6.28].

Lirik qahramon haqida yuqorida atab o'tilgan adabiyotshunoslarning fikrlariga diqqat qaratsak, ularning har biri lirik qahramon va muallifning o'rtasidagi teran aloqani, lirik qahramonning muallif hayoli bilan yaratilishini aytsa da, shoir va lirik men boshqa-boshqa, bir-birini takrorlamaydigan subyekt ekanligini tasdiqlaydi. Biz diqqat qaratgan adabiyotshunoslarning ilmiy ishlarida bu muommoga aniqlik kiritganiga guvoh bo'lamiz. Bu esa maqolamizda tadqiqod predmetiga aylangan lirik qahramon va muallif bog'liqligiga ilmiy-nazariy yakun bo'la oladi.

REFERENCES

1. Словарь литературоведческих терминов. Москва, «Просвещение», 1974, С.177.
2. Литературная энциклопедия терминов и понятий. Москва. НПК «Интелвак», 2001, С.452.
3. А.В.Штраус. Проблема лирического героя в современной поэзии: новые тенденции 1990-х – 2000-х годов». Автореф. дисс. на соиск. кан. филол. наук. Екатеринбург, 2009, С.11.
4. Хализев В.Е. Теория литературы. М.: «Высшая школа», 2007. С.329.
5. Járimbetov Q. Ádebiyattanıwdan sabaqlar. Nókis, «Bilim», 2010, 35-b.
6. Оразымбетов Қ. Хэзирги қарақалпақ лирикасында көркем формалардың эволюциясы хэм типологиясы. Монография. Нөкис. «Билим», 2004, 28-б.

TALABALIK DAVRIDA O'ZINI O'ZI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Oskinbaeva Gulziba Davletbaevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti San`atshunoslik fakulteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası

assistent o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8187434>

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalik davrida o'zini o'zi rivojlantirishning psixologik xususiyatlari shuningdek talabalarda o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari, o'z-o'zini tarbiyalash, boshqarish mexanizmlari, talaba shaxsini shakllantirishda o'z-o'zini takomillashtirishning ahamiyati xususida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: rivojlanish, psixologiya, fenomen, tarbiya, inson, shaxs, ideal, shaxsiyat, Men obrazi.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SELF-DEVELOPMENT DURING THE STUDENT PERIOD

Abstract. In this article, the psychological characteristics of self-development during the student period, as well as the main directions of organizing self-education in students, self-education, management mechanisms, self-development in the formation of a student's personality the importance of improvement was discussed.

Key words: development, psychology, phenomenon, education, person, person, ideal, personality, self-image.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ САМОРАЗВИТИЯ В СТУДЕНЧЕСКИЙ ПЕРИОД

Аннотация. В данной статье рассмотрены психологические особенности саморазвития в студенческий период, а также основные направления организации самовоспитания у студентов, самовоспитание, механизмы управления, самооценка в формировании личности студента. обсуждалась важность самосовершенствования.

Ключевые слова: развитие, психология, феномен, воспитание, человек, личность, идеал, личность, образ самого себя.

Mehnat jarayonida organizmning hamma funksiyalari ya'ni mushak faoliyati, oksidlanish-qaytarilish protsesslar va boshqalar keskin ravishda o'zgaradi. Ish boshlanishidan ilgari, fakat ish joyiga kelish bilanoq odamfunksiyalari tegishli ravishda o'zgaradi. Odatda puls tezlashadi va bir minutda sarf qilingan miqdori oshadi. Funksiyalarning bu shartli reflektor o'zgarishida oliy nerv faoliyatining "ishga solish mexanizmlari" harakatga keladi. Katta yarim sharlar pustlogining ishga solish ta'sirlari organizmning tinch holatidan, faoliyatli holatga keltiradi yoki shu paytgacha ichki ta'sirotlarostida o'tayotgan faoliyatni keskin ravishda kuchaytiradi. Lekin katta yarim sharlar pustlogi ishga solgan organlarga ham ta'sir qilishni davom etadi. Miya pustlogidan kelgan impulslar ishlayotgan organlarga ta'sir qilgan chog'da, pustlok uyg'unlashtirish ta'sirini ko'rsatadi [4,5].

Insonning ish qobiliyati yoki ish quvvatining talab qilinayotgan darajasini ish sifatini o'zgartirmagan holda mumkin qadar uzoq saqlab qolish qobiliyati, bir necha faktorga bog'liq. Bulardan eng muhimlari trenirovka va mashq emotsional holat, charchash va atrofdagi muhit sharoitlaridir [1, 2]. Xozirgi zamon ishlab chiqarish sharoitlarida bajarilayotgan ishlarularning quvvatiga ya'ni vaqt birligi ichida bajarilayotgan ishning miqdoriga karab 3 guruhga bo'linishi mumkin: 1-yengil; 2- o'rtacha; va 3-og'ir ishlar. Yengil ishlar ishlar qatoriga minutiga kamroq kislorod iste'mol qilinadigan ishlar kiradi. Agarda odamning to'la tinch holatda minutiga 200-250 sm³ kislorod iste'mol qilinishi hisobga olinsa, yengil ish vaqtda kislorodning iste'mol qilinishi ko'p deganda 2-2,5 xissa ortadi. O'rta og'irlikdagi ishlar qatoriga bir minutiga 1 litrgacha iste'mol qilinadigan ishlar kiradi, ya'ni bunda kislorodni iste'mol qilinishi tinch holatiga qaraganda 2-4 marta oshadi. Og'ir ishlarga minutiga bir litrdan ortiq miqdorda kislorod iste'mol qilinadigan ishlar kiradi. Ish vaqtida kislorodning kuproq iste'mol qilinishiga sabab shuki, mushak ishi uchun zarur bo'lgan energiya oziq moddalari natijasida hosil bo'ladi. Lekin ayrim hollarda kislorod iste'mol qilinishi bajarilayotgan ish xajmdanqat'iy nazar qo'llanishi mumkin. Masalan, kishi 13 sekund davomida maksimal tezlik bilan yugirganda kislord iste'mol qilinishi ortiqcha ulgirmaydi va u keyinroq yugirish tugagandan keyin ko'payadi [2].

Noto'g'ri tashkil qilingan va ko'p diqqatni talab qiladigan ishning bundaysalbiy natijalarini bartaraf qilmoq yoki anchagina kamaytirmoq uchun mehnatning sanitariya-gigiyena sharoitlarini

yaxshilash, ishni tartibga solish, qisqa muddatli tanaffuslar qilish, shu bilan birga ko'p malaka talab qilmaydigan konveyrlarda ishlovchilarning ma'lum vaqt o'tganda bir operatsiyadan ikkinchi operatsiyaga ko'chirish lozim [4].

Korxonalarda xavfsiz mehnat sharoitlarini to'g'ri tashkil etilishi ishchi-xodimlarni intizomli bo'lishiga va bu o'z navbatida mehnat unumdorligini oshirishiga, ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisalarni, asbob uskunalarni buzilishlari va boshqa ko'zda tutilmagan xolatlarning kamayishiga va oxir oqibatda ishlab chiqarish samaradorligini oshishiga va korxonaning barqarorligiga olib keladi [2].

Mehnat jarayonida, faoliyat turiga xos bo'lgan shikastlash omili ta'siri maydonida («xavflar maydonida») mavjud bo'ladi. Chunki ishchi shikastlash omilita'siri maydonida ya'ni «xavflar maydonida» bo'lgan haftada, kunda, soatda shikastlanishi mumkin [4].

Ishlovchi xodimlarning sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash davlat ahamiyatiga molik bo'lgan muhim vazifadir [1].

Gigiyenik baholash mezonlariga asoslangan mehnat sharoitlarining 4 ta sinfiga oid tasnifidan ma'lumki, zararliligi bo'yicha mehnat sharoitlaridagi ish joylarida doimiy faoliyat yurituvchi ishchi-xodimlar tanasida qayta tiklanmaydigan funksional o'zgarishlar sodir bo'ladi, mehnat qobiliyati pasayadi, shuningdek kasb kasalliklarining yuzaga kelish ehtimoli ortadi. Shundan kelib chiqib bunday zararli mehnat sharoitlarda faoliyat yurituvchi xodimlarga, vaqtinchalik chora-tadbirlar sifatida ustama haq to'lash (kompensatsiya), ish o'rniga mos bo'lgan kafolatlar va preferensiyalar beriladi. Ammo vaqtinchalik chora-tadbirlar xodimlarni kasb kasalliklariga chalinish ehtimolini kamaytirmaydi, faqatgina ularni sog'lig'ini yo'qotilishiga mos moddiy kompensatsiya hisoblanadi va o'rnatilgan yoshdan 5 yil oldin nafaqaga chiqish imtiyozini beradi. Mehnat muhofazasi sohasi faoliyatining asosiy maqsadi esa yo'qotilgan sog'liq uchun ishchi-xodimga moddiy tovon to'lash emas, balki mehnat jarayonida insonlar xavfsizligi, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyatini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar hamda vositalardan iboratdir.

Mehnat muhofazasi amaliyotida uni ta'minlashni bir necha tamoyillari va usullaridan foydalaniladi. Tadqiqotlar natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar va vositalar ushbu tamoyillar va usullar doirasida yaratilgan. Tamoyillar va usullarni konstruktiv, tashkiliy va moddiy amalga oshirish mehnatni muhofaza qilishning ifodasidir. Mehnatni muhofaza qilishning yo'naltiruvchi, texnik, tashkiliy va boshqaruv tamoyillariga ajratish mumkin. Texnologiyani o'zgartirish, zararli moddalarni xavfsiz moddalarga almashtirish, xavfsiz uskunalardan foydalanish va mehnatni ilmiy tashkil qilishni takomillashtirish orqali zararli va xavfli omillarni yo'q qilishni nazarda tutuvchi g'oyalarga yo'naltiruvchi tamoyillardir. Odamni masofadan himoya qilish, ma'lum darajada xavfsizlikni ta'minlaydigan, inson va xavf manbai o'rtasida shunday masofani belgilash, xavf manbai bilan odam o'rtasida to'siq o'rnatish orqali xavfdan himoyalaniшни kafolatlash texnik tamoyillardir.

XULOSA VA MUNOZARA

Insonni xavfli shikastlovchi va zararli ishlab chiqarish va tashqi omillar ta'siridan ogohlantirish yoki himoya qilish uchun mo'ljallangan (blokirovka va himoya qiluvchi, cheklovchi, xavfsizlik, signalizatsiya qurilmalari hamda moslamalari) sanoat xavfsizligi texnik uskunalari yoki tizimlaridir.

Mehnat muhofazasi nafaqat ishchilarning sog'lig'i, balki qudratli iqtisodiy omildir, chunki mehnat sharoitlarining yaxshilanishi mehnat unumdorligini oshishiga, jihozlarning xizmat qilish

muddatini uzaytirishga, kasallik varaqalari to'lovlarini, nogironlik nafaqalari va boshqalarni kamaytirishga olib keladi.

REFERENCES

1. E.I.Ibragimov, S.Gazinazarova, O.R.Yuldashev. Mehnat muhofazasi maxsus kursi. Darslik.-T.: TIMI, 2014.-536 b.
2. Mehnat gigiyenasi. Iskandarova G.T. tahriri ostida. – T., 2009, - 283 b.
3. Narziev S. va boshqalar. Shikastlanish sabablarini nazariy tahlil qilish va ularni kamaytirish choralari // Dinamik va boshqaruv tizimlarida ilg'or tadqiqotlar jurnali. - 2020. - T. 12. - Yo'q. S2. - b. 166-170.
4. Narziev Shovqiddin Murtozaevich, Botirov Akbar Baxriddinovich Inson faoliyatining xavfsizligi, mehnat jarayonida risklarni o'rganish va tahlil qilish usullari // *Techika*. 2021 yil
5. Ganiyeva, M. (2021). *Effective Methods of TRIZ*.

FITONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Pardayeva Nasiba Boyqobulovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8187672>

Annotatsiya. Ushbu maqola fitonimik komponentli ingliz birliklarining leksik-semantik tahliliga bag'ishlangan. Ushbu maqolaning mavzusi - bunday frazeologik birliklarning leksik-semantik tahlili va xususiyatlari. Maxsus e'tibor fitonimlarning amaldagi leksik-semantik xususiyatlariga berilgan. "Fitonim" atamasidan foydalanish aniqlangan.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, fitonim, seme, leksik ma'no, tahlil tushunchasi.

LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL COMBINATIONS WITH A PHYTONYM COMPONENT

Abstract. This article is devoted to the lexical-semantic analysis of English units with a phytonymic component. The subject of this article is the lexical-semantic analysis and characteristics of such phraseological units. Special attention is paid to actual lexical-semantic features of phytonyms. The use of the term "phytonym" is defined.

Key words: phraseological unit, phytonym, seme, lexical meaning, analytical concept.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ СОЧЕТАНИЙ С ФИТОНИМИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ

Аннотация. Данная статья посвящена лексико-семантическому анализу английских единиц с фитонимическим компонентом. Предметом данной статьи является лексико-семантический анализ и характеристика таких фразеологизмов. Особое внимание уделено собственно лексико-семантическим особенностям фитонимов. Определено употребление термина «фитоним».

Ключевые слова: фразеологизм, фитоним, сема, лексическое значение, аналитический концепт.

Ushbu maqola ingliz frazeologik birliklarining fitonimik qismini leksik-semantik o'rganishga bag'ishlangan. Bunday frazeologik birliklarning leksik-semantik o'rganishi va xususiyatlari ushbu maqolaning mavzusidir.

Har qanday tilning frazeologik fondini yaratish motivi uning shakllanishining samarali bosqichidir turli xil modifikatsiyalari. Lingvistik adabiyotlar darajasiga ko'ra ko'plab tasniflarini ekvivalentlik beradi. Har qanday tilning frazeologik fondi bilim bazasi va siqilgan shakl bo'lgan xalq hikmatidir. Uning birliklarida mavjud bo'lgan pretsedent matnlardir. U turg'un iboralardan turli darajadagi termoyadroviy sobit iboralarni o'z ichiga oladi. Idiomalar, klishelar, maqollar paremiologik vositalarga ega. Turg'un iboralarning xilma-xilligi, ularning o'ziga xos xususiyatlari, konstruktiv va baholovchi frazeologiyani nafaqat fan sohasi, balki turli tilshunoslik manbalari sifatida ham ko'rish mumkin. Uzoq vaqt davomida frazeologik birliklarni tartibga solish maqsadida empirik faktlarni qayta ishlash orqali frazeologiyani tadqiq qilish, ularning evolyutsiyasini o'rganish, qiyosiy tipologiyasini loyihalash, birikmalarni o'rganish yoki ishlash. Semantik, strukturaviy va funksional frazeologik birlikning xususiyatlari uni boshqa til birliklaridan belgilar majmui bilan ajratib turadi. Frazeologik birlikning lug'aviy ma'nosi uning turkum belgilaridan biri bo'lib, u nafaqat matnda, balki kontekstda ham, leksikografik tavsif va

talqinda amaliy jihatdan ochib beradi. O'zgaruvchilar, leksik birikmalar frazeologizmga duchor bo'lgan so'zlarning ma'nosi qayta talqin qilinishi natijasida frazeologik turg'unlik yuzaga keladi. Xalqning tilni boyitgan nafis iboralarga bo'lgan ehtiyoji ko'pincha muayyan mazmunning yagona ifodasidir. Frazeologik dunyoqarashda alohida so'zlar bilan ifodalab bo'lmaydigan holatga, shubhasiz, ana shu jarayon yordam beradi. Ushbu maqolada fitonimik komponentli frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shaxsning ma'naviy tartibi va madaniy rivojlanishi bizni o'rab turgan dunyo sub'ektlarini bildiruvchi narsalar orqali qayd etiladi, ya'ni nima uchun lingvistik adabiyotlarda leksik birliklarni o'rganishga alohida e'tibor beriladi.

Fitonimiyaga e'tibor nominant so'zlarning kognitiv xususiyatni o'rnatishi va aks ettirishiga asoslanadi. Madaniyatda flora dunyosining rivojlanishi. Shunday qilib, fitonimlarni o'rganish terminologik, lingvoni hal qilish imkonini beradi.

Fitonimika tarixiga oid dolzarb muammolardan biri lug'at tadqiqoti - bu "fitonim" semantik kengaytmasining ta'rifi, chunki umumiy qabul qilingan narsa yo'q tilshunoslikda keng qo'llanilishiga qaramay, ushbu atamaning talqini. Fitonimlar botanika birliklari sifatida aniqlanadi nomenklatura va o'simliklarning ilmiy nomlash birliklariga qarshi. Bu leksik guruhga mansub so'zlar o'rganishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muhim xususiyatlarga ega. Tilshunos olimlarning o'simlik dunyosiga alohida e'tibor qaratishlariga sabab shundaki, o'simliklar inson hayotida asosiy o'rinlardan birini madaniyat egallaydi.

Fitonimlardan foydalanish mifologik, diniy va adabiy an'analarni davom ettiradi. Fitomorfizm fikrlashning dastlabki shakli bilan bog'liq bo'lib, bu shakldan kelib chiqqan tushunchalar tilda o'tkaziladi. Fitonimlar ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qilishda davom etmoqda va hozirda ularni o'rganish keng tarqalgan. Ular nutqning turli turlarida (adabiy, she'riy, ilmiy va siyosiy) ko'rib chiqiladi; materialga asoslanadi faqat bitta tilda va tillar o'rtasidagi taqqoslashda. Turli xillar tomonidan qo'llaniladigan yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramasdan mualliflarning fikriga ko'ra, ular flora universaldir, bu esa modellashtirishning eng qadimgi usullaridan birini ko'rib chiqishga imkon beradi. O'simlik dunyosini kontseptuallashtirish bilan bog'liq bo'lgan fitonimik dunyo qarashlari istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Lingvistik dunyoqarashning mozaik qismini o'rganish. Zamonaviy nobadiiy adabiyotda fitonimik lug'atga oid ko'plab asarlar mavjud turli tillarda va jahon lingvo madaniyatlarida tahlil qiladi. Ilmiy maqolalar hodisalarni tasvirlaydi va juda katta bo'lishiga qaramay fitonimlarni o'rganish sohasidagi maqolalar soni, uning to'liq bir ma'noli ta'rifini berishga harakat qiladi. Va, holbuki ba'zi olimlar ularni terminologik tizimga, boshqalari esa bunday lug'atni nomenklaturaga kiritadilar. U yerda shuningdek, fitonimlar bir qator terminologik belgilarga ega bo'lib, denotatsiya bilan barqaror bog'langan va leksika-semantik guruhning umumiy so'ziga ega.

Fitonimiya bir xil semantik leksemalarning bog'lovchisi sifatida qaraladi yaqinlik, yaxlit semantik xususiyatga ega bo'lib, assotsiativ ravishda ajratilgan tafsilotlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, fitonimlar, kabi o'simlik dunyosining qo'shimcha lingvistik kontekst belgisi sifatida nafaqat muhim leksemalar, balki pragmatik va baholovchi ham paydo bo'ladi. ona tilida so'zlashuvchining ongida komponent. Agar biz fitonimni generativ element yoki o'simlik sarlavhasi sifatida oladigan bo'lsak, unda mumkin bu leksik-semantik guruhdagi leksik to'plamni ajrating. Zamonaviy tadqiqotlarning fanlararo tabiati tilni egallashi, qayta ko'rib chiqish va tushunishni ta'minlaydi barcha madaniy va lingvistik merosni aks ettiradi.

Ko'pgina o'simliklar Angliyaning ramzi hisoblanadi. Ushbu ramzlar xalq madaniyatining xususiyatlarini, uning qadriyatlarini, an'analar va realizm. Ramz nafaqat ob'ektiv va majoziy, balki madaniy xususiyatga ega bo'lgan haqiqat belgisidir ma'nolari. O'simliklar atrofdagi dunyo haqidagi mifologik g'oyalarni ifodalashi va uni konkretlashtirishi mumkin, bu esa ko'rib chiqishga imkon beradi birinchisi prototip belgilar sifatida bo'ladi.

Fitonimlarning taxminiy potentsialining ikki guruhi mavjud: Hisoblangan komponentni ob'ektiv o'simlik xususiyatlari bilan aniqlash mumkin.

Tashqi ko'rinish xususiyatlari, amaliy qo'llash uchun foydaliligi, yeyish mumkinligi yoki yeyilmasligi va boshqalar.

Hisoblangan komponent o'simliklarning madaniy xususiyatlari, diniy va o'simlik nomlarining mifologik kelib chiqishi.

Dunyoning lingvistik ko'rinishidagi semantik xususiyatlar eng muhim funktsiyani ta'minlaydi - tizimli: Bir qator ta'riflar uchun umumiy bo'lgan semantik xususiyatlarga ko'ra, leksik birliklar qatorlar, guruhlar va paradigmatlar, ya'ni leksik til tizimi. Semantik xususiyatlarining bir turi sifatida ma'noda katta ahamiyatga ega.

Hissiy komponent so'zda bahosiz ko'rinmaydi. Konnotativ qo'shimchani qo'shadi, denotatsiyaga nisbatan, ta'rifga ma'nolar beradi. Ushbu tadqiqotda fitonim frazeologik birliklarning semantik ma'nosini ochish sharti hisoblanadi. Ularning konnotatsiyalarini ochib berish. Tanlangan birliklar: romashka kabi yangi va qisqargan binafsha.

Fitonimik komponentli ingliz frazeologik birliklarini tahlil qilish natijasida biz quyidagilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu idiomalar nimani anglatishiga ko'ra quyidagi guruhlar:

1) Tashqi ko'rinish.

Bu guruhga tasvirlangan narsalarga ko'rinishi o'xshashligiga asoslangan leksik birliklar kiradi: qulupnay belgisi - "tug'ilgandan beri mavjud bo'lgan odamning terisida doimiy to'q qizil belgi". Sabzi fitonimi tez-tez ishlatiladi frazeologik iboralar: ko'p sabzi yuqori odamlar yashil ko'zlari bor. Sabzi tepasi sochlari to'q sariq rangga ega bo'lgan odamni anglatadi rang. Tashqi ko'rinishni tavsiflovchi yana bir ingliz frazeologik birligi romashka kabi yangi: I met Molly the other day. U xuddi romashka kabi yangi ko'rinaradi. Bu turkumning keyingi frazeologik birligi ikki no'xatdagidek – "juda o'xshash yoki bir xil. Kembrij inglizcha Idiomlar lug'atida bu frazeologik birlik "juda bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi o'xshash, qarash, o'zini tutish yoki xuddi shunday o'ylash". Bu idioma rasmiy o'xshashlikni tavsiflaydi ikki ob'ektning, chunki u o'z ma'nosida yarim "o'xshashlik" ga ega.

Ushbu maqolada fitonim frazeologik birliklarning semantik imkoniyatlarini ochib berish shartidir. va ularning ma'nolarini ochib berish. Fitonimik komponentli frazeologik birliklarning leksik-semantik tahlili kundalik hayot voqeligiga va odamlar tiliga ta'sirini isbotladi. Fitonimlarni o'rganish hissa qo'shadi odamlarning madaniy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini, ularning turmush tarzi va an'analarini bilish. Yuqoridagilarga asoslanib, bu bo'lishi mumkin frazeologik birlik-fitonimlar semantik jihatdan ancha xilma-xil bo'lib, ularni turkumlarga ajratish imkonini beradi, degan xulosaga keldi. konnotativ va pragmatik ma'no asosida aniqlangan tegishli tematik guruhlar. Bu ularga hissa qo'shadi tizimlashtirish va keyingi istiqbolli qiyosiy tahlilni, shu jumladan aloqador bo'lmagan tahlillarni amalga oshirish imkonini beradi tillar.

REFERENCES

1. AC03763025, A. (2001). Kembrij xalqaro idiomalar lug'ati. Kembrij universiteti matbuoti.
2. Alauddinova R., Rajabova, D., & Eshonqulova, M. (2019). Ingliz tilidagi frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili Va rus. Nauchnye Gorizonty, (5–1), 37–40.
3. Abbasova, N. K. (2018). Using Effective Techniques Developing Learners' Critical Thinking in Teaching English Proverbs and Sayings. *Eastern European Scientific Journal*, (6).
4. Abbasova, N. (2019). Using effective techniques for developing critical thinking of the learners while teaching english proverbs and sayings. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(3), 107-110.
5. Рахмонова, Д. М. МУЛОҚОТНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ: ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОРЛИ ФУҚАРОЛАР БИЛАН ИШЛАШ МУАММОЛАРИ. *INVOLTA*.
6. Rahmonova, D., & Boychayeva, D. (2019). TASK-BASED LANGUAGE TEACHING APPROACH IN ESP CLASSROOM. *Theoretical & Applied Science*, (12), 173-175.
7. Uzakova, L. (2021). О‘ЗБЕК ВА ИНГЛИЗ НУТҚИЙ ЕТИКЕТЛАРИНИНГ ҚИЙОСИЙ ТАДҚИҚИ. *Scientific progress*, 1(3), 213-216.

ILMIY FANTASTIKA ASARLARINING TARJIMA MUOMMOLARI REY BREDBERINING “FERENGET BO‘YICHA 451 GRADUS” ASARI ASOSIDA

Muhtorova Gavharbibi Nuraliyevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8188289>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ilmiy fantastika asarlarining tarjima muommolari Rey Bredberining “ferenget bo‘yicha 451 gradus” asari asosida yozildi. Tadqiqot davomida tarjima qiyosiy adabiyot, qarama qarshi tavsifli tarjima va lingvistik atamalarining izohli tahlili, adabiyotning stilistik tahlili ko‘rib, o‘rganilib chiqildi.

Kalit so‘zlar: tarjima, termin, tilshunoslik, asar, yozuvchi, adabiyot, tadqiqot.

CHALLENGES OF SCIENCE FICTION TRANSLATION BASED ON RAY BRADBURY'S 451 DEGREES FAHRENHEIT

Abstract. In this article, the problems of translation of science fiction works were written based on Ray Bradbury's work "451 degrees Fahrenheit". In the course of the research, the translation was studied by looking at comparative literature, contrastive descriptive translation and interpretative analysis of linguistic terms, stylistic analysis of literature.

Key words: translation, term, linguistics, work, writer, literature, research.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА НАУЧНОЙ ФАНТАСТИКИ НА ОСНОВЕ РОМАНА РЭЯ БРЭДБЕРИ «451 ГРАДУС ПО ФАРЕНГЕЙТУ»

Аннотация. В данной статье проблемы перевода научно-фантастических произведений написаны по мотивам произведения Рэя Брэдбери «451 градус по Фаренгейту». В ходе исследования перевод изучался методами сравнительного литературоведения, сопоставительно-описательного перевода, интерпретативного анализа лингвистических терминов и стилистического анализа литературы.

Ключевые слова: перевод, термин, языкознание, произведение, писатель, литература, исследование.

Tarjimashunoslik ilmi keng sohalarni qamaragani bilan, har bir sohaning o‘ziga xos tarjima xususiyati va farqliklari mavjud. Shu farqliklarni tadqiq etish va izlanishlar asosida texnik tarjima jarayonida madaniyat qanday muhim rol o‘ynayotganini namoyish etishi, qanday natijalari ko‘rsatishi, tarjimalar bir-biriga juda o‘xshash bo‘lsa-da, har bir tilning va sohaning tarjima qilingan turlarida o‘ziga xos nozikliklar va farqlar mavjudligi ushbu tadqiqotda o‘rganiladi.

Tarjimonning tarjimoni tajribasiga va tabiatiga yoki matniga qarab, tarjimon matndagi qiyinchilik darajasi va qiyinchilik turini, masalan, o‘z vaqtida matnni to‘g‘ri tarjima qila oladimi yoki yo‘qligini baholashi kerak bo‘lishi mumkin. Ular tushunmaydigan tarjimaning o‘ziga xos muammolari. Ko‘pincha, tarjimonlarning malakasi bo‘lishi mumkin va aniq narsalarni yaxshi bilishi mumkin atamashunoslik va matnlar. Biroq, tarjimon barcha mavzular bo‘yicha bilimlarni olmasa, tabiatan o‘xshash bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa mavzulardan bilimlarni o‘tkazish yoki izlanishlar olib borish mumkin. Izlanishlar tarjimonlarga “asosiy printsiplar va texnologiyalarni yaxshi va qat’iy tushunishga” imkon beradi. Tarjimon nafaqat terminologiyani, balki muallif dastlab yozgan uslubni ham tarjima qilinishi kerak hujjatda xuddi shunday effekt yaratish maqsadli til. Ilmiy tadqiqotlar avvalgi predmetlar bilan bir qatorda tarjimonga matn asoslarini tushunishda yordam beradi. Agar tarjimon o‘z-o‘zidan hal qila olmaydigan terminologik yoki til muammolari

bo'lsa, tarjimon tadqiqot olib borishi yoki ma'lum bir soha mutaxassislarini ko'proq tushuntirish va tushuntirishlar uchun chaqirilishi mumkin. Bunga ma'lum texnologik va sanoat sohalaridagi barcha turdagi ishchilar bilan ishlash kiradi muhandislar, menejerlar va boshqalar. Tarjima tarjimon va mutaxassislar o'rtasidagi qat'iy hamkorlikdan ko'ra jamoaviy ishdir.

“Tarjimashunoslik terminlarining ko'p tilli lug'at-ma'lumotnomasi” qo'llanmasidan foydalanildi. Grammatika (grek. grammatika “harf o'qish va yozish san'ati”, “harf”) atamasi tilning morfologik va sintaktik qurilishini o'rganadigan tilshunoslikning bo'limi ma'nolarida qo'llaniladi. Demak, grammatika tilshunoslikning morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'z ichiga oladi. Morfologiya (grek. morfos “shakl”, logos “ta'limot” so'zlaridan olingan bo'lib) so'z shakllari haqidagi ta'limotdir. Leksikologiya (leksika va logiya) -tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limi. Leksikologiya har bir so'zni yolg'iz holda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq holda o'rganadi. “Adaptatsiya” so'zi lotin tilidan olingan bo'lib adaptatio – “moslashuv” degan ma'noni anglatadi. Bu termin turli sohalar doirasida turli vazifada qo'llaniladi. Hozirgi zamonaviy tarjima nazariyasida “adaptatsiya” tushunchasi ikki xil ma'noda ifodalanadi:

- 1) asarni qisqartirib, yengillashtirib, o'zgartirib, milliyashtirib tarjima qilish;
 - 2) ayrim so'z, tushuncha va terminlarni tarjima qilish jarayonida o'quvchiga moslashtirish
- Ingliz tili (inglizcha:English)- hind-yevropa oilasining german guruhiga kiruvchi til. Ingliz xalqining tili.

Men yaqinda amerikalik, fantast yozuvchi Rey Bredberining “Farengeyt bo'yicha 451 daraja” asarini o'qidim!

Yozuvchi shaxsi haqidagi bir ma'lumot e'tiborimni tortdi: «Bredberi o'ta kuchli shaxs edi: keyingi yillarda u nogironlik kursisiga mixlanib qolgan, bitta qo'li umuman ishlamasdi, ammo ko'zlarida hayot porlar edi. U to'qson yoshida, kasal holida ham dunyodagi voqea-hodisalardan xabardor bo'lib turar va tinimsiz ishlar edi! Uni «ilmiy fantastika dahosi», «koinot asri» shoiri deb hisoblashardi, ammo o'zi bu ta'riflarni yoqtirmas va “odamlar haqida yozyapman”, -deya ta'kidlardir.

Yozuvchi bizga tanishtirmoqchi bo'lgan dunyo aslida asliyatimizga shunchalar yaqinki, go'yo biz bir qadam tashlasak, Farengeytga kirib ketamiz! Romandagi voqealik xuddi “1984” romanidagi kabi butkul o'zgacha qoidalar-u jamiyatga asoslanib yozilgan.

Bu jamiyat qanday jamiyat deysizmi?

Bu jamiyatda KITOBLAR yoqiladi! O't o'chiruvchilarning kasbi (nomidan farqli o'laroq ,kontrast ya'ni ular o't yoqishadi. “Qachonlardir odamlarning uylari yongan paytda...yo'q odamlarning uylari hech qanaqasiga yonmaydigan qilib qurilgan”) esa mana shu kitoblarni kulini ko'kka sovurish ,agar iloji bo'lsa uy egasi bilan birga yoqib yuborish! Farengeyt dunyosidagi butun boshli mo'jiza bu - hammasiga o't qo'yish!

“Kitob esa qo'shningning uyidagi o'qlangan miltiqdir.Uni yoqish kerak!Miltiqning o'qini chiqarmoq kerak! Inson ongini jilovlamoq kerak! Kim biladi deysiz, o'qimishli kishiga ertaga kim nishon bo'lishin.”

Yozuvchi bu asarini 66 yil avval yozgan bo'lsa-da, bu hozirgi kun jamiyatimizga bir muncha yaqin! Inson tafakkurining mahsuli bo'lmish kitoblar yoqiladigan jamiyatda insonlar ularning yoqilish sabablarini hatto o'ylashmaydi! Yozuvchi asarda inson kitob deganda miyasida bo'shliq hosil bo'lishini, ularning eng asosiy vaqti texnologiyaning yutug'i bo'lgan ulkan

televizorlar qarshisida soatlab, mayda ikir -chikir suhbatlar, insonni miyasiga ortiqcha o'ylovni yuklamaydigan ko'ngilochar dasturlar ko'rish bilan o'tib ketishini, insonning inson bilan qiladigan oddiy suhbatidan ulkan ekranlardagi tomoshalarining afzalligini ko'rsatib beradi. Bu jamiyatda eng asosiysi, mana shunday umrlarning o'tib ketishiga insonlarning o'zi sababchi va ular bunga rozi, xursand, baxtli (!) Bu jamiyatda qanday kamchiliklar borligini o'ylashga ularning ongi yo'l bermaydi, chunki u yo'q!

Yozuvchi shu darajada rivojlangan, texnologiyalarning o'chog'i bo'lgan jamiyatni ta'riflaydiki, bunda hatto itlar robot. Ular faqat o'rgatilgan narsani (miyasiga joylanganini) bajaradi. Asarda umri kitoblarni yoqish bilan o'tgan, ammo so'nggi lahzada ko'zlari kitobni tanib qilayotgan ishining mazmunini anglab, bilimni yenggini tutgan Gay Monteg, ma'rifatni xalqdan yulib olayotgan, mahrum qilayotgan Billi, bu hayotga nimaga kelganini bilmaydigan, umri ulkan "qarindoshlarga" (teleekran) termulib o'tayotgan Montegning rafiqasi Mildred, qalb dunyosi o'zgacha bo'lgan, Montegni o'z dunyosidan chiqishiga ko'maklashga klarissa va qariyalar obrazlari uchraydi.

Har davrning bir yaxshisi bor, albatta! Asarda yulduzli osmonga termulib, shundan ham o'ziga bir oz baxt izlaydigan Klarissa Maklellan va miyasida ulkan kitoblarni jamlab, jamiyatdagi inqirozlar sababli qo'lida kitob ko'tarib yurolmay, ularni yoqib yuborgan, ammo onggida butun boshli eng nodir asarlarni saqlab yurgan qariyalar obrazlari bizning jamiyatimiz uchun ko'prikl! Ular bir chimdim nurni kitobxon onggiga joylaydi. Ular o'z davrining chin ma'noda qahramonlari!

" Ammo insonda bitta ajoyib fazilat bor: hammasini boshqatdan boshlashga to'g'ri kelsa, umidsizlikka tushmaydi, jasorat ko'rsatishdan qaytmaydi, buning g'oyat zarurligini, harakatlari zoe ketmasligini biladi. "

Ma'lumki, har qanday badiiy asar, u qaysi janrda bo'lishidan qat'i nazar, tahlilga, muhokamaga tortilmas ekan, matnning mohiyatiga kirilmas ekan, u kitobxonlarning ma'naviyatiga hech narsa bermaydi. Hozirgi zamon jahon adabiyotshunosligida badiiy asarlarni ham morfologik va leksikologik tahlil qilishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari matn tahlili doirasida tanlangan asarning nominatsiyasi ham alohida o'rin tutadi, chunki har qanday asar nominatsiyasi, birinchidan asarning janr va stiliga xos xususiyatlarda sezilarli iz qoldiradi; ikkinchidan, til vositalarining aniq yig'indisi bilan farq qiladi. So'z turkumlariga ayrim tilshunoslar so'zlarning grammatik tasnifi deb qaraydilar va ularda grammatik kategoriyalarni ko'radilar. Boshqa guruh tilshunoslari esa ularni so'zlarning leksik grammatik tasnifi deb ataydilar. Bizningcha, ikkinchi fikr haqiqatga yaqin, chunki grammatik ma'no so'z asosidan tashqarida ifodalanadi, so'z negizi esa leksik ma'no anglatadi. Birinchi fikr tarafdorlarining nuqtai nazarlariga munosabat bildirilganda, so'z turkumlariga grammatik kategoriyalar deb qaralsa, ulardagi leksik mavhum ma'no (predmetlik, harakat va boshqa ma'nolar) mavjud emas degan mantiqiy mulohaza vujudga keladi. So'z turkumlarida leksik ma'no mavjud bo'lar ekan, lug'at tarkibidagi so'zlarning barchasi grammatik kategoriyalar hisoblanmaydi. Asar keltirilgan deyarli gapda barcha bo'laklar o'z ma'nosida o'rnida qo'llangan. Bog'lovchidan ham so'z turkumlaridan ham to'g'ri foydalanilgan (ot, fe'l, ravish, sifat-dosh, harakat nomi, bog'lovchilar, o'z o'rnida).

REFERENCES

1. Ravshanovna, G. N. (2019). TRAINING THE PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO INNOVATION ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION SYSTEM. **European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12)**.
2. Ravshanovna, G. N., & Ahmadjanovna, E. T. U. (2021). Methodological characteristics of formation of tolerance skill pupils in primary school. **ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1)**, 1623-1628.
3. Ravshanovna, G. N. (2021). Methods of development tolerance skills pupils in primary school. **ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1)**, 1221-1224.
4. Ortiqov, R. (2022, June). STRUCTURAL AND SEMANTICAL FEATURES AND DIFFERENCES OF ORAL AND WRITTEN SPEECH. In **INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING** (Vol. 1, No. 9, pp. 438-442).
5. Mirzayeva, D. (2021). PROVERBS AND SAYINGS AS A PRODUCT OF THE NATION'S COGNITIVE THINKING. In **Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference** (Vol. 1, No. 2)

O'QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAGI O'QISH KO'NIKMASINI
RIVOJLANTIRISHDA BLUM TAKSANOMIYASIDAN FOYDALANISHNING
AHAMIYATI

Abdullayeva Muborak Rustam qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8188295>

Annotatsiya. Ushbu maqola umumta'lim maktablarida til ko'nikmalari, tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish larning har birini rivojlantirishga alohida e'tibor berib va Blum taksonomiyasi bo'yicha ingliz tili darslarini samarasini oshirish muammolarini o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Blum taksonomiyasi, til ko'nikmalari, tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish, aktiv va passiv til ko'nikmalari, fasilitator, ekstensiv o'qish, intensiv o'qish.

THE IMPORTANCE OF USING BLOOM'S TAXONOMY IN DEVELOPING
STUDENTS' ENGLISH READING SKILLS

Abstract. This article is devoted to studying the problems of improving the effectiveness of English language classes according to Bloom's taxonomy, paying special attention to the development of each of the language skills, listening comprehension, speaking, reading and writing in secondary schools.

Keywords: Bloom's taxonomy, language skills, listening comprehension, speaking, reading, writing, active and passive language skills, facilitator, extensive reading, intensive reading.

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТАКСОНОМИИ БЛУМА В РАЗВИТИИ
НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. Данная статья посвящена изучению проблем повышения эффективности занятий английским языком по таксономии Блума, уделяя особое внимание развитию каждого из языковых навыков, аудирования, говорения, чтения и письма.

Ключевые слова: таксономия Блума, языковые навыки, аудирование, говорение, чтение, письмо, активные и пассивные языковые навыки, фасилитатор, экстенсивное чтение, интенсивное чтение.

Til muloqot qilish va dunyo bo'ylab insonlarning bir-birlari bilan aloqada bo'lishlari va mamlakatlararo yaxshi munosabatlarni o'rnatishning birlamchi vositasidir. Zamonaviy dunyoda ingliz tili boshqa tillarga nisbatan turli davlatlar, mamlakatlar va mintaqalarda istiqomat qiluvchi ko'proq odamlar tomonidan foydalaniladigan til sifatida boshqa tillardan ajralib turishi sir emas. U bugungi kunda meditsina, injenerlik, jurnalizm, ta'lim, biznes, ilm-fan, texnologiya va ommaviy axborot vositalari, farmakologiya ilmiy izlanishlar kabi ko'plab sohalarida yetakchi rol o'ynayotgan til bo'lib qoldi. Ingliz tilini xalqaro til maqomiga olib chiqqan bir qancha omillar mavjud. Internetdagi aksar ma'lumot ingliz tilida bo'lganligi tufayli bu tilni biladigan va veb saytlardan kerakli ma'lumotni o'z vaqtida olishga imkoni bo'lgan muta-xassislarga talab kundan kun ortib bormoqda.

Hozirgi davrda xorijiy tillarni mukammal o'rganmasdan turib, buyuk bobomiz aytgan ana shunday marralarga erishib bo'lmaydi, desak, adashmagan bo'lamiz. Bunday o'tkir talabga amal

qilib, kelgusi yilda fizika va chet tillarini o'rganishni ustuvor yo'nalish etib belgilashni taklif etaman". Ingliz tiliga va uni yaxshi o'zlashtirgan mutaxassislarga talab katta bo'lgan zamonaviy dunyoda uni har tomonlama o'rganish barcha ko'nikmalarni puxta shakllantirishni taqozo etadi. Ingliz tilini til tashuvchilari darajasida yoki unga yaqin darajada o'zlashtirish uchun o'qituvchilar maktablarda, ta'lim jarayonida barcha til ko'nikmalarini o'zlashtirishga qaratilgan mashq, topshiriq va darslarni tashkil qilishi va til o'rganish jarayonida an'anaviy o'qituvchi emas, balki fasilitator (ko'mak beruvchi) rolini bajarishi kerak bo'ladi. Ushbu til ko'nikmalari: tinglab tushunish (listening), gapirish (speaking), o'qish (reading), yozish (writing). Til o'rganishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun ushbu ko'nikmalarning har birining o'zni katta. Shunday ekan, ularni o'zlashtirish va rivojlantirish bugungi kunning zaruriy vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Tinglab tushunish va o'qish passiv (qabul qiluvchi) ko'nikmalar hisoblanadi, chunki ular yordamida til materiali ijod qilinmaydi, aksincha, ular o'zgaralar tomonidan ijod qilingan materialni qabul qilib olishga yordam beradi. Gapirish bilan yozish esa aktiv (ijod qiluvchi) ko'nikmalar hisoblanadi chunki, bunda o'quvchilar o'z fikrlarini og'zaki yoki yozma gaplar shaklida til materiali yorda-mida ifodalaydilar. Shunday qilib, aktiv va passiv ko'nikmalar bir paytning o'zida namoyon bo'lmaydi. Gapirishdan oldin tinglash, yozishdan oldin o'qish talab qilinadi (yoki aksincha).

O'quvchilarning Blum taksonomiyasi bo'yicha bilishga oid o'quv maqsadiga erishganlik darajasini nazorat qilishda ular tomonidan muayyan mavzu bo'yicha ma'lumot va axborotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun o'quvchi mavzu bo'yicha atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalar, eslashi, takrorlay olishi, asar voqealarini bayon qila olishi, ularga ta'rif berishi, ma'lumotlarni qayta ishlashlari, o'z fikrini bayon qilishi, obekt yoki voqeaning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatishi kerak bo'ladi.

Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Benjamin Blum tomonidan asos solingan savol va topshiriqlar tizimi – bilish faoliyati darajalariga asoslangan o'quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta'lim olamida yetarli darajada keng tarqalgan. O'quv maqsadlari taksonomiyasida o'quvchilar o'zlashtirishining ma'lum bir darajasidan darak beruvchi konkret harakatlari, mazmunan obyektlarni tabiiy o'zaro bog'liqlik asosida murakkablashib borishini ketma-ket joylashtirish orqali turkumlashtirilishi yoki tizimlashtirilishi. Taksonomiya – borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasidir.

Blum taksonomiyasi bosqichlari:

1. Bilish
2. Tushunish
3. Qo'llash
4. Tahlil Qilish
5. Sintez
6. Baholash

BILISH - dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar, mezonlar, yo'nalishlar, kategoriyalar, tasniflar, shuningdek, abstract bilimlar: tamoyillar, aksiomalar, teoremlar, umumlashma fikrlar, strukturalar va shu kabilarni biladi, eslaydi, takrorlaydi, asar voqea-hodisalarini bayon qila oladi.

TUSHUNISH - darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, chizmalar, jadvallarni tushunadi, qayta tuza oladi, o'zgartira oladi (so'zdan raqamga yoki obrazga), mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarini taxminiy tafsiflay oladi.

QO'LLASH - darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, noan'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni ma'lum bir model, formula, ko'rsatma asosida to'g'ri qo'llaydi.

TAHLIL QILISH - darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, mantiqiy fikrlash asosida xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi.

SINTEZ - Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalaridagi bilimlardan foydalanadi. Ayrim materiallar asosida butunning, yaxlitning obrazini, ko'rinishini yaratadi. Bu bosqich tegishli natijalardan yangi jadval tuzishga urg'u beruvchi ijodiy xarakterdagi faoliyatni taqozo etadi.

BAHOLASH - Mazkur kategoriya yuqorida ko'rsatilgan barcha kategoriyal bo'yicha o'quv natijalarga erishishni va aniq ifodalangan mezonlarga asoslanib baholash mulohazalarini taqozo etadi. Ichki va tashqi mezonlar asosida baholaydi, o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi.

1-bilish darajasi. Axborotni takrorlash yoki tanib olish, ma'lumot va ma'lumotlarni esga olish yo'li bilan yodlab olinadigan toifadir. Bilish va fikrlash darajasi past. Ushbu darajada testlar, etishmayotgan belgilarni almashtirish, ta'riflar va nomlarni yodlash yoki takrorlash, jarayonlarning takrorlanishi yoki jarayonlarni takrorlash kabi vazifalar qo'llaniladi.

2-tushunish darajasi. Bilim va fikrlash darajasi o'rtacha. O'quv materialini tushunish sifatida quyidagi harakatlar ko'rib chiqilishi mumkin: tarjima - o'quv materialini bitta "tildan" boshqa "tilga" o'tkazish (masalan, matematik formulalarni og'zaki ravishda ifodalash; jadval, diagrammalarda og'zaki ma'lumotlarni taqdim etish va boshqalar); talqin - o'quv materialini "o'z so'zlari bilan", qisqacha tavsif; Bashorat qilish - suhbatning nima bo'lishini, uning oqibatlari va natijalarini o'quv materiallari asosida bashorat qilish.

3-qo'llash darajasi. Bilim va fikrlash darajasi o'rtacha. Ushbu toifaga o'quv materiallarini haqiqiy vaziyatda va mutlaqo yangi vaziyatda qo'llash kiradi. Bunga qoidalar, usullar, tushunchalar, qonunlar, tamoyillar, nazariyalarning amaliy qo'llanilishi kiradi. Ta'lim natijalari materialning rang darajasidan ko'ra chuqurroq mahorat talab qiladi.

4-tahlil qilish darajasi. Bilim va fikrlash darajasi eng yuqori darajadir. O'quv materialining tuzilishini aniq qilish uchun uni tarkibiy qismlarga ajratib oling; butunning qismlari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlang, butunning qanday tashkil etilganligini his qiling. Ushbu kategoriya, o'quv materialining mazmunini idrok etishdan tashqari, uning ichki tuzilishi qanday shakllanganligini ham anglatadi.

5-sintez darajasi. Bilim va fikrlash darajasi eng yuqori darajadir. O'quv materialining elementlaridan innovatsion tabiatning bir butunini (natijasini) yig'ish. Yangi natija sifatida biz ta'lim materiallarini mutlaqo boshqacha tartibga soluvchi xabarni (hisobot, nutq), ish rejasini, sxemalarni eslatib o'tamiz. Bunday o'quv natijalari yangi mazmun va yangi tuzilmalarni yaratadigan ijodiy faoliyatdan foydalanishni talab qiladi.

6-baholash darajasi. Bilim va fikrlash darajasi eng yuqori darajadir. Ushbu daraja oldingi toifalarning o'rganish natijalariga erishishni anglatadi.

Sir emaski, bugunki kunda yoshlar yozish bilan kam shug'ullanishmoqda, chunki ularning qo'llarida tayyor matnlar va bir zumda olsa bo'ladigan javoblar bilan ta'minlaydigan, internetga ulangan smartfonlar va boshqa elektron qurilmalar mavjud. Ular o'z qimmatli vaqtlarini yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga emas, balki o'zgaralar qilgan (yozgan) ishlarni qidirishga sarflashmoqda. Shunisi ham ayonki, yozish ko'nikmalari yaxshi shakllangan o'quvchilar o'z mustaqil fikr-larini bildirish va ko'zlagan maqsadlariga erishishda boshqalarga qaraganda muvaffaqiyatliroq bo'lishadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ingliz tilining dunyo hamjamiyatida tutgan o'rni va nufuzi ortib borar ekan, uni bizning vatanimizda ham zamon talabida o'rganilishini yo'lga qo'yish kerak. Bunda ingliz tilini o'rganishda asosiy o'rin egallaydigan to'rt malakaning har biri-ni to'laqonli o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu malakalar tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish (TGO'Yo)lardir va tilni samarali o'zlashtirish ularning barchasini rivojlantirish talab qilinadi. Til ko'nikmalarini rivojlantirish orqali xorijiy tillarni o'rgatish jarayonini bir tizimga solib loyihalashtirish va rejalashtirish, buning uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlashni taqozo etadi.

REFERENCES

1. Vandergrift L. (2003). *Orchestrating Strategy Use: Toward a Model of the Skilled Second Language Listener*.
2. Hadfield J. *Intermediate Communicative Games*. Edinburg: Addison Wesley Longman Ltd.
3. Flowerdew, J., Miller, L. *On the Notion of Culture in Second Language Lectures*. *Tesol quarterly* 29 (2). Ja-nuary 1995.La
4. Harmer J. *The Practice of English Language Teaching*. Essex, England: Pearson Education Ltd., 2007. Print.
5. Widdowson H.G. (2001). *Teaching a Languages as Communication* (12th ed.). Oxford: Oxford University Press.
6. Мадиева, Гавхар Абдулазимовна, and Назира Наримановна Дусбаева. "Some modern methods of teaching English." *Молодой ученый* 7-2 (2016): 102-104.

ANKOLOGIYA SOHASIDAGI TERMINLARNING INGLIZ TILIDAN
O'ZBEK TILIGA TARJIMA MUOMMOLARI

Eshiyazova Risolat Shavkatovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8188299>

Annotatsiya. Ushbu maqolada terminlarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima muommolari haqida va ilmiy terminlarning o'rganilganlik darajasi, ahamiyati to'g'risida bo'lib, ingliz ilmiy terminlarining o'zbek tiliga tarjima qilish masalalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: termin, ingliz, tarjima, chet tili, o'zbek terminologiyasi.

PROBLEMS OF TRANSLATION OF TERMS IN THE FIELD OF ONCOLOGY
FROM ENGLISH TO UZBEK

Abstract. This article is about the problems of translation of terms from English to Uzbek and about the level of study and importance of scientific terms.

Key words: term, English, translation, foreign language, Uzbek terminology.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА ТЕРМИНОВ В ОБЛАСТИ ОНКОЛОГИИ С
АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ

Аннотация. В данной статье речь идет о проблемах перевода терминов с английского языка на узбекский и об уровне изученности и важности научных терминов, дается информация о переводе английских научных терминов на узбекский язык.

Ключевые слова: термин, английский язык, перевод, иностранный язык, узбекская терминология.

Insoniyat ilmiy tafakkurining hosilasi bo'lib, xususan, asosan soha mutaxassislariga ayon bo'lgan ilmiy terminlar faqat tarjima orqali o'zga xalqlar tiliga, ongiga, shuuriga yetib borishi mumkin. Bunday jarayonda asliyat terminlari bilan tarjima qilingan til sohibini bog'laydigan yagona vosita bu tarjimondir. Xuddi ma'lum bir matn kabi termin ham tarjimasi uning qanday izohlanganligi bilan asoslanadi. Bir tarafdand, termin intralingvistik tizimning bir obyektini sifatida o'sha tilning leksik, grammatik, fonetik xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Boshqa tarafdand esa, ilmiyma'naviy madaniyat obyektini sifatida ekstralingvistik voqelikni ham o'zida aks ettirishi mumkin, chunki termin semiotik tizimning muhim tarkibiy qismidir. Tarjima, aslida, asliyatni tarjima tili vositalari bilan ifodalab berish hisoblanadi. Oddiy matnning ham, ilmiy asarning ham ma'nosi nafaqat so'zlarning lug'aviy va ma'naviy ma'nosiga, balki ularning sitilistik va sintaktik xususiyatlariga ya'ni ularning birikishiga ham bog'liq. Asliyat ma'no mundarijasini muqobil ravishda tarjima qilish uchun, dastavval, uning tarkibiy qismi bo'lgan so'z, so'z birikmasi, gap va boshqalar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish lozim. Ilmiy asarni tarjima qilish uchun uning tarkibiy qismlarini tarjima tili qonun-qoidalariga mutlaq rioya qilgan holda to'g'ri tarjima qilish kerak.

Bugungi globallashtgan zamonda, madaniyatlar va davlatlararo kasbiy muloqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro munosabatlarning tez suratda rivojlanayotganligini siyosat, iqtisod, fan, texnika va chet elliklar bilan hamkorlik olib borishda yaqqol sezishimiz mumkin. Ilm-fanga doir aloqalar ham shular jumlasidan. Dunyo ilm-fan bilan shug'ullanadigan olimlarning orasida ilmiy hamkorliklarning ko'payib borayotgani ilmiy terminlarni mukammal tushunadigan, bir tildan ikkinchi tilga hech qanday qiyinchiliksiz tarjima qiladigan yetuk mutaxassislarni talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, ilmiy terminlarning leksik, kognitiv va tarjimaviy xususiyatlarini o'rganish alohida o'rin tutadi. Chet tilidagi ilmiy adabiyotni o'qish jarayonida biz, eng avval, leksik-semantik jihatlarini chuqur o'zlashtirishga harakat qilamiz, sababi, ilmiy matnlarda terminlar notermin so'zlarga qaraganda ko'p uchraydi. Ammo ilmiy terminlarni oddiy so'zlardan farqlashda ba'zi chalkashliklar yuzaga kelishi mumkin.

Terminologiya - bu tilning o'ziga xosligi. Atamalar umumiy so'zlardan, boshqa tillardagi so'zlardan yoki tilda allaqachon mavjud bo'lgan morfemalardan tuzilishi mumkin. Hozirgi vaqtda o'zbek terminologiyasining boyligi, asosan, boshqa tillar va so'z birikmalaridan foydalanish natijasidir. Ma'lumki, ingliz tili hozirda dunyoning asosiy muloqot tili hisoblanadi. Shunday qilib, ingliz tili o'z lug'atiga doimiy ravishda yangi so'zlarni qo'shish orqali rivojlanmoqda. Ingliz tilining o'zbek tiliga ta'siri juda katta va uni asosan fan, pedagogika, texnologiya va ijtimoiy hayotning turli sohalarida ko'rish mumkin. Ko'p hollarda biz o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, ingliz tilidan kelgan atamaning ekvivalentini topishga harakat qilamiz. Ammo xalqaro atamalar (yoki xalqaro so'zlar) deb sotiladigan shunday atamalar mavjudki, ular ingliz va o'zbek tillarida bir xil shaklda hech qanday o'zgarishsiz qo'llaniladi. Masalan, yunon va lotin so'zlari texnik va ilmiy atamalar sifatida keng qo'llaniladi.

Termin umumxalq tilida muayyan terminologik tizim orqali o'tadi, binobarin, termin va umumiste'moldagi so'zlar bir-birini to'ldiradigan leksik birliklardir. Biologiya, matematika, tilshunoslikda qo'llanadigan „funksiya“ so'zini ko'p ma'noli termin sifatida emas, balki terminologik omonimlar, sohalararo sodir bo'lib turadigan reterminologik jarayon ya'ni bir soha terminining ikkinchi soha termini sifatida qo'llanishi hosilasi tarzida qaralmog'i lozim. Umumxalq leksikasiga doir qonuniyatlar termin hosil qilishda ham kuzatiladi. So'z bilan termini umumiy va xususiy tomonlari yetarli darajada ochib berilgan emas; kundalik turmushda keng iste'molda bo'lgan so'zlar ayni paytda turli sohalariga doir terminlar hamdir.

Terminga berilgan quyidagicha ta'rif ham shuning isboti: “Ma'lum bir fan yoki kasb-hunar doirasidagi muayyan bir ma'noni ifodalash uchun foydalaniladigan so'zlar terminlar deb yuritiladi. Terminlar qo'llanilish sohasiga ko'ra ilmiy hamda kasbiy terminlarga bo'linadi. Masalan, landshaft, gidrosfera, azimut – geografiya faniga oid terminlar; yelim, charm, mum – etikdo'zlik kasbiga doir terminlar.” Yana bir ta'rifda ilmiy va kasbiy terminlarga berilgan misollar ham o'zini to'liq oqlay olmaydi. Sababi, terminlarga ham muayyan kasb-hunar ham ma'lum bir soha vakillari nutqida qo'llaniladigan maxsus so'zlardir. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, terminlar va kasbiy leksika orasida quyidagi farqlar bor: - Termin ham kasb-hunarga oid leksika ham nominativ vazifa bajaradi, ya'ni inson faoliyatining biror bir sohasiga oid voqelikni nomlaydi; - Terminga ekspressivlik xos emas, biroq kasb-hunar leksikasi o'ziga xos ekspressiv bo'yoqqa ega: - Termin mutlaqo rasmiy harakterga ega, kasbiy leksika esa aksincha norasmiy tarzda bo'ladi. Umuman, so'z, termin, nomenklatura, kasb-hunar leksikasi hamda ularning munosabati shu darajada chalkashki, ularga aniqlik kiritish uchun ko'plap ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borish lozim. V.G. Gakning “Lingvistik belgilarning assimetriyasi va terminologiyaning ayrim umumiy muammolari” nomli maqolasida termin lug'aviy til birligi sifatida o'rganilishi lozimligi hamda uning til leksik birligidagi utgan o'rni haqida asosli mulohazalar berilgan. Olim ba'zi ilmiy manbalarda terminlarni lug'aviy til birligi sifatida qaralmayotganligiga e'tiroz bildirib, “termin bu funksiya, leksik birlik nutqda qo'llanilishining bir ko'rinishidir” degan fikrni ilgari suradi. V. G. Gakning fikriga ko'ra, quyidagi ikkita xususiyatni o'zida mujassam etgan har qanday so'z lug'aviy

birlik bo'la oladi: bular, nimanidir ifodalab kelishi va tushunchalar qatorida ma'lum bir o'rinni egallashi mumkinligidir. Maqolada, shuningdek, termin va notermin so'zlar ifoda xususiyatiga ko'ra tahlil qilinadi va aniqlanadi: bir planli lug'aviy birliklar, ular termin funksiyasida qo'llanilmaydi; termin sifatida qo'llaniladigan bir planli lug'aviy birliklar; ham termin ham notermin funksiyasini bajaruvchi ikki planli lug'aviy birliklar. Olimning yozishicha, biror bir terminologik soha taraqqiyot jarayonini boshdan kechirar ekan,

Hozirgi kunga qadar ko'plab tadqiqotlar, shu jumladan dissertatsiya, sanoat terminologiyalari, qoida tariqasida, ushbu terminologiyalarga kiritilgan birliklarni lingvistik tahlil qilish bilan cheklangan atamalar so'zlar va iboralarni ajratish, atamalarni shakllantirishning metaforik usullari, turli xil tuzilmalar atamalarini statistik hisoblash va boshqalar. Ushbu savollarga zamonaviy yondashuvlar, xususan, kognitiv yondashuv atamalar va ularning agregatlariga nisbatan qo'llanilganda javob berish mumkin bo'ladi. Ushbu yondashuv dastlab psixologlar tomonidan XX-asrning o'rtalarida qo'llanilgan, ammo keyinchalik o'z mavzusi va usullarini kengaytirib, tilshunoslikka ham tarqaldi. Britaniya va Amerika ingliz tillarida O'zbekcha so'z qadoqlangan juda ko'p equivalentlarga ega. Baliq konservalari-qadoqlangan baliq konservalangan ananas-qadoqlangan ananas qadoqlangan sut-qadoqlangan sut Punnet qulupnay-qadoqlangan qulupnay bokslı svetkorn-qadoqlangan shirin makkajo'xori har qanday tarjima manba matnining mazmuni, funktsiyalari, stilistik va kommunikativ qiymatini saqlab turishi kerak. Oziq-ovqat sanoati hujjatlarini/matnlarini tarjima qilishda umuman to'g'ri tarjima qilishning o'zi etarli emas. Tarjima-bu ma'lumotni barcha tafsilotlarni va hatto alohida so'zlarning ma'nosini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, manba matni uchun haqiqiy bo'lishi kerak. Oziq-ovqat texnologiyasi matn maxsus ichimlik katta sonini o'z ichiga oladi, ovqat, gazak termin. So'zlashuv, takrorlash, arxaik til, uzun jumlar, formulaning noto'g'riligi, nomutanosiblik (shartnoma moddolari o'rtasida) va subjunktiv kayfiyatdan foydalanishdan qochish kerak. Hujjatlarni tarjima qilish ancha murakkab jarayon. Tarjima qilish hujjatning manba matni tuzilishini saqlab turish kerak. Bir tilning turli xil variantlari mavjud. Ingliz tili buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya, Kanada va boshqa mamlakatlarning oziq-ovqat sanoati tillarini qamrab oladi. Ularning barchasi sintaktik, leksik va semantik jihatdan farq qilishi mumkin. Shuning uchun ko'rsatkichlarga e'tibor berish orqali hujjat matnini talqin qilishi kerak.

REFERENCES

1. Loesche, V. (1991). Tuebingen: Guten Narr. Nyumark, P. (1988a).
2. Xertfordshir: Prentice Zali. Nyumark, P. (1988b).. Xertfordshir:
3. Prentice Zali. www.foodprocessing.com
4. Гуламова, H. A. Oziq-ovqat sanoati terminologiyasining ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlari.— 2018. — № 14 (200). — C. 73-75.- URL: <https://moluch.ru/archive/200/49277/> (O'zbekiston: 09.01.2023).

BERKUT QAL'A VA KAVAT QAL'A MISOLIDA QADIMGI XORAZM ZARGARLIK SAN'ATI TARIXI

Aziza Sapparbayeva Asror qizi

Urganch davlat universiteti tarix fakulteti tarix ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

azizasapparbayeva13@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8187670>

Annotatsiya. Qadimgi Xorazmning qadimiy qal'alari juda ko'p bo'lib, ular orasida Berkut qal'a va Kavati qal'a ham alohida o'ringa ega. Ushbu maqolada Xorazm zargarlik san'atini rivojlanish bosqichlarini, boshqa yodgorlik zargarlik buyumlariga o'xshash va farqli jihatlari shu qal'alar misolida ko'rib chiqishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: Berkut qal'a, Kavati qal'a, Badaxshon, oniks, almandin, kvarts, lapis lazuli, fleyta, kulon, oval, reaktiv munchoq, barrel, jet, xrizoprast.

ИСТОРИЯ ДРЕВНЕХОРАЗМСКОГО ЮВЕЛИРНОГО ИСКУССТВА НА ПРИМЕРЕ ЗАМКОВ БЕРКУТ И КАВАТ

Аннотация. Здесь много старинных крепостей древнего Хорезма, среди которых особое место занимают Беркут-кала и Кават-кала. В данной статье предпринята попытка рассмотреть этапы развития ювелирного искусства Хорезма, сходства и различия других мемориальных украшений на примере этих замков.

Ключевые слова: Беркут-кала, Кават-кала, Бадахшан, оникс, альмандин, кварц, лазурит, флейта, кулон, овал, гагат, бочонок, гагат, хризопраст.

HISTORY OF ANCIENT KHORAZM JEWELRY ART AS AN EXAMPLE OF BERKUT CASTLE AND KAVAT CASTLE

Abstract. There are many ancient fortresses of ancient Khorezm, among which Berkut kala and Kavati kala have a special place. In this article, an attempt was made to consider the stages of the development of Khorezm jewelry art, the similarities and differences of other memorial jewelry on the example of these castles.

Keywords: Berkut kala, Kavati kala, Badakhshan, onyx, almandine, quartz, lapis lazuli, flute, pendant, oval, jet bead, barrel, jet, chrysoprast.

Kirish. Berkut qal'a (Burgut qal'a) – Qadimgi Xorazm qal'alaridan biri bo'lib, Xorazmda islomgacha bo'lgan davrlarga, ya'ni milodiy VI-VIII asrlarga oid. Berkut qal'a vohaning boshqa qal'alaridan hajmi va tuzilishi jihatidan farq qiladi. Berkut qal'a vohasi 3 kilometr kenglikda janubdan shimolga qadimiy kanal tubi bo'ylab taxminan 25 kilometrga cho'zilgan. Bu voha hududida Afrig'iylar davrida yuzga yaqin voha mulklari mavjud edi.

Ba'zi qal'alar Qang'yuy-Kushon davrida barpo etilganligining aniq belgilari mavjud. Bu birinchi navbatda Berkut – qal'aning eng yirik qal'alariga va ayniqsa, Uy qal'aga tegishli bo'lib, ularning hovlilari yuzasidan ko'p miqdorda qadimiy kulolchilik buyumlari topilgan [1].

Berkut qal'a xarobalari taqirlarida yig'ilgan katta hajmdagi munchoqlar ham qadimgi davrlarga xos bo'lgan. Ularning ko'p turlari juda uzoq vaqt davomida, o'rta asrlarga qadar mavjud bo'lgan. Ammo arablar istilosi Berkut qal'a majmuasi hayotiga nuqta qo'yganini va vohaning gullab-yashnagan davri VI-VII asrlarga to'g'ri kelganini inobatga olsak, u yerda to'plangan munchoqlar arablar istilosi davri va hatto VI – VII asrlardan oldin mavjud bo'lganligini aniqlash mumkin [2].

Berkut qal'adagi munchoqlarning o'ziga xoslik esa, shishadan emas, balki turli xil bezak toshlaridan, oniks, almandin, kvarts, lapis lazuli toshlaridan tayyorlangan. Qatlamli oniksdan yasalgan barrel shaklidagi munchoqlar juda ahamiyatlidir. Al-Beruniy bunday munchoqlarni ishlab chiqarish texnologiyasi haqida qiziqarli ma'lumotlarni asarida keltirib o'tgan. Uning so'zlariga ko'ra, bunday munchoqlar qilish uchun yengil qatlamli oniks bo'laklari qaynab turgan asalga tashlangan va asal oniksning kamroq zich qatlamlariga kirib, u yerda yonib, qorayadi va qatlamlarga chiroyli to'q jigarrang yoki qora rang berguncha qaynatiladi. Bu usul qadim zamonlardan beri ma'lum [3].

Tadqiqotchilar asarlarida, ellinistik davrga va milodiy asr boshlariga oid bo'lgan xuddi shunday munchoqlarni Kavkaz va Shimoliy Qora dengiz materiallaridan ham aniqlanganligi qayd etilgan [4].

Shaffof sarg'ish kvartsdan yasalgan kichik amfora ko'rinishidagi bitta marjon munchoq ham mavjud bo'lib, uni qadimgi davrlarda keng tarqalgan amfora shaklidagi tumorlar turiga bog'lash mumkin. Ushbu munchoq yuzasida fleytlar (vertikal kanal shakl) qo'llaniladi.

Qal'adan pasta va shisha munchoqlarning cho'zilgan silindrsimon shakliga o'xshash bo'lgan, lapis lazulidan yasalgan yumaloq uchlari bo'lgan, tor va uzun (2 sm) silindrsimon munchoq ham aniqlangan. Markaziy Osiyodagi lapis lazulining eng yaqin konlari tog'li Badaxshonda joylashgan bo'lib, u yerdan Xorazmga yetkazilishi mumkin edi, bu esa ikkita hudud aholisining keng va ko'p tomonlama savdo aloqalaridan dalolat beradi. Berkut qal'ada hind almandinining oval ko'zi bor, u qadimgi Xorazmning boshqa yodgorliklarida ham tez-tez uchraydi. Ehtimol, u dastlab silliq oltin ramkada bo'lgan va ba'zan unga tikilgan bezak yoki marjonlarni qisqich sifatida ishlatish mumkin edi.

Qadimgi Xorazmda mahalliy zargarlik buyumlari mavjudligi shuni ko'rsatadiki, mahalliy almandlar (hali ham Sulton Uvays tog'larida joylashgan almand-granat) yoki Shug'nondan olib kelingan va mahalliy zargarlar tomonidan qayta ishlangan. Ko'zning oval shakli qadimgi davrlarga xosdir. Keyingi davrda (afriq'iylar davrida) ko'zlarning yumaloq shakli ustunlik qiladi[5]. Oval ko'zlar milodiy I-III asrlarda sarmatlar orasida ham juda keng tarqalgan [6].

Berkut qal'aning shisha munchoqlaridan bittasini, nok shaklidagi, yashil rangli shisha pastadan yasalgan, kuchli nurli yuzasi va bo'ylama kanallisini nomlash mumkin. Bu Tuproqqal'a materiallarida mavjud bo'lgan nok shaklidagi munchoqlar - tumorlarning turiga bog'liq bo'lishi mumkin.



V. Berkut qal'adan aniqlangan munchoq va tumorlar

1 – yon fleytli, silindrsimon; 2 – amfora shaklli, fleytli munchoq; 3 – mahalliy almand munchoq; 4 – qizil rangli oniks; 5 – noksimon munchoq.

Kavat qal'a o'rta asr qishloq okrugi bo'lib, XIII asrgacha hayot mavjud bo'lgan bir qancha yirik feodal qal'alarga ega. Hozirda esa, eng qadimgi Xorazm yodgorliklari hududi kabi, qum bilan qoplangan o'lik vohadir [7].

Kavat qal'adagi munchoqlar ham taqirlardan yig'ilgan va shuning uchun faqat sanasi aniqroq bo'lgan boshqa taqinchoqlar bilan solishtirish orqaligina aniq davriy chegarasini belgilash mumkin. Bu yerda qadimiy shakllar juda kam uchraydi va hatto ular juda o'zgartirilgan. Masalan, anjir (musht) ko'rinishidagi stiliz qilingan marjondir [8]. Bu yerdan munchoqlar oldingi yodgorliklarga qaraganda ancha tipik tarzda tayyorlangan.

Karnelian munchoqlar ham ilgari tasvirlanganidan farqli bo'lib, bu yerda eng sevimli shakl IX-XII asrlardagi munchoqlarga xos bo'lgan tekislangan, ko'p qirrali, cho'zilgan prizmadir. Kavat qal'aning munchoqlari orasida tosh yoki jigarrang temir toshdan yasalgan mayda bolg'acha tumorlar ham yangi shakl bo'lib, ular boshqa hech qanday joyda uchramaydi. Ulardan biri, kattaroq, sariq yaltiroq toshdan yasalgan; ikkinchisi, kichikroq, jigarrang temir rudasidan tayyorlangan.


Munchoq-tumurlarning yangi turi, shuningdek, yuqorida tavsiflangan, ilgari hech qayerdan topilmagan, hayvonlardan olingan xom toshdir. Boshqa yodgorliklardan farqli o'laroq, Kavat qal'adan juda ko'p reaktiv munchoqlar aniqlangan.

Kavat qal'adan aniqlangan jet munchoqlar ikki tur bilan ifodalanadi:

1. Keng silindrsimon kanalli halqa shaklida;
2. Keskin kesilgan qirralari va silindrsimon kanali bo'lgan barrel shaklida.

Qatronli ko'mirning bir turi bo'lgan jet qadim zamonlardan beri munchoq tayyorlash uchun ishlatilgan. U osongina pichoq bilan kesiladi va silliqanib, chiroyli yarqiroq ko'rinish hosil qiladi. Undan "yomon ko'zdan saqlanish" tumorlari tayyorlangan degan fikr bor. Bugungi kunda ham xorazmlik ayollar ko'zdan saqlanish deya, ko'mir va qora kuyani chaqaloq va yangi kelinlarining yuzlariga surtish odati mavjudligi buni tasdiqlaydi. O'rta Osiyoda, boshqa ko'p joylarda bo'lgani kabi, reaktiv konlar mavjud. Marjon munchoqlaridan bu yerda oq marjondan yasalgan katta amfora shaklidagi munchoqni qayd etish mumkin, uning analogi qadimgi Xorazmda topilmagan.

Ilgarigi yodgorliklardan topilgan munchoq turlaridan Badaxshondagi Mo'g'ultov tog'larida va Sulton Uvays tog'da joylashgan jigarrang temir rudasi tugunidan ("burgut tosh") yasalgan, tanga shaklidagi munchoqni qayd etish lozim. Yuqorida tavsiflanganlarga o'xshash kulrang marmardan yasalgan kichik ellipsoid munchoqlar ham mavjud. Yorqin yashil xrizoprast munchoqlar yuqorida tavsiflangan feruza munchoq bilan bir xil shaklga ega - u nok shaklida va kanal yon tomondan yuqoriga, markazga tortiladi. U ham murakkab marjon munchoq, ikkinchisi feruza shakliga o'xshash lapis lazulidan yasalgan muchoq bo'lgan.



VII. Kavat qal'adan aniqlangan munchoqlar.

Xulosa. Yuqorida qayd qilingan ma'limotlar asosida, quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

- Munchoqlarni o'rganish va ularni Markaziy Osiyo va boshqa qo'shni hududlarning qadimiy yodgorliklari munchoqlari bilan taqqoslash o'xshash hamda farqli munchoq va taqinchoq turlarini aniqlash imkonini beradi. Bu esa, S.P.Tolstovning qadimgi Xorazmning ko'plab davlatlar, hatto uzoq qo'shnilari bilan yaqin madaniy va savdo aloqalari haqidagi xulosalarini tasdiqlaydi.
- Munchoqlar tayyorlangan xomashyolarni o'rganish asosida, ularning xususiyatini aniqlash va tahlil qilish natijasida qadimgi Xorazm aholisining madaniy hayotidagi diniy-mafkuraviy g'oya va dunyoqarashlarini aniqlash imkoniga ega bo'lamiz.
- Qadimgi Xorazm qal'alaridan aniqlangan taqinchoqlarni boshqa hududlardan topilgan munchoq va tumorlar bilan solishtirish asosida, o'ziga xoslikni aniqlanishi, o'lkamizda qadimgi davrlardan rivojlanib kelayotgan mahalliy zargarlik san'ati mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi.

REFERENCES

1. С. П. Т о л с т о в. Древний Хорезм, стр. 134
2. С. П. Т о л с т о в. Древний Хорезм, рис. 73, стр. 134.
3. Г. Г. Леммлейн, Минералогические сведения Бируни. См. "Бируни". Сб. статей под ред. С. П. Толстова. М.-Л., 1950, стр. 118.
4. Экспозиция II отдела ГИМ, Керченские материалы I-III вв. н. э. (ГИМ 87/3)
5. С. П. Т о л с т о в. Древности Верхнего Хорезма, ВДИ, 1941, № 1, стр. 171.
6. Труды Хорезмской экспедиции, т.1. стр. 114.
7. С. П. Т о л с т о в. Древний Хорезм, стр. 159.
8. Труды Хорезмской экспедиции, т.1. стр.118.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KOMIL INSON G'OYASI

Abdullayev Zohidjon Tolibjon o'g'li

NamDu, Tarix yo'nalishi, 3-kurs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8188307>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlari tahlili va ularda keltirilgan komil inson g'oyasi muhokamaga tortilgan. Maqola davomida asosli fikr va mulohaza berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: komil inson g'oyasi, muhim ijtimoiy vazifa, buyuk ta'limot, islom dini.

THE IDEA OF A PERFECT PERSON IN THE WORKS OF

ALISHER NAVOI

Abstract. This article discusses the analysis of Alisher Navoi's works and the idea of a perfect person presented in them. Reasonable opinions and comments are given throughout the article.

Key words: the idea of a perfect person, an important social task, a great teaching, the religion of Islam.

ПРЕДСТАВЛЕНИЕ О СОВЕРШЕННОМ ЧЕЛОВЕКЕ В ТВОРЧЕСТВЕ

АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация. В данной статье рассматривается анализ произведений Алишера Навои и представленная в них идея совершенного человека. Обоснованные мнения и комментарии даны на протяжении всей статьи.

Ключевые слова: представление о совершенном человеке, важная социальная задача, великое учение, религия ислам.

Komil inson tarbiyasi barcha davrlarda muhim ijtimoiy vazifalardan biri hisoblanadi. Yaxshi tarbiya ko'rgan va go'zal xulqli insonga jamiyat boyligi sifatida qaralgan. Islom dini ta'limotida bilimli insonlarni yetuk deb sanalgan bo'lsa, sharq mutafakkirlarining qarashlarida esa komil inson bo'lish uchun ko'pgina yuksak fazilatlarga ega bo'lmoq lozim bo'lgan.

Musulmon olamida keng tarqalgan islom diniga asoslanuvchi buyuk ta'limot bu tasavvufdir. Tasavvuf orqali inson Islom dinining ichki va tashqi go'zalligini, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetadi. Tasavvufning maqsadi insonni ruhiy, ma'naviy jihatdan poklash, ya'ni komil insonni tarbiyalashdir. Qalb pokligiga erishgan, yuksak ma'naviyatli, barkamol shaxs komil insondir. Sharq mutafakkirlarining fozil va komil inson haqidagi fikrlari, odo-axloq haqidagi g'oyalari bugun hamjamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda qimmatli dastur bo'lib kelmoqda. Yoshlarni ma'naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy nuqtai nazaridan yetuklik darajasiga ko'tarilishida Alisher Navoiyning ma'naviy merosidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zero, inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.¹⁵

Alisher Navoiy insonni koinotning nodir va eng oliy asosini tashkil etgan to'rt unsur, yetti ko'k va olti jihatdan ham ulug' baholaydi:

To'rt unsur, yetti ko'k, olti jihat-

¹⁵ Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent. Ma'naviyat 2008

Nodir-u oliy asosi koinot.
Barchasidin ashrafki ul inson erur,
Kim kamolida xirad hayvon erur.¹⁶

Demak, maqsad –inson. Barcha sharafllilardan sharafli –inson. Biroq har qandayi ham emas, balki komil inson.Ma’naviy kamolotida aqlni ham lolu –hayron qoldiradigan chinakam bir insondir. Alisher Navoiy o’z davrida komil insonlarni “ahli ma’ni“deb bilgan. „ Ahli ma’ni “bu hur fikrli, mustaqil insonlardir. Fikrsiz kishining ongida ma’ni chuqurligi bo’lmaydi. „Ahli ma’ni”lik tufayli axloqiy ong rivojlanadi,odam va olam taqdiriga vijdon bilan qarash qobiliyati shakllanadi.Bunday kishilar oqil va dono ,kamtar va oliyjanob ,haqiqatparvar va fidoyi kishilardir. Shoirning fikricha, „ ahli ma’ni “ kishilari ma’naviy –axloqiy jihatdan yetuk shaxslardir.

Komil inson tarbiyasi Alisher Navoiy ijodining markaziy masalalaridan biri bo’lib, asarlarini g’oyaviy –badiiy mohiyatini tashkil etadi. Alisher Navoiyning nutqi va nidolari, taklif-u tavsiyalar, targ’ib-u tashviqlari, maslahat-u nasihatlar, vasiyatlar qaratilgan shaxs bu albatta barkamolligi orzu etilgan navqiron avlod hisoblanadi. O’zidan keyingi avlodni ma’naviy-jismoniy jihatdan barkamol, aql-zakovati yanada yetuk, baxtli va saodatli ko’rish har bir naslning orzusi bo’lgan va bundan keyin ham shunday bo’lib qoladi.

Alisher Navoiyning fikricha, odam axloqidagi yomonliklarni bartaraf qilishi bilan jiddiy mashg’ul bo’lsa komillikka erisha oladi:

Bordurur inson zotida oncha sharaf,
Kim yomon axloqni etsa bartaraf.

Alisher Navoiy she’riyati insonni tinimsiz ma’naviy va ruhiy kamolotga intilishga chorlaydi. U komil inson taqdiriga javobgar shaxsday tuyuladi go’yo. Navoiy “komilman” degan insonni “noqissan” deya baholaydi. O’z nuqsonlarini isbot eta olganlarni esa “komil” deb baho beradi. Buni quyidagi misralarda ifoda etadi:

Noqis uldurkim o’zin komil degay,
Komil ulkim nuqsin isbot aylagay.
Kim o’zin komil ko’rar- noqisdur ul,
Nuqs bermaydur kamol sori yo’l.¹⁷

Komil inson ruhiy poklangan inson tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Demak, ruhni poklash g’oyat muhim. Poklanishning esa birgina yo’li mavjud, u ham bo’lsa nafsni yengishdir. Nafs deganda yemoqlik, ichmoqlikdan, kiymoqlikdan tashqari yana ilmsizlik, manmanlik, kibr-u havo, zulm, g’azab umuman inson ruhini bulg’aydigan, uni uni ollohdan uzoqlashtiradigan barcha illatlarning yig’indisi tushuniladi.

Komil inson uchun eng muhimi – xalq tashvishi, doimo el dardi bilan o’rtanib yashashdir:
Xalqdin har yaramas kelsa, xush o’lkim haqg’a,
Desa bo’lmas: mening uchun yana bir xalq yarat.

Komil odam shu haqiqatni chuqur idrok qiladi. Shuning uchun ham u o’zi istagan „yana bir xalq” yaralishini orzu qilib o’tirmaydi va el komilligi uchun hissa bo’lib qo’shiladigan imkonidagi ishni bajarishdan to’xtamaydi. Ulug’ shoir odamlarni haqqa, sadoqatga targ’ib etarkan,

¹⁶ Najmiddin Komilov. “Tasavvuf talqinlari” Toshkent. Mumtoz so’z 2014

¹⁷ Ibrohim Haqqul. “Zanjirband sher qoshida” Toshkent. Yulduzcha 1989

ayni paytda ularni haqiqat va adolat, tenglik va donolik yo'llarga boshlaydi. Buni ushbu misralarda ifodalaydi:

Har kishi komil erur, bas anga haq bandalig'i,
Mundin o'zga tamai kasbin kamol aylamangiz.

Alisher Navoiy asarlarining qahramonlari Iskandar, Farhod, Shirin, Shopur, Layli, Majnun, Mehinbonu va boshqa axloqli, fazilatli, ma'naviy-axloqiy yetuk insonlardir. Shu bilan birga ularning barchasi yoshlardan iborat edi. Buyuk adib Maqsud Shayxzoda ham „Xamsa“ dostonidagi barcha ijobiy qahramonlari deyarli yoshlardan iborat ekanligini qayd etib shunday deb yozgan edi:

„Xamsa“ dostonlaridagi Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Sa'd, Mas'ud, Suhayl, Mehr, Juna, Bahrom, Dilorom, Shopur, Farrux, Zayd, Ravshanak, Mehrinozlar... hammasi yoshlarni tashkil etadi. Dostondagi hal qiluvchi qahramonlarni yosh obrazlarda berilishi bilan Alisher Navoiy yoshlarning jamiyatda qanchalik rol o'ynaganlarini ko'rsatmoqchi bo'ladi.

Chindan ham ulug' shoir jamiyatdagi ko'pgina murakkab va dolzarb muammolarni yoshlar hal qilishga ishongan. Kurashchan, vatanparvar, ezgulik va haqiqat yo'lida hatto o'limdan ham cho'chimaydigan navqiron avlodning safi keng bo'lmog'ini orzu etgan va Navoiy ularni ibrat etib ko'rsatgan”.¹⁸

Navoiy yoshlarni yengilmas kuch va yoshlikni arslonlik davri deb e'tirof etadi. Yoshlarning orzulari, ularning ishonchli hamda muhabbati tug'yon ura Vatanning istiqloli va umidi yanada yuksaklarga parvoz qilishini ham ta'kidlaydi. Yoshlardagi fikrlar shiddatli, keskin va otashlidir. Shuning uchun ular misli ko'rilmagan tashabbuslar, adolat va haqiqat, muhabbat yo'lida kutilmagan natijalarga erishadilar.

Alisher Navoiyning „Xamsa“ dostonini o'qigan odam oxirida bosh qahramonlarning qismatidan yuragi bag'ri eziladi. Layli va Majnun, Farhod va Shirin yoki jahongir Iskandar ham hayotdan juda erta ko'z yumdi. Buning ijtimoiy, axloqiy sabablarning Navoiy har jihatdan mukammal tasvirlab berdi. Qahramonlarning vafotlari shoir mohiyat e'tibori bilan ishq va yoshlarning vafo va fidoyilik, to'g'rilik va faollik g'alabasi qilib ko'rsatadi. Shuning uchun ular qisman yo'q bo'lsalarda, ruhan yuksak fazilatlar bilan tirik, e'tiqod va sadoqatda namuna darajasida qolaveradi. „Farhod va Shirin“ dostonidagi Farhod olishib yenggan ajdaho, Ahriman dev shunchaki xayoliy, afsonaviy obrazlar emas edi.

Balki Farhodning ichki olamidagi nafsoniy istaklarning ramziy timsollaridir. Farhodning oshiqliqi uni nafs lashkari bilan kurashga otlantiradi, ishq unga kuch berib, sabot va iroda ato etadi. Bundan shu ko'rinadiki, nafsni yengishning quroli bu – ishq. Ishq faqat mehr, muhabbat tuyg'ularigina emas, ulardan boshqa yana iroda, sabot, ilm, sabr, g'ayrat, adolat, shafqat umuman inson qalbini poklashga xizmat qiladigan, uni ollohga yaqinlashtiradigan barcha ezguliklar yig'indisidir. Ishqning o'rni ko'ngilda bo'ladi. Ko'ngil ishq tufayli poklanadi.

Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, ko'ngilni poklash ham bir ilmdir. Ilm esa ustozlardan o'rganiladi. Farhodning ustozlari ham shunchaki hunarmand ustalar obrazi emas. Jumladan Boniy-ko'ngilga ishq binosini qurgan va qurishni o'rgatgan piri komil. Moniy esa olloh ishqini qalbga naqshlash sirlarini anglatgan ustoz. Qoran ko'ngildagi toshdan ham qattiq nafsoniy istaklarni

¹⁸ Maqsud Shayxzoda. „G'azal mulking sultoni“ Toshkent. „Fan“ 1970

parchalash ilmini bildirgan murshid. Poklanishga erishgan komil inson ayni paytda yuksak axloq va odob timsoliga aylanadi. Shu ma'noda Farhod o'zbek adabiyotida mukammal yaratilgan komil insondir.

REFERENCES

1. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent. Ma'naviyat 2008
2. Najmiddin Komilov. "Tasavvuf talqinlari" Toshkent. Mumtoz so'z 2014
3. Ibrohim Haqqul. "Zanjirband sher qoshida" Toshkent. Yulduzcha 1989
4. Maqsud Shayxzoda. "G'azal mulking sultoni" Toshkent. "Fan" 1970

ПИЩЕВАЯ ЦЕННОСТЬ МУЧНЫХ ИЗДЕЛИЙ ИХ ЗНАЧЕНИЕ В РАЦИОНЕ ПИТАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ

Рашидова Гуласалхон Нодировна

Шерназарова Дилноза Шухратовна

Бухарский инженерно-технологический институт

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8188329>

***Аннотация.** Проблема пищевых ресурсов, обеспечения населения здоровыми и доступными для всех социальных слоёв населения продуктами питания во всём мире приобретает всё более важное значение. Доля функциональных продуктов на отечественном рынке в настоящее время ещё не велика, но этот сегмент развивается динамично и является весьма перспективным как средство предупреждения, ранней коррекции и профилактики различных заболеваний. В последние годы в республике реализуются последовательные реформы по рациональному использованию природных ресурсов. Особое внимание уделяется растениям, наиболее адаптированным к культивированию на маргинальных землях, хорошо переносят засуху и начинающих быстро плодоносить.*

***Ключевые слова:** Проблема пищевых, количеству фракцией, функционирования организма, органические кислоты, ферментных система, аминокислоте, болезней цивилизации.*

NUTRITIONAL VALUE OF FLOUR PRODUCTS THEIR SIGNIFICANCE IN THE DIET OF THE POPULATION

***Abstract.** The problem of food resources, providing the population with healthy and affordable food for all social strata of the population throughout the world is becoming increasingly important. The share of functional products on the domestic market is currently not large, but this segment is developing dynamically and is very promising as a means of preventing, early correction and prevention of various diseases. In recent years, consistent reforms on the rational use of natural resources have been implemented in the republic. Particular attention is paid to plants that are most adapted to cultivation on marginal lands, tolerate drought well and begin to bear fruit quickly.*

***Keywords:** The problem of food, the number of fractions, the functioning of the body, organic acids, enzyme system, amino acids, diseases of civilization.*

Среди мучных изделий наиболее социально значимыми являются хлеб и хлебобулочные изделия особенно из муки пшеничной сортовой. Повышенным спросом потребителей также пользуются мучные кондитерские изделий. Пищевая ценность данных видов продукции определяется содержанием в них углеводов, белков, жиров, органических кислот, витаминов, минеральных веществ, а также степенью их усвояемости, что необходимо для нормального развития и функционирования организма человека. Доминирующей фракцией мучных изделий являются углеводы, которые, как и их метаболит играют важную роль в синтезе аминокислот, гликопротеидов, коэнзимов и других жизненно важных ингредиентов; входят в состав клеток и тканей организма и постоянно расходуются на энергетические сели. Потребность человека в углеводах за счёт

мучных изделий в зависимости от рецептуры покрывается в крахмале и декстринах на 41,0, балластных веществах - на 57,2, моно- и дисахаридах – на 17,4...40,0%.

Второй по количеству фракцией в мучных изделиях являются белковые вещества, входящие в состав протоплазмы, клеток, ферментов, гормонов и других образований, выполняющих важные функции в организме. Установлено, что суточная потребность в белке за счёт хлеба покрывается на 38,0 %, в том числе в растительном белке - на 85,5 %, а в отдельных аминокислотах - на 23,0-58,0 %. Резко недостаточно покрывается потребность в лизине (23,1 %) – аминокислоте, наиболее дефицитной и в мировом балансе питания человечества. Недостаточно удовлетворяется и потребность в системе – на 24,8 % и в медицине - на 18,5 %. Мучные изделия покрывают потребность в жирах взрослого человека на 8,9-15,0, полиненасыщенные жирных кислотах- на 62,0, фосфатах – на 23,4%. Жиры являются структурной частью клеток и тканей. Недостаток жира в пище способствует нарушению функций центральной нервной системы, иммунобиологического механизма, почек, органов зрения и др.

Органические кислоты, содержащиеся в 450 г хлебных изделиях, условно съедаемых ежедневно взрослым человеком, удовлетворяют потребность в данных кислотах на 49,5%. Органические кислоты способствуют улучшению функционирования желудочно-кишечного тракта, снижая рН среды и нормализуя состав микрофлоры.

Мучные изделия являются также источником витаминов E, B1, B6, PP, необходимых для биохимических реакция, усвоения других питательных веществ, образования и функционирования ферментных систем в организме человека. Содержание витаминов обусловлено сортом муки, то есть, чем выше сорт муки, тем меньше в ней витаминов. Среди минеральных веществ в мучных изделиях преобладают калий, кальций, магний, натрий, фосфор, железо. Обнаружены также такие микроэлементы, как медь, марганец, алюминий, кобальт, бор, селен, бром, йод и др. За счёт хлебобулочных изделий потребность в кальции покрывается на 11,5, фосфоре - 45,6, магнии - 43,1, железе - на 84,7 %. Минеральные или зольные вещества участвуют в биологических процессах, происходящих в организме, имеют свою специфическую активность и могут считаться истинными биоэлемент.

Качество мучных изделий определяется не только химическим составом, но и внешним видом, вкусом, ароматом. Немаловажными факторами являются внешний вид изделий, степень разрыхленности и свет мякиша, окраска корки.

Пищевая ценность мучных изделий во многом зависит от сорта муки и рецептурных ингредиентов, то есть чем ниже сорт муки, тем больше в ней питательных веществ, а чем выше сорт муки, тем больше в ней крахмала и меньше витаминов и минеральных элементов. Следует отметить, что изделия из муки пшеничной сортовой обладают уникальной способностью не «приедаться» при ежедневном употреблении благодаря наличию глютаминовой кислоты (до 40,0% от общего количества аминокислот). Данная кислота участвует в обмене веществ, связывает аммиак, образующийся в результате функционирования нервных клеток, участвует в синтезе других аминокислот, повышает умственную и физическую работоспособность.

Наиболее ценной считается мука пшеничная обойная, выход которой составляет 97,0% от массы зерна, наиболее часто используемая при приготовлении узбекских лепёшек. Однако, такая мука характеризуется повышенным содержанием фитиновой кислоты,

замедляющей процесс ресорбции кальция, железа, приводит к развитию рахита, малокровию, нарушению функции щитовидной железы.

Постоянное применение изделий из муки пшеничной высших сортов приводит к нарушению функции желудочно-кишечного тракта, развитию мочекаменной болезни, диабета, анемии, ожирению. Эпидемиологические исследования показывают широкое распространение заболеваний, связанных с нарушением в организме людей белкового обмена, глютеновая энтеропатия (селиакия), то есть генетическая непереводимость глютена пшеницы, ржи, ячменя и овса.

Мучные изделия являются главными поставщиками углеводов для организма человека (около 70% СВ продукта), что ограничивает потребление их людьми, страдающими сахарным диабетом. По мнению диетологов кондитерские изделия также являются факторами риска здоровья человека и приводят к ожирению – 20,0-30,0, сахарному диабету – 10,0-20,0, сердечно-сосудистым заболеваниям – 5,0- 15,0%. Анализ пищевой и энергетической ценности данной продукции также свидетельствует о необходимости коррекции её химического состава при сохранении традиционных потребительских свойств.

Поэтому необходимы исследования по совершенствованию химического состава мучных изделий с целью повышения содержания в них важнейших нутриентов за счёт использования в качестве рецептурных ингредиентов продуктов переработки нетрадиционных натурального сырья. Перспективность данных исследований, особенно в настоящее время в связи с изменением образа жизни людей и развитием основных «болезней цивилизации» (атеросклероз, сахарный диабет, иммунодефицит, ожирение, дисбактериоз и др.), доказана отечественными и зарубежными исследователями и определена основными постулатами адекватного питания.

Развитие рынка хлебобулочных изделий в настоящее время происходит, в основном, за счёт нетрадиционных сортов. Тем не менее спрос на качественный хлеб премиальной категории пока не стал массовым, для большинства населения он по-прежнему остается «социальным» продуктом. Потребители, в том числе и с высоким социальным уровнем, находятся в плену «национального» стереотипа и не готовы к тому, что хлеб может быть дорогим продуктом.

Согласно современным тенденциям науки о питании ассортимент мучных изделий, особенно хлебобулочных, должен быть расширен выпуском изделий повышенной пищевой ценности. В Узбекистане направлению профилактического оздоровления населения так же уделяется значительное внимание. Приоритетным направлением развития отраслей пищевой промышленности является также диверсификация производства с целью расширения собственного производства продуктов из отечественного сырья, что позволит выпускать разнообразную продукцию, обеспечивающую потребности рынка и способную удовлетворить потребности населения по продуктам сегмента «здоровое питание». Для совершенствования существующей, а также создания новой технологии и новых видов продуктов питания используются различные подходы. Так, при решении проблемных вопросов целесообразно применять методику программно-целевого управления научно-исследовательскими и научно-техническими работами. Эта методика предусматривает применение иерархической структурной решётки дерева селей по проблеме, в которой в

соответствии с общей селью на основе предварительного ретроспективного анализа устанавливают сели научных исследований и разработок с конкретизацией их по фундаментальным, теоретико-прикладным и практическим направлениям. По каждому из направлений устанавливают задачи и прогнозируют результаты исследования. На основании собранных материалов разрабатывают программу комплексного обеспечения решения проблемы. Внедрению в практику новых или обогащённых продуктов всегда предшествует изучение их технологических свойств, что позволяет обосновать наиболее приемлемые способы их обработки, виды производимой продукции, возможность сочетания с другими рецептурными компонентами изделий. Углубление представлений о технологических свойствах различных видов растительного сырья, в том числе и нетрадиционного, позволит рекомендовать их для совершенствования технологии производства хлебобулочных и мучных кондитерских изделий повышенной пищевой ценности.

Методический подход при совершенствовании или разработке новых рецептур и технологий мучной продукции основан на «нетрадиционный» использовании технологических свойств продуктов. Подобным примером служит использование картофеля, обладающего пластично-вязкой структурой, в качестве компонента рецептуры заварного теста, для которого присуща такая же структура. В зарубежной практике совершенствования существующей, а также создания новой технологии и новых видов продукции отмечают следующие этапы подобной деятельности:

- отбор сырьевых материалов;
- подбор рецептуры продукта
- прототипа;
- разработка технологии использования исследуемых добавок, позиционирует в качестве обогатителя продукта эссенциальными минорными нутриенты, а также заменителя основного сырья.

Структура питания населения в мире, в том числе и Узбекистане, в настоящее время претерпевает существенные изменения, так как снижается потребность в энергии пищи из-за уменьшения трудозатрат. При этом проблема обогащения традиционных продуктов питания биологически активными нутриентами, способными положительно воздействовать на физиологические процессы в организме человека, адекватно отвечать на неблагоприятные факторы среды его обитания и тем самым снижать риск развития алиментарно-зависимых заболеваний, так называемых «болезней цивилизации», остаётся по-прежнему актуальной.

Заключение

Применение функциональных смесей позволят создавать рецептуры изделий со значительным экономическим эффектом. Сухие функциональные смеси используют в различных группах кондитерских изделий: конфетах помадных, со сбитыми корпусами, различных видах печенья, молочном шоколаде, начинках для вафель и карамели, вафельных листах, пряников, бисквитов.

Таким образом эффект достигается за счёт экономии материальных затрат и увеличения объёма производства продукции при экономии производственных затрат за счёт повышения выхода изделий.

Эффект производства коржиков молочных с добавками достигается за счёт экономии материальных затрат при снижении производственных затрат за счет сокращения расхода муки и сахара.

REFERENCES

1. Постановлениями Президента Республики Узбекистан от 29.07.2019 № ПП – 4406 «О дополнительных мерах по глубокой переработке сельскохозяйственной продукции и дальнейшему развитию пищевой промышленности» [Электронный ресурс].- Режим доступа: <https://iiv.uz/ru/paГЭС/узбекистон-республикаси-президентининг-фармонлар> (дата обращения: 28.09.2019).
2. Ауерман Л.Я. Технология хлебопекарного производства: Учебник – 9-е издание, перераб. и доп./Под общ. ред. Л.И. Пучковой. – СПб.: Профессия. - 2006. -416 с.
3. Агibalова В.С. Разработка рецептуры хлеба профилактического назначения с применением муки из селыносмолотого зерна сорго и морковного порошка / В.С. Агibalова, Т.Н. Тертычная // Хлебопродукты. – 2015.-№6. – С.46-47.
4. Алексеев А.И. Способ производства хлеба / А.И.Алексеев, В.Л. Верещак, Л.Т.Сазонова. – А.с. 1414377. – Б.И. № 29, 1988.

PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA METODLARDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Bekbergenov Abdinagim Abdullaevich

Qaraqalpoq Davlat Universiteti

“Pedagogika va Psixologiya” kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8188354>

Annotatsiya. Bu maqolada ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga oid ma'lumatlar va fikrlar mavjud.

Kalit so'zlar: ta'lim – tarbiya, metod, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, og'zaki metodlar.

WAYS OF USING METHODS IN TEACHING PEDAGOGICAL SUBJECTS

Abstract. This article contains information and ideas on the use of interactive methods, innovative technologies, pedagogical and information technologies in the educational process.

Key words: education, method, interactive methods, innovative technologies, oral methods.

СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДИКИ В ПРЕПОДАВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРЕДМЕТОВ

Аннотация. В данной статье содержится информация и идеи по использованию интерактивных методов, инновационных технологий, педагогических и информационных технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: обучение, метод, интерактивные методы, инновационные технологии, устные методы.

Talim muassasalarida beriladigan ma'lumot mazmuni tarixiy xususiyatga ega. Kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida yosh avlodga beriladigan ma'lumot mazmuni, uning hajmi, muayyan ijtimoiy tuzumning iqtisodiy talabi va ehtiyoji, fan-texnika taraqqiyoti darajasi, madaniyati holati bilan belgilanib kelingan. Fan-texnika va texnologiya taraqqiyoti yuqori darajada bo'lgan bugungi kunda talim muassasalarida beriladigan ma'lumot mazmuni o'quvchilarga ilmiy bilimlar berish, ularning faol ijtimoiy faoliyati tashkil etishlari yo'lida ko'nikma va malakalarini shakllantirishni ifodalaydi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi talim muassasalarida tashkil etiladigan talim (ma'lumot) ning mazmuni, avvalo, komil inson va malakaviy mutaxassisni tayyorlash jarayoni mazmuni bilan belgilanadi. «Talim to'g'risida»gi Qonunning takidlanishicha, talimning mazmuni har bir o'sib kelayotgan yosh avlodni hayotiy va dunyoviy demokratik jamiyat baxt – saodati yo'lidagi yuqori unumli mehnatiga barkamol avlod qilib tayyorlash bilan belgilangan. Ushbu qonun fuqarolarga talim, tarbiya berish, kasb – hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash va har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini taminlashga qaratilgan. Talimning asosiy mazmunini uning vazifalarida oydinlashtiriladi. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi. Bu vazifalar ichida ilmiy va texnikaviy bilimlar bilan yoshlarni qurollantirish, ajdodlarimiz qoldirgan tarixiy va madaniy qadriyatlarga hayotning manosi, jamiyatda insonning tutgan o'rni, talim-tarbiyasi, o'dob-axloqi haqida hikmatli fikrlar borki, ular bugungi xalq talimi taraqqiyoti uchun va milliy maktab yaratish borasida yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, iymon-etiqod, muruvvat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, millatlararo do'stlik munosabatlari, qahramonlik, mardlik singari

tuyg'ularni tarbiyalaydi. Shu bilan birga talim-tarbiya muassasalari uchun alohida vazifalar qo'yilgan bo'lib, ularning mazmuni ham «Talim to'g'risida»gi Qonun bilan mushtarakdir.

Kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimidagi, o'quv tarbiya ishlari sohasidagi muammolarni izchillik bilan, bosqichma - bosqich hal etish yo'llar va vositalari Vazirlar Mahkamasi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda belgilab berilgan. Ta'limning samaradorligini oshirishda yuksak imkoniyatlarga ega bo'lgan vositalardan biri sifatida ta'limning faol usullari qaralayapti. Ta'lim - tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar tushunchasining kirib kelishi va o'sha texnologiyalarning keng qo'llanilishi hozirgi zamon talabidir.

Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimini, kadrlar tayyorlashni yangilash vazifalarini ta'lim – tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni jadal kiritish, auditoriyada, sinfda, darsdan tashqarida o'quv tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'quvchilarning faolligini oshirishga erishish orqaligina bajarish mumkin.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib boromoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi – talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, musatqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi – talaba asosiy figuraga aylanadi.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Talim jarayonida metodlarning pedagogik mohiyati Talim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Talim nazariyasida o'qitish (talim) metodlari markaziy o'rin egallaydi. «Metod» yunoncha metodos so'z bo'lib, «yo'l», tadiq qilish kabi manolarni anglatadi. Talim metodi talim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlaridir. Talim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

O'qitish metodlari talim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda o'quvchilar qanday ish harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Talim metodi o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir. O'qituvchi insoniyat tajribasida to'plangan bilimlar bilan hali bu bilimlarga ega bo'lmagan bolaning ongi o'rtasida vositachilik rolini o'naydi. Bola ijtimoiy-tarixiy tajribadagi barcha bilim boyliklarini talim olmasdan, o'qituvchisiz, mustaqil holda o'zi tizimli tarzda o'zlashtira olmaydi. O'qituvchining eng katta xizmati o'quv materialini o'zlashtirishning muayyan yo'l, usul va priyomlarini belgilashda namoyon bo'ladi. Talim metodi o'quv materialini bayon qilishga va uni bolalar yaxshi bilib olishga qaratilgan faoliyatning yo'li, usulidir. Talim jarayoni va natijalari o'qituvchining o'quvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi ish usulariga bog'liqdir. Shu

sababli doimo pedagogikada talim metodlariga o'qituvchining ish usullari va o'quvchilarning bilish faoliyati usullari deb qaraladiki, bu usullarning har ikkalasi ham o'quv vazifalarini bajarishga qaratilgandir. Talim metodlari o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining xususiyatini belgilaydi, talimning maqsadi va mazmuniga bog'liq bo'ladi.

Talim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, yani ular falsafiy fikrlarni, talim jarayonining mohiyati va tamoyillari to'g'ri anglash natijasidir. Talim metodlari o'quv materialini mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantiqiga bog'liqdir. O'quv materialining mazmuni tobora chuqurlashib, murakkablashib va ilmiy tus olib boromoqda, shuning uchun talim metodlari ilmiy bilishning mantiqi va metodlariga tobora ko'proq bog'liq bo'lib qolmoqda. Talim metodi psixologik asosga ega.

Bolaning o'quv materialini o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlari va uning etuklik darajasi o'qitish va o'qish usullariga juda katta tasir ko'rsatadi. O'quvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qitishning samaraliroq usullarini topish imkonini beradi. Talim metodlari o'sayotgan organizmning anatomik-fiziologik, biologik xususiyatlariga ham bog'liqdir. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil qilishda ularning yoshiga xos biologik o'sishni hisobga olish kerakki, talimning ko'pgina jihatlari ish qobiliyati, charchash, ijodiy kayfiyat, jismoniy sog'liq, maktabdagi gigiena sharoitlari aynan shu o'sishga bog'liqdir. Talim metodlari nazariy jihatdan yaxshi asoslangan bo'lishi, pedagogik nazariyadan kelib chiqishi kerak, ammo, talim metodlari amalda qo'llanilmasa, foydasiz bir narsaga aylanadi.

Amaliy yo'llanganligi talim metodlarining eng muhim tomonlaridan biridir. Bu metodlarda pedagogik nazariya amaliyot bilan bevosita bog'langan. Nazariya qancha chuqur va ilmiy bo'lsa, talim metodlari o'shancha samarali bo'ladi. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan bo'lsa, talim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi. Pedagogika fani maktablar va o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, ananaviy talimning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi. O'qitish metodlarining tasnifi. Pedagogikada o'qitish metodlarini tasniflashga yagona yondoshish mavjud emas. Hozirgi didaktikada o'qitish metodlarini bilimlar manbai bo'yicha (S.O.Lordkipanidze, E.Ya.Golant), didaktik maqsadlar bo'yicha (B.P.Esip), bilish faoliyatining saviyasi bo'icha (I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin, M.I.Maxmutov) farqlash eng ko'p tarqalgan. Metodlarning binar sxemalari, ularni uch o'lchovli, va hatto setraerdik farqlash ham uchraydi. Ana shu tasniflarning har birida afzalliklar va kamchiliklar mavjud bo'lib, ular adabiyotlarda etarlicha tahlil qilingan.

O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar quyidagi uch guruhga bo'linadi: 1. Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik malumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash). 2. Ko'rsatmali metodlar rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar. 3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar). Bular malum darajada shartlidir, chunki mazkur metodlarning hammasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni doim ham aniq chegaralab bo'lmaydi.

O'qituvchi darsga tayyorlanishda va uning uchun eng muvofiq metodlarni tanlashda aynan shu metodlarning bajarilishi mumkinligini va ularning strukturasi hisobga olib, shu asosda, masalan, rag'batlantirish, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini kuchaytiruvchi murabbiydir. Tasniflash talimning nazariy asoslarini ko'rishda yordam beradi, pedagogik fikrni chuqurlashtiradi

va shunga ko'ra ijod uchun asos bo'ladi. O'qitish metodlarini tasniflash o'qituvchilar faoliyati o'rtasida taqsimlanadi. Birinchi guruhga o'qitish usullari va ikkinchi guruhga esa o'qish usullari kiradi. Quyida o'qitish metodlarining taniqli olimlar tavsiya etgan tasniflarni ko'rib chiqamiz. Xorazmiy, Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Ibn Sino, Burxoniddin Zarkujiylarning metodlari tasniflarida asosan mantiqiy bilish faoliyatini kuchaytirish nazarda tutilgan bo'lib, ular ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash, ko'rsatmalilik – tajriba, amaliy, nazariya bilan amaliyotni o'zaro bog'lash, izlanish metodlaridan iboratdir.

REFERENCES

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.2008 y.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T.2001
3. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi. T.2002.
4. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T.2004
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi.: Nasaf. 2000.
6. Saydahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar (nazariya va amaliyot). - T.: Moliya, 2003.
7. Ta'limning faol usullari. Uslubiy tavsiyalar. TVPQTMOI. T.2004.
8. To'raqulov E., Rahimov S. "Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim tarbiya haqida" T.: O'qituvchi, 1993.
9. P.YUsupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T., 1995 y.
10. M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., 2000 y. 11. N. Djamilova va O.U.Xasanboeva "Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi" T., 2009y

JARQO`RG`ONLIK JANGCHILARNING FASHIZMGA QARSHI KURASHI

Toshboltayev Islom Bahodir o`g`li

IIV Surxondaryo akademik litseyi tarix fani o`qituvchisi

mamasoatr@gmail.com

+998 93 766 99 08

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8188378>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Germaniya tomonidan boshlangan 1939-yilgi urush va unga Jarqo`rg`on tumanida borgan jangchilarning qahramonona harakatlari, urushning Sovet davlati foydasiga hal bo`lishiga qo`shgan hissasi to`g`risida batafsil ma`lumotlar berilgan. Maqolada keltirilgan ro`yhatdagi shaxslarning ba`zilari bugungi kunda ham hayot ekanliklari bizga faxr tuyg`usini beradi.

Kalit so`zlar: Komsomol, komunizim, sotsializim, Qizil armiya, "Ulug` vatan" urushi, QIZIL YULDUZ ordeni, fashist.

THE STRUGGLE OF THE FIGHTERS OF JARKURGAN AGAINST FASCISM

Abstract. This article provides detailed information about the 1939 war started by Germany and the heroic actions of the soldiers who participated in it in the Jarkurgan district, their contribution to the resolution of the war in favor of the Soviet state. The fact that some of the persons listed in the article are still alive today gives us a sense of pride.

Key words: Komsomol, communism, socialism, Red Army, "Great Fatherland" war, Order of the RED STAR, fascist.

БОРЬБА БОЙЦОВ ДЖАРКУРГАНА ПРОТИВ ФАШИЗМА

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация о развязанной Германией войне 1939 года и героических действиях воинов, участвовавших в ней в Джаркурганском районе, их вкладе в разрешение войны в пользу Советского государства. Тот факт, что некоторые из перечисленных в статье лиц живы и сегодня, вызывает у нас чувство гордости.

Ключевые слова: Комсомол, коммунизм, социализм, Красная Армия, Великая Отечественная война, орден КРАСНОЙ ЗВЕЗДЫ, фашист.

Germaniya tomonidan boshlangan 1939-yilgi urush butun dunyoni larzaga solgan, millionlab insonlarning yostig`ini quritgan daxshatga aylandi. Dunyo tarixida Ikkinchi jaxon urushi deya nomlangan bu qirg`inbarot asosan dunyoning eng yirik davlatlari hisoblanmish Germaniya va SSSR davlatlari o`rtasida bo`lib o`tdi. Nemis fashistlari tomonidan 1941-yilning 22-iyun kuni SSSR hududiga qilingan qujum natijasida boshlangan "Ulug` vatan" urushi SSSR xalqini sarosimaga tushurib qo`ydi. Qisqa vaqt ichida butun SSSR bo`ylab millionlab yigitlar vatan mustaqilligi, ozodligi uchun o`z xohishlariga ko`ra front sari otlandi. Butun SSSR bo`ylab "Xamma narsa vatan uchun, fron uchun, g`alaba uchun" degan shiorlar ostida sovet xalqi o`zining barcha mavjud bo`lgan imkoniyatlarni front chizig`iga safarbar qildilar. Bu chaqiriqlarga Jarqo`rg`on rayon mehnatkashlari, ishchilar, kolxozchilar, o`qituvchilar va vrachlar ham qo`shildilar. Minor qishloq sovetiga qarashli "Komunizim", "Lelingrad", "Sotsializim", "Ittifoq", "Guliston", "O`zbekiston" kolxozlarining azolari ishtirokida katta miting bo`lib o`tadi. Uni rayon partiya komitetining sekretari Tixomirov ochdi. U yig`ilganlarga qarata "Vatan chegarasi nemis fashistlari tomonidan buzuldi, sovet xalqi tomonidan dushmani buyuk vatanimizning oltin

tupog'idan chiqarib tashlashga otlandi..." diya takidladi. Yig'ilganlar bir ovozdan "Bosqinchilarga o'lim", "Dushmanlarga lanatlar", "Sovet xalqi g'alaba qiladi", "Biz uchun vatan tuprog'I muqaddas, uni paymol qilishga xichkinga yo'l qo'ymaymiz" diya xitob qiladilar. Keying so'z navbatlari "Sotsializm" kolxozi raisi Doli Ernazarov, "Komunizm" kolxozi raisi A.Ximmatov, "O'zbekiston" kolxozi a'zosi Safar Hasanov, "Ittifoq" kolxozi raisi Shaymardon Umarov, "Guliston" kolxozi raisi Ismoil Qo'chqorov, "Lelingrad" kolxozi raisi Xoliq Safarovlar so'zga chiqib komsomol yoshlarini, yigit qizlarni Vatan ximoyasiga o'tlanishga chaqirdilar. O'zlari esa birinchilar qatorida frontga jo'nash istagini bildirib, ro'yxatdan o'tadilar o'sha kunning o'zida kolxozning 150 dan ortiq dovyurak yigitlari vatan himoyasiga o'tlanadilar. Urushning birinchi kunlaridanoq qishloq Soveti va rayon xarbiy lomissarlariga frontga jo'nashni so'rab ko'plab arizalar tushdi. Ariza soxiblari qo'llariga qurol olib, jang maydoniga kirish istagini bildirar edilar Ulug' vatan urushining birinchi kunidayoq, o'z istagi bilan frontga o'tlanganlar orasida Aliboy aka Mamatqulov xam bor edi. U kolxozda, qolaversa MTS da ilg'or traktorchi edi. U mehnatda toblangan, o'z ishini puxta biladigan mehnatkash, kasbini jon dilidan sevadigan inson edi. U 1938 yili termiz shahridagi mexanizatorlar tayyorlov markazini tugatib, Jarqorg'on MTS ga ishga bordi.MTS qoshidagi traktorchilar tayyorlov kursi ishiga bosh-qosh boldi va ana shu kursda yigit qizlarga texnikaning sirlarini o'rgata boshladi. U 1941-yil 22 -iyun kuni MTS darvozasi yonida sim yog'ochga osilgan radio karnayidan fashistlar Germaniyasi Vatanimiz tuprog'iga xoinona bostirib kirganini xamma qatori eshitdi. Aliboy sevimli qishlog'i, oilasi, saxiy dalalar, traktorchilar tayyorlaydigan kurs tinglovchilari va boshqalar bilan xayrlashib, barcha ko'ngillilar qatori Vatan ximoyasiga otlandi. U 1941- yil iyul oyida Novorossiyskdagi 2445- artileriya diviziyasiga qabul qilindi. U sovet jangchilariga yo'l ochish maqsadida bir necha kishi bo'lib dushman egallab turgan joyiga razvetkaga bordi. Endigina 18 baxorni ko'rgan o'zbek yigiti dushman ofitserlaridan birini qo'lga olib; til; sifatida olib keldi. Yosh jangchini bunchalik dovyurakligini ko'rgan komandirlar uni maxsus razvedkachilar tayyorlaydigan vzvodga yubordi. Aliboy jasurligi uchun "QIZIL YULDUZ" ordeni bilan mukofotlandi.

A.Mamatqulov 1943-yilda Beryozovka shahrida oyog'idan yaralandi. Gospitalda davolanib, yana jangga kirdi. Taman, Kech va boshqa shaharlarni ozod qilishda aktiv qatnashdi. 1943 yil baxorida KPSS safiga qabul qilindi. Qattiq janglarida yana yarador bo'ldi. Sanitariya bo'limi shifokorlari yordamida xushiga keltirildi. Bokudagi harbiy gospitalga jo'natildi. U yerda 6 oy davolandi. Ayni paytda tankchilar tayyorlov kursida o'qidi. Tankni boshqarish usullarini qunt bilan o'rgandi. oddiy o'zbek yigiti endi starshiy serjantlikga ko'tarildi.1944 -yil yozida yosh tankchi belarusiya fronti qo'shinlariga qo'shildi. U o'zi qatnashgan tank bilan ko'pgina shaharlarni bosqinchilardan ozod qilishga kirishdi va jasorati uchun 3- darajali "shuhrat" ordeni bilan taqdirlandi. 1946-yil 18-avgustda sevimli qishlog'iga qaytdi. Hozir Aliboy aka kolxozda bosh injener bo'lib ishlayotir. Nurmat Tojiev 1943 -yil 19-may kuni komsomol biletini qo'lga olganida endi 23 baxorga qadam qo'ygan edi. Bu bilet uni mard va jasur bo'lishga chorladi. U darxaqiqat dushmanga qarshi mardona jang qildi, og'ir janglarning birida Nurmat aka oyog'idan qattiq yaralanib, meditsina komissiyasi xulosasiga binoan o'z yurtiga qaytarildi. Nurmat Tojiyev frontdan qaytib kelgach, xozirgi kommunizm kolxozining Namuna uchastkasidagi ustaxonaga temirchi bo'lib ishlay boshladi. U kolxozchilarning og'irini yengil qildi. ustaxona yonida buzilib yotgan kosilkani tiklash uchun juda ko'p ishlar qildi. Bundan tashqari arava kuzov kabinalar yasadi.kolxoz raisi uni chaqirib eskirgan piloramani ishlatishga topshirganda yo'q demadi.

Piloramaning xamma tomonini ko'zdan kechirib chiqdi. Kerakli joylarini moyladi, payvandladi, singan detallarni almashtirdi. Xullas tez orada kolxozdagi yagona pilorama ishga tushirildi. Bu yordamida nqanchadan qancha yog'ochlar tozalanib, binolar qurilishi uchun foydalanildi. Bir qancha molxonalar qurildi. U shu kasbda 21 yil ishladi. Kolxozda qolgan qiz-juvonlar, keksalar ham vatan boshiga og'ir kun tushganda qo'l qovushtirib turmadilar.

Urush yillari, dep eslaydi To'ra bobo "juda og'ir yillar bo'ldi, lekin xalqimizning eng qiyin paytlarda ham Vatanga sadoqat bilan, g'alabaga chuqur ishonch bilan yashaganliklarini, o'zimiz uchun ham, frontda jang qilayotganlar uchun ham mehnat qilishimiz kerakligini, chuqur his etardik. Ocharchilik, qishning qaxraton sovug'i daxshatli xuruj qilar, etishmovchilik kishining sillasini quritardi. Ot-ulovlar frontga olingan, traktorlar etishmasdi. Dalada asosiy ish qurollari plug va ketmon edi.

Kunlarning mashaqqatli bo'lishiga qaramay, kolxoz odamlari sabr-toqat bilan mehnat qilishar, og'ir kunlar oldida esankirab qolmaslikning payida bo'lishardi. Qizlarguz Fayzullateva, Ungal bozorova, Oysha Allanazarova, Oysara Sagizova, Oybahor Muhammadiyeva, jorqin Shopmurodova, Bibisuluv xayitova, jumbul Soatova, Chorshanbi bobo, Xudoyberdi bobo, Xolmat bobo, Turdimurod bobo, Oltin Valiyeva, Jumbil Ergasheva, ro'zixol Choriyeva, Gulxol Allanazarova, Oysoat Pirimova, O'ng'al Ermatova, soli Mudaeva, Robiya xurramova, Mopar Jo'rayeva, Xojar Qilichova, Iqbol Jumayeva, Oyimxol Mengqulivolar va Boshqa bir qancha otaxon hamda onaxonlar dalaga chiqib yigitlar o'rnini egalladilar.

Qizil soqchi kolxozining oddiy a'zosi Oysha Pardayevaning turmush o'rtog'i o'zining yigitchilik burchini oqlash uchun Qizil armiya safiga otlandi. U oysha bilan xayrlashar ekan kolxoz dalasiga chiqib fidokorona mehnat qilishni davom ettirishni tayinladi. Oysha qanday ish qilsa kolxozga ko'proq foyda keltirishdi o'yladi, so'ngra traktorchi bo'lib ishlashga qaror qildi. Huddi shu vaqtda jarqo'rg'on MTS qoshida qiz-juvonlardan traktor haydovchilari tayyorlov kursi ochildi. Oysha, O'ngal shu kursga kirib, texnika sirlarini qunt bilan o'rgnadilar, tinmay o'qidilar. Natijada o'qishni a'lo baholar bilan tamomlab, ulkar o'z qishlog'iga tamomlab, ular o'z qishlog'iga qaytadilar. Ular har kuni normadagi 2.5 gektar yer haydash o'rniga 4.5 gektarlab yerni shudgor qilardilar. Oysha, O'ngal bilan birga 20 dan oshiq, qiz-juvonlar ana shu kursni bitirib chiqdi.

Biz qiz-juvonlar deydi Oysha Pardayeva, jonajon vatanimizni nemis bosqinlari hujumidan qutqarish uchun kurashayotgan, ajoyib g'alabalarini qo'lga kiritayotgan erlarimiz, aka-ukalarimiz, otalarimiz o'rnida ishlab, o'z burchimizni bajarish uchun sharaf bilan kurashdik.

1941-yilda hozrigi Komunizim kolxozi territoriyasida mavjud bo'lgan kolxozlarning har birining ekin maydoni 450-600 gektarni tashkil etar edi. Shu yili 200-250 gektar yerda ingichka tolali paxta yetishtirib, har gektarida 23-25 senterdan bajarildi. Davlat go'sht, tuxum, sut, jun yetkazish planlarini 124 prosentga bajarildi.

D.Razzaqov 1940-1941- yillarda zeveno boshlig'i bo'lib ishlab, o'ziga biriktirilgam 85 gektar yerning har gektarida 55 sentrdan hosil ko'tardi. U 1944-yili 100 sentnerchilar brigadasi boshlig'i bo'ldi. Har besh gektardan paxta maydoniga 38 tonna go'ng, 58 tonna eski devor tuprog'i tashab solindi. Hosildorlik 55 sentnerdan 60 sentnerga ko'tarildi. Partiya va hukumatimiz D.Razzaqovning mehnatini taqdirlab, uni Mehnat Qizil Bayroq, ordeni bilan mukofatlaydi.

1942- yilda Kommunizm kolxozi 300 tonna paxta, 2346 kilogramm go'sht, 620 kilogramm pilla yetishtirib, davlatga sotdi. Kolxozchilar 5000-10000 so'mgacha harbiy zayomlarga yozdilar. Kolxoz g'alab uchun qaysi ish qilinishi kerak bo'lsa, uning hammasi so'zsiz bajariladi.

1943-yil 2-aprelda Ilg'or Surxon uchun oblast gazetasida N-qism jangchilarinig oblast mehnatkashlarga ochiq, xati bosilib chiqdi. Bu maktubda Surxondaryolik shongli jangchilardan Chori ermatov, Xolbay Xolmatov, Oltiboy Rahimov, Rahim Boboyev, Sulton Jo'rayev va boshqalarning fashizimga qarshi mardlik va qahramonlik ko'rsatayotganliklari to'g'risida habar qilingan edi. Vatani himoya qilayotgan bu jangchilarning maktubi minorliklarni ham katta hayojonga soldi. Ular ham barcha yurtdoshlari qatori mehnat qahramonlik namunalari ko'rsatishga intildilar. Keksa otaxonlar, xotin-qizlar kunduzni-kunduz, kechani-kecha demasdanmehnat qildilar. kunlik topshiriqlarni 2-3 xissa qilib ortig'I bilan bajardilar. Butun kolxozchilar hosildorlikni oshirish, frontga ko'proq, oziq-ovqat, kiyim-kechak yetqazib berish uchun jonbozlik ko'rsatdilar. Bunday muhim ishga kolxoz pravleniyasi, va partiya va komsomol tashkilotlari va yetakchilik qildilar.

Xo'jalikda paxta, pilla, sut, sabzavot va boshqa qishloq, xo'jalik va mahsulotlari ishlab chiqarish davlat planlarini bajarish choralari ko'rildi. Barcha kolxoz a'zolari va dala ishlariga bajarish choralari ko'rildi. Barcha kolxoz a'zolari dala ishlariga safarbar etildi. Bu esa partiyaning front, front ortida olib borgan ashkilotchilik ishlari, to'g'ri rahbarlikning natijasi edi.

Hamma joyda bo'lganidek, Kommunizm kolxozi a'zolari ham frontdagi jangchilarimiz uchun kiyim-kechak tikish, mudofa fondi uchun pul to'plab jo'natishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Dehqon Ittifoq kolxozi a'zosi Eshonqurbonov, Qizil soqchi kolxozi a'zolari Yodgor, Xudoyberdiyev kabi o'nlab ishlarning har biri yuz so'mdan pul to'plab topshirdilar. Kolxoz bo'yicha jami 800ming so'm pul 60 tonna oshqovoq, 90 tonna sabzi front uchun jo'natildi. Har bir kishi vatanparvarlik tuyg'usini naqadar a'zolari ezozlashi, vatan so'zini muqaddas deb bilish o'shabda yaqqol namayon bo'lgan edi. Kommunizimliklar so'nggi bir burda nonni ham front jamg'armasiga berishga tayyor edilar. Yetishmovchilik paytida bu zo'r jasorat edi. Oddiy kolg'ozchi turg'unboyeva har kuni kunlik topshiriqni 2-2.5 xissa bajarish bilan birga kolxozchilar o'rtasida agitatorlik ishlarni ham olib bordi, kundalik habarlar bilan tanishtirib bordi. Masalan u gazetadan Andijon oblast Jalolquduq, rayoni mehnatkashlarining Toshkent shahri ishlariga oziq-ovqat yuborganlilari haqidagi maqolani o'qib berdi. Butun kolxoz a'zolari shu tashabbusni maqullashdi. Ular ham o'z tomorqalaridan yetishtirib olgan sabzi, oshqovoq, va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini Toshkent shahar mehnatkashlariga yuborish uchun to'play boshladi. Qisqa vaqt ichida 30 tonnadan oshiq, mahsulotlari yuborildi- deb yozadi Ilg'or surxon uchun gazetasi ana shu tashabbus haqidagi maqolada.

Shuningdek kolxozchilar o'rtasida Qizil Armiyaning 25 yillik bayrami munosabati bilan revolyusatsiya beshigi-Leningrad shaxrini himoya qilayotganlarga bayram sovg'alari yuborish ishlari qizib ketdi.

Og'ir kunlar va yillar o'tib ketdi. Kishilarning orzu qilgan kunlari yetib keldi. Urush yillari tufayli ro'y bergan qiyinchiliklar bartaraf etilib, butun kuch va imkoniyatlari davlat planlarini bajarishga qaratildi.

Ulug' g'alabaning 30 yilligi munosabati bilan kolxoz pravleniyasining yangi binosi yonida tashkil etilgan kichkina bog'da xalqimizning baxt-saodati, ozodligi uchun nemis bosqinchilariga

qarshi olib borgan jangda qahramonlarcha halok bo'lgan 109 sher yigitlarning xotirasi sharafiga o'rnatilgan yodgorlik ochildi. Bu joy kolxoz komsomol-yoshlari va mehnatkashlarning muqaddas joyiga aylanib qolgan. Yodgorlik atrofida urushda halok bo'lgan jangchilarning familjalari zarxarflar bilan bitilgan.

Ular quyidagilardir:

Xalqimiz Mardlik-mangulik- deydi. To'kilgan qon, qurbon bo'lganlar xotirasi xech qachon, xech kimning esidan chiqmaydi. Xech kim, xech narsa unutilmaydi!

REFERENCES

1. Musallam Jo'rayev. O'zME. Toshkent, 2000-2005.
2. Finlandiya va SSSR o'rtasida tinchlik haqidagi kelishuv, III band, Moskva, 12-mart 1940
3. O'zbekiston Respublikasi Xotira kitobi — Kniga pamyati Respubliki O'zbekiston [maxsus jild], T., 1995
4. Fashizm ustidan qozonilgan g'alabada O'zbekistonning tarixiy hissasi. 1941 — 1945 [Ilmiynazariy konferensiya materiallari], T., 1996
5. Raimov M. BOUT THE HISTORY OF THE INDEPENDENCE OF TERMIZ FROM THE CHIGATOY SHARE //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 5. – С. 1150-1154.
6. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. Modern Science and Research, 2(4), 720-722.
7. Rahmonov, M. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. Марказий Осиё тарихи ва маданияти, 1(1), 341-344.
8. To'Rayev, S. G. O. G. L., & Raxmonov, M. X. O. G. L. (2022). BX KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG'LARINING ETNIK TAVSIFI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 43-51.

XALQ OG'ZAKI IJODIDA URF-ODAT VA MAROSIMLAR BILAN BOG'LIQ TERMINLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI

Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 1- kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8188534>

Annotsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodida urf-odat va marosimlar bilan bog'liq terminlarning chog'ishtirma tahlili to'y marosimlar asosida qilingan.

Kalit so'zlar: etnografiya, etnolingvistika, dialektal leksika, madaniyat rivojlanishi, to'y marosimlari etnografizmlari.

AUGMENTATION ANALYSIS OF TERMS RELATED TO CUSTOMS AND RITUALS IN FOLK ORAL CREATIVITY

Abstract. In this article, a rough analysis of terms related to Customs and rituals in folk oral creativity was made on the basis of wedding ceremonies.

Key words: ethnography, ethnolinguistics, dialectal lexicon, cultural development, ethnography of wedding ceremonies.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С ОБЫЧАЯМИ И ОБРЯДАМИ В УСТНОМ НАРОДНОМ ТВОРЧЕСТВЕ

Аннотация. В данной статье проведен сравнительный анализ терминов, относящихся к обычаям и обрядам в устном народном творчестве на основе свадебных обрядов.

Ключевые слова: этнография, этнолингвистика, диалектная лексика, развитие культуры, этнографизмы свадебных обрядов.

O'zbek xalqining urf-odatlarini asrlar bo'yi o'zbeklar millatining tashkil etopishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an'alarining uyg'unlashuvidagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan. Ular o'ta o'ziga xos, yorqin va turli-tuman bo'lib, urug'chilik patriarxal munosabatlaridan kelib chiqadi. Urf-odatlarining ko'pchiligi oilaviy hayotga oid bo'lib, bolaning tug'ilishi va tarbiyasi (beshik to'yi, xatna qilish), nikoh (fotiha to'yi, to'y) bilan bog'liq bo'ladi. Ko'pincha ular islom urf-odatlarining sehrgarlik amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan undan ham qadimiyroq shakllarga uzviy kirib ketishini namoyon etadi.

Etnolog olimlarning qayd etishicha, kishilar doimiy ravishda o'zligini anglashga, an'anaviy turmush tarzi, urf-odat va ma'naviyatini tushunib olishga ehtiyoj sezgan. Bu ehtiyoj natijasida turli sohalar, fanlar vujudga kelgan. Lingvistikaning maxsus sohasi bo'lgan etnolingvistikaning maydonga kelishida ham rasm-rusumlari, urf-odatlarini, an'analari bilan bir-biridan farqlanuvchi xalqlar va ularning tillari asos bo'lgan. Chunki avval har qanday etnik omil tilda o'z ifodasini topadi. Til muayyan tilda so'zlashuvchilarning turmush tarzini, mahnaviyatini, urf-odatlarini ifodalovchi vositadir. Chunonchi, har bir tilda shu tilda muloqot qiluvchilarning etnografik olamini ifodalovchi maxsus so'zlar bo'lib, ular etnografik leksikani tashkil qiladi.

To'y har bir xalq madaniyatida o'ziga xos tarzda nishonlanadi va turli xalqlar tomonidan bir-biriga o'xshash bo'lmagan urf-odatlar, ramzlar va so'zlar orqali ifoda etiladi. To'y – o'zbek tilida faqatgina ijobiy ma'noda qo'llaniladigan leksema bo'lib, uning barcha ko'rinishlari, xususan, “tug'ilish to'yi”, “beshik to'yi”, “chilla to'yi”, “sunnat to'yi”, “muchal to'yi”, “nikoh to'yi”, “payg'ambar to'y”, “hoji to'y”, “uy to'y”, kabilar xursandchilik bilan elga osh berib,

o'yin-kulgu, to'kin-sochinlik bilan nishonlanadi. Nikoy to'yi bilan bog'liq leksemalarga quyidagilarni kititish va mazkur ta'riflarni ko'rish mumkin:

Qadim- qadimdan britaniyalik kelinlar to'y kuni o'z bisotlaridagi eng yaxshi liboslarini kiyganlar. Ko'p asrlar davomida ingliz madaniyatida kelinlar uchun rangning ahamiyati bo'lmagan, hatto aksar xalqlarda salbiy taassurot qoldiruvchi qora rangli libos ham nikoh to'yilarida kiyilavergan. Biroq XIX asrda qirolicha Viktoriya shahzoda Albert bilan nikoh to'yida oppoq va uzun libosda namoyon bo'lgach bu rang inglizlarda o'zgacha taassurot qoldirdi va shundan beri nikoh oqshomi oppoq ko'ylak kiyish urfga kirdi. Bu odat hozirgacha hashamat va ulug'vorlik ramzi sifatida kelinlarga zeb bag'ishlaydi.

Ingliz madaniyatida to'y kuni kelin – kuyov bir – birlarining barmoqlariga nikoh uzugini taqadilar va to'y qasamyodini qiladilar. Nikoh uzugi mangu muhabbat ramzi sifatida taqiladi. Kelin – kuyov bir – birlarining o'ng qo'llaridan ushlab quyidagi nikoh qasamyodini aytadilar:

I, (name), take you, (name)

To be my wife/husband,

To have and to hold

From this day forward; For

better, foe worse, For richer,

for poorer,

In sickness and in

health, To love and to cherish,

Till death us do part,

According to God's holy law.

In the presence of God I make this vow.

Ma'nosi: men (ism) seni (ism) rafiqam/ erim qilib olar ekanman, bugundan boshlab yaxshida ham, yomonda ham, boylilikda ham, nochorlikda ham, sog'likda ham, xastalikda ham to o'lim bizni ajratguncha sevishga va g'amxo'rlik qilishga Xudoning muqaddas qonuniga ko'ra Xudo oldida ont ichaman.

O'zbekistonda esa kuyov kelinning uyidan chiqib ketayotganida ushbu marosim o'tkaziladi. Bunda qarindoshlar, kuyovjo'ralar va kelinning dugonalari ishtirokida kuyov kelinning oyog'ini bosadi. Buning mazmuni shuki, birinchi bo'lib oyoqni bosgan kishi oilada yetakchi bo'ladi.

Lekin ko'p hollarda kelin kuyovga o'z xohishi bilan oyog'ini bostiradi. Bu uning dini va oilada ko'rgan tarbiyasi ta'siri o'laroq, erkakning o'zidan bir pog'ona yuqorida turishi va oilada erkakning yetakchiligini tan olishi bilan xarakterlanadi.

Kuyov kelinni uyidan olib ketayotganda kelinning yaqin qarindoshlari bir kosada guruch va loviyani aralashtirib ularga beradi. Bu odat ikki yosh ko'p farzandli bo'lib, farovon yashashsin degan niyatda qilinadi.

“Baxtli- saodatli bo'linglar”;

“Mana shu guruch va loviyaday o'zrlaringdan ko'payinglar, o'g'il- qizli bo'linglar”;

“Serdavlat va serfarzand bo'linglar” singari iboralar bilan duo qilinadi.

Xalq og'zaki ijodi, tarixiy kitoblar va ajdodlardan qolgan yodgorliklarda qayd etilgan urf

– odatlar xalqlarning fikrlashini, ular uchun nima to'g'riligini va ezgulik haqidagi tushunchalarini ifodalaydi. Ular xalqlarning tarixi'va diniy qarashlari bilan bog'liq. Shunday ekan, lingvomadaniy tushunchalar ham turlichadir. Biroq yuqorida ko'rganlarimiz- ingliz va o'zbek xalqlarida nikoh to'y marosimi bilan bog'liq udumlar va odatlar bir –biriga mazmun jihatdan o'xshab ketadi. Va eng asosiysi, ularning zamirida kelin –kuyovning oilaviy hayotlariga mustahkam poydevor qo'yish va shakllangan yangi oilada an'anaviy udumlarning saqlanishi kabi ezgu maqsadlar yotadi.

REFERENCES

1. Арифханова З.Х. Современная жизнь традиционной махалли Ташкента. – Т.: Ўзбекистон 2020.
2. Asqarov M. То'у: кеча, bugun, ertaga: etnografik tahlil. 1 minute read uz.team. February13, 2019
3. Бўриев О ва бошқ. Ўзбек оиласи тарихидан. – Т.:Ўқитувчи, 1995.
4. Джурабаев А. Названия свадебных церемоний в Узбекском языка (На материалах андижанской группы говоров). Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – С. 9.
5. Исмоилов Х. Ўзбек тўйлари. – Т.: Ўзбекистон, 1992;
6. Kurbanazarova N. Surxondaryo vohasi to,,y marosimi etnografizmlarining semantic tadqiqi va lingvomadaniy tadqiqi. –Termiz, 2021. –B-15.

O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN INGLIZ TILDAGI IQTISODIY TERMINLARINING TADQIQI

Tog'ayev Sardorbek Eshboy o'g'li

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 1- kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8188547>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilidagi iqtisodiyot sohasida qo'llaniladigan terminlarning shakllanishi, rivojlanishi va o'ziga xos derivatsion xususiyatlarini hamda terminlashuv jarayonlarini tadqiq qilindi.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, derivatsiya, so'z o'zlashtirish, termin, terminologiya, derivatsiya, moliya-byudjet, vositachi til, so'z o'zlashtirish.

STUDY OF ECONOMIC TERMS IN ENGLISH ADAPTED TO THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. This article investigated the formation, development and specific derivational properties of terms used in the field of Economics in English, as well as the processes of terminating.

Keywords: term, terminology, derivation, word acquisition, term, terminology, derivation, Finance-Budget, intermediary language, word acquisition.

ИССЛЕДОВАНИЕ АНГЛИЙСКИХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ, ЗАИМСТВОВАННЫХ ИЗ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье исследованы формирование, развитие и специфические производные характеристики терминов, используемых в англоязычной сфере экономики, а также процессы терминологизации.

Ключевые слова: термин, терминология, Деривация, освоение слова, терминология, терминология, Деривация, финансы-бюджет, посреднический язык, освоение слова.

Ingliz tili iqtisodiyot terminologiyasi o'z va o'zlashgan qatlamga asoslanadi. Masalan, I.Yu.Bulgakova "contract" va "agreement" terminlari misolida ingliz, boshqa roman-german tillariga o'zlashma so'zlarning kirib kelish jarayonini tavsiflaydi. "Kontrakt termini o'zining dominant ma'nosiga ko'ra kelishuvchi tomonlarning ikki tomonlama majburiyatlarini aks ettiradigan shartnoma, bitim sanaladi",- deb yozadi muallif.

U XIV asrda majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlash yoki ularni noto'g'ri talqin qilishning oldini olish uchun shartlarni yozma shaklda aks ettirish zaruriyati tufayli amalga oshirilgan jarayon bo'lib, qadimgi Rim davridan to hozirgi kungacha dunyo amaliyotida tobora keng tarqalgan. "Contract" leksemasi contractus, contrahere- birlashtirish, rozi bo'lmoq, kim bilandir shartnoma tuzmoq fe'llari con-bilan, birga prefiksi va trahere-olmoq, cho'zmoq (uzaytirmoq), qiziqtirmoq fe'li asosida hosil bo'lgan, keyinchalik bir guruh terminlarning yasalishi uchun yadro vazifasini o'tagan.

O'rta asrlarda lotin tili ruhoniylar, shifokorlar, olimlar, yuristlar uchun funksional til vazifasini bajarganini hisobga olsak, ingliz va Yevropa tillari uchun lotincha o'zlashmalarning ko'pligi tabiiy holdir. Fikrimizning yorqin dalili sifatida talaffuz va yozuv jihatidan deyarli o'zgarmagan, baynalmilal "kontrakt" terminini keltirishimiz mumkin: kontrakt- ingliz, o'zbek, nemis, va rus tillarida, contratto-italyan tilida. "Agreement" termini

“tomonlarning nimanidir bajarish haqidagi kelishuvi, va`dasi” ma`nosini anglatib, lotincha *agre* (hohish-iroda, istak, rohatlanish) lotincha *gratus* (yoqimli)dan *gratum* asosida *agreer*, *agre* (xohishiga ko`ra) XV asrda fransuz tili orqali paydo bo`lgan, shuningdek, *contract* terminiga sinonimdir. Shu o`rinda ta`kidlab o`tish joizki, *agreement* terminidan farqli o`laroq, bugunga qadar *contract* termini asosida yasalgan iqtisodiyot sohasida faol qo`llanilayotgan bir qator terminologik birikmalar mavjud.

O`zbek tilida terminlarning hosil bo`lishi va iqtisodiyot terminologik tizimining, xususan, iqtisodiyot sohasining shakllanishi rus va ingliz tilidagi termin hosil bo`lishidan farq qiluvchi o`ziga xoslikka ega. Bular:

1. Vositachi til-odatda rus tili orqali lotin, qadimgi grek, roman-german, rus tillaridan o`zlashgan yoki mustaqillik davridan keying to`g`ridan-to`g`ri o`zlashgan terminlar. Masalan: *import* (*import*), *inflation* (*inflyatsiya*), *option* (*opsiya*), *pension* (*pensiya*), *subvention* (*subventsiya*). Rus, arab yoki fors tillaridan o`zlashgan terminlar: masalan: *finans*, *finansist*, *ekonomika*, *economist*, *dezinflyatsiya*.

2. Tarjima terminlar. Masalan ingliz tilidan o`zbek tiliga, bunda:

a) faqat o`zbek tiliga oid terminlar amal qiladi; mahalliy byudjet, aylanma kassa, byudjetlarning darajasi, maxsus g`azna hisobraqami.

b) o`zlashgan termin va iqtisodiyotga oid o`zbekcha termin birgalikda sinonim sifatida amal qiladi; *budget deficit*-byudjet taqchilligi, *finance*-moliya, *treasure account*-g`azna hisob raqami.

O`zlashgan tushuncha deganda o`zbek tiliga avvaldan arab yoki fors tillaridan o`zlashgan va ayni vaqtda retsipient tilning fonetik, grafik, morfologik xususiyatlariga moslashgan holda o`zbek tilining lug`at tizimidan barqaror o`rin egallagan terminlar nazarda tutiladi. *Property*-mulk; *price*-narx; *shaotage*-kamomad.

3. Yevropa tillaridan terminlar tarjimasini ko`pincha so`z birikma shaklida, ya`ni so`zni izohlash orqali amalga oshiriladi. Bunday ko`p tarkibli birliklar bir tarkibli birliklar singari o`zbek tilida faol qo`llaniladi.

Masalan, iqtisodiyot sohasida qo`llaniladigan terminlarning katta qismi lotin, fransuz tillariga oid yoki fransuz tili orqali o`zlashgan lotincha so`zlardir: *default* (*defolt*), *tranche* (*tranh*), *capital* (*kapital*), *budget* (*byudjet*), *tax* (*solliq*), *commerce* (*kommersiya*, *tijorat*), *deficit* (*defitsit*, *kamomad*), *arbitrage* (*arbitraj*), *finance* (*moliya*), *deposit* (*deposit*), *bureaude change* (*ayriboshlash shahobchasi*), *bordereau* (*ro`yxat*), *border* (*batafsil ro`yxat*, *ayniqsa*, *hujjatlar* yoki *qimmatbaho qog`ozlar ro`yxati*).

Lotin va grek tilaridan ingliz tiliga: *audit* (*audit*), *analysis* (*analiz*, *tahlil*), *auction* (*auksion*) *coalition* (*koalitsiya*), *segregation* (*mijoz operatsiyalari bo`yicha bo`linish*), *commission* (*komissiya*), *capital* (*kapital*), *deposit* (*deposit*), *deficit* (*kamomad*), *deflation* (*deflyatsiya*), *dividend* (*divident*), *debit* (*debit*), *economy* (*ekonimika*, *iqtisod*), *emission* (*emissiya*), *export* (*eksport*) so`zlari kirib kelgan.

Ingliz tili iqtisodiyot terminologiyasida o`zlashmalar XI asrda normand istelosi davridan to XIX-XX asr boshlarigacha, Agrika va Osiyo singari Britaniya mustamlakalari tillaridan o`zlashmalargacha ingliz tili lug`at tarkibi shakllanishining tarixiy qonuniyatlarini aks ettiradi. Masalan, *tariff* (*tarif*) iqtisodiy tushunchasi ingliz tiliga arabcha *tariff* (*xabarnoma*) so`zidan vositachi til-fransuz tili orqali kirib kelgan. O`rta asrlarda O`rta yer dengizi bo`ylarida “*ta`rif*”

soʻzi savdogarlar kemalarida tuziladigan, ortilayotgan yuklarning tasdiqlangan roʻyxatini, sotiladigan tovarning miqdori va qiymati koʻrsatilgan oʻziga xos jadvalni anglatgan.

Mutaxis tomonidan terminologiya sohasidagi bilimlarning toʻgʻri oʻzlashtirilishi va savodli qoʻllanishi tilshunoslikni rivojlantirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ingliz va rus tillaridagi iqtisodiyot sohasida qoʻllaniluvchi maxsus bazaviy terminlarning chogʻishtirib oʻrganilishi, oʻzaro qardosh boʻlmagan xalqlarning tafakkur mahsulini ochib beradi. Bu zamonaviy ingliz tilida oʻ ifodasini topgan qiziq bir oʻziga xoslik belgisini aniqlashtiradi.

Kazna” (gʻazna) leksemasi interlingval iqtisodiyot terminlariga qiziqarli misol boʻla oladi. Lingvistik nuqtai nazardan rus tilida “kaznacheystvo” soʻzidan kelib chiqish tarixi qiziq: u “kazna” soʻzidan yasalgan boʻlib, M.Fasmerning etimologik lugʻatida uning turkey tillardan oʻzlashtirilgani aytiladi.

Eʼtiborlisi shundaki, qadimgi ingliz tilida ham, qadimgi rus tilida ham treasure-kazna terminlari oʻzlashma boʻlib (ingliz tiliga eski fransuz tili orqali lotin tilidan, rus tiliga turkey tillar vositasida arab tiliga oʻzlashgan), oʻzining konseptual va semantic maʼnosini saqlagan.

Xorijlik hamkorlar bilan doimiy aloqalar, Oʻzbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy terminologiyaning tarqoqlashuviga olib keladi. Ayniqsa, soʻnnggi oʻn yillikda yangi soʻzlarning faol kirib kelishi va joriy qilinishi ushbu fikrni tasdiqlaydi.

Oʻzbek tilida “shaxs” tushunchalar kategoriyasini ifodalovchi va -er, -or qoʻshimchalari orqali iqtisodiyot sohasidagi shxsn anglatuvchi koʻplab nomlar oʻzlashgan soʻzlardir:

a) lotin tilidan rus tili orqali (ayni vaqtda mazkur terminlar rus tilining oʻzi uchun ham yevropa tillari orqali oʻzlashgan boʻlib, rus tilining fonetik, grafik, morfologik xususiyatlariga moslashgan): auditor (auditor);

b) bevosita roman-german tillaridan, xususan, ingliz tilidan oʻzlashgan. Masalan: sponsor (sponsor); diler (dealer); menejer (manager);

Maʼlumki, iqtisodiyot sohasiga Gʻarbiy Yevropa tillaridan oʻzlashgan terminlarning katta qismi oʻzbek tiliga vositachi rus tili orqali kirib kelgan. Bu uchinchi til sifatida oʻzbek tiliga-iqtisod sohasi terminologik birliklarning fonetik, grafik jihatdan barqarorlashgan natijalarini oʻzlashtirish yoʻli bilan jahonga integratsiyalashuv jarayonida yuz beradi. Bunga deyarli tarkima hamda semantic kalka usullari xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Тасев С.Б. Терминология консервной промышленности: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Л., 1975. –С. 22.; Сперанская Н.Н. Лесохозяйственная терминов // Вопросы общего и славянского языкознания. – Днепропетровск, 1976.
2. Кутарева Л.В. Лексико-семантический способ образования научно-технических терминов // Вопросы общего и славянского языкознания. – Днепропетровск, 1976.
3. Сербиновская Н.В. Формирование и развитие терминологического поля “маркетинг” в русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.-Ростов-на-Дону, 2008.
4. Сапаева, Д. Н. (2021). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ДЕРМАТОВЕНЕРОЛОГИК АТАМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS*

EXPLORATORY ACTION RESEARCH IN ENGLISH CLASSES

Petrosova Lola Davronovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 1- kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8188559>

Abstract. *In this article, the study of discovery movements in English lessons. Knowledge of a foreign language is an important factor in mastering the secrets of any profession, gaining qualifications and skills. Knowledge of a foreign language represents a higher level of qualification of a specialist who is active in any field of the national economy. A foreign language can now also be seen in various fields, and its role in the educational process is incomparable. This article covers the theoretical and practical aspects of creating virtual resources based on imitation models in English lessons.*

Keywords: *Foreign Language, English, imitation models, virtual resources, skills.*

ИССЛЕДОВАНИЕ ДЕЙСТВИЙ В КЛАССАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В этой статье: исследование движения Дискавери в английских лексонах. Knowledge of a foreign language is an important factor in mastering the secrets of any Professional, gaining qualifications and skills. Знание иностранного языка репрезентирует высокий уровень квалификации специалиста кто активен в любом поле национальной экономики. A foreign language can now also be seen in various fields, and its role in the educational process is incomparable. Эти обложки произведений the theoretical and practical aspects of creating Virtual Resources based on imitation models in English lessons.*

Ключевые слова: *иностраннный язык, английский, имитационные модели, виртуальные ресурсы, навыки.*

Most of the electronic textbooks created for foreign language educational institutions covered objects in the curriculum of general educational schools and Lyceum colleges. It is known that the study of a foreign language is currently carried out from the 1st grade. In this regard, the emphasis on a foreign language increased. In order to activate educational processes, various books were created interesting interactive lesson maps. However, along with such work, the need for vertical resources in classes began to be felt. The problems of increased attention to a foreign language by the Ministry of public education through the implementation of various, the interesting transition of lesson processes through computer imitation models were thrown into the middle. The line is now becoming very popular.

Knowledge of a foreign language is an important factor in mastering the secrets of any profession, gaining qualifications and skills. Knowledge of a foreign language represents a higher level of qualification of a specialist who is active in any field of the national economy. For this reason, even if graduates of Secondary Schools have not set the goal of entering a higher educational institution, their deep study of a foreign language and acquisition of free-speech skills are very necessary for future specialists who aim to operate in various fields of national economy. Among the most effective approaches to teaching a foreign language, through the means of Information Communication Technologies, it is possible to show language teaching methodologies in distance learning. Computer technology has a very wide range of possibilities, especially in language learning using the Internet. They are manifested in the following:

1) to actively use in practice the acquired knowledge and skills in oral relations in a foreign language and learn to use the language materials received not only in his speech, but also in understanding the speech of an interlocutor whom he met through the Internet;

2) formation of a flexible skill to transfer acquired speech knowledge to changing situations of the relationship;

3) to organize a conversation that is carried out in the form of informal communication, to create a strong, immediate motivation to learn to speak and a motivation to react close to reality;

4) overcoming psychological barriers, in particular, avoiding speaking a foreign language and making mistakes, removing the barrier and internal and external reluctance, as well as the feeling of shame;

5) a high level of educational quality and immediate effectiveness; as soon as the training is the second exercise, users begin to speak a foreign language that they are learning in a colloquial mold given in the main training text; the use of text impact suggestive tools (including memory input) is used, and classes are taken into account as early as the first exercise;

The increase in educational performance from quantitative to qualitative consists in revising the proportions between home and classroom work of teaching to all types of speech activity using suggestopedic technology in favor of classroom work, and building new features of the interaction of the user and users with each other.

Time distribution is the main important difference of the accelerated method from the traditional one

The intensive method for studying a school program in a foreign language cannot be applied in full size.

Individual methods of intensive method can be successfully used in foreign language lessons at school. It is known that the 60-70 years of the last century are considered as a period of the emergence and development of new methods of teaching a number of foreign languages, known under the general name "intensive teaching method". All these methods, which originally arose in different countries and in different years of this period, are nevertheless a general response of the methodology to the social order of modern society.

The growing number of specialists in various fields of Science and technology, which directly carry out international scientific and technical relations, which occurs with the international situation of this period, the scientific and technical revolution that caused the "explosion" of information, and the expansion of the circle of cultural and practical contacts, all this put their requirements on the need to know a foreign language.

The conditions of relations in a foreign language, in which a foreign language is considered a means of communication, knowledge, obtaining and collecting information, determine the need to know all types of speech activity: understanding and reading this foreign language, writing, the degree of knowledge of one or another type of speech activity, directly in the practice of communication in a foreign language, reading it is manifested in the exchange of written information in its form.

REFERENCES

1. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., – London., 2006.

2. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London., 2001.
3. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. «CHET TILINI O'QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH». Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005

ПРИНЦИПЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ КАК ИНОСТРАННОЙ

Райхон Абдижабборовна Аликулова

Магистр 2-го курса, НУУз, Ташкент.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8188791>

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы и проблемы методики преподавания литературы как иностранной в высших учебных заведениях и возможные пути решения этой проблемы.

Ключевые слова: литературоведение, методика, принцип учета языкового барьера, принцип научности, историзма, доступности, наглядности, целостности, принцип моделирования познания.

PRINCIPLES OF TEACHING RUSSIAN LITERATURE AS A FOREIGN

Abstract. This article discusses the issues and problems of the methodology of teaching literature as a foreign language in higher educational institutions and possible ways to solve this problem.

Key words: literary criticism, methodology, the principle of taking into account the language barrier, the principle of scientific, historicism, accessibility, visibility, integrity, the principle of modeling cognition.

Преподавание литературы в высших учебных заведениях – очень непростой процесс. Литература – это искусство слова, учитель должен научить ученика понимать функцию слова, чувствовать его красоту и музыкальность. Опираясь на лучшие образцы русской и мировой литературы, учитель должен духовно и эстетически развивать учеников, учить их свободно мыслить, уметь выражать свою точку зрения и ее защищать.

Это точка зрения педагога которая обучает школьника к литературе – как искусство слова, заинтересовывает школьника творчеством писателя и его произведением, а не преподает литературу – как науку о литературоведении. Литература занимает особое место в формировании личности, духовного мира человека, его нравственности, мышления, эмоций, речи, творческих начал. Преподавание литературы, выбор произведений для учебных программ, научные работы по литературе постоянно находятся в зоне внимания, в зоне критики. Безусловно, следует привести в соответствие с динамикой культурного развития и содержание, и структуру учебных программ и учебников по литературе, и методы преподавания литературы, не отказываясь при этом от лучших традиций современной методики.

Вопрос о том, что составляет основу содержания методики преподавания литературы, давно является объектом пристального внимания не только педагогов-словесников, но и литературоведов, психологов, представителей других научных дисциплин, вызывает оживленные споры. Современная методика преподавания литературы опирается на ценнейший опыт педагогов-словесников прошлого, стремится учитывать уроки этого опыта и развивать лучшие традиции современной методике. История методической мысли неразрывно связана с развитием общества и литературы, с именами известных деятелей науки и культуры, литераторов и педагогов, которые были первыми

авторами учебных пособий и руководств, статей по проблемам теории и истории словесности, по вопросам воспитания и обучения.

Внедрение современных технологий обучения не означает, что они заменяют традиционную методику предмета. Технологии применяют не вместо методов обучения, а наряду с ними, так как они являются составной частью методики предмета. Сегодня, в условиях модернизации образования термин «методика обучения» некоторые ученые заменяют термином «технология обучения» – это не компетентное заявление, особенно относительно преподавания литературы как вида искусства.

Понятие методики более *традиционно*, хотя теперь все чаще обращаются к анализу как традиционных, так и новых, нетрадиционных технологий, которых сейчас разработано уже достаточно много. Так, только Г.К.Селевко охарактеризовано сорок технологий, используемых в современном обучении, раскрыты их образовательные и развивающие возможности.

Художественная литература призвана сыграть особую роль в формировании самосознания современного общества, в его гуманизации. Она несет в себе художественную, эстетическую память народа, нравственные установки. По утверждению В.А.Никольского: «Раз художественная литература воздействует и на воображение, и на чувство читателя, и на его понятия, то и среди методов и приемов преподавания различаем методы и приемы эмоционально-образного постижения произведений художественного слова и методы и приемы истолкования этих произведений»¹⁹.

Новое содержание образования связано с поисками новых методов преподавания, новых подходов к содержанию и структуре урока литературы. Поскольку проблема чтения, формирования читателя, его духовного мира продолжает быть едва ли не самой актуальной проблемой, в методической науке предпочтение отдается приемам работы, обеспечивающим целостность восприятия художественного текста, его глубокую интерпретацию, понимание поэтики писателя. Не случайно основой базового компонента литературного образования названы чтение и изучение художественного произведения, его толкование.

Методика преподавания литературы помогает организовать анализ текста таким образом, чтобы вызвать интерес учеников к произведению и понять его идейную суть. Существует несколько принципов понимания идейной сути художественного произведения. Принципы преподавания литературы имеют существенное значение в организации учебного процесса, они являются научной базой, без опоры на которые невозможно осуществить организацию учебного процесса эффективно и познавательно. Они регулируют учебный процесс, формируют систему взаимоотношений преподавателя и слушателей, определяют содержание учебного материала и его объем, стратегию и тактику проведения занятий.

Без осмысления таких принципов организовать учебный процесс, сделать его эффективным, познавательным, удовлетворяющим вкусы и интересы слушателей, невозможно. Поэтому преподавателю важно не только знать эти принципы, но и

Urug‘ va ildizpoyalar ishlovi (yani qanday kimyoviy ishlov berilgan) ro‘yhatga olinadi.

O‘simliklar himoyasi bo‘yicha protseduralar qabul qilinadi.

Ekish paytida ekish metodlari, urug‘ meyor, ekilgan sanasi qayd qilinadi.

Genetik modifikatsiyalangan organizm (GMO) bo‘lsa, shu bo‘yicha yozuvlarni yuritishi kerak. Yani, ekish va hokazo. Fermer mijozga GMO haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xabar berishi kerak.

GMO bilan ishlash bo'yicha reja tuzilgan bo'lishi kerak. GMO hosili alohida saqlanadi. Bu talablar faqat GMO uchun qo'llaniladi, GMO bo'lmasa qo'llanilmaydi.

Yuqori darajadagi samara uchun o'g'itlarni qo'llash va/yoki yaxshi hosil olishni mo'ljallash o'stiradigan moddalarga talablardan biridir.

O'g'itlar miqdori va turini tanlash bo'yicha kompetentli ekspert bo'lishi kerak. Agar ekspert bo'lmasa, fermerning o'zi kompetentli bo'lishi kerak.

Qo'llangan barcha o'g'itlar qayd qilinadi: maydon, bog'.

Qo'llash vaqti, o'g'it turi, miqdori, usuli, ishlov berish bo'yicha tafsilotlar yuritib boriladi.

O'g'itlar yaxshi sharoitda saqlanishi kerak va yillik nazorat o'tkazilishi kerak.

Qoldiq noorganik o'g'itlar hisoboti yoki ishlatilgan o'g'itlar bo'yicha yozuvlar yuritib boriladi.

Noorganik o'g'itlar yopiq, toza va quruq joyda saqlanishi kerak.


O'g'it (organik, noorganik) mahsulotlardan alohida saqlanadi/choy/kofe.

Ishlab chiqarishdan so'ng qolgan (zavod va shu kabilarda amalga oshirilgan jarayonlardan so'ng qolgan) suvlar fermer xo'jaligida taqiqlanadi.

Organik o'g'itlar uchun xavf-xatar baholanishi kerak.

Qishloq xo'jaligida irrigatsiyani o'rni yuqori. Shuning uchun ham irrigatsion talablarni prognozlash muhim ahamiyatga ega. Suv resurslarini prognozlashda tizimli metodlardan foydalanish kerak.

Suvdan oqilona foydalanish, shuningdek, zararlarni kamaytirish uchun suvni rejali boshqarish kerak. Ishlatilgan suvni qayd qilish kerak.



Ishlov berilmagan qoldiq suvlardan foydalanish ta'qiqlanadi. Suvning ifloslanish xavf-xatarini yillik baholash kerak (mikrobiologik, kimyoviy, fizik ifloslanish. Suvning manbaini, shuningdek, irrigatsiya metodlarini hisobga olgan holda)

Xavf-hatarni baholash bo'yicha yillik analiz o'tkazilishi kerak. Tegishli laboratoriyalarda qilingan tahlil saqlanishi kerak. Zarur holatda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar bo'yicha yozuvlar bo'lishi kerak.

O'simliklarni himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Yani o'qitish, maslahatlar, profilaktika, kuzatuv va monitoring va hokazo.

O'simliklarni himoya qilish vositalari mahsulot sifatiga o'z tasirini ko'rsatadi. Bunda o'simliklarni himoya qilish vositalarini to'g'ri tanlash muhimdir. Ro'yhatga olingan kimyoviy vositalardan foydalanish kerak. O'simliklarni himoya qilish vositalari hisobotini yuritish kerak.

O'simliklarni himoya qilish vositalari texnikalari yaxshi, soz holatda qo'llaniladi. Barcha qilinadigan ishlar qayd qilinishi lozim (joy, sana, kompaniya/fermer xo'jaligi, kelishuv, texnik yordam, ilova qilingan miqdor, texnikalarni qo'llash). Hosilni yig'ishga qadar yozuvlarni yuritish kerak.

“Sabzavot-poliz va mevalar” bazaviy moduli.

Ekish materiali va navini tanlashda “onalik ko'chati”ga nisbatan samarali ekish uslubini anglash ahamiyatlidir.

Yerni fumigatsiyalaganda (kimyoviy gazlar bilan dizinfeksiyalash) yozuvlarni amalga oshirish kerak (joy, vaqt, tasir qiluvchi modda, miqdor, uslub, operator).

Kutish vaqtiga rioya qilish lozim (o'simlikni ekishga qadar).

Sug'oriladigan suvning sifatini taminlash maqsadida xavf-xatar tahliliga muvofiq mikrobiologik ifloslanishni hisobini yuritish kerak. Zarur bo'lganda bajariladi.

Hosilni yig'ishda quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak:

- Ichki transport va hosil uchun xavf-xatar tahlilini o'tkazish;
- Gigiena bo'yicha hujjatli uslub yuritish;
- Mehnatdan avval ishchilar uchun gigienaga oid asosiy mashg'ulotlar (treening).
- Gigiena bo'yicha qo'llanmadan foydalanish;
- Hosilni yaxshi holatda yig'ish uchun asbob-uskunalar;
- Hosilni tashish uchun mashinalar soz holatda bo'lishi kerak;
- Mahsulot bilan bevosita aloqada bo'lgan ishchi uchun toza yuvinish joylari bo'lishi

kerak.

Gigiena talablari ham belgilab qo'yilgan. Hosilni yig'ishga jalb qilingan ishchilar o'z ish joylarini yonida toza xojatxonaga ega bo'lishlari kerak.

Mustahkam yoki ko'chib yuruvchi xojatxonalar tozalash oson bo'lgan materiallardan bo'lishi kerak. Yerga zarar yetkazmasligi uchun ular aniq bir yopiq hajmda bo'lishi kerak.

Ular ishchilardan 500 m radiusda joylashishi va yaxshi gigienik holatda bo'lishi lozim. Agar ishchi mustaqil ishlasa xojatxonagacha bo'lgan masofa 500 m dan yuqori bo'lishi mumkin. Bunday holatda ishchini transport vositasi bilan taminlash kerak. Hosil uchun mo'ljallangan sig'imlar faqatgina mahsulotlar uchun ishlatilishi lozim. Gigienaga rioya qilish metodlari ekin maydoniga, teplitsaga va boshqalarga taalluqli.

Xulosa.

Qadoqlangan mahsulotlar ifloslanishdan himoyalangan bo'ladi. Shuning uchun qadoqlanishi kerak bo'lgan mahsulotlar qadoqlanadi. Yig'ish punktlari, saqlash joylari yaxshi gigienik holatda bo'lishi kerak.

Qadoqlash materiallari ifloslanishdan himoyalangan holda saqlanadi.

Qadoqlash va boshqa materiallar ekin maydonidan chetga olinadi. Muz yoki suv ishlatilgan holatda zararlanishni oldini olish uchun gigienik jihatlarga rioya qilish kerak

REFERENCES

1. Bo'riev X., "Qishloq xo'jalik mahsulotlarini standartlash, metrologiya va sertifikatsiyalash asoslari", Mehnat: Toshkent, 1999y.,-146 b.
2. Texnik jihatdan tartibga solish: amaliyot, muammo va istiqbollari. I.I. Nasirov tahriri ostida, O'zbekiston standart, 2011y,
3. B.D.Yusupov, A.A.Djumanov, O.I.Soatov, Sh.A.To'raev, "Agrosanoat majmui korxonalarida sifat menejmentini tashkillashtirish", o'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent, 2011y.,
4. "Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiyaga oid normativ-xuquqiy xujjatlar to'plami. T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2008y.

COMPLETE INTEGRABLE VECTOR FIELD GEOMETRY

Ibodov Nabijon Muzaffarovich

Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers, National Research University, Bukhara Institute of Nature Management, Assistant of the Department of Mathematics and Natural Sciences.

Email: ibodov nab@yandex.ru

Toyirov Muhridin Zoir o'g'li

Tashkent Institute of irrigation and agricultural mechanization engineers National research university student of Bukhara Institute of Natural Resources Management.

Email: toirovmuhridin82@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8203169>

Abstract. This article is the result of research on operations on integrable vector fields on the plane, namely: finding their integral lines, finding the Lie bracket and finding the flow.

Keywords: Integral line, vector field, vector field flow, Lie bracket (Lie commutator), integrable vector field, manifold, field, orbit.

ПОЛНАЯ ИНТЕГРИРУЕМАЯ ГЕОМЕТРИЯ ВЕКТОРНОГО ПОЛЯ

Аннотация. Эта статья является результатом исследования операций над интегрируемыми векторными полями на плоскости, а именно: нахождения их целых линий, нахождения скобки Ли и нахождения потока.

Ключевые слова: Интегральная прямая, векторное поле, поток векторного поля, скобка Ли (коммутатор Ли), интегрируемое векторное поле, многообразие, поле, орбита.

INTRODUCTION

Definition-1. Let M be a smooth manifold of dimension n , $T_x M$ be a tangent space at the point $x \in M$. The map P , which assigns to each point $x \in M$ some subspace $P(x) \subset T_x M$, is called a distribution. If $\dim P(x) = k$ for all $x \in M$, then P is called a k -dimensional distribution.

Definition-2. A distribution P is called smooth if for each point $x \in M$ there exists a neighborhood of this point $U(x)$, and smooth vector fields x_1, x_2, \dots, x_m given on $U(x)$, such that vectors $x_1(y), x_2(y), \dots, x_m(y)$ form a basis for subspaces $P(y)$ for each $y \in U(x)$.

Definition-3. A distribution P is called completely integrable if for every point $x \in M$ there exists a connected submanifold N_x of a manifold M containing a point x such that $T_x N_y = P(y)$ for all $y \in N_x$.

MATERIALS AND METHODS

The submanifold N_x is called the integral submanifold of the distribution P .

If a family D of smooth vector fields is given, then a smooth distribution naturally arises. Indeed, if D consists of smooth vector fields, then for each point $x \in M$ the set of vectors $D(x) = \{X(x): X \in D\}$ generates some subspace $P_D(x)$ of the tangent space $T_x M$. Of course, the dimensions of the subspace $P_D(x)$ can vary from point to point. This distribution is denoted by P_D .

It is said that the vector field X belongs to the distribution P if $X(x) \in P(x)$ for all $x \in M$.

Recall that the distribution of P on a manifold M is called involutive if $X, Y \in P$, then $[X, Y] \in P$ holds.

RESULTS

A necessary and sufficient condition for the complete integrability of a distribution of constant dimension is given in Frobenius' theorem.

Frobenius' theorem. In order for the distribution P to be completely integrable, it is necessary and sufficient that it be involutive.

Definition-4. A family of vector fields D is called completely integrable if the corresponding P_D distribution generated by D is completely integrable.

Note that if the family D consists of a single vector field, then it is always completely integrable, since according to the theorem on the existence and uniqueness of the solution of a system of differential equations, a single integral curve of the vector field passes through each point. If a family consists of more than one vector field, then it is not always completely integrable.

The Frobenius theorem generalized by Herman for distributions of non-constant dimension gives a necessary and sufficient condition for the complete integrability of a family of vector fields consisting of a finite number of vector fields.

Theorems (Hermann). Let $D = \{X_1, X_2, \dots, X_k\}$ be a family of finitely many vector fields on a manifold M . A family D is completely integrable if and only if it is involutive.

The involution of a family of vector fields $D = \{X_1, X_2, \dots, X_k\}$ means the following: for any vector fields $X, Y \in D$, there exist smooth functions $f^l(x)$, $x \in M$, $l = 1, \dots, k$ such that

$$[X, Y] = \sum_{l=1}^k f^l(x) X_l$$

In the case when the family consists of an infinite number of vector fields, as the existing examples show, this theorem is incorrect.

We have proved the following theorem.

The theorem. Let $M = R^3$ be a Euclidean space with Cartesian coordinates x, y, z . A family D consisting of vector fields

$$X = y \frac{\partial}{\partial x} + x \frac{\partial}{\partial y},$$

$$Y = \frac{\partial}{\partial z},$$

generates a completely integrable distribution, integral manifolds which are hyperbolic cylinders, half-planes and straight.

Example. For a function

$$H(x, y, z) = \frac{x^2}{4} + \frac{y^2}{3} - \frac{z^2}{5}$$

the corresponding Hamiltonian vector field has the following form

$$H_x = \frac{x}{2} \quad H_y = \frac{2y}{3}$$

The corresponding Hamiltonian system has the following form

$$X_H = H_x \frac{\partial}{\partial y} - H_y \frac{\partial}{\partial x} \Rightarrow X_H = \frac{x}{2} \frac{\partial}{\partial y} - \frac{2y}{3} \frac{\partial}{\partial x}$$

$$X_H = \left\{ -\frac{2y}{3}, \frac{x}{2}, 0 \right\}$$

$$Y = \{4y, -3x, 0\}$$

$$[X_H, Y]^i = \sum_{j=1}^3 (X_j \frac{\partial Y_i}{\partial x_j} - Y_j \frac{\partial X_i}{\partial x_j})$$

$$[X_H, Y]^1 = 0 \quad [X_H, Y]^2 = 0 \quad [X_H, Y]^3 = 0$$

$$[X_H, Y] = 0 \quad X_H = \left\{ -\frac{2y}{3}, \frac{x}{2}, 0 \right\}$$

$$x(0) = x_0 \quad y(0) = y_0 \quad z(0) = z_0$$

The trajectories of which are circles:

$$\begin{cases} x = x^0 \cos 2\sqrt{3}t + \frac{2\sqrt{3}}{3} \cdot y^0 \sin 2\sqrt{3}t \\ y = -\frac{\sqrt{3}}{2} x^0 \sin 2\sqrt{3}t + y^0 \cos 2\sqrt{3}t \\ z = 0 \end{cases}$$

Vector field flow:

$$\begin{cases} x = x \cos 2\sqrt{3}t + \frac{2\sqrt{3}}{3} \cdot y \sin 2\sqrt{3}t \\ y = -\frac{\sqrt{3}}{2} x \sin 2\sqrt{3}t + y \cos 2\sqrt{3}t \\ z = 0 \end{cases}$$

CONCLUSIONS

The theorem. Let v_1, v_2, \dots, v_r be smooth vector fields on a manifold M . Then the system $\{v_1, v_2, \dots, v_r\}$ is integrable if and only if it is in involution.

REFERENCES

1. Олвер, П.Ж. Аппликации Ли Группы то Дифференциал Экуатионс. Спрингер, 1993.
2. Гольдфан И.А Векторны анализ и теория поляю. –М.:Наука, 1968.
3. Азамов А.А., Нарманов А. Я. О предельных множествах орбит систем векторных полей. Дифференциальные уравнения. 2004. Т. 40, №2, С.
4. А.У. Narmanov, A. S. Sharipov, J. O. Aslonov Differensial geometriya va topologiya kursidan masalalar to'plami, T:Universitet, 2014 yil.
5. Катанаев М.О. Геометрические методы в математической физике, Математический институт имени и. А. Стеклова РАН, май 2010, 553 с.
6. Аслонов Ж.О. Геометрия орбит векторных полей Киллинга. УзМЖ –Ташкент, 2011.– С.

UDK 631.315.4

SARIMSOQPIYOZ EKISH TEXNOLOGIK ISH JARAYONINI MEXANIZATSIYALASHTIRISH

Abdualiyev Nuriddin Habibovich

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti - t.f.f.d., v.b. dotsent.

Email: n.abdualiyev.91@mail.ru

Toyirov Muhridin Zoir o'g'li

“TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

Email: toirovmuhridin82@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8203347>

***Annotatsiya.** Maqolada sarimsoqpiyozni yetishtirish agrotexnologiyasi va uning bugungi kundagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari, sarimsoqpiyoz ekish jarayonini mexanizatsiyalashning dolzarbligi muhim masala ekanligi ta'kidlangan va unda innovatsion sarimsoqpiyoz ekish qurilmasi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Tayanch so'zlar:** sarimsoqpiyoz, ekish chuqurligi, qishloq xo'jaligi, nav, ekish sxemasi, lentasimon, qo'sh qator, texnologik jarayon.*

MECHANIZATION OF THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL WORK OF PLANTING GARLIC

***Abstract.** The article presents information about the agrotechnology of garlic cultivation and its significance today. In addition, it was noted that the relevance of the process of planting garlic cloves is an important issue.*

***Keywords:** garlic, variety, agriculture, comb, planting scheme, planting depth, technological process, double row, ribbon-like.*

МЕХАНИЗАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ПОСАДКИ ЧЕСНОКА

***Аннотация.** В статье представлена информация об агротехнологии выращивания чеснока и ее значении на сегодняшний день. Кроме того, было отмечено, что актуальность процесса посадки зубчиков чеснока является важным вопросом.*

***Ключевые слова:** чеснок, сорт, сельское хозяйство, гребень, схема посадки, глубина посадки, технологический процесс, двухрядный, лентообразный.*

Ma'lumki, Respublikamizda sarimsoqpiyoz ekish texnologik jarayoni mexanizatsiyalashmaganligi sababli sarimsoqpiyoz ekish amaliyoti qo'l mehnati yordamida amalga oshirilib kelinmoqda. Shu sababli, hozirgi kunda yetishtirilayotgan sarimsoqpiyoz nisbatan kichik dalalarda an'anaviy usullarda ekiladi. Bunda bir gektar maydonni ekish uchun odatda 60-65 ish kuni talab etiladi. Mazkur tadqiqot ishida sarimsoqpiyoz ekishning innovatsion qurilmasidan foydalanilgan. Innovatsion loyihalani tayorlangan ushbu qurilma sarimsoqpiyoz donalarini bir qatorli lentasimon usulda ekishga mo'ljallangan (1-rasm). Lentalar orasidagi masofa (egat kengligi) 60 sm bo'lib, donalar qadami 15 sm bo'ladi. Ko'milish chuqurligi 7-8 sm ni tashkil qiladi. Sarimsoqpiyoz ekish qurilmasining ish unumi a'naviyga nisbatan samarali hisoblanadi. Bugungi kunda sarimsoqpiyoz ekish texnologik jarayoni qo'l mehnati orqali amalga oshirib kelinmoqda va ushbu texnologik jarayon bir muncha mehnat sarfini hamda ish unumini pasayishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, sarimsoqpiyoz yetishtirishda texnika va texnik

vositalarning yetishmasligi sababdan aholimizni sarimsoqpiyozga bo'lgan talabi yetarlicha qondirilmay edi. Hozirgi kunda biz tavsiya etayotgan qurilma yordamida sarimsoqpiyoz yetishtirilsa aholimizni sarimsoqpiyozga bo'lgan talabini sezilarli darajada qondirishda katta hissa qo'shadi. Sarimsoqpiyoz ekish qurilmasi yordamida yetishtiriladigan sarimsoqpiyozning pallalarining donadorligi ya'ni pallalarning kattaligi a'nanaviy yetishtirilib kelayotgan sarimsoqpiyoz pallalaridan sezilarli darajada yirikroq bo'lishi bilan ham ajralib turadi. Sarimsoqpiyozlarning pallalarning kattaligi qancha yirik bo'lsa meditsina sohasida ishlatiladigan efirmoyining sifatli va ko'proq natijalarga ega bo'lamiz. Sarimsoqpiyoz ekish qurilmamizni ishlash prinsipi oddiy bo'lganligi bilan hozirgi kundagi zamon talabiga ham javob beradi va landshaft dezayini ham zamonaviy talablarga bimalol javob beroladi. Sarimsoqpiyoz ekish qurilmasi yordamida ekilgan sarimsoqpiyozlar a'nanaviy ta'rizda ekilgan sarimsoqpiyozlarga nisbatan tezroq hamda yaxshiroq unib chiqadi. Eng asosiy muammolardan biri bo'lgan sifatli urug'larga ega bo'lishimizga o'z hissasini qo'shadi.


Materiali va usuli. Qurilma taqish moslamasi, rama, va unga qo'zg'almas tarzda o'rnatilgan urug' bunkerini hamda tayanch g'ildiraklardan iborat bo'lib, bunkerga sarimsoqpiyoz donalari tushadigan qilib mahkamlangan quvur, quvurning ostki qismida ponasimon chuquryumshatgich hamda quvur va bunker orasiga gorizontalk tekislikka nisbatan tik o'rnatilgan tasmali uzatmadan tashkil topgan. Sarimsoqpiyoz donalarini donalab yo'naltirish uchun tasmali uzatmaga sferik qoshiqchalar ma'lum masofada joylashtirilgan.

Sarimsoqpiyoz ekish qurilmasini ishlash prinsipi yurish uskunasi orqali harakatga keltiriladi. Yurish kuskunasiga o'rnatilgan tasmali uzatma orqali o'qga harakatni uzatib bunkeridagi qoshiqchalarni harakatlantiradi. Sarimsoqpiyozni ekishda yurish g'ildiraklarining harakati muhim hisoblanadi. Qurilmani ishlash prinsipi sodda tuzilgani tufayli ishlash jarayonini tez o'rganish hamda oson ishlatishimiz mumkin. Qurilmani ishlashda unga ulangan traktorni tezligi muhim hisoblanadi. Traktorning tezligi ekish oralig'iga mos bo'lishi kerak hamda kerakli tezlikda o'zgarmas harakatni ta'minlab berish bu ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.



1-rasm. Sarimsoqpiyozni qurilma yordamida ekilgan ko'rinishi

Sarimsoqpiyoz ikki-uch qatorli lentasimon usulda ekiladi (2-rasm). Lentalararo masofa (egat kengligi) 70 sm, bo'lib lentadagi qo'shqator oralig'i 20 sm, uch qatorli ekishda oralari 15 sm, qatorlarda sarimsoqpiyoz pallalari orasi 7-8 sm.li holda ekiladi. Sbunkerday qilib, sarimsoqpiyozning ekish sxemasi: 5-6 sm va x 7-8 sm. ko'rinishda, gektariga 450-600 ming dona o'simlik joylashadi. Ekish chuqurligi 5-8 sm. ni tashkil qiladi. Ekish me'yori, ya'ni bir gektar maydonga sarimsoqpiyoz pallalaridan 1000-1200 kg. sarflanadi.



2-rasm. Sarimsoqpiyoz ekish sxemalari :

A) $(40+(15+15))/2 \times (7-8)$ sxemada; B) $(70+(20+20))/2 \times (5-6)$ sxemada

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib sarimsoqpiyoz ekish qurilmasining konstruksiyasi va texnologik ish jarayoni ishlab chiqildi. Sarimsoqpiyoz ekishda agrotexnikaning qo'llanilishi a'nanaviy usulda ekishdagi bir necha muammolarga yechim bo'lishi tajriba jarayonida aniqlandi.

REFERENCES

1. Turkiya Respublikasi—ozuq-ovqat qishloq xo'jaligi vazirligil hamda —Denizbankll hamkorligida tayyorlangan -100 ta kitobdanll iborat to'plami.
2. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish ucunker tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestri. – Toshkent, 2020. – b. 55.
3. Scotton D. C. et al. Response of root explants to in vitro cultivation of marketable garlic cultivars //Horticultura Brasileira. – 2013. – T. 31. – S. 80-85.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sarimsoqpiyoz hamda to'qsonbosti usulida sabzavot mahsulotlarini etishtirish va eksport qilishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risidallgi 2020 yil 15 oktyabrdagi PQ4863-son qarori.
5. Li X Y, Geng A J, Hou J L, Zhang M Y, Zhang J, Li W. Research status of garlic seeding machinery. Farm Machinery, 2017; 2: 105-107, 109.
6. Ostonaqulov T.E., Zuev V.I., Qodirxo'jaev O.Q. Sabzavotchilik T.—Navro'zll 2018. - b. 497-505.
7. Zuev V.I., Abdullaev A.G. Sabzavot ekinlari va ularni etishtirish texnologiyasi. T., "O'zbekiston", 1997. -b. 342.
8. Bo'riev X.Ch, Zuev V.I., Qodirxo'jaev O.Q., Muhamedov M.M. Ochiq joyda sabzavot ekinlari etishtirishning progressiv texnologiyalari T., —O'zbekiston milliy entsiklopediyasil 2002. – b. 245-251.

9. Li yu X, Vu yu K, Li T X, Niyu z R, Xou J L. mashinani ko'rishga asoslangan sarimsoq chinnigullari yo'nalishini sozlash moslamasini ishlab chiqish va tajriba qilish. Qishloq xo'jaligida kompyuterlar va elektronika, 2020; 174: 105513.
10. Go va F. ekish texnikasida sarimsoq yo'nalishini aniqlash usulini o'rganish. Sian: shimoli-G'arbiy qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi fan va muhandislik universiteti, 2011 yil. (Xitoy tilida).
11. Cui zi S, Song j L, Xu T, Li N, Cai S R. sarimsoq ekish moslamasini ishlab chiqish. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash bo'yicha tadqiqotlar jurnali, 2017; 39(11): 131-135. (Xitoy tilida).
12. Syu T, Song Ji L, Tsui zi S, Li N, Tsay S R, Song Gyu va boshqalar. sarimsoq urug'ini mexanik ekish ucunker tegishli xususiyatlarni o'rganish. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash bo'yicha tadqiqotlar jurnali, 2018; 40(5): 137-141. (Xitoy tilida).

UDK: 658.52/338.45

MAHSULOT SIFATINI OSHIRISHDA FUNKSIONAL-QIYMATLI TAHLILNI QO'LLASH

Xakimov Dilmurod Valijon o'g'li

Toshkent Davlat Agrar Universiteti, "Qishloq xo'jaligi maxsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish" kafedrasida dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

dhakimov91@mail.ru

Rajabov Doniyorbek Baxtiyorovich

Toshkent Davlat Agrar Universiteti, "Qishloq xo'jaligi maxsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish" kafedrasida talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8206108>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahsulot sifatini loyixalashtirish, texnologik rejalashtirish, ishlab chiqarishga tayyorgarlik va uni egallash bosqichlarida funksional-qiyamatli tahlilni qo'llash ko'rib chiqilgan bo'lib, funksional-qiyamatli tahlildan mahsulot yoki texnologiyalar, ishlab chiqarish, iqtisodiy jarayon ob'ektlarining iste'mol xossalari va uning ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish va ekspluatatsiya xarajatlari o'rtasidagi nisbatni optimallashtirish kabi tadqiqot ishlarida qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: funksional-qiyamatli tahlil, loyixalashtirish, texnologik rejalashtirish, ishlab chiqarish, optimallashtirish, Eyzenxauerning AVS prinsipi va x.k.

APPLICATION OF FUNCTIONAL-VALUE ANALYSIS IN PRODUCT QUALITY ENHANCEMENT

Abstract. This article examines the application of functional-value analysis at the stages of product quality silencing, technological planning, preparation for production and its acquisition, and uses functional-value analysis in research work such as product or technologies, optimization of the ratio between the consumer properties of production, economic process objects and its production costs, production and operating costs.

Key words: functional-value analysis, clairvoyance, technological planning, production, optimization, Eisenhower's AVS principle, and x.k.

ПРИМЕНЕНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНО-СТОИМОСТНОГО АНАЛИЗА В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ПРОДУКЦИИ

Аннотация. В данной статье рассматривается применение функционально-стоимостного анализа качества продукции на этапах проектирования, технологического планирования, подготовки производства и ее освоения, применяемого в таких научно-исследовательских работах, как функционально-стоимостный анализ потребительских свойств продукции или технологий, объектов производства, хозяйственного процесса и оптимизация соотношения между издержками ее производства, издержками производства и эксплуатации.

Ключевые слова: функционально-стоимостный анализ, проектирование, технологическое планирование, производство, оптимизация, принцип ABC Эйзенхауэра и X.k.

Kirish

Sifat harajatlari tahlilini o'tkazish va xisobotlarni shunday ko'rinishda tuzish kerakki, bunda ular turli darajadagi raxbarlar sifatga bo'lgan munosabatni ob'ektiv ko'rinishda takdim etib yordam berishlari mumkin.

Sifat harajatlari tahlilining maqsadi va masalalariga bog'liq xolda va uni amalga oshirish uchun zarur manbalarni olish imkoniyatlariga qarab analitik usullar bir-biridan ancha farq qiladi. Bunday farqqa yana korxonada faoliyatining ma'lum bosqichlarida mahsulot bilan o'tish va uning hozirgi paytdagi harajatlarni shakllantirish zanjiridagi o'rni ta'sir qiladi. Loyixalashtirish, texnologik rejalashtirish, ishlab chiqarishga tayyorgarlik va uni egallash bosqichlarida funksional-qiyamatli tahlil (FQT)ni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu alohida mahsulot yoki texnologiyalar, ishlab chiqarish, iqtisodiy jarayon ob'ektlarining iste'mol xossalari va uning ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish va ekspluatatsiya xarajatlari o'rtasidagi nisbatni optimallashtirish yo'li bilan resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan funksiyalarni tizimli tadqiqot usulidir.

Funksional-qiyamatli tahlil (FQT)ni qo'llashning asosiy prinsiplari:

- tadkikot ob'ektiga funksional yondashuv;
- ob'ekt va u bajaruvchi funksiyalarning taxliliga tizimli yondashuv;
- ob'ektning funksiyalari va ularning barcha bosqichlardagi material olib yuruvchilari tadkikoti;
- buyumning xayotiy sikli;
- mahsulot funksiyalarining sifati va foydaliligining ularga sarflangan harajatlarga mos kelishi;
- jamoaviy ijodkorlik;

Funksional-qiyamatli taxlilning maqsadi ob'ekt funksiyalarining foydaliligini uning iste'molchi uchun muximligi va uni amalga oshirish uchun sarflangan harajatlarni optimal o'zaro nisbatida oshirish, ya'ni iste'molchi va ishlab chiqaruvchi uchun eng qulayini tanlash. Agar gap mahsulot ishlab chiqarish, mahsulot sifati va uning bahosi bo'yicha masalani yechish haqida ketayotgan bo'lsa. Matematik tarzda FQT ning maqsadini quyidagicha yozish mumkin:

$$\frac{FQ}{X} = \max \quad (1)$$

Bu yerda FQ – tahlil kilinayotgan ob'ektning iste'mol qiymati, u iste'mol xususiyatlari bilan ifodalangan;


X –zaruriy iste'mol xususiyatlarga erishish uchun chiqimlar.

Funksional –qiyamatli tahlil bir necha bosqichlarda o'tkaziladi.

Birinchi, tayyorgarlik bosqichida tahlil ob'ekti, ya'ni harajatlar egasi aniqlanadi. Bu ayniqsa iste'molchining resurslari chegaralanganligida juda muximdir. Bu bosqich yakunlanadi, agar boshqalarga nisbatan tannarxi past va sifati yuqori variant topilsa.

Ikkinchi informatsion bosqichda o'rganilayotgan ob'ekt haqida ma'lumotlar (vazifasi, texnik-iqtisodiy karakteristikalari) va uni tashkil etuvchi bloklar, detallar (vazifasi, materiallari, tannarxi).

Ular ochiq informatsion tarmoqda bir nechta oqimda keladi, masalan, ular, «shpora» modifikatsiyalangan shaklga ega bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. FQT informatsion tarmokning modeli

Tegishli xizmat raxbarlariga buyum sifatini oshirish va uni ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish uchun takliflar korxonaning konstruktorlik (K), iqtisodiy (E) bo‘linmalaridan va iste’molchidan (M) kelib tushadi.

Iste’molchilarning bahosi va xoxish-istaklari marketing bo‘limida ajratiladi va tahlil qilinadi. Ish jarayonida ma’lumotlar qayta ishlanadi, ular tegishli sifat va harajat ko‘rsatkichlariga aylanadi, barcha qiziqkan bo‘linmalardan o‘tadi, va loyixa raxbariga kelib tushadi (A).

Uchinchi tahliliy bosqichda, buyumning vazifalari (uning tarkibi, foydalilik darajasi), uning bahosi va ikkinchi darajali va keraksizlarini kesib tashlash yo‘li bilan narxini kamaytirish. Bular buyumning yoki uning detallarining, faqat texnik emas, balki organoleptik, estetik va boshqa vazifalar bo‘lishi mumkin. Buning uchun Eyzexauerning AVS prinsipini qo‘llash maqsadga muvofiqdir (2-rasm).

A Funksiyalar birichi darajali, asosiy, foydali	V Funksiyalar ikkinchi darajali, yordamchi, foydali
S Funksiyalar ikkinchi darajali, yordamchi, foydasiz	

2-rasm. FQT da Eyzexauer prinsipi

Bunday tahlilni vazifalarni taqsimlashda jadval shaklini qo‘llash oson bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval.

AVS prinsipi bo‘yicha X buyumning xizmat vazifalarini taqsimlanishi

Detallar	Funksiyalar					Detallar bo‘yicha jami	Dastlabki xulosa
	1	2	3	4	-----		
1	A	V	V	S	-----	1S	—
2	V	S	A	S	-----	2S	Yaxshilash
3	V	A	V	S	-----	1S	—
4	S	V	V	A	-----	1S	—

-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----
Funksiyalar bo'yicha jami	1S	1S	—	3S			
Dastlabki xulosa	—	—	—	Yo'q qilish	—	—	—

Yakuniy grafalarga detallar bo'yicha ikkinchi darajali, yordamchi, keraksiz funksiyalari soni haqida ma'lumotlar kiritiladi, bu esa ularning zarurligi haqida boshlang'ich xulosa qilish imkonini beradi. Keyin esa smeta bo'yicha detallar bahosining jadvalini tuzish yoki har bir detal funksiyasining unga sarflangan chiqimlar bilan bog'liq xolda baholash mumkin. Bu buyum konstruksiyasiga, ishlab chiqarish texnologiyasiga, olingan komplekt detallarning bir qismini o'zi ishlab chiqarganlarga almashtirish, bir material to'ri boshqasiga arzonrog'iga yoki qayta ishlashda tejamkoriga almashtirish, materiallarni yetkazib beruvchini, material xajmini o'zgartirish bilan chiqimlarni kamaytirish yo'nalishlarini aniqlash.

Ishlab chiqarish faktorlari bo'yicha funksiya harajatlarini gruxlash buyum bahosini pasaytirishning birinchi navbatdagi yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Bunday yunalishlarni mutaxassislar tomonidan belgilangan darajaga qarab saralash va xarajatlar bilan taqqoslash, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo'llarini tanlash maqsadga muvofiqdir

Buning uchun jadval tuzish mumkin (2-jadval).

2-jadval.

Funksiyalarning ahamiyat koeffitsienti va narxlarini taqqoslash

Funksiya darajasi	Axamiyati, %	Funksiya qiymatining umumiy xarajatlardagi ulushi, %	Funksiya xarajatlari koeffitsient (Kx/f)
1	2	3	$4 = 3 / 2$
1	40	40	1,00
2	30	50	1,67
3	15	5	0,33
4	10	3	0,30
5	5	2	0,40
Jami	100	100	---

Optimal xisoblanadi $Kx/f \approx 1$, $Kx/f < 1$, $Kx/f > 1$ ga qaraganda ma'qulroq.

Ushbu koeffitsient birlik ancha yuqoriga ko'tarilganda bu funksiyaning arzonlashtirish yo'llarini izlash zarur. Bizning misolimizda bunday funksiya 30 %, ikkinchi darajadagi ahamiyatga ega bo'ladi. FQT tomonidan o'tkazilgan yechim variantlari natijalari bo'lib ularda buyumga sarflangan barcha harajatlarni taqqoslash zarur, ular elementlar bo'yicha harajatlar, qandaydir bir baza bilan xisoblanadi. Masalan, bunday baza bo'lib buyumga minimal sarflanishi mumkin bo'lgan chiqimlar bo'lishi mumkin. FQT teoriyasi FQTning iqtisodiy samaradorligini xisoblashni taklif qiladi, u esa harajatlarni pasaytirish minimal kattalikda qancha ulushni tashkil etishini ko'rsatadi.

$$KFQT = \frac{C_x - C_{e.x.}}{C_{e.x.}} \quad (2)$$

Bu yerda $KFQT$ – FQT ning iqtisodiy samaradorligi (kundalik harajatlarni pasaytirish koeffitsienti);

C_x – yuzaga kelgan xaqiqiy harajatlar yigindisi;

$C_{e.x.}$ – buyumning loyixasiga mos keladigan minimal darajadagi extimollik harajatlari;

To‘rtinchi tadqiqot bosqichida ishlab chiqilgan buyumning taklif etilayotgan variantlari baholanadi.

Beshinchi tavsiya qilish bosqichida ushbu buyumni takomillashtirish va ishlab chiqishda eng makbul variantlari tanlab olinadi.

Bu maqsad uchun matritsali tablitsa ko‘rishni tavsiya etish mumkin (3-jadval).

3-jadval

Ishlab chiqarish uchun mahsulot tanlovi bo‘yicha variantlarining qaror jadvali

Boshqaruv qaorolari uchun imkoniyatlari	Avfzalliklar	A Funksiyaning ahamiyati: yuqori, xarajat: past, mahsulotning rentabelligi: yuqori daraja	V Funksiyaning ahamiyati: yuqori, xarajat: past, mahsulotning rentabelligi: o‘rta daraja	S Znachimost funksii: yuqori, xarajat: yuqori, mahsulotning rentabelligi: o‘rta daraja
	Muammoli	D Funksiyaning ahamiyati: o‘rta, xarajatlar: past, mahsulotning rentabelligi: yuqori daraja	E Funksiyaning ahamiyati: o‘rta, xarajatlar: o‘rta, mahsulotning rentabelligi: o‘rta daraja	F Funksiyaning ahamiyati: o‘rta, xarajatlar: yuqori, mahsulotning rentabelligi: past daraja (o‘rta?)
	Istalmagan	G Funksiyaning ahamiyati: past, xarajatlar: past, mahsulotning rentabelligi: o‘rta daraja	H Funksiyaning ahamiyati: past, xarajatlar: o‘rta, mahsulotning rentabelligi: past	I Funksiyaning ahamiyati: past, xarajatlar: yuqori, mahsulotning rentabelligi: past daraja

Buyum funksiyalari, uning qismlari, detallarining ahamiyatini xisobga olgan xolda va harajatlar darajasi, mahsulotga bo‘lgan talablarga asoslanib uning rentabellik darajasi belgilanadi. Bularning barchasi aniq buyumni ishlab chiqarish uchun yoki yo‘nalishi va mashtabini takomillashtirish uchun tanlashga xizmat qiladi. Mahsulot sifatiga bo‘lgan harajatlarni belgilashda texnik me‘yorlashtirish usullari ancha yordam berishi mumkin. Ular detallar bo‘yicha me‘yorga va me‘yoriy material resurslariga (xom ashyo, sotib olinuvchi buyumlarning butlovchi qismlari va materiallarning boshqa turlari), mexnat xajmini xisobi va loyixa o‘lchamlariga mos mahsulotning tannarxiga qo‘shiluvchi boshqa harajatlar, uni tayyorlashning aniq texnologiyasi, saklash va tashish, shuningdek kafolat va servis xizmatlari harajatlariga asoslangan.

Texnik me'yorlashtirish usullari yangi buyumni ishlab chiqish yoki mahsulotni takomillashtirish harajatlarini yetarli darajada aniq belgilash imkonini beradi.

Agar korxonada yangi mahsulot ishlab chiqarishga o'tsa, avval uning analogi bo'lsa, unda sifat harajatlari (X_{sifat}) eski (X_{eski}) va yangi mahsulot (X_{yangi}) harajatlari farki bilan belgilanadi:

$$X_{sifat} = X_{eski} - X_{yangi} \quad (3)$$

Agar korxonada avval ishlab chiqargan mahsulotning sifat parametrlarini takomillashtirsa, unda sifat harajatlarini to'g'ridan-to'g'ri xisoblash bilan taaluqli me'yorlar va yo'nalishlar bo'yicha belgilash mumkin. Mahsulot sifat parametrlarini xisobga olgan xolda sifatini o'zgarishi bilan bog'liq harajatlarni o'zgarishini tahlil etish imkonini beruvchi usullardan biri indeks usuli deb ataladi. Ushbu o'rganilayotgan predmetga uni qo'llash qiyinligi shundaki, bunda har ikkala belgi ham son bilan ifodalanishi kerak. Sifat esa har doim ham son ahamiyatiga ega bo'lmaydi va so'z bilan tasvirlanishi mumkin, masalan: mahsulot yaroqli va sertifikatliyadan o'tmagan, texnik sharoitlarga aks xolda og'irlik bo'lib buyum konstruksiyasi elementlari, detallar, qismlar, buyumlar soni xizmat qilishi mumkin. Buyumning sifati va raqobatbardoshligini baholash uchun balli baholash usulini qo'llash mumkin. Shunga muvofiq buyumning har bir sifat parametriga bu parametrning buyum uchun ahamiyatini xisobga olgan xolda 5,10,100 balli shkalada ball qo'yiladi. Shundan so'ng buyumning o'rtacha bali belgilanadi, bu uning sifat darajasini ballarda harakterlaydi.

Buyumning bahosini o'rtacha ballga bo'lish bilan bitta o'rtacha ballning narxi xisoblanadi (P_δ):

$$P_\delta = \frac{P}{\delta} \quad (4)$$

Bu yerda P – buyumning bahosi;

δ – sifat parametrlarini xisobga olgan xolda buyumning o'rtacha bali.

Bunday xisob – kitoblarni buyumlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish yoki taklif etilayotgan sifatni takomillashtirish samaradorligi masalalarini yechishda taqqoslash tahlilida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Sifat parametrlariga texnik-iqtisodiy parametrlarni, estetik parametrlarni, organoleptik xususiyatlarni, modaga mos kelishi va shunga o'xshaganlar, yangi mahsulot bahosini xisoblashda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$R_n = \frac{R_b}{B_b} * B_n, \quad (5)$$

Bu yerda R_n – yangi mahsulotning bahosi, pul birligida.;

R_b – bazaviy mahsulotning bahosi, pul birligida.;

B_b – bazaviy mahsulotning sifat parametrlarini harakterlovchi ballar yig'indisi;

B_n – yangi mahsulotning sifat parametrlarini harakterlovchi ballar yig'indisi;

$\frac{R_b}{B_b}$ – bazaviy mahsulotning sifat parametrlarini harakterlovchi bitta ballning o'rtacha bahosi;

Aniq baholash usuli. Bu asosiy sifat parametrining kuch, samaradorlik va boshqalar bilan birga, birlik qiymatini hisoblash asosida baholashdan iborat. Xisob uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$R_n = P_n * \frac{R_b}{P_b}, \quad (6)$$

Bu yerda P_n – asosiy mahsulot sifat parametrining ballardagi qiymati;

$\frac{R_b}{P_b}$ – mahsulot asosiy sifat parametrining birlik qiymati, biliklari.

Xulosa

Amaliyotda buyumni tanlab, uni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalasini yechish uchun loyixaviy tahlilning barcha turlari: kommersiyalik, texnik, tashkiliy, ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy o'tkazilishi kerak, buning uchun har bir aniq vaziyatda barcha usullarni qo'llash zarur. Faqat shunday tahlilgina to'liq deb xisoblanishi mumkin va boshqaruv yechimini qabul qilish uchun ob'ektiv natijalarni berishi mumkin. Shundan qilib, sifat harajatlarining tahlili-boshqaruvning kuchli instrumentidir, jumladan u kompaniya raxbariyati tomonidan erishilgan sifatni o'lchash va sifatga erishish maqsadlarini o'rnatishda muammolarni topish. Misol tarikasida «OOO» AJ da sifat jarajatlarni baholash tizimini kiritishda maqsadlar ruyxatini keltiramiz:

-sifat muammolari masshtabini yuqori raxbariyat tushunadigan tilda, pul tilida aniqlash. Bu sifat masalalari bo'yicha yuqori va o'rta darajadagi xodimlarni bir-birini tushunishini yaxshilaydi;

-harajatlarni kamaytirishning asosiy imkoniyatlarini aniqlash. Sifatning yomonligi tufayli harajatlar bir xil emas. Ular-aloxida aniq segmentlar yig'indisidir, ularning har biri qandaydir ma'lum sababni poylab boradi. Bu segmentlar kattaligi bo'yicha teng emaslar, va faqat ulardan ba'zi birlari harajatlar yig'indisida ancha katta ulushni tashkil etadi. Yomon sifatga harajatlarni baholashning asosiy qo'shimcha mahsuloti – bunday segmentlarni aniqlashdir;

-buyurtmachining qoniqmasligini kamaytirish imkoniyatlarini izlash va bu bilan bog'liq bo'lgan mahsulot sotilishiga bo'lgan xavfni ham kamaytirish. Yomon sifat harajatlarining bir qismi -mahsulot sotilgandan so'ng uni qaytarib berish natijasidir. Albatta, bu harajatlar tayyorlovchi tomonidan kafolatli o'tkazmalar, reklamatsiyalarni xisoblash va boshqa shakllarda to'lanadi. Tayyorlovchi tomonidan bunday harajatlar to'lanish yoki to'lanmasligidan qat'iy nazar, bunday qaytarib berishlar, to'xtashlar va buyumning ishlash qobiliyatining boshqa shakllarining buzilishi oqibatida tayyorlovchi uchun mahsulotning bahosini oshiradi;

-byudjetli va qiymatli regulyatorlarni kengaytirish. "OOO" AJ da struktura bo'linmalarida moliyaviy richaglar qo'llanilgan. Natijada byudjet va qiymatli richaglar o'z ichiga oladi, masalan, texnik nazorat va sinov harajatlarini, chunki bu harajatlar hamma tan olgan texnik nazorat bo'limi zimmasiga tushadi. Biroq, bunday harajatlarning, masalan, ishlatilish vaqtida sinish, qayta o'zgartirish, ishlamay qolishlarning moliyaviy regulyatorlari ushbu korxonada mavjud emas. Shu sababli sifat harajatlarini baholashning maqsadlaridan biri bo'lib byudjet va qiymat regulyatorlari imkoniyatlarini kengaytirish bo'lib qoladi, bo'limlararo yomon sifat harajatlarini qamrab olish uchun. Mahsulot sifatiga harajatlarni baholash ishlarini muvofiqlashtirishni sifat bo'limi zimmasiga yuklash maqsadga muvofiqdir.

REFERENCES

1. Никифоров, А. Д. Управление качеством [Текст] / А. Д. Никифорова - Москва: Дрофа, 2015. – 720 с.

2. Радионов, В. В. Управление качеством [Текст] / В. В. Радионов // Новосибир. Гос. Акад. Экономики и управления. – Новосибирск. 2015. – 44 с
3. Гличев, А. В. Современное представление о механизме управления качеством продукции [Текст] / А. В. Гличев // Стандарты и качество. - 2014. - №3. – С45-46.
4. Галлеев, В. И., Варгина, М. К. Управление качеством: проблемы, перспективы [Текст] / В. И. Галева, М. К. Варгина // Сертификация. - 2013. - №4. – С. 11-13.
5. Гличев, А. В. Очерки по экономике и организации управления качеством продукции [Текст] / А. В. Гличев // Стандарты и качество. - 2015.-№4.- С. 50-53.
6. Dilmurod Khakimov, Nilufarkhan Nosirova Analysis of the possibility of production processes based on modern methods. E3S Web of Conf. 376 02016 (2023). DOI: 10.1051/e3sconf/202337602016
7. Юлдашев А. Х. и др. Управление качеством в метрологической деятельности //Точная наука. – 2018. – №. 27. – С. 13-21.
8. Khakimov D. V., Turgunov B. M., Muminov N. S. Development, Provision And Management Of Product Quality In Jsc «Jizzakh Battery Factory» //Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent. – 2018. – Т. 8. – №. 2. – С. 112-116.
9. Turgunov B. M. et al. Principles of assessment and management of quality systems in industrial enterprises //Точная наука. – 2019. – №. 44. – С. 5-14.
10. Хакимов Д. В., Махмудова С. Х. Разработка системы менеджмента качества на промышленном предприятии //Точная наука,(64). – 2019. – С. 22-26.
11. Hakimov D. V. et al. Product Quality Control at Engineering Enterprises //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 12843-12848.
12. ХАКИМОВ, D., МУМИНОВ, N., ЖАРҚИНБОВ, S., & Абдумалик, О. К. (2022). “Measurement system analysis” metodi asosida o‘lchash jarayonlarining ishonchliligini tahlil qilish.
13. Хакимов Д. В., Умаров А. К. УПРАВЛЕНИЕ РИСКАМИ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ //Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 2. – С. 52-66.
14. Хакимов Д. В. У., Мамажонов А. А., Саттаров М. О. Управление внутренним аудитом в соответствии с международными стандартами //Universum: экономика и юриспруденция. – 2020. – №. 4 (69). – С. 4-12.
15. Мамажонов А. А., Хакимов Д. В. У., Туйчиев А. Т. Управление входным контролем компонентов //Universum: технические науки. – 2020. – №. 6-1 (75). – С. 69-73.

SIFAT MENEJMENTI TIZIMINING ISHLAB CHIQRARISH KORXONASI BOSHQARUV TIZIMIDAGI O'RNI

Xakimov Dilmurod Valijon o'g'li

Toshkent Davlat Agrar Universiteti, "Qishloq xo'jaligi maxsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish" kafedrası dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

dhakimov91@mail.ru

Rajabov Doniyorbek Baxtiyorovich

Toshkent Davlat Agrar Universiteti, "Qishloq xo'jaligi maxsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish" kafedrası talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8206236>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalarini boshqaruv tizimida sifat menejment tizimining o'rni, korxonani umumiy boshqaruv tizimidagi boshqa quyi tizimlari bilan bog'liqligi, tizimida yechiladigan vazifalar, mahsulotning o'ziga xos tomonlariga va ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelgan sifat tizimi bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Sifat, motivatsiya, quyi tizim, ijtimoiy –iqtisodiy, axborot, tajriba, muammo, korxonasi va x.k.

THE ROLE OF THE QUALITY MANAGEMENT SYSTEM IN THE PRODUCTION ENTERPRISE MANAGEMENT SYSTEM

Abstract. This article discusses the role of the quality management system in the management of production facilities, its relationship with other subsystems in the overall enterprise management system, problems that are solved in the system, as well as problems associated with product quality and production systems.

Keywords: Quality, motivation, subsystem, socio-economic, information, experience, problems, enterprise.

РОЛЬ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННЫМ ПРЕДПРИЯТИЕМ

Аннотация. В данной статье обсуждается роль системы управления качеством в управлении производственными мощностями, ее взаимосвязь с другими подсистемами в общей системе управления предприятием, проблемы, которые решаются в системе, а также проблемы, связанные с качеством продукции и производственными системами.

Ключевые слова: Качество, мотивация, подсистема, социально-экономические, информация, опыт, проблемы, предприятие.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sifat muammolariga juda katta e'tibor qaratiladi. Jiddiy raqobat rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega davlatlarda sifat darajasini yuqoriga ko'tarish dasturlarini ishlab chiqishni shart qilib qo'ydi. Ilmiy izlanishlarda va amaliyotda firmalarning zaruriy sifat harekteristikalarini bilan mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatlarini baholash uchun ob'ektiv ko'rsatkichlarni ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'ldi. Bu harakteristkalar mahsulotning muvofiqlik sertifikatini bilan tasdiqlanadi. Juda ham ko'p ishlab chiqaruvchi firmalar jaxon standartlariga mos keluvchi sifat tizimiga egadirlar. Hozirgi zamon sharoitida aynan sifat darajasi sertifikatini mahsulotni yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Iste'molchiga sifatli mahsulotni muvaffaqiyatli sotish har qanday korxonaning yashashi

